



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
**YOSHLAR
SIYOSATI VA SPORT
VAZIRLIGI**



**YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI**



**YANGI O'ZBEKISTONDA
YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI
AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI:
MAVJUD VAZIYAT VA
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

TO'PLAMI



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Yoshlar siyosati va sport vazirligi

Yoshlar ishlari agentligi

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni
tayyorlash instituti

“YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT
SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI:
MAVJUD VAZIYAT VA
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”

mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MAQOLALAR

TO'PLAMI

Toshkent – 2023

Mas'ul muharrirlar: Q.Quranbayev, A.Sa'dullayev, A.Jalilov

“Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalar to'plami / Tuzuvchilar jamoasi. – T.: 2023, – 442 b.

Tahrir hay'ati: A.Yunusov, Z.Luxmanova, A.Kaxxorov, N.Norkulova, B.Qurbonov, I.Tadjiddinov, T.Sirojiddinov, S.Diyorov.

Mazkur to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2023-yil 17-maydagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'RQ-406-son O'zbekiston Respublikasi qonunini takomillashtirish to'g'risida”gi 1-son majlis bayonining 8-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti bilan xamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan vazirlik, idoralar, ijro hokimiyati organlari, shuningdek boshqa manfaatdor tuzilmalar hamda olimlar tomonidan O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 23-iyunda o'tkazilgan “Yangi O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarini o'z ichiga olgan.

Ushbu konferensiyada ko'tarilgan ma'ruzalar hamda mazkur to'plam O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son Prezident qarori ijrosini ta'minlash, yoshlar bilan ishlashning “mahallabay” tizimi, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalash, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash yo'nalishdagi muammo va yechimlarini holati, mavjud masalalar hamda istiqboldagi rejalar borasida yangi bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish, tajriba almashishga xizmat qiladi. To'plamda keltirilgan statistik ma'lumotlar va ko'rsatkichlarning to'g'riligiga mualliflar javobgar hisoblanadi.

Taqrizchilar:

s.f.d. F.Jo'raqulov

s.f.f.d. (PhD) A.Xolmaxmatov

© O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, 2023 y

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Ёшларга оид давлат сиёсати: ёшлар билан индивидуал ишлаш тизимини ташкил этиш Қаҳрамон ҚУРАНБАЕВ. | 11 |
| Замонавий ёшлар ҳаётида спорт ва жисмоний маданиятнинг ўрни Адхам ИКРАМОВ | 15 |
| Ёшлар билан ишлашнинг янги механизмлари Алишер САЪДУЛЛАЕВ | 19 |
| I. YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING YANGI MEKANIZMLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA | |
| Замонавий ислохотлар шароитида ёшлар манфаатларининг акс этиши Насиба ТУРГУНОВА | 23 |
| Развитие молодежной политики: национальная практика Узбекистана Шахриер НУРУЛЛОЕВ | 29 |
| Молодёжная политика в Узбекистане Мизроб ХУСАНОВ..... | 33 |
| Ёшларга оид давлат сиёсатининг мазмуни, мақсади ва вазифалари Баҳромжон ИЛҲОМЖОНОВ | 37 |
| Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari Umidjon XUDOYOROV..... | 42 |
| Ўзбекистон ёшлари ва халқаро индекслар Искандар ТАДЖИДИНОВ | 46 |
| Yoshlar hayotiga oid siyosatda xorij tajribalarining o'rni Solihabonu NORMATOVA Shohsanam SHUKUROVA..... | 50 |
| Yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirishda qizlar ta'limi va uning ahamiyati Istora JO'RAYEVA..... | 53 |
| Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда амалга оширилаётган ишлар ва хорижий тажрибалар Гуласал ОДИЛЖАНОВА | 56 |
| Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmi va xorijiy tajribadan foydalanish Guljaxon MAKHMUDOVA Azizbek SAFAROV | 60 |
| Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari Abdusattar ABDUG'AFFAROV | 64 |

| | |
|--|-----|
| Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yangi bosqichda Mansurbek TO'XSANOV | 68 |
| Tashabbusli budjetlashtirish jarayonida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash istiqbollari Shoira MIRZOXIDOVA | 72 |
| Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи нодавлат нотижорат ташкилотлари Бахромжон ИЛҲОМЖОНОВ | 75 |
| Ёшларга оид давлат сиёсатини ҳаётга татбиқ этишда нодавлат нотижорат ташкилотларининг ўрни Мардонбек ЭШҚУЛОВ..... | 80 |
| Молодежь: возрастные границы Зарина ЛУХМАНОВА Наргиза УМАРОВА | 83 |
| Davlat boshqaruvida oliy ta'limning o'rni Sardorbek DIYOROV | 90 |
| New mechanisms for implementing state policy on youth: national and foreign experiences Boburshokh YOLDASHALIEV | 93 |
| Ёшлар сиёсатини амалга оширишда маъмурий бошқарувнинг тадрижий ривожланиши Эльёрбек ОТАЖОНОВ | 97 |
| Yangi O'zbekiston yoshlar mamlakati Dilmurod BOBOBEKOV Sherzod YO'LDOSHEV | 101 |
| II. YOSHLARGA MUNOSIB MEHNAT SHAROITLARINI YARATISH, ULARNING IQTISODIY HUQUQ VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH | |
| Yoshlar muammolarini klassifikatsiyalash Akmal SHUKUROV | 105 |
| Роль социального предпринимательства в усовершенствование социальной политики по поддержке молодежи Умида ЙУЛДОШЕВА | 109 |
| Ўзбекистон ёшларини давлат бошқарувида иштироки: социологик таҳлил Азаматжон ХУДАЙНАЗАРОВ..... | 112 |
| Қамбағалликни қисқартиришда инсон капиталининг аҳамияти Зафар ХУЖАНОВ | 120 |

| | |
|--|-----|
| Туризм индустриясида ёшлар тадбиркорлигини рағбатлантиришнинг ташкилий жиҳатлари Сирожиддин ХАЛИЛОВ | 124 |
| Geologiya sohasida yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar tarixi zarvaraqalariga oltin harflar bilan muhrlanmoqda Mirhomid MIRAKBAROV Murodilla XAYDAROV | 127 |
| Yangi O'zbekiston yoshlari va ularga yaratilgan imkoniyatlar Sherzod YO'LDOSHEV | 131 |
| Ёшларни миллий қадриятлар асосида тарбиялашда нилуфар пазира ижодининг аҳамияти Шахноза БЕГИМҚУЛОВА Диёрбек АБДУСАТТОРОВ | 135 |
| Дети группы риска как объект педагогической работы в школе Нодира ИСРАИЛОВА | 138 |
| Имконияти чекланган ёшларни касбга ўргатиш муаммолари ва ечимлари Лола МУМИНОВА..... | 146 |
| Имконияти чекланган ёшларни ижтимоий реабилитацияси ва мослашувида инклюзив таълимнинг ва ўқитувчи компетентлигининг ўрни Хури КАЛБАЕВА | 152 |
| Проблемы социальной адаптации молодежи с расстройством аутистического спектра Меҳрибон МУСАЕВА..... | 159 |
| Yetim bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimining institutsional asoslari Xurshida BO'TAYEVA | 163 |
| The importance of research and economics literacy for boosting the potential of youth in Uzbekistan Dr. Nargiza ALIMUKHAMEDOVA | 168 |
| Образование как потенциал личностного роста Элеонора МИРЗАЖОНОВА..... | 172 |
| Art terapiya asosida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini faollashtirish Dilnoza KAYUMOVA | 176 |
| III. YOSHLARNI UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT, VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASH | |

| | |
|--|-----|
| “Ustoz-shogird” an’analari va unga tarixiy va zamonaviy qarashlar Nuriddin RUZIYEV | 181 |
| Жамиятнинг трансформациялашув жараёнида ёшлар маънавий қиёфасини шакллантиришга таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар Наргиза НОРКУЛОВА | 185 |
| Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ҳамда ҳарбий ислохотлар тарғиботида телекурсувларнинг аҳамияти Шунқор БҮРИЕВ | 190 |
| Jadidlarning xalq ta’limini isloh qilish va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash yo’lida olib borgan harakatlari Alisher NAZAROV | 194 |
| Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda musiqaning o’rni Nasibaxon IBROHIMOVA | 198 |
| Qadriyatlar tarannumi aks etgan muzeylar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish Dilshoda MUSAYEVA Narimon DEHKANOV | 201 |
| Milliy qadriyatlar va an’analarning yosh avlod tarbiyasida tutgan muhim o’rni Sevinch QURBONOVA Shohsanam SHUKUROVA | 213 |
| Yoshlar tarbiyasida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o’rni Ruxshona TOSHEVA Aziza TALIBJANOVA | 216 |
| Yangi O‘zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari Murodjon ESHBEKOV Iroda SAIDMURATOVA | 220 |
| Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda “o’tkan kunlar” romanining o’rni Zarina SUYUNOVA | 223 |
| Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash Barchinoy SUYUNOVA | 227 |
| Инклюзия асосида таълим олаётган алоҳида эҳтиёжга эга бўлган ёшлар ва ота-оналар муносабатларидаги муаммоларнинг назарий ва амалий ечимлари Гулбаҳор ШАРИПОВА | 231 |

| | |
|---|-----|
| Ўқувчи ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ватанга садоқат руҳида тарбиялаш Янги Ўзбекистон жамиятининг муҳим шarti сифатида Норқобил ҚУЛМАТОВ..... | 237 |
| Копинг-поведение у молодежи в процессе цифровой трансформации в системе образования Гулрух АСКАРОВА..... | 241 |
| Ёш раҳбар ходимларни умуминсоний ва миллий қадриятларга руҳида тарбиялаш Лазиз ТУРАЕВ..... | 245 |
| Янги Ўзбекистонда ёш раҳбар кадрларни бошқарув салоҳиятини ривожлантиришда тренинг таълим технологиясининг ўрни Назира ТУРАЕВА..... | 251 |
| Замонавий кадрлар тайёрлаш сиёсатининг ҳуқуқий ва маънавий асослари Алишер РАВШАНОВ..... | 256 |
| Milliy an'analar, urf-odatlarini bilish va hurmat qilish - asosiy burchimiz Ozoda ABDUGAFFAROVA..... | 260 |
| Yangi O'zbekistonda yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri Shahnoza ORIPOVA..... | 264 |
| Information consumption culture in students Bekzod KHAITOV..... | 267 |
| Umumta'lim maktablarida media ta'limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'рни: xalqaro va milliy tajriba Shaxnoza TAYLAKOVA..... | 271 |
| Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ҳарбий нашрлар ва виртуал платформаларнинг роли Дилшод РЎЗИҚУЛОВ..... | 277 |
| Yangi O'zbekistonda ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalari Ulug'bek O'RINBOYEV..... | 280 |
| Badiiy kulolchilik mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari va usullari Jahongir BEGIJONOV..... | 284 |
| O'zbekistonda gender tenglik Nazokat XUDOYQULOVA..... | 291 |

Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda nodavlat-notijorat tashkilotlarning o'рни
Elyor G'OIYBOV297

IV. YOSH KADRLARNI TAYYORLASHDA YANGICHA YONDASHUVLAR: GLOBAL TENDENSIYA VA MILLIY AN'ANALAR

Yosh kadrlarni tayyorlashda global tendensiyalar va milliy yondashuvlar: qarashlar va imkoniyatlar
Bahodir ILXOMOV 301

Давлат фуқаролик хизматини ёш кадрлар билан таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмлари
Дилмуроджон РАХИМОВ 305

Сиёсий лидерликни тадқиқ этишнинг айрим назарий хусусиятлари
Камол МАХМУДОВ 309

Organization of new personnel in the Republic of Uzbekistan
Shaxzoda ZAYNUTDINOVA
Gulnoza MASUDOVA..... 316

Талаба ёшларда лидерлик кўникма ва малакаларини шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг аҳамияти
Камол МАХМУДОВ 319

Yosh kadrlarni tayyorlash va kadrlar zaxirasini shakllantirish usullari
Ozoda ABDUG'AFFAROVA
Abdusattar ABDUG'AFFAROV 327

Developing young professionals' soft skills: the global relevance
Nargizakhon VALIEVA
Zafar ABDUSAMADOV 331

Yoshlar kasbiy raqobatbardoshligini oshirishga doir sotsiologik yondashuvlar
Nilufar NAZAROVA 335

Arts and culture management (management arts) scientific approaches and its modern classification
Odiljon TOPILDIYEV
Jakhongir MAKHMUDOV 338

Ta'lim tizimida samaradorlikni oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'рни va ahamiyati
Azizaxon NURIDDINOVA..... 342

Pedagogical factors for the development of professional competence of students
Gozzal GUBENOVA..... 344

| | |
|---|-----|
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'quv motivatsiyasi muammosining dolzarbligi va ilmiy o'rganilishi darajasi O'tkirkbek ARZIQULOV | 348 |
| O'smirlar sotsial intellekti muammosi va uni psixologiyada o'rganilishi Akromxon ORIFOV | 355 |
| Modern ideas on organizational and management skills of master's students in socio-cultural activity Gulsanam KHASANOVA | 359 |
| Zamonaviy mehnat bozorida yosh mutaxassislarni masofaviy ish bilan ta'minlash va munosib mehnat sharoitlarini yaratish mexanizmlari Samad TOLLIBOYEV | 363 |
| Digitization of the teaching system of specialized subjects in technical universities and use of innovative technologies Saidakhon ATAJONOVA..... | 368 |
| Ёшларда тадбиркорлик маданиятини шакллантиришда масофадан ўқитиш тизимининг ўрни Жавоҳир ХАЙДАРОВ | 374 |
| Relationship between english learning and stem learning Odina AHMADJONOVA..... | 379 |
| Bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari Marjona UZOQOVA Zafar ABDUSAMADOV | 383 |
| Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'rni Xilolaxon SAIDOVA | 387 |
| Yosh kadrlarni tayyorlashda yangicha yondashuv Daler XALIMOV | 391 |
| Yosh kadrlarni tayyorlashda samarali uslublar Muslimaxon NEMATULLAYEVA Shohsanam SHUKUROVA..... | 393 |
| Youth contribute to the development of world civilization with their high level of intelligence Mokhinur SOTVOLDIEVA..... | 396 |
| Yosh avlodda nutq rivojlanishing psixologik mohiyati Erkin ISMOILOV Ilyos BO'RIYEV Madibraimov XOLMAMAT | 400 |

V. YOSHLARNING BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH VA SPORTNI OMMALASHTIRISH

| | |
|--|-----|
| Yoshlardagi bo'sh vaqt shaxsiy rivojlanish imkoniyati sifatida Nigora SHOMURODOVA | 404 |
| O'zbekiston kelajagi-yoshlar qo'lida! "Besh tashabbus" yoshlarga qanoat! Ziyoda NURILLAYEVA Shohsanam SHUKUROVA | 408 |
| Piyoda yurish sayohatlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari Mironshoh IDRISOV | 413 |
| Женщина и спорт: социальный аспект Нилуфар МИРДЖАМАЛОВА | 417 |
| Bolalarning jismoniy tayyorgarligi vositalari va usullarini aniqlash uchun tasdiqlovchi tadqiqotni tashkillashtirish Dilnoza SHOYMARDONOVA | 421 |
| Yengil atletika sport turida tayyorgarlik usullari Zafar XUDAYKULOV | 425 |
| Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малакали кадрлар тайёрлаш tizimini такомиллаштириш Н.Р. САИДОВА Р.Т. КАЗОҚОВ А.А. АМАНЖОЛОВА М.У. ФАЙБУЛЛАЕВА | 429 |
| Yoshlar va futbol Akmaljon TURAQULOV | 433 |
| Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sportni ommalashtirish Mexrinoz SAYFUTDINOVA Muqimjon AXUNOV | 437 |

Ёшларга оид давлат сиёсати: ёшлар билан индивидуал ишлаш тизимини ташкил этиш

Қаҳрамон ҚУРАНБАЕВ

*Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси,
Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш масалаларини
мувофиқлаштириш бўйича Республика комиссияси раиси,
сиёсий фанлар доктори, профессор*

Мамлакатимизда охириги йилларда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг ҳаётга мустақил қадам қўйишлари учун барча зарур шароитларни яратиш, ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш каби муҳим масалалар давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бирига айланиб бормоқда.

Мамлакатимизда 2021 йилдан бошлаб, ёшлар билан ишлашнинг янгича “маҳаллабай” ишлаш тизими жорий қилинди. Ўтган қисқа давр ичида мазкур тизим орқали ёшларнинг кўплаб муаммолари ҳал қилинди, ушбу муаммоларни бевосита маҳалланинг ўзида ҳал қилиш учун 9 400 та маҳалла фуқаролар йиғинларида “Ёшлар етакчиси” лавозими жорий қилинди.

2023 йилдан бошлаб, ёшлар билан ишлаш тизимида амалга оширилаётган ишлар янада кенгайтирилиб, индивидуал ишлаш йўлга қўйилди.

Бугунги кунда Ўзбекистонда 9 млн.дан ортиқ 14-30 ёшдаги фуқаролар мавжуд бўлиб, уларнинг 4,4 млн.ни яхши ўқиётган, тадбиркорлигини йўлга қўйган, расмий секторда ишлайдиган, қобилияти бор, ижтимоий фаол бўлган ёшлар ташкил қилади. 4,6 млн. ёшлар эса, турмуш тақозоси билан расмий сектордан иш топа олмаган, лекин иқтисодий фаол ёшлардан иборат. Шунингдек, 396 минг нафар ёшлар “аҳволи оғир”, давлатнинг ғамхўрлиги ва эътиборини кутаётган ҳамда кўмакка муҳтожлардир.

2023 йил 11 апрель куни ўтказилган видеоселектор йиғилишида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев ёшлар билан ишлаш тизимини янги босқичга кўтариш ҳақида гапириб, улар билан ишлаш борасида бир қатор янги ташаббусларни илгари сурдилар.

Ёшлар билан ишлаш тизимини ташкил этишда индивидуал ёндашув, аниқ белгиланган чора-тадбирлар ва режаларнинг мавжудлиги

уларнинг жамиятда ўз ўрнини топиши ҳамда ижтимоийлашувида муҳим ўрин тутди.

Зеро, ушбу механизмларнинг амалда жорий этилганлиги ўсиб келаётган ёш авлоднинг индивидуал, психологик ва бошқа ижтимоий-иқтисодий муаммоларини манзилли ҳал этиш имкони билан бир қаторда, энг асосийси мамлакат барқарорлигини таъминлашнинг муҳим шarti ва кафолати ҳисобланади. Шундан келиб чиққан ҳолда, энди ёшлар билан ишлаш бўйича мутлақо янги тизим жорий қилинади.

Азиз дўстлар!

Охирги йилларда мамлакатимизда ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ҳал этиш тизими ҳисобланган “Ёшлар дафтари” кўмакка муҳтож ёшларнинг маиший ҳаётини яхшилаш орқали ижтимоий кайфиятини барқарорлаштириш ва келажакка ишончини ортишида муҳим ўрин тутди. Мазкур ислоҳот ва чораларнинг узвий давоми сифатида “Ёшлар дафтари” тизимини янада такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Жумладан, эндиликда жамғарма ёшларни кўпроқ касбга, тадбиркорликка ўргатиб, бандлигини таъминлашга хизмат қилади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда энди, янги механизмлар жорий қилинади:

1) ёшларга касбга ўқиш, меҳнат қуроли, уруғ-кўчатга субсидия каби турдош хизматлардан бир вақтнинг ўзида фойдаланиш имконияти яратилади.

2) Уруғ ва кўчат учун 2,5 миллион сўм ўша ҳудуддаги уруғ-кўчат хўжаликларидан сотиб олиш учун тўғридан-тўғри берилади.

3) “Ёшлар дафтари” билан ишлашда ёшларни анимация, дизайн, логистика оператори, гид каби замонавий касбларга ўқитишга ҳам алоҳида эътибор қаратилади.

Бу тизим билан мактабларнинг 10-11-синф ўқувчилари ҳам қамраб олинади.

4) Бундан буён “Ёшлар дафтари” жамғармалари маблағининг камида 40 фоизи айнан касб-ҳунарга ўқитишга йўналтирилади.

5) Жорий йилда замонавий касбларга ўқитиш учун, 100 миллиард сўм ажратилади ва камида 25 минг нафар ёшлар ўқитилади.

Бугунги кунда мамлакатда ёшлар бандлигини таъминлашга қаратилган бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Шунга қарамадан, мутасаддиларнинг мазкур масалага етарлича эътибор

қаратмаётганлиги, сақланиб қолаётган ташкилий муаммолар сабабли жойларда ўрта махсус ва олий таълим муассасалари битирувчиларини ишга жойлаштиришда қатор муаммолар сақланиб қолмоқда:

➤ 2022 йилда 11та давлат олийгоҳининг 11 мингдан зиёд битирувчиларидан 6,5 минг нафари ишга жойлашмаган.

➤ 3 минг нафар грантда ўқиган талаба (*жами грантларнинг 15 фоизи*) ишга кирмаган.

➤ 143 минг нафар коллеж ва техникумларни битирган ёшларнинг 30 минг нафари иш топа олмаган.

Ҳозирда 103 мингдан ортиқ ташкилотларда 254 минг бўш иш ўрни бор, шундан 86 мингтаси давлат ташкилотларига, 168 мингтаси хусусий секторга тўғри келади.

Ёшлар билан ишлаш ҳаёт-мамот масаласидир. Шунинг учун мамлакатимизда ёшларни баркамол этиб тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Фарзандларимизни бугунги таҳликали даврда турли ёт ғоялар таъсиридан ҳимоялаш, ёшларнинг фикрларини бировлар эгалламасдан туриб, уларга ўзимиз ғамхўрлик ва тўғри йўл кўрсатишимиз зарур.

“Ҳар-бир миллатнинг саодати ёшларнинг яхши тарбиясига боғлиқдир” деган эди Абдулла Авлоний. Дарҳақиқат, ёшлар билан ишлашда улар учун қизиқарли тарғибот шаклларида кенгроқ фойдаланиш, асосий фаолиятни Интернет платформаси ёки ижтимоий тармоқлар орқали лойиҳалар ташкил этишга йўналтириш лозим.

Ҳозирги кунда “Телеграм” тармоғидан 31 миллион аҳолимиз фойдаланмоқда. Бу эса, ўз навбатида ёшлар тарбиясига салбий таъсир қилмоқда.

Шунинг учун, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш борасида: хусусий сектор ва хорижий контентлар билан рақобат қила оладиган савиядаги бадиий асарлар, мультфильм, сериал ва кинолар, саҳна асарлари яратилади;

оддий оила фарзанди бўлган иқтидорли спортчилар, ёш тадбиркорлар ва таълимда катта ютуқларга эришган ёшларнинг “муваффақият йўли”ни кино қилиб кўрсатилади;

ёшларни мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш, уларга соғлом фикр ва мотивация беришга қаратилган контентлар сони кўпайтирилади;

ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашга ихтисослашган алоҳида телекўрсатувлар ташкил қилинади;

Маънавият ва маърифат маркази фаолиятини такомиллаштирилади;

Россия, Туркия ва Қозоғистон каби ёшларимиз кўп бўлган давлатларда алоҳида “ёшлар баланси”ни шакллантириш, бунинг асосида хориждаги ёшларга кўмак бериш бўйича алоҳида дастур ишлаб чиқилади.

Ёшлар масаласидаги олдимизга қўйилган вазифаларни ўз вақтида, сифатли бажариш орқали ислохотлар самарадорлиги натижасини ҳар бир ёшнинг ҳаётида кўрсатишимиз мумкин бўлади. Бу билан ёшларнинг давлатимиз томонидан қилинаётган ғамхўрликларни ҳис қилишига ва фаол ҳаётга кириб боришига эришамиз.

Хурматли йиғилиш қатнашчилари!

Ишончим комилки, белгиланган вазифаларни биргаликда, мавжуд барча имкониятларимизни сафарбар қилган ҳолда бажариб, ёшларимизнинг талаб ва эҳтиёжлари, уларни қийнаётган муаммоларини ҳал этишда жонбозлик кўрсатамиз. Зеро, ёшлар билан ишлаш борасида белгилаб берилган вазифаларнинг ўз вақтида ва сифатли бажарилиши ёшларнинг давлатимиз томонидан қилинаётган ғамхўрликларни ҳис қилишига ва фаол ҳаётга кириб боришида муҳим аҳамият касб этади.

Замонавий ёшлар ҳаётида спорт ва жисмоний маданиятнинг ўрни

Адхам ИКРАМОВ
Ўзбекистон Республикаси
Ёшлар сиёсати ва спорт вазир

Мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш ижтимоий сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири этиб белгиланган. Чунки спорт аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, ёш авлодни соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш орқали жамиятда соғлом турмуш тарзини қарор топтиради. Турли касалликлар, ёшлар ўртасида зарарли одатларнинг олдини олади. Спорт юксак маданият, ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда ҳам муҳим ўрин тутади. Мустақиллик йилларида бу борада кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Аҳолининг, айниқса, ёш авлоднинг жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиши учун зарур шароитлар яратилди. Худудларимизда минглаб спорт иншоотлари ва мажмуалари, ўйингоҳлар бунёд этилди ҳамда реконструкция қилинди.

Жисмоний маданият шахсни комплекс шакллантириш тизимининг узвий қисмидир. Ўсиб келаётган ёш авлоднинг соғлиги ҳақида ғамхўрлик, уларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, жисмоний маданият ва спорт билан мунтазам, мустақил шуғулланиш кўникмаларини сингдириш тарбиявий жараённинг ажралмас қисми ҳисобланади. Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёевнинг ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5та муҳим ташаббусни илгари суриши бежиз эмас. Хусусан, *иккинчи ташаббус ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган.*

Маҳаллаларда ёшлар ўртасида оммавий спорт мусобақаларини тизимли ташкил этиш орқали соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб қилиш, уларни оммавий спортга жалб этишни янги босқичга олиб чиқиш ҳамда 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси 67-мақсадида белгиланган вазифаларнинг ижросини таъминлаш.

Шу билан биргаликда Ўзбекистон Республикаси худудларида жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш,

аҳолининг барча қатламлари, айниқса, ёшларни жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб этиш, мамлакатимизда бу борада яратилган шароитлардан самарали фойдаланиш натижадорлигини ошириш мақсадида:

Яқинда 100 минг нафар ёшлар ўртасида ўтказилган сўровномада:

- 48 фоиз ёшлар *футбол, волейбол, стол тенниси ва бадминтон* каби спорт турлари билан шуғулланишга қизиқиши бўлсада, бунга маҳалласида шароит йўқлигини билдирган;

- 40 фоизи бўш вақтини киберспорт ўйинлари билан ўтказишини маълум қилган;

Таҳлилга кўра эса, киберспорт билан 1 миллиондан ортиқ ёшлар шуғулланмоқда.

- 37 фоиз ёшлар китобхонлик, 21 фоизи мусиқа, рақс, караоке, театр ва кино бўйича инфратузилмага эҳтиёж борлигини айтган;

- чекка туманлардаги ёшларнинг 26 фоизи оилавий айланиш учун хиёбон ва сайилгоҳлар ташкил этилишини сўраган.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда вилоят марказларида, кейинчалик туманларда кеча-ю кундуз ишлайдиган “Ёшлар сайилгоҳлари” ташкил этилади.

Бунда ҳар куни бу жойларда киберспорт, спорт ва интеллектуал ўйингоҳлар, караоке клублари, театр, мода подиумлари, “бук кафе”, коворкинглар ва бошқа кўнгилочар тадбирлари ўтказилади.

Ойма-ой ҳар бир олийгоҳга кунлик ўтказиладиган спорт ва маданият тадбирларига масъуллар белгиланиб, камида 50 фоиз талабаларни жалб қилиш бўйича иш режаси тасдиқлаб берилади ва ижроси назорат қилинади. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш дастури ишлаб чиқилди.

Ёшларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларнинг ахборот технологиялари бўйича саводхонлигини ошириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлаш вазифаларини ўз ичига олган “бешта муҳим ташаббус” амалга оширилмоқда. Бу орқали давлатимиз раҳбари “Ёшларимизни маънавий баркамол қилиб тарбиялаш, уларни турли зарарли ва ёт ғоялар таъсиридан асрашга алоҳида эътибор қаратиш лозимлиги” ни таъкидлаб ўтди. Қайд этиш керакки, бу каби ишлар ёшлар сиёсати соҳасида янгича механизмлар сирасига кириб, уларни

санъат, муסיқа ва спортга жалб қилиш борасида катта тарбиявий аҳамиятга эгадир.

Мамлакатимизнинг барча ҳудудларида оммавий спортнинг инсон ва оила ҳаётидаги муҳим аҳамияти, унинг жисмоний ва маънавий соғломликнинг асоси эканини тарғиб-ташвиқ қилиш, ҳаётга катта умид билан кириб келаётган ёшларни зарарли одатлардан асраш, уларга ўз қобилият ва истеъдодларини рўёбга чиқаришлари учун зарур шарт-шароитлар яратиш, улар орасидан иқтидорли спортчиларни саралаб олиш ҳамда мақсадли тайёрлаш тизимини такомиллаштириш борасида муҳим ва долзарб вазифалар амалга оширилмоқда.

Республикамизда илм-фан тобора ривож топиб бормоқда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳаси мутахассислари фаолияти ҳам кундан кунга салмоқли бўлаётганлиги барчамизга маълум. Хусусан, болалар жисмоний тарбияси, хотин-қизлар спорти, ногиронлар спорти каби йўналишларда қатор олимларимиз изланишлар олиб бормоқдалар. Фикримизча, бу каби мутахассислар фаолиятини мувофиқлаштириш, уларнинг ижодий изланишлари натижаларидан самарали фойдаланиш оилаларда жисмоний маданиятни янада кенг шакллантиришга замин бўлади. Жисмоний тарбия ва спорт инсон ҳаётининг барча босқичларида соғлиқ ва фаол ҳаёт тарзини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга эканлиги таъкидлаб келинган.

Албатта, жисмоний тарбия турли спорт мактаблари ва бошқа хизмат кўрсатувчи клублар билан ўзаро алоқаларни йўлга қуйишда ҳаётнинг барча жараёнларида муҳим аҳамият касб этган бўлса, спорт айнан соғлиқни сақлаш ҳамда спорт таълими натижаларини қўлга киритишда ва инсоннинг ижтимоий ва шахсий ривожланишида катта аҳамиятга эгадир.

Президентимизнинг 19 январь 2022 йилдаги “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилиниб, ёшлар билан ишлашнинг янгича бошқарув механизмларини жорий этиш, улар билан ишлашнинг вертикал тизимини яратиш мақсадида ҳар бир шаҳарча, қишлоқ, овулда, шунингдек, шаҳарлар, шаҳарчалар, қишлоқлар ҳамда овуллардаги ҳар бир маҳаллада ёшлар етакчиси лавозими жорий этилди. Бу эса маҳаллалардаги ёшларнинг ҳар бир соҳада шунингдек спорт бўйича ҳам ўз иқтидорларини намоён қилишга ва қизиқишлари асносида юксак чўққиларни забт этишларига имконият яратди.

Бугунги кунда замонавий ёшлар ҳаётида спорт ва жисмоний маданиятнинг ўрни беқиёс эканлигини барчамиз тушуниб англаб турибмиз. Келажагимиз бўлган ёшларимизнинг бўш вақтларини тўғри ташкил этиш ва уларнинг иқтидори-қизиқишларини инобатга олган ҳолда ёндашсак ўйлайманки бу нафақат ёшлар учун балки юртимиз келажаги учун ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Ёшлар билан ишлашнинг янги механизмлари

Алишер САЪДУЛЛАЕВ
*Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати
ва спорт вазирининг биринчи ўринбосари,
Ёшлар ишлари агентлиги директори*

Мамлакатимизда сўнгги йилларда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг ҳаётга мустақил қадам қўйишлари учун барча зарур шароитларни яратиш, ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш каби муҳим масалалар давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бирига айланиб бормоқда.

Бугунги кунда мамлакатимизда 30 ёшгача бўлган ёшлар 19 миллиондан ортиқ ёки аҳолининг 55 фоизини ташкил қилади. Меҳнат бозорига ҳар йили 600 минг ёшлар кириб келаётган бўлса, келгуси 10 йилда бу рақам бир миллионга етади.

2022 йилнинг ўзида ёшлар тадбиркорлиги учун 4 триллион сўм кредит берилиб, 150 мингта лойиҳа ишга туширилган, 325 мингта иш ўрни яратилган. 43 минг гектар экин майдони ажратилиб, 435 минг ёшлар бандлиги таъминланган. 32 мингдан зиёд ёшларга субсидия орқали асбоб-ускуна, меҳнат қуроллари ва компьютер олиб берилган.

Сўнгги йилларда ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича ҳам кўп ишлар қилинган. Жумладан, ўтган йили 130 минг талабага 1 триллион 700 миллиард сўм таълим кредити берилди, хотин-қизларнинг магистратурада ўқиши бепул бўлди. 53 минг нафар эҳтиёжманд талабага контракт пуллари, 15 мингдан зиёд ёшларга ҳарбий хизмат ва 13 минг нафарига чет тиллари бўйича имтиҳон харажатлари тўлаб берилди. 81 минг талабага уй-жой ижараси тўлови ажратилди. “Ёшлар дафтари” орқали 300 минг ёшларга қарийб 600 миллиард сўмлик ёрдам кўрсатилди. Аммо, бу борада долзарб масалалар ҳали ҳам кўп. Бугунги кунда юртимизда 722 минг нафар расман ишсиз ёшлар бор.

Энг аввало, ишсиз, норасмий секторда банд бўлган ва чет элга ишлагани кетган ёшлар масаласига алоҳида эътибор қаратилиши лозим.

Хусусан, ёшлар бандлигини таъминлаш учун, аввало, ишга қабул қилиш тизими бўйича бир қатор муаммолар мавжуд, мазкур тизимни қайта кўриб чиқиш керак бўляпти. Мисол учун, ҳозирда 103 мингдан ортиқ ташкилотларда 254 минг бўш иш ўрни бор. Лекин, ўтган йили

олий таълимни битирган 6 мингдан ортиқ, коллеж ва техникумни тамомлаган 30 минг нафар йигит-қиз иш топа олмаган.

Шу боис ёшларни касб-хунарга ўқитиш ва бандлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратиш талаб этади. Бу эса ислохотларни маҳаллабай ташкил этиш бўйича вертикал бошқарув тизими яратиш зауририятини келтириб чиқаради.

Сўнгги йилларда тизимда маҳалладаги ёшлар билан ишлаш борасида бир қатор ҳуқуқий-меъёрий ва ташкилий-услубий база яратилган бўлиб, бу амалиётда ўзи ифодасини топмоқда.

2023 йил 11 апрель куни ўтказилган видеоселектор йиғилишида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан ёшлар билан ишлаш тизимини янгича босқичга кўтариш ва улар билан ишлаш борасида бир қатор янги ташаббусларни илгари сурилди. Унга мувофиқ қизил ва сариқ тоифадаги ёшлар билан ишлашнинг янгича механизми таклиф этилди.

Соҳадаги ишларни янада аниқ ва манзилли ташкил этиш мақсадида 14 ёшдан 30 ёшгача бўлган 9 миллион нафар ўғил-қиз алоҳида эътиборга олинди. Бунда биринчи марта 25та вазирлик ва идора маълумотлари ўзаро уйғунлашган электрон база шакллантирилиб, барча ёшларнинг ижтимоий аҳволи, қобилияти ва қизиқишлари ўрганилиб, “маҳалладан вазирликкача” тизимида ишлаш чоралари белгилаб олинди.

Бунда, ҳар бир вазир, вазир ўринбосарлари, вилоят, туман ва шаҳар ҳокимлари, сектор раҳбарлари, олийгоҳ ректорлари, Миллий гвардия ва ҳарбий қисм командирларига бундай 50 нафардан эътиборга муҳтож ёшлар номма-ном бириктирилди.

“Ўрта” тоифадаги ёшлар билан ишлаш: “ўрта” тоифага кирган 4,6 миллион ёшларнинг аксариятини ишсизлар, норасмий секторда бандлар ва чет элга ишлагани кетганлар ташкил қилади; вилоят, туман ҳокимлари “ўрта” тоифадаги ёшларни ўз ҳудудларидаги масъул ташкилотларга бириктиради ҳамда бириктирилган масъулларнинг янгича ишлаш тизимини назорат қилиб боради.

Хусусан, сариқ тоифадаги ёшлар билан ишлашнинг асосий йўналиши сифатида: ишсиз ёшлар билан самарали ишлашни ташкил этиш, норасмий банд бўлган ва ишлаш имконияти йўқ ёшлар билан ишлаш, меҳнат қобилиятини йўқотган ва миграцияга кетган ёшлар билан ишлашнинг ташкилий масалалари белгилаб берилди.

Бунда ишсиз ёшлар, ишлаш имконияти йўқ ёшлар билан ишлаш, меҳнат қобилиятини йўқотган, миграцияга кетган ва қайтган ёшлар ўртасида самарали профилактик ишларни ташкил этиш ҳамда амалга ошириш, уларни бандлигини таъминлаш, касб-хунарга ўқитиш орқали ижтимоий ҳаётга мослаштириш, соғлом-турмуш тарзида ҳаёт кечиришига кўмаклашиш мақсадида масъул давлат органлари, ташкилотлар, таълим муассалари ҳамда жамоатчилик вакиллари томонидан профилактик ишларни ташкил этиш бўйича ҳаракатлар алгоритминини белгилаб беради.

Шунингдек, маҳаллаларда ёшлар томонидан содир этилаётган ҳуқуқбузарликларни аниқлаш ва барвақт олдини олишда профилактика инспекторлари, маҳалла раиси, ёшлар етакчиси, ҳоким ёрдамчиси, хотин-қизлар фаоли ва бошқа мутассади ташкилотларнинг ходимлари учун ёшлар билан ишлаш борасида янгича ёндашувни яратиш, жамиятда ёшларнинг ролини ошириш ҳамда бандлигини таъминлаш чора-тадбирлари бўйича янгича ишлаш методикаси йўлга қўйилди.

Ишсиз ёшларнинг муаммоларини ҳал этиш ҳамда эҳтиёжлари ва қизиқишларини рўёбга чиқариш бўйича алоҳида ёндашув таклиф этилган. Бунда, аниқланган муаммо ва эҳтиёжлар “Ёшлар дафтари”га киритилади. Ишсиз ёшларнинг рўйхатлари ҳамда уларнинг муаммоларини бартараф этишга қаратилган “Йўл харитаси” лойиҳаси шакллантирилади.

Биринчи босқичда ёшларнинг ишлаш имконияти мавжуд бўлган соҳаларни белгилаб олинади. Бунда:

- ҳудудда ёшларни банд этиш имкониятини берувчи соҳаларни аниқлаб олинади;
- соҳалар бўйича ёшлар бандлигини таъминлаш борасида имкониятларни белгилаб олинади;
- соҳалар бўйича ишсиз ёшларнинг маълумоти ва касбий кўникмалари бўйича тахминий тақсимотини шакллантирилади.

Иккинчи босқичда махсус малака талаб этувчи касблар бўйича ўқув курсларини ташкил этилади:

- махсус малака талаб этувчи касблар рўйхати шакллантирилади;
- махсус малака талаб этувчи касбларга даъвогарлар рўйхати ишлаб чиқилади;
- талаб асосида қисқа ўқув курсларини ташкил этилади.

Иккинчи босқичда ишсиз ёшларни бандлигини таъминлаш борасида қўшимча шарт-шароитлар яратиш ва инфратузилмалар ўрганилади:

- ўзини-ўзи банд қилган ёшлар билан уларнинг муаммолар ўрганилади;
- тадбиркорлик билан шуғулланиш истагини билдирган ёшлар билан ҳокимлик вакиллари ўртасида учрашувлар ташкил этилади;
- ишсиз ёшларга банд бўлишлари учун зарур бўлган техник жиҳозлар ва моддий-молиявий қўмак шакллари белгилаб олинади.

Ишсиз ёшларни бандлигини таъминлаш йўналишлари қуйидагилардан иборат:

- хизмат кўрсатиш соҳасига;
- қурилиш соҳасига;
- коммунал соҳага;
- қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳалар.

Ишсиз ёшларни бандлигини таъминлашнинг ташкилий жиҳатлари:

- касб ҳунарга ўқитиш орқали;
- янги иш ўринлари яратиш ва унга жойлаштириш орқали;
- бўш иш ўринлари орқали;
- субсидия бериш орқали;
- кредит ажратиш орқали ва бошқалар.

Хусусан, “Янги Ўзбекистон ёшлари ташаббуслари” жамғармаси ва электрон платформаси ташкил қилиниши белгиланди. Жамғармага 100 миллион доллар йўналтирилиб, бу маблағлар иқтидорли ёшларнинг энг яхши ғоя, стартап ва лойиҳаларига қулай ва енгил шартларда, зарур бўлса фоизсиз ажратилади.

Хуллас, ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг ҳаётга мустақил қадам қўйишлари учун барча зарур шароитларни яратиш ва бандлигини таъминлаш давлатнинг муҳим сиёсатидан бири ҳисобланади. Бу эса, ўз навбатида ишсиз ва меҳнат қобилиятини йўқотган ёшларни иқтисодий фаол қатламга қўшиш, миграцияга кетган ва қайтган ёшлар ўртасида самарали профилактик ишларни ташкил этиш ҳамда амалга ошириш, уларни бандлигини таъминлаш, касб-ҳунарга ўқитиш орқали ижтимоий ҳаётга мослаштириш, соғлом-турмуш тарзида ҳаёт кечирishiга қўмаклашишга хизмат қилади.

I. YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING YANGI MEKANIZMLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Замонавий ислохотлар шароитида ёшлар манфаатларининг акс этиши

Насиба ТУРГУНОВА
ИИБ Академияси Хизмат психологияси
ва касбий маданияти кафедраси
доценти, с.ф.ф.д (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистонда сўнги йилларда амалга оширилаётган ислохотларда, қабул қилинаётган сиёсий қарорларда ёшлар сиёсатининг акс этиши, унинг стратегик йўналишлари ва соҳадаги асосий тенденциялар динамикаси очиб берилган.

Калит сўзлар: ёшлар, контент таҳлил, ёшларга оид давлат сиёсати, стратегия, ёшлар ижтимоий-иқтисодий фаоллиги, ижтимоий сиёсат.

Ҳар қандай мамлакат истиқболини белгиловчи ёшлар масаласи узвийлик, давомийлик, изчилликни талаб этадиган сиёсий категориядир. Давлатчилик ривожига ҳар бир босқичда мазкур масала устувор аҳамиятга молик вазифалардан бўлиб қолаверади. Чунки ёшлар давлат ва халқ истиқболининг асосий куч ва қуввати унинг тамал тошидир.

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси lex.uz сайти контент таҳлили мустақиллик йилларида ёшлар билан боғлиқ масалаларда жами 137 та ҳужжат қабул қилинганини кўрсатмоқда. Ушбу ҳужжатларни қабул қилган органлар кесимида кўрадиган бўлсак, уларнинг асосий қисми Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ва Ўзбекистон Республикаси Президентига тўғри келишини кўриш мумкин (87 ва 34 мос равишда). Қайд этиш керакки, таҳлил натижалари даврийлик жиҳатидан 1990 йил ва 2023 йилнинг 1 чораги оралиғида мазкур базага жойлаштирилган ҳужжатларни ўз ичига олади.

Ушбу хронологик даврга эътибор қаратадиган бўлсак, ёшлар манфаат ва эҳтиёжлари акс этган энг кўп қабул қилинган қонунчилик ҳужжатлари 2021 йилга тўғри келмоқда – 16% (жами ҳужжатлар сонига нисбатан). Кейинги ўринларда 2017 йил – 11,7%, 2018 йил – 9,5% ва 2022 йил – 8,7%ни ташкил этмоқда.

Таҳлиллар кўрсатишича, ушбу йўналишда умумий ҳисобда энг кўп кўрсаткич 2016-2022 йилларга тўғри келмоқда – 90 та ҳужжат ёки кўрилатган даврдаги жами ҳужжатларнинг 65,7% мазкур даврда қабул қилинган.

Бугунги кунда мамлакатимизда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларни кафолатлаш ва ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларни қўллаб-қувватлашни кучайтиришга доир ижтимоий сиёсат олиб борилишига кенг эътибор берилмоқда. Бу йўналишда ёшлар жамият ва давлат эътиборида турган асосий ижтимоий қатламлардан биридир. Шу маънода, ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, муносиб баркамол ёш авлодни тарбиялаш, ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш давлатимиз олдида турган вазифалардан бири бўлиб, бу давлат ва жамият тараққиётининг муҳим омили ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев бу борада шундай таъкидлаган эди: «Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттираемиз. Нафақат давом эттираемиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз».

Дарҳақиқат, 2016-2022 йилларда мамлакатимизда ёшларга оид катта ишлар амалга оширилди, энг аввало, янги тараққиёт босқичларига мутаносиб келадиган ислохотларнинг ижтимоий, ҳуқуқий ва сиёсий асослари яратилди. Жумладан: а) замонавий тараққиёт ва шарт-шароитларга мос ҳуқуқий асос яратилди; б) ёшлар масаласи том маънода давлат сиёсати даражасига кўтарилди; в) ёшларнинг манфаат ва эҳтиёжларини рўёбга чиқаришда мақсадли ва манзилли ёндашув жорий қилинди (масалан, “Ёшлар дафтари”, хотин-қизларга имтиёзлар ва ҳ.к.); г) ёшлар билан ишлашнинг вертикаль тизими такомиллаштирилди (маҳалладан тортиб республика даражасида).

Энг муҳими, яратилаётган бундай асос давр шиддати ва ўзгарувчан тенденцияларга нисбатан мослашувчан характерга эга эканидир. Айни вақтда, айрим долзарб масалалар юзасидан янгича ёндашув талаб қилинганда бу борада алоҳида меъёрий ҳужжатлар қабул қилинмоқда.

Бундан кўзланган мақсад муайян ўзгаришларга тезкорлик билан жавоб бериш, уларнинг салбий таъсирини камайтиришдан иборат.

Хусусан, бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 30 июнь куни қабул қилинган ПФ-6017-сон Фармони¹ни кўрсатиш мумкин.

Фармонга мувофиқ, Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини янги босқичга олиб чиқиш, ёшлар соҳасидаги муаммоларга самарали ечимлар ишлаб чиқиш, ваколатли органлар фаолиятини самарали ташкил этиш ва мувофиқлаштириш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги (Агентлик) ҳамда унинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳар бошқармалари ва туман (шаҳар) бўлимлари ташкил этилди.

Фармон билан Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар дастури тасдиқланди. Дастурда, жумладан, Ўзбекистон ёшлари порталини ташкил этиш ва унда ёшлар сиёсатини баҳолаш миллий индекслари ҳамда ёшларга оид қонун ҳужжатлари базасини шакллантириш белгиланган. Дастурда назарда тутилган тадбирлар Агентлик томонидан тўғридан-тўғри ёки ННТларига ижтимоий буюртма шаклида ажратилган давлат грантлари ва субсидиялар тақсимлаш орқали молиялаштирилади. Фармонга мувофиқ, Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини янада ривожлантириш борасидаги чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш ташкил этилди ҳамда унинг асосий вазифалари белгиланди. Шунингдек, Агентлик ҳудудлар кесимида ишсиз ёшлар рўйхатини шакллантиради ҳамда уларнинг бандлигини таъминлашга қаратилган манзилли чора-тадбирларни амалга оширади.

Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунининг 5-моддасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асосий йўналишлари сифатида 13та йўналиш белгиланган.

Маълумотларга кўра, дунё аҳолисининг ярмидан кўпини 30 ёшгача бўлган инсонлар ташкил этса-да, ёш депутатларнинг улуши умумий ҳисобда 2,6 фоизга ҳам етмайди. Ўзбекистонда бу кўрсаткич 6 фоиздан ошган, яъни Олий Мажлис Қонунчилик палатасида 30 ёшгача бўлган

¹ Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6017-сон Фармони // lex.uz/docs/4880189

депутатлар сони 9 нафарни ташкил қилади. Энг ёш сайланган депутат эса 26 ёшда бўлган.

Шунга қарамасдан, 2019 йил 22 декабр Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутатлигига сайлов натижаларига кўра, сайланган депутатларнинг 97 нафари ёки 65 фоизи 30 ёшдан 50 ёшгача бўлганлар ҳамда 44 нафари ёки 29 фоизи 50 ёшдан катта ёшдагилар ташкил қилади. Энг ёши катта депутат 71 ёшда. Бундан кўринадик, “ёшлар мамлақати” ҳисобланган Ўзбекистоннинг қонунчилик ҳокимиятида ёшлар улуши пастлигича қолмоқда.

Хорижий давлатлар тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, қатор давлатларда ёшларга оид давлат сиёсати мамлакатнинг истиқболдаги режалари бўйича аниқ стратегия ва дастурларга эга. Хусусан, АҚШда «Ёшлар учун келажак: Федерал ҳамкорлик ёшлар стратегияси», Финляндияда «Ёшлар миллий стратегияси», Германияда 2015 йилда қабул қилинган «Янги ёшлар стратегияси» шулар жумласидандир.

Шу билан бирга, ёшларни ижтимоий, ҳуқуқий, психологик қўллаб-қувватлаш мақсадида ҳар бир маҳалла, туман, шаҳар ва вилоят кесимида “Ёшлар дафтари” тизими жорий этилди. Шунингдек, “маҳаллабай” ўрганишлар асосида ёшлар дуч келаётган муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш мақсадида барча туман (шаҳар)ларда “Ёшлар дастури” ишлаб чиқиш ва амалга ошириш амалиёти йўлга қўйилди.

Маълумотларга кўра, амалга оширилган ишлар натижасида бугунги кунда фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектларининг 22,9 фоизини (106574та), яқка тартибдаги тадбиркорларнинг 21,5 фоизини (71467та) 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этмоқда. Шунингдек, 3,4 мингга яқин ёш фермер, 7,8 мингга яқин ёш хунарманд фаолият юритиб келади.

Муҳим ижобий ўзгаришлардан яна бири — мамлакатнинг ҳар бир маҳалласида ёшлар етакчиси лавозими жорий этилгандир. Мазкур қоида Ўзбекистон Президентининг 2022 йил 19 январдаги «Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорида қайд этилган. Етакчи ўз ҳудудидаги ёшларни тадбиркорлик ғояларини амалга ошириш, улар фаолиятига кредит, субсидия ва бошқа ёрдам чораларини жалб қилишда ҳоким ёрдамчиси билан ҳамкорлик қилади.

Аҳамиятлиси, мазкур ҳужжатда ёшлар етакчиларининг вазифа ва ваколатлари билан бир қаторда манфаатдорлиги ҳам аниқ белгилаб қўйилди. Жумладан, етакчининг ойлик иш ҳақи миқдори у

бириктирилган маҳалладаги хонадонлар сонига мутаносиб равишда қуйидагича белгиланган: а) хонадонлар сони 500 тагача бўлган маҳаллада — меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг (МХТЭКМ) 5 баравари миқдорида; б) хонадонлар сони 501 тадан 1 000 тагача бўлган маҳаллада — МХТЭКМнинг 5,5 баравари миқдорида; в) хонадонлар сони 1 000 тадан ортиқ бўлган маҳаллада — МХТЭКМнинг 6 баравари миқдорида. Шу билан бирга, қарорда етакчиларнинг фаолият самарадорлиги кўрсаткичларидан келиб чиқиб, уларни ҳар чорак якуни бўйича ойлик иш ҳақининг 50 фоизигача миқдорда ҳамда энг илғор 100 нафар етакчиларни бир ойлик иш ҳақига тенг миқдорда бир марталик пул мукофоти билан тақдирлаш кўзда тутилган.

Бундан ташқари, фаолиятини самарали ташкил этаётган, ўзининг шахсий фазилатлари билан ёшларга намуна бўлаётган ва уларга етакчилик қилаётган етакчилар «Янги Ўзбекистон ислоҳотчиси» кўкрак нишони билан тақдирланади.

Кўрилаётган даврда ёшларга оид давлат сиёсати соҳасида кўплаб ишлар амалга оширилишига қарамасдан жойларда ёшларнинг ижтимоий-иқтисодий фаоллигини ошириш, уларнинг салоҳиятини рўёбга чиқариш, шу жумладан ёшлар тадбиркорлигини комплекс ривожлантириш учун зарур инфратузилманинг мавжуд эмаслиги, йигит-қизларнинг соғлом турмуш тарзига риоя этиш, спорт билан шуғулланиш, китоб ўқиш ва ижод қилишларига тўсқинлик қилувчи айрим тизимли муаммолар сақланиб қолаётганини қайд этиш лозим.

Дарҳақиқат, ҳозирда барча соҳаларда ислоҳотлар амалга оширилаётган бир пайтда Ўзбекистонда ижтимоий фикр анча фаоллашиб, Учинчи Ренессанс асосларини яратиш бўйича жамиятнинг барча қатламларида мулоҳазалар, баҳслар юритилмоқда. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 29 йиллиги муносабати билан Президент Ш.М.Мирзиёев тантанали табрик нутқида таъкидлаган эди.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар, шу жумладан сиёсий-ҳуқуқий қарорларда ёшлар манфаатларининг акс этиши ва унинг стратегик йўналишлари бевосита 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида ҳам белгилаб қўйилган.

Таъкидлаш керакки, мазкур Тараққиёт стратегияси моҳиятан ва унда белгиланган мақсад ва вазифалар нуқтаи назаридан Ҳаракатлар стратегиясининг янги босқичдаги мантиқий давоми ҳисобланади.

Хусусан, агар Ҳаракатлар стратегиясида 5та устувор йўналиш белгилаб олинган бўлса, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида 7та устувор йўналиш назарда тутилган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, мамлакатимизда ёшларга оид давлат сиёсати соҳасида сўнгги йилларда амалга оширилаётган ислохотларда ёшлар манфаат ва эҳтиёжлари ўз аксини топган. Яъни, бу ислохотларни ўзида акс эттирувчи меъерий-ҳуқуқий ҳужжатлар ёшларнинг ҳаёт фаолияти билан боғлиқ барча йўналишларни қамраб олган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // lex.uz
2. Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон ёшларига байрам табриги йўллади // xs.uz/uzkr/post/Shavkat-Mirziyoev-O'zbekiston-yoshlariga-bajram-tabrigi-yo'lladi
3. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6017-сон Фармони // lex.uz/docs/4880189
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни // lex.uz/docs/3026246
5. yuz.uz/news/mahalliy-kengashlarda-ham-yoshlar-parlamenti-vakillari-maktabi-tashkil-etilishi-biz-yoshlarni-quvontirdi
6. saylov.uz/uz/docs/2019-jil-22-dekabr-O'zbekiston-Respublikasi-Olij-Majlisi-Qonunchilik-palatasi-deputatligiga-saylov
7. <https://lex.uz/docs/5234746>
8. Ўзбекистон Президентининг 2022 йил 19 январдаги «Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // <https://lex.uz/uz/docs/5831865>
9. Ўзбекистон Президентининг 2022 йил 19 январдаги «Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // <https://lex.uz/uz/docs/5831865>
10. Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон халқини Мустақиллигимизнинг 29 йиллиги билан табриклади // <http://www.uzdaily.uz/uz/post/6557>

Развитие молодежной политики: национальная практика Узбекистана

Шахриер НУРУЛЛОЕВ
*Независимый соискатель
Высшей школы стратегического
анализа и прогнозирования*

Узбекистан страна молодых людей. Как известно, 60% граждане Республики Узбекистана моложе 30 лет. В 2017 году Президент Шавкат Мирзиёев выступил на 72-й сессии ООН с предложением разработать Международную конвенцию ООН о правах молодежи, которая нацелена на формирование и реализацию молодёжной политики в условиях глобализации и бурного развития информационно-коммуникационных технологий. В настоящее время проект конвенции разработан и подробно обсуждался на Самаркандском онлайн-форуме 12 августа 2020 года на тему «Молодежь 2020: глобальная солидарность, устойчивое развитие и права человека».

Вопрос дальнейшей активизации молодежной политики в Узбекистане имеет стратегический характер в рамках стратегических планов правительства по эффективной реализации реформ «Нового Узбекистана».

С учетом общепризнанного понятия необходимости инвестирования в молодое поколение как ключевого драйвера социально-экономического развития современного государства данному вопросу придается приоритетное значение в нашей стране.

В ходе предварительного исследования определены следующие стратегические направления:

1) Образование и развитие навыков:

Одной из ключевых задач для Узбекистана является предоставление качественного образования и возможностей для обучения молодежи, чтобы «вооружить» их навыками и знаниями, необходимыми для участия в современной экономике. Правительство уделяет первоочередное внимание реформе системы образования, в том числе повышению качества преподавания, расширению доступа к высшему образованию и содействию профессиональному обучению.

По информации СМИ, за период 2016-2022 гг. были обновлены и вновь созданы правовые основы для совершенствования системы народного образования. Так, Закон «Об образовании» был принят в

новой редакции, утверждена Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года. Непосредственно в сфере развития школьного образования были приняты 17 документов, в частности 4 акта Президента Республики Узбекистан. Одна из основных задач в 2023 году – повышение качества школьного образования и авторитета учителей в обществе, улучшение условий их труда и жизни. Примечательно, что в принятой в мае 2023 г. по итогам народного референдума в обновленной Конституции закреплены статус учителя, гарантии защиты его чести и достоинства.

2) Занятость и предпринимательство:

Еще одним стратегическим вопросом является создание дополнительных возможностей для трудоустройства и предпринимательства молодежи, правительство реализовало различные инициативы по содействию созданию рабочих мест и предпринимательству, такие как создание центров молодежного предпринимательства и запуск национальной программы занятости молодежи.

В частности, с 2020 года инициаторы 174 тысяч бизнес-проектов из числа молодёжи получили на их реализацию 4,4 трлн сумов льготных кредитов. Кроме того, в 2022 году на программы предпринимательства выделено 4 трлн сумов, чтобы обеспечить работой 220 тысяч молодых людей, молодёжному бизнесу предоставлено 250 млрд сумов субсидий и компенсаций.

3) Социальная интеграция и участие:

Не менее важным стратегическим вопросом является обеспечение социальной интеграции и участия молодых людей, укрепление их чувства принадлежности и вовлеченности в жизни общества. Правительство запустило различные программы для поощрения гражданской активности молодежи и ее участия в принятии решений, такие как создание молодежных советов и выделение финансирования для проектов, возглавляемых молодежью.

На ряду с реализацией масштабных реформ целенаправленно решаются насущные вопросы, беспокоящие молодых людей. В частности, по информации портала движения «Юксалиш», в ходе соцопроса среди молодежи выяснено следующее:

«По вашему мнению, какие дополнительные меры необходимо принять в Узбекистане для эффективного использования потенциала молодежи?» — 34% респондентов указали на необходимость

прекращения практики принудительного членства, обратив внимание на качество, а не на количество.

По мнению 14% участников опроса, инициативы должны исходить от самой молодежи, а не диктоваться сверху, 13% опрошенных считают, что необходимо реформировать деятельность организаций, работающих с молодежью. В свою очередь 11% – уверены, что необходимо обеспечить непосредственное участие молодежи в разработке молодежной государственной политики.

Указанные актуальные аспекты взяты на контроль Агентства по делам молодежи, как ответственного за реализацию государственной политики и решение возникающих проблем с целью смягчение напряжённости в обществе. К примеру, данное ведомство на регулярной основе выступает с инициативой, организовываются семинары и профилактические тренинги, и т.д.

4) Здоровье и благополучие:

Актуальность данной проблемы в постковидный период особенно явно прослеживается на сегодняшний день. Принципиально важным представляется улучшение здоровья и благополучия молодых людей. Правительство реализовало различные программы по пропаганде здорового образа жизни, репродуктивного здоровья, а также информированию молодежи о психическом здоровье.

В частности, подобные масштабные меры приведены в Указе Президента Республики Узбекистан «О мерах по широкому внедрению здорового образа жизни и дальнейшему развитию массового спорта».

Несомненно, популяризация здорового образа жизни и профилактические мероприятия стимулируют молодежь на поиск новых направлений для саморазвития. Данный вопрос особенно актуален на фоне последствий пандемии COVID-19 общества. В этом направлении актуальным представляются меры госорганов по организации льготных поездок в рамках развития внутреннего туризма, международные спортивные состязания и другие механизмы вовлечения молодежи Узбекистана в процесс внедрения программ здорового образа жизни.

Таким образом, совершенствование молодежной политики в Узбекистане является сложным и многоплановым вопросом, требующим стратегического и скоординированного подхода с участием различных государственных органов и заинтересованных сторон. Правительство Узбекистана направляет внушительные объемы

инвестиций и ресурсов ради будущего поколения, реализовываются различные инициативы для решения проблем образования молодежи, занятости, социальной интеграции и здоровья.

Список использованной литературы

1. Мирзиёев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Ташкент «Узбекистан», 2016. С. 40-56.
2. <https://lex.uz/docs/6445147>. Конституция Республики Узбекистан.
3. <https://lex.uz/docs/3026250>. Закон Республики Узбекистан о государственной молодежной политике, №ЗРУ-406 от 14.09.2016г.
4. <https://yumh.uz/ru/detail/93>
5. https://www.univ.silkroad.uz/ru/news/novosti_universiteta/item/408-the-five-initiatives/Пять важных инициатив в действии.
6. <https://lex.uz/ru/docs/4880123>

Молодёжная политика в Узбекистане

Мизроб ХУСАНОВ

студент Джизакского государственного педагогического университета

Молодежь в Узбекистане играет важную роль в экономическом, социальном и политическом развитии страны. Молодежь в Узбекистане составляет значительную долю населения страны. По данным на 2021 год, около 60% населения Узбекистана моложе 30 лет.

Образование имеет высокий приоритет в узбекском обществе, и государство уделяет значительные ресурсы на развитие образования, что позволяет молодежи получить качественное образование.

Молодежь Узбекистана проявляет активность в различных областях жизни. Многие молодые люди работают в различных отраслях экономики, а также в государственных и общественных организациях. Они также активно участвуют в различных социальных, культурных и спортивных мероприятиях, способствуя формированию национальной идентичности и патриотизма.

Однако, молодежь Узбекистана также сталкивается с некоторыми социальными проблемами, включая высокую безработицу, недостаточный доступ к качественному образованию и здравоохранению, а также недостаточную свободу слова и медиа. В последние годы, правительство Узбекистана проводит реформы в различных сферах, направленные на улучшение положения молодежи, что может способствовать дальнейшему улучшению качества жизни молодежи в стране.

В Узбекистане правительство уделяет большое внимание молодежи и разработке молодежной политики, которая охватывает широкий спектр вопросов, связанных с образованием, здравоохранением, трудоустройством, социальной защите и досугом молодежи. Одним из главных приоритетов молодежной политики является обеспечение доступности и качества образования. В Узбекистане создана сильная система образования, которая обеспечивает бесплатное образование на всех уровнях, от начальной школы до высшего образования. Также ведется работа по совершенствованию учебных программ и повышению квалификации преподавателей.

Для улучшения здоровья молодежи в Узбекистане проводятся мероприятия по физической культуре и спорту, включая строительство спортивных сооружений и организацию соревнований на местном и национальном уровне.

Для обеспечения трудоустройства молодежи в Узбекистане созданы специальные программы и проекты, направленные на поддержку молодых предпринимателей и развитие малого и среднего бизнеса. В рамках этих программ предоставляются гранты, займы и другие финансовые инструменты для стартапов и развития бизнеса.

Также в Узбекистане действует система социальной защиты молодежи, которая включает в себя программы по поддержке молодых семей, социальной адаптации молодежи с ограниченными возможностями, а также программы поддержки детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей.

Молодежная политика в Узбекистане ориентирована на создание условий для развития молодежи, поддержку их потенциала и способностей, а также на повышение их уровня жизни и социального статуса.

Шавкат Мирзиёев, президент Узбекистана, придает большое значение развитию молодежи и созданию для нее благоприятных условий. В рамках своей молодежной политики он реализует ряд программ и проектов, направленных на развитие талантливой молодежи, создание условий для трудоустройства и повышения уровня жизни молодежи, а также обеспечение доступности высшего образования.

Одной из главных задач, которые ставит перед собой Шавкат Мирзиёев, является создание условий для трудоустройства молодежи. В этом направлении реализуется целый ряд программ, направленных на развитие малого и среднего бизнеса, создание новых рабочих мест и поддержку предпринимательства. Кроме того, в рамках проекта «Мехнат» (труд) предоставляются займы на развитие малого и среднего бизнеса молодежи.

Шавкат Мирзиёев также придает большое значение развитию образования и науки. В рамках его молодежной политики реализуется ряд проектов, направленных на совершенствование системы образования, создание новых учебных заведений и обновление учебных программ. Кроме того, государственные стипендии и гранты

предоставляются молодым ученым и студентам научных специальностей.

Президент Узбекистана также придает важность развитию инфраструктуры для молодежи. В рамках его молодежной политики проводится строительство новых спортивных комплексов, бассейнов, парков и других объектов досуга для молодежи. Кроме того, развивается инфраструктура для общественного транспорта, что облегчает доступность и мобильность молодежи.

Также следует отметить, что в рамках молодежной политики Шавкат Мирзиёев оказывает поддержку талантливой молодежи в различных областях, таких как наука, искусство, спорт и технологии. В этом направлении реализуются программы и проекты, направленные на развитие и поддержку молодых талантов.

Молодежь современного времени должна стремиться к развитию своих личностных качеств, профессиональному росту и общественной активности. Кроме того, она должна учитывать социальные, экономические, экологические и политические вызовы современного мира и вносить свой вклад в их решение.

Среди приоритетных направлений деятельности молодежи современного времени можно выделить следующие:

Образование и профессиональное развитие. Молодежь должна стремиться получить высшее образование, осваивать новые профессии и навыки, следить за изменениями в требованиях рынка труда и быть готовой к адаптации к ним.

Социальная активность и волонтерство. Молодежь должна проявлять активность в различных общественных и благотворительных организациях, участвовать в волонтерских проектах, способствующих решению социальных проблем.

Сохранение здоровья и экологическая ориентированность. Молодежь должна следить за своим здоровьем, заниматься спортом, соблюдать здоровый образ жизни и участвовать в экологических инициативах.

Культурная активность и саморазвитие. Молодежь должна уделять время развитию своих творческих способностей, интересоваться культурой и искусством, читать книги, участвовать в культурных мероприятиях.

Информационная грамотность и использование новых технологий. Молодежь должна уметь анализировать и проверять информацию,

осознанно использовать новые технологии и социальные сети, а также учитывать этические аспекты их использования.

Молодежь современного времени имеет огромный потенциал и возможности для реализации своих идей и достижения успеха в разных сферах жизни.

Список использованной литературы

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Ташкент, 2022.
2. Мирзиёев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Ташкент, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. Ташкент, 2021.
4. Интернет ресурсы.

Ёшларга оид давлат сиёсатининг мазмуни, мақсади ва вазифалари

Бахромжон ИЛҲОМЖОНОВ

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги
Давлат бошқаруви академияси мустақил изланувчиси*

XXI аср бошларида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти бевосита ёшларга таъсир қилувчи ва уларга оид беш муаммоли жиҳатни таъкидлаб ўтди. Булар:

- глобаллашув жараёни;
- ёшлар ҳаётига катта таъсир этаётган ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг ортиб бориши;
- ОИВ/ОИТС касаллигининг кенг тарқалиши;
- ёшларнинг қуролли можароларда ҳам жабр кўриши, ҳам уларда бевосита иштирок этишининг ўсиб бориши;
- кексайиб бораётган глобал жамиятда авлодлараро муносабатлар аҳамиятининг ортиб бориши”¹.

Айрим экспертларнинг фикрича, глобаллашув жараёнлари натижасида ёшлар ижтимоий ва иқтисодий ўзгаришларнинг энг асосий кучларидан бири сифатида эътироф этила бошланди². К. Гриффиннинг тўғридан-тўғри таъкидлашича, глобаллашув жараёнида айнан ёшлар “миллат ҳолатининг асосий кўрсаткичи сифатида қаралиши керак”³ – деб ҳисоблайди.

Кўплаб Ғарб олимлари глобаллашув жараёнлари ёшлар ҳаётига бевосита ва билвосита таъсир кўрсатиб, келгусида жамиятда ижтимоий бўлинишларга олиб келишини, бундан эса даставвал ёшлар зарар кўришини таъкидлайдилар⁴. Натижада, ёшларнинг жамият ҳаётидаги мақоми тубдан ўзгариб бормоқда. Демак, давлат томонидан ёшлар соҳасида олиб борилаётган ёшларга оид давлат сиёсатининг ҳуқуқий асослари ҳам юқоридагиларга мутаносиб равишда такомиллаштирилиб борилиши керак.

¹ Степанищенко О.В. Международный опыт работы с молодежью (институциональный и правовой аспекты) Научный журнал КубГАУ. 2011. №74(10). С. 6.

² Қаранг: Furlong A., Cartmel F. Young People and Social Change: Individualization and Risk in Late Modernity. 1997. Buckingham, Open University Press; Miles S. Youth Lifestyles in a Changing World. 2000. Buckingham, Open University Press

³ Griffin C. Representations of Youth: The Study of Youth and Adolescence in Britain and America. 1993. Oxford, Polity Press., PP. 9-10.

⁴ Miles S. Youth Lifestyles in a Changing World. Buckingham. Open University Press, 2000.

Илмий адабиётлар ва расмий ҳужжатлар таҳлили шуни кўрсатадики, бугунги кунда ҳақиқатдан ҳам ёшлар, уларнинг жамият ва давлат ҳаётидаги роли ва ўрни билан боғлиқ “ёшлар сиёсати” тушунчасининг ягона таърифи мавжуд эмас.

Рус олими И. Ильинскийнинг фикрича, “Ёшларга оид давлат сиёсати деганда, давлатнинг ички ижтимоий сиёсатидаги инсонпарварлик йўналишининг ажралмас қисмини тушуниш мумкин”⁵, натижада, бу билан давлатнинг ёшларга бўлган эътиборини белгилайдиган муносабатни кўриш мумкин. Юқоридаги фикрдан келиб чиқиб, ёшлар сиёсатини миллий сиёсатдан ажратиб кўрсатмайдиган, аслида уни бутун давлат ижтимоий сиёсатининг бир қисми деб, ҳисоблайдиган талқинни кўрамиз.

“Ёшлар сиёсати” атамаси Европа мамлакатларида шаклланган бўлса-да, давлатда ёшлар тарбияси, уларни баркамол қилиб тарбиялаш ва вояга етказиш масаласига бўлган сифатларга оид қарашлар Ўзбекистоннинг миллий-тарихий манбаларидан ҳам ўрин олган. Бу борадаги дастлабки муҳим манба зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто” бўлиб, тарихчи олимлар А. Сатликов ва И. Жуманиёзовларнинг таъкидлашича, “Авесто”да ёшлар тарбиясига ҳам алоҳида аҳамият берилган. Ёшларни илм олишга, ҳунар ўрганишга, ҳарбий таълимни пухта эгаллашга даъват қилувчи ғоялар ҳам алоҳида ўрин олган. Ана шу умрбоқий ғоялар ҳозир ҳам ўз аҳамиятини сақлаб келяпти⁶.

Бизнингча, “ёшларга оид давлат сиёсати” деганда, давлат сиёсатининг бир қисми ҳисобланадиган, давлат томонидан ёшлар фаолиятига оид тизимли ўрганиш ва таҳлиллар асосида қонунчилик ҳужжатлари ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти такомиллаштирилиб борадиган, ёшларни ҳар томонлама, жумладан ижтимоий, интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтириш учун шарт-шароитлар яратилишини кўзда тутадиган чора-тадбирлар тизимини тушуниш мумкин. Ёшларга оид давлат сиёсати нафақат давлатнинг, балки бу бир бутун жамиятнинг, жумладан, жамиятнинг, нодавлат ноижорат ташкилотлари, сиёсий партиялар ва жамоат бирлашмаларининг умумий иши ҳисобланади.

⁵ Ильинский И.М. Молодежь и молодежная политика. Философия. История. Теория. М.: Голос, 2001; Корпоративное управление. Под ред. М.Г. Антонова. М. 2006. С. 12

⁶ “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. Т. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси босмаҳонаси. 2001. Б.

Шу ўринда, ёшларга оид давлат сиёсатининг мақсади ва вазифаларига тўхталиб ўтсак. Аввало, шуни таъкидлаш жоизки, ёшларга оид давлат сиёсатининг мақсади ва вазифасини белгилашда, биринчи навбатда, “мақсад” сўзининг категориясини (маъносини) аниқлаб олиш зарур ҳисобланади. “Мақсад” инсоннинг онгли фаолиятининг натижаси бўлиб, эришиш, амалга ошириш учун кўзда тутилган нарса, мурод, муддао⁷, жамият билими ва онгли фаолиятининг унсурларидан бири⁸ сифатида эътироф этилиши билан изоҳланади. Ҳозирги босқичда кўплаб ривожланган мамлакатларда ёшларга оид давлат сиёсатининг мақсад ва вазифаларининг ўзига хос хусусиятлари – бу халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган нормалари билан белгиланиши билан баҳоланади.

Ҳуқуқий тартибга солиш механизми орқали ёшларга оид давлат сиёсатининг мақсад ва вазифаларини белгилаш назарий муаммоларни ҳал этишга боғлиқ ҳисобланади. Бизнингча, ҳуқуқнинг барча соҳаларига бевосита алоқадор бўлган “мақсад” сўзи категорияси конституциявий ва маъмурий ҳуқуқ фанида етарли даражада таҳлил қилинмаган. Шунинг учун, айрим ишлаб чиқилган ва қабул қилинган ёшларга оид давлат сиёсати йўналишидаги дастур ва чора-тадбирларда келтирилган нормаларда мақсад ва вазифалар кўпинча аралаштириб юборилади.

Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июндаги “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6017-сонли Фармони⁹ мундарижасининг тўртинчи хатбошисида “хотин-қизлар бандлигини таъминлаш” вазифаси сифатида белгиланган бўлса, мазкур Фармоннинг 5-банди “а” кичик бандининг олтинчи хатбошисида “хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш” мақсад сифатида белгиланган. Шунингдек, Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги “2022-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 310-сонли қарорининг¹⁰

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006-2008 йил. 570-бет

⁸ Қаранг: Философский энциклопедический словарь [Текст]. - М., 1989. - С. 731

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2020 йил 30 июндаги ПФ-6017-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022 йил 3 декабрь, 06/22/258/1064-сон // <https://lex.uz/docs/4880189>

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги “2022-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш дастурини тасдиқлаш

мундарижасида “ёшлар билан “маҳаллабай” ишлаш, улар ўртасида олиб бориладиган маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларнинг самарадорлигини янада ошириш” мақсад сифатида келтириб ўтилган. Бироқ, мазкур қарорнинг 2-бандининг учинчи хатбошисида “ёшлар билан “маҳаллабай” ишлаш тизимини жорий этиш” ва тўртинчи хатбошисида “жойларда ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлиги ва тарбиявий ишлар самарадорлигини ошириш” жумлалари вазифа сифатида келтирилган.

Бизнингча, Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш ва тегишли қонунчилик ижодкорлиги фаолиятида кенг қамровли ҳамда истиқболли мақсадларни аниқлаш муҳим ҳисобланади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, ёшларга оид давлат сиёсати деганда, муайян бир мамлакат томонидан ёшлар фаолиятига оид амалга ошириладиган ҳамда уларни ижтимоий, интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтиришга хизмат қиладиган ва давлат томонидан ёшлар эҳтиёжларидан келиб чиқиб, имкониятлар ва зарур шарт-шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизимини тушуниш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2020 йил 30 июндаги ПФ-6017-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022 йил 3 декабрь, 06/22/258/1064-сон // <https://lex.uz/docs/4880189>

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги “2022-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 310-сонли қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022 йил 8 июнь, 09/22/310/0491-сон // <https://lex.uz/docs/6052527>

3. Степанищенко О.В. Международный опыт работы с молодежью (институциональный и правовой аспекты) Научный журнал КубГАУ. 2011. №74 (10). С. 6.

4. Furlong A., Cartmel F. Young People and Social Change: Individualization and Risk in Late Modernity. 1997. Buckingham, Open University Press; Miles S. Youth Lifestyles in a Changing World. 2000. Buckingham, Open University Press

5. Griffin C. Representations of Youth: The Study of Youth and Adolescence in Britain and America. 1993. Oxford, Polity Press. PP. 9-10.

Miles S. Youth Lifestyles in a Changing World. Buckingham. Open University Press, 2000.

6. Ильинский И.М. Молодежь и молодежная политика. Философия. История. Теория. М.: Голос, 2001; Корпоративное управление. Под ред. М.Г. Антонова. М. 2006. С. 12

7. "Авесто" ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. Т. - Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси босмахонаси. 2001. Б.

8. Ўзбек тилининг изохли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2006-2008 йил. 570-бет Философский энциклопедический словарь. - М., 1989. - С. 731

9. N.Y.Asadova "Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati

Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari

Umidjon XUDOYOROV
*IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
Sirdaryo viloyati Yuridik texnikum o'qituvchi,
3-darajali adliya maslahatchisi*

Davlatning qudratini belgilaydigan qator omillardan biri, shubhasiz, ma'nan yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Shu ma'noda, bugungi kunda mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash naqadar muhim, mas'uliyatli vazifa ekani barchamizga ayon. Yoshlarga, bolalarga e'tibor, darhaqiqat, kelajakka qo'yilgan sarmoyadir. Vaholanki, kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish farzandlarimizning faol ishtiroki, qo'llab-quvvatlashi orqaligina to'laqonli amalga oshar ekan, ma'naviyati yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan o'g'il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ham ta'minlashiga shubha yo'q¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida 2020-yil 8-oktabr kuni jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mamlakatda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston tarixida birinchi marotaba moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar ro'yxati, ya'ni "Temir daftar" tuzildi. Endi har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida "Yoshlar daftari" shakllantirildi. «Yoshlar daftari» 2020-yil 8-oktabrdan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi. Nodavlat kasbhunar ta'limi markazlari orqali yoshlar va ayollarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan" 100 million dollar miqdoridagi mablag' yo'naltirildi. Shundan 10 millioni yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitishga, 90 millioni esa o'quv kurslarini tamomlab, sertifikat olganlarga imtiyozli kreditlar ajratish uchun sarflangan bo'lsa, bundan "Ijtimoiy shartnoma" orqali nodavlat kasb-hunar o'quv

¹ N.Y.Asadova "Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati va uning mohiyati" maqola, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, oktabr 2021

kurslarini bitiradigan yoshlar va ayollarga ta'lim xarajatlari uchun 1 million so'mgacha subsidiya sarflandi².

Shuningdek, kasb va lavozimlar klassifikatori bugungi zamon va mehnat bozori talablariga mos kelmaydi. Misol uchun, unda 2484 ta, ya'ni 70 foiz xizmatchi lavozim bo'yicha oliy ma'lumot talab etiladi. Xususan, ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydigan mutaxassis, veb-dizayner kabi ixtisosliklarga oliy malaka talabi qo'yilgan. Ushbu kasblarni IT-markazlarda yarim yilda yaxshi o'rganish mumkin. Bu sharoit ham yoshlarni har tomonlama qo'llab -quvvatlash, ularni ijtimoiy himoyaga ehtiyoji bor yoshlarni moddiy va amaliy yordam berish, maqsadlari yo'lida dadil qadam bosishi uchun motivatsiya yaratish kabi rejalarni nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadi O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunga asosan, "O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi³" belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili shuni ko'rsatadiki yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, kasbga yo'naltirish bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasida ishlar talab darajasida tashkil etilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilning 28-apreldagi 250-sonli qarorida 2021yilning o'tgan davrida yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' yo'naltirildi, 92 ming nafardan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar,

² <https://advice.uz/oz/document/2394>

³ O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi

qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun 61 ming gektar yer maydoni ajratildi, bu boradagi ishlarning ko'lami tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi⁴.

Bundan tashqari prezidentning yoshlar uchun sharoit yaratish maqsadida oliy ta'limda taxsil olayotgan yigit va qizlar uchun turli xil imtiyozlar berilmoqda, Ayniqsa, ayolqizlarga bu borada imkoniyatlar kengaytirilmoqda. Ular uchun qo'shimcha buyujet kvotalari oshirish, shuningdek, moddiy tomondan ehtiyoji bor yigit va qizlarning shartnoma to'lovlari to'lab berildi. Magistraturada o'qiydigan ayollar uchun 2023yildan ularning kontraktlari to'liq qoplanib berish to'g'risidagi qarorlar, shuningdek bakalavr bosqichida o'qiydigan ayollarni yosh farzandlari bo'lsa ta'lim olishni onlayn usulda davom ettirish imkoniyatlari berildi.

Prezidentimiz aytganidek, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat."

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunning yoshlari har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishlari uchun ularning ijtimoiy muamolarini bartaraf etish barcha uchun zarurdir. Qaysi davlatda ta'lim kuchli bo'lsa, yoshlarga ko'proq e'tibor berilsa, o'sha davlat ravnaq topaveradi, chunki ta'lim-tarbiyasi bor yoshlarda innovatsion loyihalar va vatanga muhabbat ruhida voyaga yetishish bugungi kun islohatlarimizning eng asosiy maqsadiga kiradi. Sarmoyalarning eng yaxshisi bu ta'lim –tarbiyaga ajratilgan sarmoyadir, bu sohada sarmoya kiritsak hech qachon ziyon ko'rmaymiz, faqat yuksalaveramiz. shuningdek dunyo hamjamiyatida ham yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va ularning bir qator muamolarini yechishda bir qator qarorlar, farmonlar ishlab chiqarilmoqda, Ushbu xalqaro qarorlar dunyo yoshlarini ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy himoya qilish butun dunyo mamlakatlarining asosiy vazifasidir⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Starategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet
3. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston Starategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet

⁴ Lex.uz/docs/-551211

⁵ Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston Starategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet

4. D.Xakimov, "Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati dinamikasi" maqola, Jamiyat va innovasiyalar Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

3. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 395-401.

4. <https://advice.uz/oz/document/2394>

5. [Lex.uz/docs/-5512119](https://lex.uz/docs/-5512119)

6.I.B.Mamatkarimov "O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish choratadbirlari xususida" maqola, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, jurnali, april 2022 y.

Ўзбекистон ёшлари ва халқаро индекслар

Искандар ТАДЖИДИНОВ
Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва
истиқболли кадрларни тайёрлаш
институтини докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада ёшлар соҳасидаги мавжуд халқаро индексларнинг вужудга келиши зарурати ва фаолиятининг муҳим жиҳатлари, уларда Ўзбекистоннинг ўрни таҳлил қилинган. Хусусан, халқаро даражадаги ёшлар индекслари томонидан мамлакатлардаги ёшлар сиёсатини баҳолашнинг асосий кўрсаткичлари, қамрови ва метамаълумотлар базаси ҳамда улар томонидан амалда қўлланиладиган методикалар ёритилган.

Калит сўзлар: индекс, ёшлар, ёшлар сиёсати, кўрсаткич, самарадорлик, ёшлар сиёсатини баҳолаш, институционал чоралар, халқаро ташкилотлар, Youth progress index, the Commonwealth.

Бугунги кунда ёшларга оид конструктив сиёсат олиб бориш учун Ўзбекистон ёшларининг эҳтиёжлари, хоҳиш ва истакларини яқиндан ўрганиш ҳамда ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини баҳолаб бориш, аниқланган муаммоларни ўз вақтида бартараф этиш мақсадида мамлакатда ягона ёшлар ривожланиши индексини ўлчов воситаси сифатида ишлаб чиқиши мақсадга мувофиқдир.

2005 йил Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 60-сессиясида Бош ассамблея ёшлар иштирокидаги сиёсат ва дастурлар тўғрисида (60/2) резолюцияни қабул қилди ва БМТ Котибиятига бошқа тегишли дастурлар ва агентликлар билан ҳамкорликда ёшлар билан боғлиқ индекаторларни ишлаб чиқишни топширди. 2005 йил 12-14 декабрь кунлари БМТнинг Нью-Йоркдаги Иқтисодий ва ижтимоий масалалар департаментининг Ижтимоий сиёсат ва ривожланиш бўлими қошидаги Ёшлар билан ишлаш марказида “Ёшларнинг ривожланиш кўрсаткичлари” бўйича экспертлар гуруҳининг илк бор йиғилиши бўлиб ўтган. Учрашувда БМТнинг агентликлари, ҳукуматлараро ва ёшлар ташкилотлари, илмий доиралар вакиллари ва сиёсатчилар қатнашиб, ёшлар ривожланишини кузатиб бориш ва ўлчаш мумкин бўлган кўрсаткичлар тўпламининг лойиҳасини ишлаб чиқиш кун тартибига қўйилган.

Ҳозирда ёшлар билан ишлаш ҳолатини мониторинг қилиш, уларнинг ҳуқуқлари ҳимоясини кафолатлаш ва турмуш даражасини доимий ошириб боришда амалга оширилаётган ишларни баҳолашда “Global Youth Development Index”, “Youth Progress Index” ва “Global Youth Wellbeing Index” алоҳида ажратилади.

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш Концепциясида ҳам мамлакатимизда

олиб борилаётган ёшлар сиёсатидаги ишлар ва бу борада эришилаётган ютуқларни халқаро индексларда акс эттириш орқали Ўзбекистоннинг позицияларини яхшилаш кўзда тутилган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида “Мамлакатимиздаги туб ўзгаришлар, ёшларга оид давлат сиёсатини янада ривожлантиришни кун тартибига қўймоқда. Ёшлар билан ишлаш самарадорлигини баҳолаш бўйича ягона кўрсаткичлар ишлаб чиқиш, ёшлар сиёсатини баҳолаш миллий индексини жорий этиш керак” – деб таъкидланди .

Youth Development Index (YDI) 6 та индикатор (27 та субиндикатор) дан иборат бўлиб, The Commonwealth ташкилоти томонидан шакллантирилади. 181 мамлакатдаги 15-29 ёш оралиғидаги ёшларни ўз ичига қамраб олади. Ёшлар тараққиёти индекси 6 та муҳим йўналиш: таълим, бандлик, соғлиқни сақлаш, тенглик ва инклюзивлик, тинчлик ва хавфсизлик, фуқаролик ва сиёсий фаолликдан иборат .

YDIда мавжуд субиндикаторларнинг 22 таси сон маълумотлар – турли ҳисоб-китоб ва статистик рақамларга асосланса, қолган 5 таси сифат маълумотлар – ижтимоий сўров, интервьюлар асосида шакллантирилади.

Индекснинг 2016 йилги ҳисоботида мамлакатимиз 183 та давлат ичида 53 (0.68 кўрсаткич билан) ўринни эгаллаган бўлса, 2020 йилда “тенглик ва инклюзивлик” ҳамда “тинчлик ва хавфсизлик” индикаторлари кўшилиши билан Ўзбекистоннинг ушбу индексдаги ўрни салбий томонга (98 ўринга) ўзгарди.

Хусусан, энг паст кўрсаткичлар – бандлик ва имконият (145 ўрин – 0,606), тенглик ва инклюзивлик (133/0,75), сиёсий ва фуқаролик иштироки (95/0,276) билан боғлиқ, шунингдек саломатлик ва фаровонлик (84/0,731), таълим (82/0,787) ҳамда тинчлик ва хавфсизлик (55/0,811) кўрсаткичларида ҳам ҳолат етарлича ижобий эмас.

Таъкидлаш жоизки, юқоридаги энг паст кўрсаткичларнинг янгиланиши мамлакатни камида 10 поғонага ўсишига олиб келади. Таҳлилларга асосан ушбу Индексда мамлакат ўринин яхшилаш борасида қатор омилларни инобатга олиш зарурдир.

Биринчидан, 6 та кўрсаткични ҳисоблашда йўқотилган ҳаёт йиллари (YLL) методикасидан фойдаланилади.

Иккинчидан, Индикаторлар орасида энг юқори вазнга - саломатлик ва фаровонлик (22 фоиз), таълим (22 фоиз), бандлик ва имконият (22 фоиз) эгадир. Қолган тенглик ва инклюзивлик (14 фоиз), фуқаролик ва сиёсий фаоллик (10 фоиз), тинчлик ва хавфсизликка (10 фоиз) тегишли.

Учинчидан, “Youth Development Index”нинг муқаддам эълон қилинган хабарномалари (Репортлари)да субиндикаторларни шакллантиришнинг аниқ метамаълумотлари (масалан “вақт билан

боғлиқ ишсизлик” субиндикатори қайси статистик маълумотлар асосида шаклланиши), ҳисоблаш методологияси мавжуд бўлмаган ҳолда, ушбу вазият қатор омиллар:

- мазкур маълумотларнинг интеллектуал мулк эканлиги;
- индекслар ва уларни шакллантириш методикасига бўлган мавжуд ишончсизликни муайян чегарада сақлаб туриш;
- ушбу йўл орқали моддий ёки бошқа манфаатларини қондириш билан боғлиқ.

Тўртинчидан, келгусида индексни ишлаб чиқишда йўл транспорт ҳодисалари натижасидаги ўлим ва спортга ёшларни жалб қилиниши ҳолатини “саломатлик ва фаровонлик” индикаторига киритилиши режалаштирилган.

Мамлакатимизнинг халқаро индекслардаги ўрнини янада яхшилаш учун республикадаги ёшлар сиёсатини амалга оширишда иштирок этувчи органлар ва муассасаларни жалб қилган ҳолда мамлакатимизда охириги йилларда ушбу соҳаларда амалга оширилган ишлар акс этган “Миллий ҳисобот”ни тайёрлаш ҳамда унинг яқунларини жаҳон ҳамжамияти ва халқаро ташкилотларга эълон қилишни талаб этмоқда.

Кейинги босқичда эса, индексни шакллантиришда иштирок этувчи хорижий ташкилот ва муассасалар билан ҳамкорлик қилиш, мамлакатнинг ўрнини янада яхшилаш юзасидан биргаликда тадқиқотлар ўтказиш масаласини кўриб чиқиш имкони мавжуд.

Таъкидлаш жоизки, амалга оширилган чоралар натижасида қатор натижалар:

- мамлакатнинг халқаро рейтинг ва индексардаги ўрни яхшиланиши;
- жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашув ва Ўзбекистоннинг бутун дунёга нисбатан юритаётган очиқлик сиёсатининг янада мустаҳкамланиши;
- мамлакатимиздаги таълим, соғлиқни-сақлаш ва бандлик соҳалари ва гендер масаласидаги мавжуд ҳолат таҳлил қилиниб, стратегик чоралар белгиланишига эришилади.

Шуни инобатга олган ҳолда Ўзбекистоннинг халқаро рейтинглардаги ўрнини яхшилашда ёшлар соҳасидаги метамаълумотларни шакллантириш ишларини амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Айтиш керакки, ушбу жараён нафақат статистик маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш, балки тегишли йўналишлардаги тадқиқот ишларини (масъул хорижий тузилмалар билан ҳамкорликда) олиб боришни ҳам талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий

Мажлисга Мурожаатномаси. 2020йил 25 январь. <http://uza.uz/o'z/politics/O'zbekiston-Respublikasi-Prezidenti-Shavkat-Mirziyevning-oliy-25-01-2020>

2.<https://thecommonwealth.org/innovation/youth-development-index>

3.https://www.un.org/esa/socdev/unyin/documents/ydiMikeThiedke_YDI.pdf

4.<https://ocdc.coop/2020-global-youth-development-report/>

Yoshlar hayotiga oid siyosatda xorij tajribalarining o'рни

Solihabonu NORMATOVA
O'zDJTU 1-bosqich talabasi
Shohsanam SHUKUROVA
O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar
N-3 kafedrası o'qituvchisi (Ilmiy rahbar)

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning vaqtlarini har tomonlama mazmunli va samarali o'tkazishda yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha ma'lumot beriladi. Yoshlarning sifatli ta'lim olishi, vatan ravnaqi uchun xizmat qiladigan yetuk farzand bo'lishi, hamda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda xorij tajribalarining o'рни haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yoshlarga oid davlat siyosati, xorij tajribalari, chora-tadbirlar, ko'rik-tanlovlar.

Shunisi ayonki, mamlakatimizda kundan kunga yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Zero, vatan ravnaqi mana shu yosh va barkamol avlodning qo'lidadir. Yosh avlod kuch va bilimga to'lib o'sar ekan, yurt kelajagi ham ishonchli qo'llarda bo'ladi. Bizning mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor juda yuqori bo'lib, yurtimizda yaratilgan har qanday imkoniyatlar yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, ularni huquqlarini himoya qilishga, sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlariga qaratilgandir. Ushbu har bir imkoniyat biz yoshlar uchun muhim ahamiyat kasb etib, bizning shijoatli, g'ayratli, tashabbuskor, hamda vatan ravnaqi va istiqboli uchun mas'uliyatli bo'lib voyaga yetishimizda katta rol o'ynaydi. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini sifatida yuksak qadrlayman" deya biz yoshlarga bergan kuchli ishonchlari hamisha bizlarni olg'a yurishga undaydi. Yurtimiz hamisha yoshlarga imkoniyatlar yaratishga va ularni qo'llab-quvvatlashga tayyordir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yilda "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorini qabul qildi.

Qarorga binoan yoshlarga oid davlat siyosatini keng targ'ib qilish borasida Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Yoshlar akademiyasi va Respublikamiz bo'ylab hududlarda "Loyihalar fabrikasi" kabi bir qator tashkilotlar o'z ishini boshladi. Bundan tashqari, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish bo'yicha, yoshlarning sog'lom va barkamol bo'lib o'sishi, ularning yetuk va shijoatli farzand bo'lishi, hamda yoshlar o'rtasida sport, kitobxonlik,

kompyuter savodxonligi, san'at va madaniyatni targ'ib etishga qaratilgan "besh tashabbus" ham o'z samarasini bermoqda. Ya'ni "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida o'tkazilib kelinayotgan "5 tashabbus olimpiadasi" yoshlar uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda juda katta hissa qo'shmoqda. Ma'lumki, yoshlar siyosatini rivojlantirish o'z ichiga bir qancha ustuvor yo'nalish va tizimlarni qamrab oladi.

Bugungi rivojlanayotgan zamonda barcha sohalarda bo'lgani kabi yoshlar siyosatida ham o'ziga xos yangicha qarashlar, g'oyalar ishlab chiqish, xorijiy davlatlarning zamonaviy, hamda ilg'or texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimiz yoshlarga oid davlat siyosatida xorij tajribalariga ham alohida e'tibor qaratadi va xorijda yoshlarga oid davlat siyosatining mexanizmlarini ham puxta o'rganib chiqqandir. Jahon bo'ylab ko'plab davlatlar yoshlarga oid davlat siyosatini tizimlashtirgan bo'lib, ushbu qonun shu mamlakatning ushbu sohadagi qarashlari, faoliyati, maqsad va vazifalarini o'z ichiga oladi.

Xususan, ko'plab Yevropa davlatlarida: Avstriya, Albaniya, Ruminiya, Slovakiya kabi davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning o'rta va uzoq muddatli strategiyalari va dasturlaridan foydalanilmoqda. Ushbu dasturlarning foydali tomonlaridan biri shuki, ushbu siyosatni amalga oshirishdan avval yoshlar hayoti o'rganib chiqiladi, hamda turli tadqiqotlar o'tkaziladi. Yoshlar hayotida uchrovchi muammolar aniqlanib, ularni samarali usullarda bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Masalan, Albaniya davlati yoshlarning o'qish va ish topishiga yo'naltirilgan bir qator siyosat va dasturlarni amalga oshiradi. Albaniya davlatida yoshlarga qaratilgan siyosatni yoshlarning ta'lim olishi, ish topishi, salomatligi kabi mavzularda ko'rib chiqishimiz mumkin. Albaniya hukumati mamlakatdagi barcha yoshlarga ta'lim imkoniyatlarini taqdim etish uchun ko'plab tadbirlar ishlab chiqqan. Shuningdek, hukumat kasb-hunarli ta'lim dasturlari va ishdagi ta'lim kabi yordamchi ta'lim yo'llarini ham taklif etadi. Mamlakatda yoshlar orasida ish topishni osonlashtirish maqsadida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Shulardan biri, hukumat tomonidan yoshlar g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy va boshqa yordamlar beriladi. Yoshlar ish beruvchilar bilan bog'lanish uchun kasb-hunar konstitutsiyalaridan foydalanishlari mumkin. Albaniya davlatidan tashqari, Moldova davlati ham yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiqishda 3 yillik strategiyadan foydalangan. Ushbu strategiyalar "2009-2013-yillarda yoshlar masalalari bo'yicha milliy strategiya", "Moldova-2020" va "2020-yilgacha

Yoshlar sektorini rivojlantirishning milliy strategiyasi” bo‘lib, bular mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatida juda muhim rol o‘ynagan.

Albatta, bu strategiyalar amalga oshirilishidan avval yoshlar o‘rtasida turli so‘rovnomalar va tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu esa Yoshlarga oid davlat siyosatini samarali usullarda amalga oshirishni ta‘minlaydi. Yuqoridagi davlatlardan tashqari yana bir qator davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosatining o‘ziga xos uslublari mavjud. Masalan, Belorussiyada ushbu siyosatni amalga oshirishda, asosan yoshlarning kompyuter savodxonligiga yuqori ahamiyat beriladi.

Buning sabablaridan biri esa kelajakda sifatli ish bilan ta‘minlanish, nafaqat Belorussiya, balki jahonning ko‘plab mamlakatlarida yaxshi maoshli ishlarda ishlash imkonini beradi. Eng asosiysi esa, Belorussiya davlatida iqtidorli va iste‘dodli o‘quvchilarning ma‘lumotlar bazasi shakllangan bo‘lib, ushbu yoshlar davlat tomonidan rag‘batlantirib boriladi. Bizning yurtimizda ham yoshlarga oid davlat siyosatida xorij tajribalaridan o‘rnak olgan holda bir qator islohotlar amalga oshirilyapti. Xususan, yoshlarni yanada kuchliroq kadr bo‘lib yetishishlarida, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishlarida, ular Yurtboshimiz va boshqa ko‘plab tashkilotlar tomonidan rag‘batlantirilyapti. Bu esa yoshlarning shijoatlariga shijoat, kuchlariga esa yana kuch va g‘ayrat qo‘shadi. Yoshlarimizning vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, kelajakda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘mak berish va ularning iqtidorlarini rag‘batlantirib borish borasida Yoshlar Ishlari Agentligi ham ko‘plab tanlovlarni e‘lon qilib bormoqda. Xususan, “Kasblar tanlovi”, “Shashka” sport musobaqasi, “Intellectual haftalik”, “Yoshlar va qonun” kabi ko‘plab tanlovlar shular jumlasidandir. Demak, bizning vatanimizda ham yoshlarga oid davlat siyosatida xorij mexanizmlari kabi juda ham ulkan islohotlar ishlab chiqilmoqda, hamda hayotga tatbiq etilmoqda. Shunga ishonchimiz komilki, ushbu chora-tadbirlar o‘z samarasi beribgina qolmay, yurtimizni dunyoning eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqa oladi. Sababi esa yuqorida aytib o‘tilganidek, har bir yurtning kelajagi uning yosh avlodlari qo‘lidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-sonli qarori.

2. Xorijiy davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari - Samarqand forumi. 2022-yil 5-6-dekabr, Samarqand.

Yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirishda qizlar ta'limi va uning ahamiyati

Istora JO'RAYEVA

Namangan davlat universiteti O'zbekiston tarixi mutaxassisligi tayanch doktoranti

Yangilanayotgan O'zbekistonni yoshlar mamlakati deb ta'riflash mumkin, chunki yil sayin oshib borayotgan aholimizning katta qismini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, ularning istak va xohishlarini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Barcha sohalardagi o'zgarishlar kabi, so'ngi yillarda yoshlar bilan ishlashning yangicha tamoyillari yaratildi. Maktabda yoki oliy ta'limda tahsil olayotgan yoshlar bilan cheklanibgina qolmasdan, jamiyatning eng muhim bo'g'ini bo'lgan mahallalardagi uyushmagan yoshlarga ham e'tibor berila boshladi. Ayniqsa, maktabni tamomlagach, turli sabablarga ko'ra hayotda o'z yo'lini topa olmayotgan qizlarning ilm olishlari yoki o'zlari qiziqqan kasb bilan shug'ullanishlari uchun imkon yaratildi.

Bu bejiz emas albatta, mamlakatimizda yoshlar siyosatini amalga oshirish, belgilangan istiqbolli rejalarni bajarishda xotin-qizlar masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston taraqqiyotining yanada ravnaq topishida xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun keng shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fanga faol jalb etish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Shuning uchun ham qizlarni ilmi qilish butun bir millatni ilmi qilish bilan tenglashtiriladi. Ko'plab xorijiy davlatlarda ham qizlar ta'limi va ularni ilmga jalb etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Misol uchun, Singapurda ilmi qizlar jamiyatda juda qadrlanadi, ilm olgan oliy ma'lumotli qiz turmushga chiqsa davlatdan katta to'yona, agar farzand ko'rsalar boshqa o'qimagan qizlarga nisbatan ko'proq suyunchi puli berilar ekan. Shu tariqa davlat qizlarni ko'proq ilm olishga undaydi. Yaponiyada esa davlat yoshlarni qo'llab-quvvatlar ekan, ayniqsa qizlarning ta'lim olishiga katta e'tibor qaratadi. Yosh qizlarga Yaponiya kelajagini yaratuvchi bo'lg'usi dono ona sifatida qaralib, qizlar ta'limi uchun sharoitlar yaratib beriladi. Ular farzandli bo'lgan taqdirda ham o'qishlari uchun alohida xonalar va tanaffuslar tashkil etilib, ularning o'qishiga imkon beriladi.

O'zbekistonda so'ngi yillarda qizlar ta'limi bo'yicha katta qadamlar tashlandi va ushbu loyihalar milliy va xorij tajribasi uyg'unligida amalga oshirildi. Germaniyaning "Constructor University" oliy ta'lim muassasasi

hamkorligida 14-18 yosh oralig'idagi umumta'lim maktablarining qizlari uchun "All for Girls v2.0" o'quv treningi tashkil etildi. Mahorat darslarida qizlar IT va sun'iy intellekt, uning turlari, kelajagi hamda kundalik hayotdagi qo'llanishiga doir bilimlarga ega bo'lishdi. Shuningdek, "Al for Girls" loyihasi Turkiyaning Bahçeşehir Universiteti bilan ham amalga oshirildi. UNICEF va ITSM (Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi) o'zaro hamkorlikda "Reimagine Education" loyihasi doirasida kasb tanlash ostonasida turgan qizlar uchun "Girls for Girls" loyihasini boshladi. 2022 yilning 13-may kuni bo'lib o'tgan "O'zbekiston qizlarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish forumi" qizlarning kelajak kasblarini tanlashida muhim dasturul amal bo'ldi. Qizlarni IT sohasida qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish masalalari O'zbekiston kabi qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarida ham dolzarb hisoblanadi. Shu bois, ushbu davlatlar "FoundHer" ayollar startap tanlovini e'lon qildi. "Wspark Women in Tech" tanlovlari ham Markaziy Osiyoda AKT sohaning rivojlanishida qizlar ishtirokining ortishiga xizmat qilmoqda.

Yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan xotin-qizlar jamiyat hayotining barcha sohalarida yuqori natijalarga erisha oladi. Ilmli qizlarning safini kengaytirish, ularni o'qish va ishlashlari uchun yetarli sharoitlarni yaratish davlatimiz rahbarining boshchiligida amalga oshirilayotgani ushbu masalaga qaratilayotgan e'tiborning yuksak namunasidir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7-martdagi PF-87-sonli farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23-iyundagi 402-sonli qaroriga muvofiq, oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan, sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga hech qanday foizsiz ta'lim kreditlarini berish, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlarni oila va xotin-qizlar qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etishni tashkil etish tartibi amaliyotga joriy qilindi. Har bir mahallada xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi, hamda viloyat, shahar va tuman hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari xotin-qizlarning muammolariga kompleks tarzda yondashmoqdalar. Yoshlar muammolarini hal etish barobarida,

ayniqsa yosh qizlarni ilmga jalb etish va hunarga o'rgatish masalaning tizimli yechimi ekanligi bugun mamlakatimiz tajribasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Hududlarda yoshlarni hunarli qilish va bo'sh ish o'rinlarini topishlarida ko'maklashish maqsadida monomarkazlar faoliyat olib bormoqda.

Ilm-ma'rifat inson qalbiga yaxshilik, ezgulik va go'zallik urug'larini ekadi, dunyo ahlini jaholat va nodonlikdan xalos etadi. Ayollari ilmi bo'lgan millat esa barcha davrlarda yuksaklikka bo'y cho'zaveradi. Ilm yo'lini mahkam tutib, magistratura bosqichlarida ham o'qishni niyat qilgan qizlarimiz ko'plab topiladi, lekin aksariyat qizlarimiz sharqona tarbiya va andisha tufayli oila a'zolarini moddiy jihatlarini o'ylab, oliy ta'limning keyingi bosqichlarida o'qiy olmas edilar. Yangi O'zbekiston bu borada qizlarimizga otalarcha g'amxo'rlik qilmoqda. 2022-2023 o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt mablag'lari davlat byudjeti hisobidan to'liq to'lab berilishi qizlarimizning o'z tanlagan yo'nalishlari bo'yicha yanada chuqurroq bilim olib, kasbi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish imkonini bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda asrlarga tatigulik islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning ko'lamini bejiz asrlarga bog'layotganim yo'q, albatta. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev uchinchi renessans poydevorini yaratishdek ulug' bir maqsadni boshlab berdilar. "Najot - ta'limda" so'zlari esa Yangi O'zbekistonning brendiga aylandi. Bugungi yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarimizni yanada yuksak marralar sari ilhomlantiradi. Davlatimiz har tomonlama yosh qizlarimizning ilmi va kasbi-korli bo'lishlarini kafolatlamoqda. Zero, aqlli va ilmi qizlarga olib borilayotgan islohotlarni to'g'ri anglagan holda imkoniyatlardan unumli foydalana oladilar. Ular o'z kelajak istiqbollari olib boruvchi porloq yo'lni ko'ra oladilar, o'z sog'liklarini naqadar muhim ekanligini anglab yetarlicha e'tibor qaratadilar, o'tayotgan vaqtlarini qadrlab hayotlarini mazmun bilan boyitadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.nier.go.jp/English/educationjapan/pdf/201403GEE.pdf>
2. <https://it-park.uz/uz/itpark/news/founder-Markaziy-Osiyo-tanloviga-arizalar-qabul-qilinmoqda>
3. <https://lex.uz/docs/-4866624 ONDATE=12.03.2021>

Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда амалга оширилаётган ишлар ва хорижий тажрибалар

Гуласал ОДИЛЖАНОВА
Наманган давлат университети
1-босқич докторанти

Бугунги кунда ёшлар сиёсати аксарият мамлакатларда давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бирига айланмоқда. Ёш авлод бутун дунёда ривожланишнинг драйвери, инновациялар катализатори ва ижтимоий тараққиётнинг энг муҳим манбаи сифатида тан олинган. Тез ўзгариб бораётган жамият ва ёшлар олдида турган муаммоларнинг мураккаблиги шароитида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишнинг янги механизмлари ва воситаларини доимий равишда такомиллаштириб бориш ва амалга ошириш зарурати ошиб бормоқда.

Ёшлар сиёсати бу давлат томонидан ёшларни қўллаб-қувватлаш ва ривожлантиришга қаратилган фаол тадбирлар тизими бўлиб, ёшлар сиёсатини шакллантириш ва амалга оширишга илмий ёндашувлар фарқланади, аммо асосий масала сифатида ёшларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг фаол иштирокчиси сифатида билишдир. Ёшлар нафақат ҳар қандай жамиятнинг келажаги, балки унинг ҳозирги ижтимоий, иқтисодий ва маданий ривожланишининг муҳим омили ҳамдир. Ёшлар салоҳиятини ривожлантириш, рўёбга чиқариш ҳамда мақбул шароитларни яратишда ёшларга оид давлат сиёсати асосий етакчи ўрин тутуди десак муболаға бўлмайди. Ёшларга оид давлат сиёсати давлат томонидан амалга ошириладиган ҳамда ёшларни ижтимоий жиҳатдан шакллантириш ва уларнинг интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтириш учун шарт-шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизими бўлиб, ёшларнинг мамлакат ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаётида фаол иштирок этиши учун шароит яратишга қаратилади.

Ўзбекистон ва бошқа хорижий давлатларнинг ёшларга оид сиёсатини ўрганиш, амалга ошириш механизмларини таҳлил қилиш қуйидаги сабабларга кўра муҳим аҳамият касб этади:

-тажриба алмашиш: халқаро тажрибани ўрганиш миллий даражада ёшлар сиёсатини такомиллаштириш учун қимматли сабоқ, тажриба ва йўналишлар бериши мумкин.

-самарадорлик: мавжуд механизмлар ва уларнинг натижаларини таҳлил қилиш, баҳолаш айнан қайси ёндашувлар самарали эканлигини аниқлашга ёрдам беради.

-инновация: ёшларни қўллаб-қувватлашнинг янги, инновацион механизмларини кашф этиш янада мослашувчан ёшлар сиёсатини ишлаб чиқишга ёрдам беради.

Марказий Осиё дунёдаги энг ёш минтақа бўлиб, аҳолисининг ўртача ёши 27,26 ёшни ташкил этади. Минтақа аҳолисининг 50 фоизга яқини Ўзбекистон Республикасига тўғри келади¹. Мамлакатимизда яқин ва узоқ истиқболга мўлжалланган ёшлар сиёсати самарадорлигини оширишга қаратилган стратегик вазифаларнинг амалга оширилиши Ўзбекистонда барқарорлик, тинчлик ва фаровонликни таъминлашга сезиларли даражада таъсир қилади.

Ўзбекистон мамлакатнинг барқарор келажагини таъминлайдиган ёшларга оид давлат сиёсатини шакллантириш устида фаол иш олиб бормоқда. Ўтган вақт ичида ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш борасида алоҳида тизим яратилди. Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги, Олий Мажлис палаталари ҳузурида Ёшлар парламентлари, Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги қошида Ёшлар академияси ташкил қилинди. Ёшларга оид давлат сиёсатнинг асосий йўналишларидан бири ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашдир. Ўзбекистон ёш тадбиркорларни ўз бизнесини бошлаш ва ривожлантириш учун зарур воситалар ва ресурслар билан таъминлаш орқали уларга қулай муҳит яратишга интилоқда. Бунга молиявий қўллаб-қувватлаш, ўқитиш, мураббийлик ва қонунчиликни такомиллаштириш борасида олиб борилаётган ислохотларни мисол қилишимиз мумкин. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларнинг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва бандлигига кўмаклашиш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш ҳамда бўш вақтини мазмунли ташкил этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2021 йил 20 апрелдаги ПФ-6208-сон Фармониға мувофиқ, ёшларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларни доимий иш

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси”

билан банд қилиш, қўшимча даромад олиши учун қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича тартиблар жорий қилинди. Ёшлар тадбиркорлиги — юридик шахс ташкил этмаган ҳолда ёш фуқаролар томонидан, шунингдек таъсисчилари ёш фуқаролар бўлган юридик шахслар томонидан амалга ошириладиган тадбиркорлик фаолиятидир.² Ўзбекистон Республикасининг ёшларга оид давлат сиёсатида ёшларнинг таълим олиш имкониятлари ва таълимнинг сифатини ошириш устувор вазифа сифатида белгиланиб, таълим муассасаларида ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказишни таъминлаш мақсадида спорт секциялари, фан, техника тўғарақлари ва ижодий тўғарақлар, клублар ташкил этиш, ўқув жараёнига таълимнинг замонавий шакллари ва усуллари жорий этиш каби вазифалар белгиланган.

Ўзбекистон барча даражадаги қарорларни қабул қилишда ёшларнинг иштирокини оширишга интилоқда. Шу мақсадда ёшларга давлат сиёсатининг шаклланишига таъсир ўтказиш ва жамият ҳаётида фаол иштирок этиш имконини берувчи ёшлар парламентлари, кенгашлари ва бошқа платформалар яратилмоқда. Ушбу устувор йўналишларни ҳисобга олган ҳолда, Ўзбекистоннинг ёшларга оид давлат сиёсати ёшларни ривожлантириш ва жалб қилишни қўллаб-қувватлашнинг кучли воситасига айланиши кўзда тутилган.

Турли мамлакатларда ёшларга оид давлат сиёсати ўзига хос хусусият ва ёндашувларга эга бўлиб, Швеция, Норвегия ва Дания каби Шимолий Европа мамлакатларда асосий эътибор ижтимоий ҳимоя ва ёшларни иш билан таъминлашга қаратилган. Японияда асосий эътибор таълим ва карьерага қаратилган бўлиб, Давлат талабалар ва ёш мутахассисларни қўллаб-қувватлаш, юқори сифатли таълим олиш ва кейинчалик ишга жойлашиш учун шароит яратиш бўйича фаол иш олиб бормоқда. АҚШнинг ёшлар сиёсати ёшлар тадбиркорлиги ва волонтерликни рағбатлантиришга қаратилган бўлиб, ёшлар дастурлари кўпинча етакчилик кўникмаларини ривожлантириш, жамоат ҳаётида иштирок этиш ва волонтерлар фаолиятига қаратилган. Сингапурда асосий эътибор таълим ва муваффақиятли карьера учун зарур бўлган кўникмаларни ривожлантиришга қаратилган бўлиб, ёшлар ўртасида инновацион ва технологик тадбиркорликни рағбатлантиришга қаратилган дастурлар амалга оширилмоқда. Германияда ёшлар сиёсати ёшларни ижтимоий ҳимоя қилиш, иш билан таъминлаш ва ёшларни

² Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентабрдаги ЎРҚ-406-сон "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонуни

ўрганиш ва бирламчи ишга жойлашиш жараёнида қўллаб-қувватлашга қаратилган. Франциянинг ёшлар сиёсати ёшлар бандлигини ошириш, таълим ва касб-ҳунар таълимини қўллаб-қувватлаш, шунингдек, ёшлар тадбиркорлигини ривожлантиришга қаратилган.

Хорижий тажрибани миллий тажриба билан таққослаш ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда умумий тенденциялар ва ўзига хос ёндашувларни аниқлашга имкон беради. Масалан, Ўзбекистонда ҳам, АҚШда ҳам ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашга катта эътибор қаратилмоқда.

Шунингдек, Шимолий Европа мамлакатларда ёшларни ижтимоий ҳимоя қилиш ва иш билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда, бу Ўзбекистон учун ҳам муҳимдир. Бироқ, амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари ва усуллари муайян миллий шароитларга қараб фарқ қилиши мумкин. Хулоса қилиб айтганда хорижий тажрибани ўрганиш нафақат ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш механизмлари ҳақидаги тушунчаларни бойитади, балки Ўзбекистонда ёшларга оид миллий сиёсатни такомиллаштиришнинг мумкин бўлган йўналишларини аниқлашга ёрдам беради. Илғор тажрибаларни қўллашда албатта уларни маҳаллий ёшларнинг ўзига хос хусусиятлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда татбиқ этиш муҳим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентабрдаги ЎРҚ-406-сон "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонуни
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сон қарори билан тасдиқланган "Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси".
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларнинг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва бандлигига кўмаклашиш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш ҳамда бўш вақтини мазмунли ташкил этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2021 йил 20 апрелдаги ПФ-6208-сон Фармони
4. J.Smith, A.Johnson // Youth Engagement in the Political Process: A Comparative Analysis // Journal of Youth Studies. 2022
5. J.Smith, A.Johnson // Youth Political Participation: A Comparative Study of Selected Countries // Journal of International Journal of Political Science. 2021

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmi va xorijiy tajribadan foydalanish

Guljaxon MAKHMUDOVA

O'zbekiston milliy universiteti professori i.f.d., dots.

Azizbek SAFAROV

O'zbekiston milliy universiteti talabasi

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko'plab talablarni qo'yimoqda.

Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

“Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'alarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz” – deb ta'kidlagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.¹

Yoshlarga oid siyosat deganda jamiyatdagi yoshlarning o'ziga xos ehtiyojlari va muammolarini hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, tashabbuslar va dasturlar majmui tushuniladi. U ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, ijtimoiy inklyuzivlikda ishtirok etish va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi. Yoshlarga oid siyosatning asosiy maqsadi yoshlarga o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, o'z jamiyati va butun jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning bir qancha yangi mexanizmlari mavjud. Ulardan biri, yoshlar agentliklari va yoshlar

¹<https://yuz.uz/uz/news/Shavkat-Mirziyoyev-yoshlar-kelajagi-bilan-bog'liq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>

ishtirokining boshqa shakllari orqali yoshlarni siyosatni ishlab chiqish jarayoniga jalb qilishdir. Yana biri - yoshlar tashabbuslari va loyihalarini moliyalashtirish va resurslar bilan ta'minlashdir. Bundan tashqari, yoshlar uchun murabbiylik va yetakchilik dasturlarini yaratish, ularga samarali yetakchi bo'lish va o'z jamoalarida ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim va bandlik siyosatida yoshlar rivojlanishiga ustuvor ahamiyat berish, yoshlarning shaxsiy va kasbiy o'sish imkoniyatlaridan foydalanishini ta'minlash muhimdir.

Yoshlarning jamiyatdagi o'rni juda muhim, chunki ular o'z jamoalari va mamlakatlari kelajagini ifodalaydi. Yoshlar ijobiy o'zgarishlar agenti bo'lish va o'z jamiyatlari rivojiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega. Ular yangi g'oyalar va istiqbollarni olib keladi va ularning energiyasi, ijodkorligi va ishtiyoqi innovatsiyalar va taraqqiyotga yo'naltirilishi mumkin.

Yoshlarga oid siyosatning xorijiy tajribasi mamlakatdan mamlakatga farq qiladi, ammo kuzatilishi mumkin bo'lgan umumiy jihatlar mavjud. Masalan, ko'plab mamlakatlarda yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonlarida o'z so'zlariga ega bo'lishini ta'minlash uchun yoshlar milliy kengashlari yoki yoshlar vakillarining boshqa shakllari tashkil etilgan. Boshqa umumiy elementlar orasida yoshlarni ish bilan ta'minlash dasturlari, yoshlar tashabbuslari va yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kiradi. Ba'zi mamlakatlarda yoshlar siyosatini nazorat qilish va yoshlarga oid dastur va tashabbuslarni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashgan davlat idoralari yoki bo'limlari ham mavjud.

Yevropa Kengashi Yevropada yoshlar siyosatini ishlab chiqish va yoshlar bilan ishlashning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Yoshlar dasturi yoshlarga inson huquqlarini himoya qiluvchi va demokratik hayotda to'liq ishtirok etuvchi, faol va mas'uliyatli Yevropa fuqarolari bo'lishga yordam beradi. Yevropa Kengashi yoshlarning imkoniyatlariga yo'naltirilgan yoshlar siyosatini ilgari suradi va ularni demokratik, inklyuziv va tinch jamiyatlar rivojiga jalb qiladi va shu tariqa yosh yevropaliklarni "o'zgarishlar agenti"ga aylantiradi.

Yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi maqsadlarga ega bo'lishi kerak:

- Mumkin bo'lgan hollarda muammoga yo'naltirilgan emas, balki imkoniyatlarga yo'naltirilgan yondashuv orqali, zarur hollarda yoshlarga oid siyosat standartlari va vositalarini ishlab chiqish orqali yoshlarga maqsadli sarmoya kiritish;

- Yoshlarni ularga oid siyosatni strategik shakllantirishga, ham siyosatni amalga oshirishning operativ samaradorligi to'g'risidagi fikrlarini o'rganishga jalb etish;

- Yoshlarning mehnat bozorida ham, fuqarolik jamiyatida ham to'laqonli ishtirok etishi uchun o'z bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan va ta'minlovchi o'rganish, imkoniyat va tajriba olish uchun sharoit yaratish;

- Yoshlarga oid siyosatning samaradorligini ko'rsatish va muayyan ijtimoiy guruhlardagi yoshlarga ma'lum sohalarda yoki muayyan sharoitlarda samarali xizmat ko'rsatish bilan bog'liq «siyosatdagi bo'shliqlar» darajasini aniqlash uchun ishonchli ma'lumotlarni to'plash tizimlarini yaratish;

- «Siyosat bo'shliqlari» mavjud bo'lgan joylarda kamaytirish majburiyatini ko'rsatish.

Bundan tashqari, Yevropa Kengashining yoshlarga oid siyosati Yevropa Kengashining faoliyat dasturi doirasida yoshlarga oid siyosatni samarali joriy etishga hissa qo'shish va hukumatlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan.²

Yevropa Ittifoqi tarkibidagi davlat – Serbiyada ham “2015-2025 yillarda yoshlar milliy strategiyasi” amaliyotga joriy etilgan. Qayd etish joizki, Serbiyada 2008-2014 yillarda ham shu kabi strategiya ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilgan. Ushbu strategiyani yakuniga oid baholash natijalari hamda Yevropa Kengashi ekspertlari tomonidan tayyorlangan “Yoshlar siyosatini takomillashtirishga oid tavsiyalar” dan kelib chiqib yangi 2015-2025 yillarga mo'ljallangan strategiya yaratilgan. 10 yilga mo'ljallangan yangi strategiya yoshlar siyosati sohasida 9 ta muhim vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- yoshlarning mehnat qobiliyatini va bandligini oshirish;
- yoshlarning o'z mutaxassisligi bo'yicha malakalarini oshirish va ularning innovatsiyalar sohasidagi bilimlarini rivojlantirish;
- yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash;
- yoshlarning salomatligini mustahkamlash;
- yoshlarning o'z xavfsizligi sohasida madaniyatini yuksaltirish;
- jamiyatdan ajralib qolish xavfi bo'lgan yoshlar guruhlarini ijtimoiylashuviga yordamlashish;
- yoshlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yosh migrantlarni qo'llash;

² <https://www.coe.int/en/web/youth/about-youth-policy>

-yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilishni takomillashtirish;

- madaniyat sohasidagi dasturlarni yaratishda yoshlarni faol jalb qilish.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir yo'nalishdagi muammolar chuqur tahlil qilingan va yoshlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgan. Ularning natijalaridan kelib chiqib, aniq va manzilli chora-tadbirlar belgilangan.³

Xulosa qilib aytganda, dunyoda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ko'plab davlat dasturlari turli shakllarda bo'lishi mumkin. Jumladan, ta'lim va o'qitish dasturlari, murabbiylik imkoniyatlari, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyalashtirish. Shuningdek, fuqarolik faolligi va ko'ngillilikni rag'batlantirish tashabbuslari. Ushbu dasturlardan ko'zlangan maqsad yoshlarga shaxsiy va kasbiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma, bilim va tajribani rivojlantirish hamda o'z jamoalari va butun jamiyatga ijobiy hissa qo'shishga yordam berishdan iborat.

Umuman olganda, yoshlarga qaratilgan davlat dasturlari ijtimoiy va iqtisodiy harakatchanlikni rag'batlantirish, tengsizlikni kamaytirish hamda yanada farovon va adolatli jamiyat qurishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda har jabhada rivojlanib borayotgan O'zbekistonda yosh avlodga qaratilgan e'tibor katta. Har qanday sohani rivojlanishida yoshlarning kuchi va roli beqiyos. Demak, yoshlarning jamiyatdagi o'rni ko'p qirrali va ularning hissasi yanada adolatli, buyuk va barqaror davlatni barpo etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://yuz.uz/uz/news/Shavkat-Mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bog'liq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>
2. <https://www.coe.int/en/web/youth/about-youth-policy>
3. <https://asianforum.uz/uz/menu/mechanisms-for-implementing-state-youth-policy-in-foreign-countries>

³ <https://Asianforum.uz/uz/menu/mechanisms-for-implementing-state-youth-policy-in-foreign-countries>

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari

Abdusattar ABDUG'AFFAROV
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, t.f.n., dotsent

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda.

Joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda yoshlar agentligi O'zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, 7ta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi. «Beshinchi yo'nalish doirasida asosan ma'naviy va ma'rifiy sohalar rivojlantirilishi nazarda tutilgan. Shu maqsadda «Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat»

konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida joylarda ta'sirchan tadbirlar o'tkazilmoqda.

Har bir inson ma'lum bir davlat va jamiyatda yashar ekan uning belgilangan qonun normalari bilan hamohang yashaydi, ulardan foydalanadi va bo'ysunadi. Shunday huquqlardan biri, ijtimoiy- iqtisodiy huquqlar bo'lib, ular shaxsga uning jamiyatda normal holatda yashashi, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir. Mavjud huquq va erkinliklar to'g'risidagi qoidalar shaxsni har tomonlama kamol topishga, ishlab chiqarishda, davlat va jamiyat hayotida keng tashabbus ko'rsatishga mehnatga ongli munosabatda bo'lishga, insonparvarlik, axloqiy ma'naviy prinsiplarga qat'iy rioya etishiga qaratilgan. So'nggi yillarda jahon hamjamiyatida fuqarolarning shuningdek jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlanishi va ular himoyasiga oid qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bunga Prezidentimiz - Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan BMT va dunyoning 100ga yaqin davlatlari ishtirokida "Xalqaro yoshlar konvensiyasi"ning qabul qilinganini misol qilish mumkin. Davlat dasturiga Ijtimoiy sohani rivojlantirish alohida tarmoq sifatida kiritilib, u quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan: 1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish. 2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. 3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish. 4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish. 5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Hozirgi kunda ushbu chora tadbirlar jadal suratlarda amalga oshirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi: millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish; yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish; milliy, madaniy an'analarning avlodlar avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi; yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga

oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish; jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi. Ushbu yoshlarga oid davlat siyosatidan ko'zlangan maqsad yoshlarimizni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish, yoshlar o'rtasida turli jinoyatchilik, huquqbuzarlik va ishsizlikni oldini olish, yoshlarni sifatli ta'lim olishida shart-sharoitlar yaratish va ko'maklashish, kelgusida ham yoshlarning huquq, erkinliklarini ta'minlashga doir normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilish va ular ijrosini ta'minlashdir.

Mamlakatimizda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik va ishsizlikning ortishi, ta'lim samaradorligi ko'rsatkichlarini nisbatan past darajada ekanligi avvalo yoshlarimizning o'z huquq va erkinliklari, shu bilan birga burchlarini to'la anglab yeta olmasligida deb bilamiz. Ta'lim olish, mulkdor bo'lish, tibbiy xizmatdan foydalanish yoshlarda umuman insonlarda tug'ilgandan boshlanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa tibbiy emlash va vaksinalar qilinishi, unga ism qo'yilishi, davlat hujjati berilishi, keyinchalik o'z o'yinchoqlari, kiyimi, buyumlariga ega bo'lishi, 3-4-yoshdan maktabgacha ta'lim muassasasiga borib ta'lim olishi barchasi uning huquq va erkinliklari samarasidir.

Vazirlar Mahkamasining "2022-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 7-iyundagi 310-son qaroriga asosan Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 13-iyuldagi 6260-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda yoshlar bilan "mahallabay" ishlash, ular o'rtasida olib boriladigan ma'na-viy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish masalalari qo'yilgan.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar bilan ishlash, jumladan, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

"Yoshlarning bo'sh vaqti - yetakchining ish vaqti" tamoyili asosida besh bosqichli "mahalla-sektor-tuman-viloyat-respublika" besh tashabbus olimpiadasini o'tkazish, shuningdek, yoshlar bilan "mahallabay" ishlash tizimini joriy etish, bunda uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli

o'tkazish maqsadida ko'chama-ko'cha tadbir va loyihalar, tanlovlar, musobaqalar hamda to'garaklarni tizimli ravishda tashkil etish;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, joylarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish;

yoshlar infratuzilmalarini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, yoshlar siyosatini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish chora-tadbirlarini belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tog'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 7-iyundagi 310-son qarori.

Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yangi bosqichda

Mansurbek TO'XSANOV
Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi
3-darajali yurist

Mamlakatimizning shiddat bilan rivojlanayotgan, har soat va daqiqada o'zgarishlarga boy xalqaro maydonda raqobatbardoshligi, ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa sohalarda dunyo raqobat bozoriga tengma teng kirib borishi va o'zining munosib o'rniga ega bo'lishida biz yoshlarga berilayotgan ta'lim-tarbiya, ta'lim muassasamizda yaratilayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozimligi, ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va do'stlikka xizmat qilishi hamda BMTning tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerakligi mustahkamlangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqlarida yoshlar masalasiga alohida to'xtalib, "yoshlarning ongi tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi, ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotganligi, bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod ekanligi, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liqligi, shuningdek bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdan iboratligi", ta'kidlab o'tildi. Shu bilan birga, davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklif etildi.

Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini tashkil etadigan yoshlar huquqlarini himoya qilish doim davlatimiz va jamiyatimiz e'tibori markazida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil avvalida BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining Jenevadagi yuksak minbarida turib, O'zbekistonda 2021 yilning "Yoshlarni qo'llab-

quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilinganini alohida ta’kidlagani ham fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Davlatimiz rahbari BMT Inson huquqlari bo’yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida ayni yo’nalishda qator tashabbuslarni ilgari surdi:

birinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Yoshlar huquqlari bo’yicha butunjahon konferensiyasini o’tkazish;

ikkinchidan, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining o’ninchi forumida Yoshlar huquqlari to’g’risidagi konvensiya loyihasini taqdim etish;

uchinchidan, Yoshlar huquqlari bo’yicha maxsus ma’ruzachi institutini ta’ sis etish takliflari bildirildi.

Bugungi kunda xalqimiz va xalqaro hamjamiyat tomonidan qo’llab-quvvatlangan ana shu tashabbuslarning barchasi izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021 yil 12-13 avgust kunlari Toshkentda “Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish” mavzusida o’tkazilgan Yoshlar huquqlari bo’yicha Butunjahon konferensiyasi buning yorqin dalolatidir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu xalqaro anjumanni o’tkazish vazifasi, avvalo, Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga doir davlat dasturida belgilab berilgandi. Bu vazifa, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Inson huquqlari bo’yicha kengashi 46-sessiyasidagi tashabbusi va takliflarini amalga oshirish bo’yicha Harakatlar rejasida ham ko’zda tutilgan¹.

Ta’kidlash joizki, davlatimiz tomonidan yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularning kelajakka bo’lgan ishonchi, bilim olishga, kasb o’rganishga bo’lgan huquqlarini yanada mustahkamlash, o’qitish va ta’lim-tarbiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tubdan takomillashtirish borasida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda yangi O’zbekiston sharoitida yoshlarga, ularning ta’lim-tarbiyasi va ijtimoiy himoyasi masalasiga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2016-yil 14-sentyabrda O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo’nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar

¹ “Yangi O’zbekiston” gazetasining shu yil 14 avgust sonida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o’rinbosari, Inson huquqlari bo’yicha Milliy markaz direktori Akmal Saidovning Yoshlar huquqlari bo’yicha butunjahon konferensiyasi tahlili va tafsilotiga bag’ishlangan maqolasi

yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi sifatida qat'iy mustahkamlab qo'yildi.

Ta'lim tizimidagi islohotlarning so'nggi besh-olti yillik tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Yangi O'zbekistonda turli sohalarda bo'lgani kabi yuridik sohada ham yoshlarning ta'lim olishiga keng imkoniyatlar yaratilib, qator imtiyozlar joriy etildi.

Xususan, Prezidentimizning 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyda o'qishga qabul tizimi, ta'lim faoliyati, moddiy-texnik baza tubdan yangilangan. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab TDYU qoshidagi akademik litseyning barcha fanlar bo'yicha yuqori natijalarga erishgan bitiruvchilari Toshkent davlat yuridik universitetiga kirish test sinovlarisiz, yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali, to'lov-kontrakt asosida, qabul parametrlaridan tashqari kirish huquqiga ega bo'ldi.

Pedagogik xodimlar esa yuqori malakali, kasbiy tayyorgarlikka va axloqiy me'yorlarga ega kadrlar bilan to'ldirilgan bo'lib, biz yoshlarga o'tilayotgan o'quv mashg'ulotlari har bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion o'qitish metodlari asosida amalga oshirilmoqda.

Ta'lim muassasamizda yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanib, biz yoshlar fanlar bo'yicha bilimlarni chuqur egallashimiz, chet tili va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirishimiz, shuningdek akademik litseyimizning respublikamiz akademik litseylari reytingida munosib o'rin egallashida biz bilan bog'liq bo'lgan quyidagi masalalarga alohida e'tibor berishimiz lozim:

Birinchi, keyingi bosqichda oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun aniq maqsad va strategik reja asosida ishlarni tashkil etish;

Ikkinchi, respublika va xalqaro fan olimpiyalari, sport musobaqalarida ishtirok etish va sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritish;

Uchinchi, chet tili va fanlarni bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lish;

To'rtinchi, ma'naviy-ma'rifiy va o'quv-tarbiyaviy ishlarda faol ishtirok etish.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, davlatimiz tomonidan biz yoshlarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, qonunchilik hujjatlari bilan berilgan huquq va imtiyozlardan unumli foydalangan holda yangi O'zbekistonning zamonaviy yangi avlod kadrlari sifatida shakllanishimiz, har bir soha bo'yicha

bilim, malaka va yuqori kasbiy ko'nikmaga ega bo'lgan raqobatbardosh kadr sifatida xalqaro maydonga chiqishimiz, davlatimiz rahbarining biz yoshlarga bo'lgan ishonchlarini oqlashimiz oliy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Yangi O'zbekiston" gazetasining shu yil 14 avgust sonida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz direktori Akmal Saidovning Yoshlar huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi tahlili va tafsilotiga bag'ishlangan maqolasi

Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash istiqbollari

Shoira MIRZOXIDOVA
*Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
O'quv markazi kafedra mudiri*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Keyingi yillarda respublikamizda joriy etilgan tashabbusli byudjetlashtirish mahallalardagi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda samarali vositadir.

Tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmlarini amalga oshirishning eng muhim natijasi nafaqat ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalarini hal qilish, balki mahallalarda inson kapitalini rivojlantirishdir. Byudjet jarayonida bevosita ishtirok etish orqali yoshlar ijtimoiy o'zgarishlarning ishtirokchilariga aylanishadi hamda yoshlarning o'z mahallalarini rivojlantirishi yuzasidan javobgarlik hissi oshadi. Chunki tashabbusli byudjetlashtirish yoshlarni mahallalarni rivojlantirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga jalb qilishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Yoshlar qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keluvchi loyihalarni taqdim etish orqali yashab turgan joylaridagi infratuzilmani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shadilar. Birgalikda ishlash, turli xil loyihalarni muhokama qilishda yoshlar muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bahsli masalalarga umumiy yechim izlashni o'rganadilar. Ushbu jarayonda ijtimoiy kapitalning eng muhim tarkibiy qismlari: ijtimoiy aloqalar va ishonch shakllanadi. Bunda ishonch nafaqat turli xil fuqarolar o'rtasida, balki fuqarolar va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida ham paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, yoshlar davlat va mahalliy hokimiyat organlarining boshqaruv jarayonlari to'g'risidagi bilimlarni, loyihalarni muhokama qilish, ishlab chiqish, taqdim etish va himoya qilish mahoratini o'zlashtiradilar. Boshqaruv organlari esa o'z navbatida, yoshlarning ehtiyojlarini tarmoqlar kesimida yoki shikoyatlar shaklida emas, balki asosli takliflar shaklida ko'rishni o'rganadilar.

Shunday qilib, hamkorlikda ishlash va murakkab vazifalarni hal qilishga tayyor, mustaqil ravishda loyihalarni yaratish, hududni rivojlantirish uchun yangi (va ko'pincha noyob) resurslarni aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlar jamoasi yaratiladi.

Bugungi kunda tashabbusli byudjetlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarda yoshlarimizning ishtiroki tobora ortib bormoqda.

“Ochiq byudjet” portali ma'lumotlariga ko'ra tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida:

18 yoshdan -30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar ishtiroki-28%ni;

30 yoshdan-50 yoshgacha bo'lgan fuqarolar ishtiroki -56%ni;

50 yoshdan yuqori yoshdagi fuqarolar ishtiroki-16%ni tashkil etmoqda.

O'zbekiston aholisining o'rtacha yoshi 26.3 yoshni tashkil etishi, yoshlarning tashabbuskorligi, fuqarolarining eng ijtimoiy faol guruhi ekanligini inobatga olganda, barcha yoshlar tashabbusli budjetlashtirish amaliyotidan xabardor va faol ishtirok etmoqda, deya ayta olmaymiz.

Lekin shu bilan birga yoshlar orasida juda iqtidorli, tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida hattoki moderator va konsultant sifatida ishtirok eta oladiganlar ham bor.

Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonidagi yoshlarning ishtirokini yoshlar orasida urf bo'lgan volontyorlikni keng jalb qilish orqali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki volontyorlar tashabbusli fuqarolar yoki yoshlar tashkiloti bo'lib, ularning ixtiyoriy asosda barcha tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti ishtirokchilariga ya'ni, boshqaruv organlaridan tortib, amaliyotda ishtirok etuvchi oddiy fuqarolarga yordam berishi tushuniladi.

Ushbu tashabbuskor yoshlar ko'pgina funksiyalarni bajarishi mumkin:

-tashabbusli byudjet amaliyoti bo'yicha axborotlarni keng targ'ib qilish, fuqarolarni unda ishtirok etishga undash. Chunki yoshlar axborot texnologiyalari, innovatsiyalar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda juda faol va ilg'or. Ular ma'lumotni yetkazishda bundan unumli foydalanadilar. Shu o'rinda yoshlar o'z oilasining tashabbusli budjet bo'yicha konsultanti va tashabbuskori ham bo'lishi mumkin.

-Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bo'yicha g'oyalarni taqdim etish va ularni fuqarolar bilan muhokama qilish, tashabbusli guruhlarini tashkil qilish va yig'ish;

-aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi (nogironligi bo'lgan shaxslar, keksa yoshdagilar, bolalar uylari tarbiyalanuvchilari) bilan tashabbusli budjet doirasida ishlar olib borish;

-loyihalar muhokamasi va rasmiylashtirilishida tashabbusli fuqarolarga ko'mak berish;

-loyihalarni amalga oshirilishi monitoringida faol ishtirok etish.

Ushbu faoliyatni samarali amalga oshirish uchun yoshlarni tashabbusli byudjet amaliyoti bo'yicha konsultantlar ko'magida moliyaviy savodxonligini oshirish zarur. Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishda yoshlar uchun mo'ljallangan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va treninglar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishda axborot ishlarini tashkil qilish zarur. Yoshlar tashabbusli byudjetlashtirishda ishtirok etish bo'yicha imkoniyatlarini, budjet mablag'larini taqsimlash qoidalarini, byudjetning qanday shakllantirilishi va uning ijrosi ustidan qanday nazorat mexanizmi amal qilishini bilishlari kerak.

Yoshlarning tashabbusli byudjetlashtirish jarayonidagi faol ishtiroki ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish va fuqarolik boshqaruvi jarayoniga jalb qilishda juda muhim hisoblanadi.

Yoshlarning tashabbusli byudjetlashtirish jarayonidagi faoli ishtiroki:

-mahalladagi yoshlarning ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan bog'liq muammolarining yechilishiga;

-o'z yashab turgan mahallalarini rivojlantirishdagi o'rniga munosabati o'zgarishiga;

-yoshlarning liderlik qobiliyati shakllanishi, ijtimoiy faolligi oshishiga;

-moliyaviy savodxonligining oshirilishi, davlat hokimiyati organlariga bo'lgan ishonchining o'sishiga;

-ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan samarali foydalanish, ularni yaxshi saqlanishiga bo'lgan munosabatni o'zgarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi 22-sentyabrdagi PQ-5250-son "Ochiq byudjet" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

4. O'zbekiston Respublikasida partisipator byudjetlashtirish va byudjetni jamoatchilik fikri asosida shakllantirish bo'yicha asosiy savollar. V.V.Vagin, Toshkent 2021-yil.

Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи нодавлат нотижорат ташкилотлари

Бахромжон ИЛҲОМЖОНОВ

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги
Давлат бошқаруви академияси мустақил изланувчиси*

Мамлакатда ёшларнинг ижобий ғоялари ва кучларини ҳаётга татбиқ этиш, фаол фуқаролик позициясини намойиш қилиши учун унинг ўзини ўзи англаши ва ижтимоий-сиёсий жараёнларга қўшилиши учун зарур шарт-шароит яратиш зарур.

Рус олимлари Н.А. Щеголева ва С.Д. Щеголевларнинг таъкидлашича, “Ёшлар муҳотида алоҳида ижтимоий-демографик гуруҳ сифатида ижобий ва салбий характердаги хусусиятлар мавжудлигини ҳисобга олиб, давлат органлари ушбу хусусиятларни илмий жамоатчилик иштирокида аниқлаб, ижобий тенденцияларни ривожлантириш ва салбий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида комплекс чора-тадбирларни амалга ошириши зарур”¹.

Ёшларга оид давлат сиёсати – давлат сиёсатининг ажралмас қисмларидан бири ҳисобланади. Аксарият даврларда ёшларга оид сиёсатнинг мазмуни ва йўналишлари ўзгариб боради. Бу ўзгаришлар кўп жиҳатдан мамлакатда олиб борилаётган ижтимоий-ҳуқуқий ислохотларнинг самарадорлигига боғлиқ.

Ижро этувчи ҳокимият органлари нодавлат нотижорат ташкилотлари устидан маъмурий бошқарув ўрнатмаслиги, балки уларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратиши керак. Ўзбекистон Республикаси Президенти барча чиқишларида бу масалага алоҳида эътибор қаратмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев “... Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак”² дея таъкидлади. Бир сўз билан айтганда, ижро этувчи ҳокимият ва унинг давлат хизматчиларини асосий вазифаларидан бири этиб – бу жамиятга хизмат қилиш лозимлиги белгиланди.

¹ Щеголева Н.А., Щеголев С.Д. Общественные объединения как эффективны инструмент политико-правовой социализации молодежи // Вестник государственного и муниципального управления. - 2016. - № 2 (21). - С. 138

² Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, - 2016 йил. - 19-бет

Ўзбекистонда бугунги кунда 8 933 та (шундан 6 276 таси юридик шахс сифатида) нодавлат нотижорат ташкилотлари адлия органлари томонидан рўйхатга олинган. Мазкур нодавлат нотижорат ташкилотларининг 684 таси Адлия вазирлигидан ҳамда 8 249 таси худудларда рўйхатдан ўтказилган³. Биргина, 1991 йилда уларнинг сони 95 та бўлганини назарда тутсак, ушбу кўрсаткич бугунги кунга қадар қарийб юз баробар ортганини кузатиш мумкин.

Мазкур демократик институтлар аҳолининг турли қатламлари, хусусан, ёшлар, хотин-қизлар, нуронийлар, ногиронлиги бўлган шахслар, спортчилар, фермерлар, ижодкорлар ва бошқалар манфаатларини ҳимоя қилишда давлат органлари билан ижтимоий шериклик қилмоқда⁴.

Илмий адабиётлар тарихида ижтимоий муносабатларни тартибга солишнинг асосий функциясини давлат ҳокимияти бажарадиган таълимотлар муҳим ўрин тутди. Бу ғоя Платон, Аристотел, Н.Макиавелли, Т.Гоббс, Г.Гегел ва бошқаларнинг асарларида ўз аксини топган. Улар давлат халқ ҳаётининг иқтисодий, сиёсий, маънавий, маданий ва бошқа соҳаларини тўлиқ назорат қилиши, барча ижтимоий тузилмаларга кенг доирада таъсир қила олиши лозим, деган фикрни илгари суради.

Жамият, сиёсий кучлар ва барча ижтимоий институтлар мамлакат сиёсатининг таркибий қисмидир. Давлат тарихининг ҳар бир босқичида ёшлар сиёсатининг мазмуни ва йўналишлари ўзгариб боради. Давлат ва жамиятнинг ёшларга нисбатан фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, ўзига хос жиҳатлари, ижобий ва салбий тажрибалари шаклланади.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев “Ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатдан ҳам ҳаёт-мамонт масаласига айланиб бормоқда”⁵, – деб, таъкидлаб ўтган. Мамлакатимизда давлат ва ёшлар ўртасида мустаҳкам ҳамкорликни ўрнатишда нодавлат нотижорат ташкилотлари – ёшларнинг жамоат бирлашмалари, хусусан, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи муҳим роль ўйнайди.

³ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг расмий сайти // minjust.gov.uz (маълумот 2023 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра тақдим этилган)

⁴ Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг янги босқичи. “Адолат” ижтимоий-сиёсий газетаси таҳририяти сайти // http://www.adolatgzt.uz/news_latest/glavnaya-novosty/5122

Yangi O'zbekiston - yoshlar mamlakati. Davlatimiz rahbari har tomonlama yoshlarni qo'llab-quvvatlayotganiga barchamiz guvohmiz. Ta'lim sohasida faoliyat yuritar ekanman, bugungi yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarni ko'rib rostini aytsam, juda xursand bo'laman. Har bir amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlar huquqlari kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunida yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan bo'lsa, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunda hokimiyat va boshqaruv organlarining bu boradagi vakolatlari hamda sohaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solingan.

Shuningdek, yangilangan Konstitutsiyamizning XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb o'zgartirilishi, 50-moddada bepul umumiy o'rta va boshlang'ich professional ta'lim olish huquqining yoshlar uchun kafolatlanganligi, 79-moddada "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi." mazmunidagi normalarning belgilanganligi ham e'tiborga molikdir. Shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqi Asosiy Qonunimiz asosida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham mustahkamlab qo'yilgan. Yoshlar o'z iqtidor va iste'dodlarini to'la namoyon etishga haqlidirlar.

Bu borada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildiki, ular yoshlarning intilish va iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish yangi qadam va yangi tizimni shakllantiradi. Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va

ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o'rganib, yangidan-yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Xorijiy ta'lim muassasalaridan mamlakatimizdagi oliy ta'lim o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko'rish masalalari buning yorqin misolidir.

“Yangi O'zbekistonni yangi mutaxassislarini tarbiyalab, voyaga yetkazish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri. Yangi O'zbekiston yoshlari, ayniqsa, mutaxassislari hamma jihatdan yetuk, komil, barkamol bo'lishlari talab etiladi. Mamlakatimizda 141 ta oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'n mingdan ortiq maktablar, kollejlari, texnikumlarda yoshlar yetuklik attestatsiyalariga, diplomlariga ega bo'lmoqdalar. Mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi, turmush tarzini yaxshilanishi, yurt obodligi, tinchligi, osoyishtaligi komil, yetuk, barkamol kadrlarni intellektual qobiliyatlariga, salohiyatlariga bog'liq.

Ayni kunlarda yetuk, komil, barkamol inson deyilganda ruhiy, axloqiy, ma'naviy, ilmiy, jismoniy jihatdan barkamollik tushuniladi. Bunday ulug'lik xislatlari bilimdonlik, ma'rifatlilik bilan omixta bo'lishi talab etiladi. Har bir kasbni o'ziga xos xususiyatlari, axloqiy jihatlari mavjud. Davlat rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganligi haqida yuqorida ta'kidlab o'tdik. Jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning bardavomligini yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatida ko'rmoqdalar. Buning yaqqol tasdig'ini esa boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda ko'ramiz. Bu islohotlarning yutug'i, bu sohadagi korrupsiyaga qarshi kurashni, hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini orttirmoqda.”¹

Har yili yoshlar kuni 30-iyun sanasida davlatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tishi ham yoshlarga qaratilgan siyosatning naqadar ahamiyatligini isbotlab turibdi. Bu uchrashuvlar Yangi O'zbekiston yoshlarining dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirishga asos bo'lmoqda.

Tilimizda, dilimizda “Yangi O'zbekiston”, “Uchinchi Renesans”, “Yangi O'zbekiston orzusi” kabi inson ruhiyatini ko'taradigan tushunchalar paydo bo'ldi va muomalada keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy sohalardagi o'zgarishlarni maqsadi, mohiyati, birinchidan insonlar dunyoqarashini o'zgartirayotgan, milliy g'oyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratayotgan bo'lsa, ikkinchidan mamlakatimiz taraqqiyotiga

¹ R.Mahmudov “Kasbiy Ma'naviyat” o'quv qo'llanma. Toshkent. 2021-y. 8-b.

mas'ul, har tomonlama jismoniy sog'lom, ahloqan pok, ma'naviy yetuk mutaxassislariga ulkan ehtiyojni vujudga keltirmoqda. "Tarbiyaning o'zagini ma'naviyat tashkil etadi."² Tarbiya barcha davrlarda ham eng dolzarb vazifa sifatida qaralgan. Tarbiyalangan, vatanparvar, imon-e'tiqodli, mehr-oqibatli, o'z kasbini mukammal egallagan, ma'naviyatli va ma'rifatli, madaniyatli shaxslarsiz mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham keyingi yillarda mamlakatimizda ma'naviy ma'rifiy ishlarni yanada jonlantirish uchun bir necha zaruriy me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi №PQ-3160 sonli "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori, "Ilm fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2019-yil 29-oktyabr, O'RQ-576), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020-yil 29-oktyabrda Farmoni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va shu kabi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada jonlantirish, rivojlantirish uchun aniq vazifalar va mablag'lar manbalari ko'rsatilib, aniqlab berildi.

Xulosa o'rnida, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni dolzarb masala ekanligini ta'kidlashni lozim ko'rdik. Chunki fuqarolarning huquqiy bilimlari, qonunlarga amal qilishi va ulardan o'z manfaatlarini himoya qilishda foydalana olishi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Qonun ustuvorligi ta'minlanishi va qonuniylik mustahkamlanishi barcha sohalarda o'sish, rivojlanish bo'lishiga turtki beradi. "Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan ziyod. Bu – aholining qariyb 55 foizi demakdir."³ "Biz Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim,"⁴ degan edi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Taraqqiyotning asosiy kuchi, tayanchi bo'lgan yoshlarning huquqiy bilimlarini boyitish, huquqiy savodxonligi va madaniyatini oshirish ayniqsa muhimdir. Chunki bu jamiyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omil.

² R.Mahmudov "Kasbiy Ma'naviyat" o'quv qo'llanma. Toshkent. 2021-y. 5-b.

³ Sh.Bahronov, O.Mamadaliyev. Yoshlar uchun – yuridik ensiklopediya "Adolat". Toshkent – 2021. 3-b.

⁴ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi Toshkent -2021, 274-bet.

O'ylaymizki, yoshlar uchun yaratilgan bunday imkoniyatlar Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans yo'lidagi ildam qadami bo'ladi. Zero, tomirlarida Ulug'bek, Navoiy, Boburlar qoni oqayotgan ushbu avlod imkoniyatlar samarasini tushunib yetadi va munosib harakat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Mahmudov "Kasbiy Ma'naviyat" o'quv qo'llanma. Toshkent. 2021-y.5-b.
2. Sh.Bahronov, O.Mamadaliyev. Yoshlar uchun – yuridik ensiklopediya "Adolat". Toshkent – 2021. 3-b.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi Toshkent -2021, 274-bet.

II. YOSHLARGA MUNOSIB MEHNAT SHAROITLARINI YARATISH, ULARNING IQTISODIY HUQUQ VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

Yoshlar muammolarini klassifikatsiyalash

Akmal SHUKUROV
O'zMU tayanch doktoranti

Yoshlar haqida so'z borar ekan, shaksiz bu o'zining o'ta dolzarbligi bilan ijtimoiy doirada hamisha kun tartibining eng yuqorisida turadigan masalalarni o'zida aks ettiradi. Buni davlat siyosatida ham ko'rish mumkin bo'lib, xususan amaldagi davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev davlat rahbari o'laroq o'z faoliyatini boshlashi bilan dastlab aynan yoshlar masalalariga e'tibor qaratdi. Ta'bir joiz bo'lsa, 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"¹ O'zbekiston Respublikasining Qonunining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilishi va ayni sananing mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlanishi² fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi.

Biroq qanchalik ko'p e'tibor qaratilmasin, barbir yoshlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalarda muammolari mavjud va bu muammolarni klassifikatsiyalash ularning yechimi yo'lida ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar yo'nalishini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz. Klassifikatsiyalashda ushbu muammolarning tabiati va uning yoshlarga ta'sirini hisobga olish lozim fikrimizcha. Yoshlarni jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rar ekanmiz avvalo e'tiborni ularning ijtimoiy muammolarini klassifikatsiyalashdan boshlash o'rinli deb hisoblaymiz va yoshlarning ijtimoiy muammolarini quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

- Uysizlik;
- Jinoyatchilik va huquqbuzarlik;
- Tengdoshlar va kattalarning bosimi;
- O'zaro munosabatlardagi muammolari;
- Oilaviy nizolar;
- Diskriminatsiya va tengsizlik;

¹ <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022> (Murojaat qilingan vaqt - 14.05.2023)

² <https://lex.uz/docs/-3255680?ONDATE=06.07.2017> (Murojaat qilingan vaqt - 14.05.2023)

- Bulling;
- Ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlik.

Yuqorida biz sanab o'tgan ijtimoiy muammolar yoshlarning jamiyat bilan integratsiyalashuvi jarayoni bilan ham bevosita bog'liq. Ularning ishsizlik, uysizlik, jinoyatchilikka moyilligi kishilar bilan muloqotidagi muammolarni namoyon qiladi. Bundan tashqari ta'limga oid muammolar ham o'ta dolzarb bo'lib, uni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

- Sifatli ta'lim olish imkoniyati cheklanganligi;
- Ta'limni tark etish darajasi yuqoriligi;
- resurslar va infratuzilmaning etishmasligi;
- ta'limdagi tengsizliklar;
- Ko'nikmalarining real hayot voqeligi bilan nomuvofiqligi;
- Akademik bosim;
- Maktablardagi bullinglar;
- Cheklangan kasbiy ta'lim imkoniyatlari.

Sifatli ta'lim olish imkoniyati cheklanganligi zamon talablariga javob bermaydigan, barcha uchun majburiy bo'lgan o'quv dasturlari, qishloqlarda sifatli ta'lim yo'qligi, oliy ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolar orqali o'zbek yoshlarining har tomonlama rivojlanishi va o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Qolaversa, shu o'rinda iqtisodiy muammolarni ham klassifikatsiyalash maqsadga muvofiq:

- ishsizlik va to'liq bandlik muammosi;
- Qashshoqlik va iqtisodiy tengsizlik;
- ekspluatatsion mehnat amaliyotlari;
- moliyaviy savodxonlik va boshqaruv ko'nikmalarining yetishmasligi;
- Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi ko'nikmalarining nomuvofiqligi.

Umuman olganda, hukumat va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan ushbu iqtisodiy muammolarni hal etish va o'zbek yoshlarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va inklyuziv iqtisodiy o'sishga yordam beruvchi siyosat kabi tashabbuslar O'zbekistondagi yoshlarning iqtisodiy istiqboli va farovonligini oshirishga qaratilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Diqqat qaratilishi lozim bo'lgan muammolarning yana bir sohasi bu madaniy muammolardir va uni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

- madaniy merosning o'zlashtirilishi va yo'qolishi;
- Identifikatsion inqiroz va madaniy assimilyatsiya;

- Millat, din yoki jinsga asoslangan noto'g'ri qarash va kamsitish;
- An'anaviy qadriyatlar va zamonaviy ta'sirlar o'rtasidagi to'qnashuv;
- Ijtimoiy stigmatizatsiya³ va marginalizatsiya⁴;
- turli xil o'ziga xosliklarning namoyon bo'lishi va tan olinmasligi
- irqi, etnik kelib chiqishi, dini yoki jinsiga qarab kamsitish va noto'g'ri qarash;
- Madaniy qadriyatlar va jamiyat umidlarining to'qnashuvi.

O'zbek yoshlari o'rtasidagi ma'naviy-madaniy muammolarni hal qilish ota-onalar, o'qituvchilar, din peshvolari va butun jamiyatni qamrab olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Axloqiy tarbiyani targ'ib qilish, ochiq muloqotni rivojlantirish, ijobiy o'rnak ko'rsatish, hamdardlik, hurmat va shaxsiy mas'uliyat muhimligini ta'kidlash o'zbek yoshlarida mustahkam ma'naviy-madaniy kompleks poydevorni shakllantirishga yordam beradi.

Qo'shimcha ravishda yoshlarning salomatligiga oid muammolarni ham klassifikatsiyalash maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar (depressiya, tashvish va boshqalar);
- Giyohvand va psixotrop moddalarni iste'mol qilish;
- Tartibsiz ovqatlanish;
- jinsiy va reproduktiv salomatlik muammolari;
- Semirib ketish va noto'g'ri turmush tarzini tanlash;
- salomatlik va gigiyena haqida xabardorlikning pastligi;
- muntazam shifokor ko'rigidan o'tmaslik.

Umuman olganda, yuqoridagi klassifikatsiyalash taqriban olingan va to'la shaklda muammolar doirasini qamrab olmagan. Biroq shunday tahlil qilish va ayni mulohazalardan kelib chiqqan holda muammolar yechimiga qaratilgan ishlanmalar ishlab chiqish bir muncha masalani soddalashuviga va ko'plab muqobil yechimlar variantini taklif qilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida qonuni <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022> (Murojaat qilingan vaqt – 14.05.2023)

³ Ijtimoiy stigma — bu shaxs yoki guruhni jamiyatning boshqa a'zolaridan ajratib ko'rsatilishiga xizmat qiladigan ijtimoiy xususiyatlar asosida ularni ma'qullamaslik yoki kamsitish (https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_stigma)

⁴ Marginalizatsiya (lotincha marginalis — chekkada joylashgan) — sotsiologik hodisa, shaxsning har qanday ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi oraliq, "chegaraviy" pozitsiyasini bildiruvchi, uning ruhiyatida ma'lum iz qoldiradigan tushuncha. (<https://ru.wikipedia.org/wiki/Маргинализация>)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida farmoni <https://lex.uz/docs/3255680?ONDATE=06.07.2017> (Murojaat qilingan vaqt – 14.05.2023)

3. Ijtimoiy stigma — bu shaxs yoki guruhni jamiyatning boshqa a'zolaridan ajratib ko'rsatilishiga xizmat qiladigan ijtimoiy xususiyatlar asosida ularni ma'qullamaslik yoki kamsitish(https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_stigma)

4. Marginalizatsiya (lotincha marginalis — chekkada joylashgan) — sotsiologik hodisa, shaxsning har qanday ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi oraliq, “chegaraviy” pozitsiyasini bildiruvchi, uning ruhiyatida ma'lum iz qoldiradigan tushuncha. (<https://ru.wikipedia.org/wiki/Маргинализация>)

Роль социального предпринимательства в усовершенствование социальной политики по поддержке молодежи

Умида ЙУЛДОШЕВА
Научно-исследовательский институт
«Семья и махалля», докторант

Аннотация: В статье рассмотрены роль и существующие механизмы социального предпринимательства в усовершенствование социальной политики по поддержке молодого поколения.

Ключевые слова: социальная политика по поддержке молодого поколения, социальное предпринимательство, роль и существующие механизмы социального предпринимательства в системе социально-экономической поддержки молодого поколения.

Сегодня Узбекистан находится на новом этапе своего развития, где реализуется широкий спектр политических, административных, экономических и социальных реформ, что в свою очередь определяет необходимость разработки различных механизмов управления социальными процессами и эффективного решения социальных проблем. Проблема интеграции процессов экономической и социальной стабильности остается актуальной. Такие направления и основные цели социально-экономического развития отражены в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы и других нормативно-правовых документах. Одним из важнейших аспектов социальной политики в нашей стране является социально-экономическая поддержка молодого поколения. Например, были усовершенствованы нормативно-правовые документы, касающиеся поддержки молодежи, были внесены институциональные изменения, такие как создание Республиканского межведомственного совета по вопросам молодежи, Союза молодежи, Институт изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров При Академии государственного управления.

Одним из наиболее эффективных инструментов в сфере социально-экономической поддержке молодого поколения может выступить социальное предпринимательство. Как относительно новое и инновационное явление, оно будет способствовать повышению качества жизни населения, конкурентоспособности и эффективности экономики, что станет важным фактором снижающейся в настоящее время динамики экономического и социального развития, которые в

настоящее время наблюдаются в мировой и национальной экономиках из-за пандемии.

Термин «социальное предпринимательство» вошел в научное сообщество только в 20 веке, но происхождение этого явления, вероятно, гораздо старше. Термины «Социальное предпринимательство» (анг. social entrepreneurship) и «социальный предприниматель» (анг. social entrepreneur) впервые упоминаются в англоязычной литературе, посвященной социальным изменениям в 1960-х и 1970-х годах. По мнению Питера Друкера, «социальный предприниматель изменит продуктивность общества в целом».¹

По мнению Грегори Диза, социальные предприниматели являются агентами изменений в социальной сфере, которые имеют следующие характеристики: принятие цели создания и поддержания социально значимого бизнеса; выявлять и неустанно реализовывать новые возможности, связанные с этой целью; участие в непрерывных инновациях, адаптации и обучении; неограниченное интенсивное передвижение с доступными ресурсами; повышенное чувство ответственности за судьбу социальных групп, в которых они работают, и результаты своей деятельности;²

Главной особенностью социального предпринимательства является данная социальная составляющая, означающая, что и целью данной деятельности, и основой деятельности субъектов являются вновь создаваемая ценность (социальная или (или) экономическая) и основная деятельность направлена на ее продолжение и расширение.³

Таким образом, когда речь идет о социальном предпринимательстве, понимаются инвестиции ресурсов в справедливую, прозрачную и широкую социальную экосистему, где существует не только честное отношение к сотрудникам, но и вид бизнеса, который обеспечивает социальные и экономические выгоды людям за пределами компании, обществу и его социальным группам.

Виды социального предпринимательства, направленные на привлечение молодого поколения к социальному предпринимательству

¹ Дэвид Борнштейн Как изменить мир. Как изменить мир: социальные предприниматели и сила новых идей. – М.: Алина Папплиер, 2015. - 496с.

² Джилл Кикал, Томас Лайонс. Социальное предпринимательство: миссия — сделать мир лучше Understanding Social Entrepreneurship: The Relentless Pursuit of Mission in an Ever Changing World. — М. Альпина Паблшер, 2014. — 304 с.

³ Kickul J., Lyons T.S. Understanding social entrepreneurship: The relentless pursuit of mission in an ever-changing world. Routledge, 2016. 350 p.

или оказание экономической социальной поддержки молодому поколению и решение существующих проблем в этой связи, можно охарактеризовать следующими институциональными формами:

- институт самозанятости и финансовой стабильности (например, удаленная работа).

- институт регионального развития и вовлечения в решение социальных проблем;

- «дополняющий» институт в процессе создания социальных инноваций и реализации ресурсного потенциала.

Несмотря на то, что ученые проводят научные исследования по социальному предпринимательству, сохраняется актуальность системного подхода к разработке рекомендаций по развитию социального предпринимательства в Узбекистане.

Утверждение правового статуса социального предпринимательства и принятие нормативных документов, регулирующих социальное предпринимательство, а также установление льгот и субсидий для социального предпринимательства также являются важной вехой в нашей национальной экономике и социальной сфере. Также реализация таких социально значимых инициатив откроет дополнительные возможности и перспективы для населения, в том числе для молодых людей, и повысит эффективность социальной политики в поддержке молодого поколения.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 О Стратегии Развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы – www.lex.uz

2. Дэвид Борнштейн Как изменить мир. Социальное предпринимательство и сила новых идей=How to change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas. – М: Альпина Паблишер, 2015. – 496с.

3. Джилл Кикал, Томас Лайонс. Социальное предпринимательство: миссия — сделать мир лучше = Understanding Social Entrepreneurship: The Relentless Pursuit of Mission in an Ever Changing World. — М. Альпина Паблишер, 2014. — 304 с.

4. Kickul J., Lyons T.S. Understanding social entrepreneurship: The relentless pursuit of mission in an ever-changing world. Routledge, 2016.350p.

Ўзбекистон ёшларини давлат бошқарувида иштироки: социологик таҳлил

Азаматжон ХУДАЙНАЗАРОВ
ЎЗМУ Фуқаролик жамияти
ва ҳуқуқ таълим кафедраси тадқиқотчиси

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон ёшларини давлат бошқарувида иштироки бўйича олиб борилган социологик тадқиқот таҳлил этилган. Шунингдек, мақолада ёшлар давлат бошқарувида иштироки этиш тизимини шакллантириш ва янада мустаҳкамлаш мақсадида кенг қўламли ишлар амалга ошириш кераклиги ёритилган. Ўзбекистон ёшлари давлат бошқаруви тизимида иштирок этишда айрим муаммолар, ечимлар ва социологик сўровнома таҳлиллари берилган.

Калит сўзлари: ёшлар, ёшлар иштироки, давлат бошқаруви, ёшларни давлат бошқарувида иштироки, лидер ёшлар, ёш кадрлар.

Кириш. Ёшларни давлат бошқарув хизматига қизиқтириш, уларни давлат хизматига кенг жалб қилиш юзасидан амалий ишларнинг тизимли равишда ташкил этилмаётганлиги, ёш кадрлар тўғрисида ўрнашиб қолган эскича қарашлардан воз кечиш, айрим раҳбарларнинг ёш кадрларга нисбатан адолатсизлиги, тажрибасиз кадр сифатида қарашлари сақланиб қолмоқда. Шунингдек, иқтидорли ва лидер ёшлар қатламини тизимли равишда шакллантириб боришда муаммолар борлиги, ёшлар ва давлат ташкилотлари раҳбарлари ўртасида алоқа йўқлиги, ушбу ташкилотлар фаолиятида уларнинг бевосита иштирок эта олиш имконияти расмийлигича қолаётганлигини кўриш мумкин. Мана шу муаммоларни ижобий ҳал этилмас экан, ҳуқуқий тартибга солинмас экан, Янги Ўзбекистон деб бонг ураётган ғоялар амалга ошмайдиган пуч ғоя сифатида қолиб кетаверади.

Давлат бошқарув хизматига креатив фикрлайдиган, фуқаролар билан дипломатик алоқага кириша оладиган, юксак маънавиятли, илғор билим ва новатор дунёқарашга эга, соф виждонли, замонавий ИТ талабларга мос ёш кадрларнинг кириб келиши халқимизнинг фаровонлиги, мамлакатимизнинг равнақи ва тараққиётини жадаллаштиради, ёшларнинг порлоқ келажагини таъминлайди, мамлакатимиз обрўси ва нуфузини халқаро майдонда юқори ўринларга кўтаради.

Асосий қисм. Ёшларнинг давлат бошқаруви ва ижтимоий-сиёсий ҳаёт соҳаларида фаол иштирокини таъминлаш муҳим масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Бу ёшларнинг ижтимоий-сиёсий муносабатларда объектив ижтимоий роли билан боғлиқ. Унинг у ёки бу сиёсий тизимга интеграцияси, улар билан мослашувчанлиги жамиятда ўзаро ҳамкорлик муносабатларнинг шаклланиши ва унинг бирлиги ҳамда хавфсизлигининг сақланиб қолиши омили ҳисобланади.

Президентимизнинг 2020 йил 25 декабрда ўтказган Ёшлар форумидаги нутқи, Олий Мажлисга Мурожаатномаси ҳамда жорий йил дастурида қайд этилган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги ҳудудий филиали қошида 20 ёшдан 35 ёшгача олий таълим муассасалари талабалари ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида фаолият юритиб келаётган ёш давлат фуқаролик хизматчилари учун “Келажак лидерлари” клуби фаолияти ташкил этилди. Мазкур клубнинг асосий мақсади ёш ватанпарвар лидерлар қатламини шакллантиришга қаратилган. Улар ўз ортидан тенгдошларини эргаштириб, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг мазмун-моҳиятини тарғиб қилиш ҳамда давлат фуқаролик хизматида истиқболли кадрларнинг улуши ортишига хизмат қилади.

Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2023 йил 11 апрель куни ёшлар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чоратадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Мазкур йиғилишда мамлакатимизда 30 ёшгача бўлган ёшлар 19 миллиондан ортиқ ёки аҳолининг 55 фоизини ташкил қилганлиги. Меҳнат бозорига ҳар йили 600 минг ёшлар кириб келаётган бўлса, келгуси 10 йилда бу рақам 1 миллионга етиши тўғрисида айтиб ўтилди.

Ёшларга сифатли таълим бериш, касб-хунарга ўқитиш ва бандлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу ишларни маҳаллада ташкил этиш бўйича вертикал бошқарув тизими яратилди. 9 минг 500 та маҳаллага фидойи ва ташаббускор ёшлар етакчилари тайинланди. Бу тизим орқали ёшларга 100 дан ортиқ имкониятлар яратилди, уларни манзилли қўллаб-қувватлаш йўлга қўйилди.

Олий таълим муассасалари талабаларини ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаоллигини аниқлаш мақсадида “Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаоллигини юксалтириш: муаммо ва ечимлар” мавзусида социологик тадқиқот ўтказилди. Сўровда

Ўзбекистон Миллий университети, Урганч давлат университети ва Чирчиқ давлат педагогика университети талабалари иштирок этдилар.


Социологик сўровномада жами 2031 нафар респондент қатнашди, жумладан, эркеклар – 486 киши (24,1%), хотин-қизлар – 1532 киши (75,9%).

Респондентларни ёш тузилмаси: 14-18 ёш – 249 киши (12,3%), 19-25 ёш – 1566 киши (77%), 26-30 ёш – 120 киши (5,9%), 31-35 ёш – 42 киши (2,1%), 36-40 ёш – 27 киши (1,3%) ва 40 ёшдан юқориси – 26 киши (1,2%) ташкил қилди.

Сўровнома иштирок этган ёшларнинг – 1861 нафари (92,5%) ОТМлари талабалари, давлат ташкилотида ишлайдигани – 92 нафар (4,5%), Хусусий корхона/фирмада ишлайди – 23 нафар (1,2%), Вақтинча ишсиз – 35 нафар (1,7%) ни ташкил этди.

Респондентлардан “Фаоллигингни ким сифатида намойиш этишни хоҳлардингиз?” сўралганда 1233 нафари (61,4%) Раҳбар, 362 нафари (18%) Ташкилотчи, 156 нафари (7,8%) Ижрочи, 31 нафари (1,5%) Томошабин, 162 нафари (8,1%) Тарғиботчи, 53 нафари (2,6%) Жавоб беришга қийналаман, 12 нафари (0,6%) ўзининг фикрларини билдиришдилар(1 жадвал).

1 ЖАДВАЛ



Мазкур сўровномада респондентлардан “Сизнинг фикрингизча, ёшларни давлат бошқаруви тизимига ишга жалб қилиш учун қандай шарт-шароитлар яратиш зарур? (4 тагача вариантни белгилашингиз мумкин)” сўралганида кўпчилик респондентларни 50,2% и (984 нафари) таълим муассаса билан давлат бошқарувида ишлашни хоҳлайдиган ёшларни аниқлаш бўйича яқин ҳамкорликни таъминлаш жавоб вариантларини белгилашган. Қолган жавоб вариантларига респондентлар қуйидагича белгилашган: 739 нафари (37,7%) ёшларни ишга жойлашиш бўйича очиқ танловларни ташкил этиш, 732 нафари (37,3%) давлат бошқарувидаги ёшларга уларнинг эҳтиёжлари ва кўникмалари доирасида иш ҳақи бериш, 732 нафари (37,3%) бюрократия ва коррупцияни олдини олиш, 731 нафари (37,3%) стажировка ўташ ва касби бўйича ўқиш имкониятларини бериш, 558 нафари (28,5%) давлат бошқарувида ишлашни хоҳлайдиган ёшларни аниқлаш бўйича ёшлар ташкилотлари билан бевосита ҳамкорликни таъминлаш, 330 нафари (16,8%) минтақавий даражадаги давлат тузилмаларида янги иш ўринларини яратиш зарур, 280 нафари (14,3%)

хизматда мансаб ўсиш имкониятларини бериш, 90 нафари (4,6%) Жавоб беришга қийналаман деган жавоб беришган (2 жадвал).


2 ЖАДВАЛ



Яна шуни таъкидлаш керакки, мазкур сўровномада респондентлардан “Ўзингизни давлат бошқарувида ишлашни хоҳлашингиз сабабини айтинг? (4 тагача вариантни белгилашингиз мумкин)” сўралганда, улар қуйидагича жавоб вариантларини белгилашдилар: 1374 нафари (69,6%) мамлакат ва жамиятни ривожлантиришга ўз улушини қўшиш имконияти, 763 нафари (38,7%) муҳим бошқарув қарорларини қабул қилишда иштирок этиш имконияти, 589 нафари (29,9%) сиёсий партиялар иштирок этиш орқали сиёсий бошқарув соҳаларида фаол қатнашиш имкониятининг мавжудлиги, 501 нафари (25,4%) давлат хизматчилари тоифасига мансуб бўлиш имконияти, 445 нафари (22,6%) давлат бошқарувида иш ҳақи ва рағбатлантиришларнинг юқори даражада эканлиги, 324 нафари

(16,4%) хизматда мансаб ўсиш имконияти, 300 нафари (15,2%) шахсий манфаатларни амалга ошириш имконияти, 140 нафари (7,1%) жавоб беришга қийналаман ва 19 нафари (1%)ўзининг фикрларини билдиришган (3 жадвал).

3 ЖАДВАЛ



Ёшларнинг ёш хусусиятлари муҳим стратегик субъект сифатида давлат ҳокимияти ва бошқарувидаги демократик ўзгаришлар билан боғлиқ ҳолда ёшларни давлат ҳокимияти ва бошқарувида жалб этишда янгича ёндашувни ва ёшларни давлат ҳокимияти бошқарув бўғинларида кенгроқ фойдаланиш стратегияси бошқарувда ёшларга хос бўлган янгича қараш, сиёсий маданий тафаккур, бошқарувни янгича ташкил этиш ва ундаги айрим ёш билан боғлиқ бўлган салбий ҳолатларни олдини олишга хизмат қилади. Ислохотларни амалга оширишга кенг демократик имконият яратиб беради. Давлат ҳокимияти

ва бошқаруви тизимида ёшларнинг иштироки ва давлат сиёсатида унга алоҳида аҳамият бериш стратегик хусусиятга эга. Бу мамлакат тараққиётининг истиқболини белгилаб берувчи кўрсаткичдир.

Хулоса қилиб айтганда, “ёшлар” ҳар бир жамият ижтимоий ва аҳоли таркибида ўзига хос ўринга эга бўлган демографик қатлам ҳисобланади. Ёшлар ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг барча соҳалари билан узвий алоқадор бўлган стратегик субъектдир. Ёшлар давлат ҳокимияти ва бошқарувида, ўзига хос ижтимоий тузилишга, таркибга эга бўлган, узлуксиз динамик тарзда янгиланиб турадиган фаол социал қатламдир.

Янги Ўзбекистон тараққиёти стратегиясини қуриш борасида олиб борилаётган ислохотларда ёшлар давлат бошқаруви тизимида иштирокини ошириш, новатор ва креатив фикрлайдиган, кенг дунёқараш ва чуқур билимларга эга ташаббускор, мамлакат манфаати йўлида бор куч-ғайрати, билим ва салоҳиятини сафарбар қиладиган, мамлакат истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига оладиган ёшларни тарбиялаш зарур.

Давлат бошқарувида ёшлар иштироки ошиб бориши белгиланган ислохотларнинг самарали амалга оширилишига ижобий таъсир кўрсатади. Бу жамият тараққиётида ўз истиқболига эга. Юксак маънавий салоҳиятга эга бўлган ёшларсиз Янги Ўзбекистон келажагини тасаввур этиш қийин. Буни ёшлар ҳис этишлари ва алоҳида масъулият билан Янги Ўзбекистон ижтимоий ҳаёт соҳаларида фаол иштирок этишлари зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. https://uza.uz/uz/posts/kelajak-liderlari-klubining-vazifalari-nimalardan-iborat_277492

2. Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаоллигини юксалтириш: муаммо ва ечимлар мавзусида социологик сўровнома. https://www.researchgate.net/publication/369913300_O'zbekiston_yoshlarining_ijtimoiy_siyosiy_jarayonlarda_faolligini_oshirish_muammo_va_yechimlari_mavzusida_sotsiologik_so'rovnoma

3. Эргашев И., Худайназаров А. У. Ўзбекистон жамияти бошқарувида ёшлар фаоллигини оширишнинг маънавий омиллари //Журнал Социальных Исследований. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

4. Худайназаров А. У. Роль реформ в повышении активности молодежи узбекистана в социально-политических процессах //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2 (83). – С. 661-665.

5. Urinbaevich K. A. Factors for increasing the activity of youth of Uzbekistan in the field of science and education //Middle East Journal of Applied Science & Technology. – 2022. – T. 5. – №. 1. – C. 33-37.

6. Abdurakhmonovich S. B., Urinbaevich K. A. The Role of Reading in increasing the activity of youth in Socio-Political Processes //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 23. – C. 222.

7. Urinbaevich K. A. Youth of Uzbekistan as a subject of changes in political processes //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 1455-1464.

8. Ergashev, I, Abdullayev, B.B, Xudaynazarov, A.O. & Berdiyeva, M.I. Transformation of Youth and the System of Values. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences 6(4), 24–32 (2022).

9. Xidirov A, Mamatmurodov B, Mamatqulov, E, & Xudaynazarov, A. (2022). Yoshlar ongida milliylikka bo'lgan ishonchni kuchaytirishda axloqning o'rnini. Conference, 344-347.

Камбағалликни қисқартиришда инсон капиталининг аҳамияти

Зафар ХУЖАНОВ
СамДУ таянч докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада инсон капитали моҳиятини тавсифловчи назарий ёндашувлар илмий жиҳатдан таҳлил этилиб, инсон капитали тушунчасини шакллантириш ва ривожлантиришнинг камбағалликни қисқартиришдаги аҳамияти ҳамда Республикамизда инсон капиталини ривожланиш ҳолати тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: инсон капитали, камбағаллик, инсон тараққиёти, иқтисодий тизим, интеллектуал салоҳият, таълим, соғлиқ, инвестиция.

Жамият ва иқтисодиётни ривожланиши инсон томонидан тўпланган интеллектуал салоҳиятни чуқур тадқиқ этиш ҳаётий заруратга айланди. Шу боис, инсон капиталини ривожлантириш бутун дунё бўйлаб ҳукумат сиёсати даражасига кўтарилди. Инсон капитали тушунчаси ижтимоий-иқтисодий категория сифатида XX асрнинг 60-йилларида муомалага киритилган. Жамият турмуши ва иқтисодиётда инсон капитали тушунчасининг оммалашуви етакчи ривожланган давлатларда тадқиқотларнинг авж олишига олиб келди. Инсон капитали назариясига кўра, одамлар билим олиш, иш кўникмаларини ўрганиш, тажриба орттириш, пунктуаллик ва ҳалоллик каби фазилатларга эга бўлиш ва бошқа йўллар билан малакага эга бўлиш учун таълимга, соғлигига маблағ сарфлайди. Ушбу инвестициялар меҳнат унумдорлигини ошириши ва шу билан ишчиларнинг юқори даромад олишини таъминлайди.

Инсон капитали концепцияси илк бор Адам Смит томонидан “Халқлар бойлигининг моҳияти ва сабаблари хусусидаги тадқиқотлар” асарида халқларнинг бойлиги асосан ишчилар сони ва улар кўникмасининг сифати билан белгиланишини кўрсатган. Алфред Маршалл инсон капиталига узоқ муддатли инвестициялар самараси сифатида қараб бу жараёнда инсоннинг ролини таҳлил қилган. Ж.Кендрик инсон капитали қаторига умумий таълим ва махсус тайёргарлик учун, соғлиқни сақлаш ва иш кучи ҳаракатланиши ҳаражатларни киритади.

Америкалик иқтисодчи олим - Теодор Шульц инсон капитали назариясининг асосларини ишлаб чиқди. У инсон капиталига «... – шахснинг ўзи ва умуман, жамиятнинг кўп сонли эҳтиёжларини қоплашга хизмат қиладиган билими, қобилияти ва кўникмалари йиғиндисидир» - деб таъриф беради . Т.Шульцнинг фикрича, инсонга инвестиция киритишнинг асосий натижалари одамларда меҳнат қобилиятининг ортиши, уларнинг жамиятда самарали бунёдкорлик фаолиятини амалга ошириши, саломат бўлиши ва ҳоказоларда ўз ифодасини топади.

Инсон капитали назариётчиларидан бири Г.Беккер фикрича “инсон капиталини - шахсларнинг ўз меҳнат вазифаларини бажаришда самарали бўлишига имкон берадиган ва шу тариқа иш ҳақи ва бошқа турдаги компенсация ёки имтиёزلарни қопланиши учун иқтисодий асосни таъминлайдиган билим, кўникма ва қобилиятларини англатади”. Бунда у ходимларни махсус ўқитиш, уларда махсус билим ва кўникмалар ҳосил қилишга алоҳида аҳамият берган. С.Фишер инсон капиталини “...- инсонда мужассамлашган даромад келтириш қобилияти мезонидир. Инсон капитали туғма қобилият ва истеъдод, шунингдек олинган таълим ва малакадан иборат” - деб кўрсатади.

Дастлабки пайтда инсон капитали деганда одамларнинг меҳнатга бўлган қобилияти – таълим ва касб кўникмаларига инвестициялар жамланмаси тушунилган. Кейинчалик инсон капитали тушунчаси жиддий равишда кенгайди. Жаҳон банки экспертлари томонидан амалга оширилган энг сўнги ҳисоб-китобларда инсон капиталига истеъмол харажатлари – оилаларнинг овқатланиши, кийим-кечак, турар жой, таълим, соғлиқни сақлаш, маданиятга ва ҳоказоларга сарфлари, шунингдек давлатнинг бу мақсадлар учун харажатлари киритилган .

Профессор Қ.Х.Абдурахмоновнинг фикрича, “Инсон капиталини аҳамияти табиий ресурслар, моддий бойлик ва воситаларга қараганда юқорироқдир”. Шунинг учун инсон капитали иқтисодий ўсиш ва самарадорликнинг асосий омилидир. Ҳозирги даврда инсон капитали интеллектуал ва бошқарув меҳнатини, яшаш ва меҳнат фаолияти муҳитини қамраб оладиган иқтисодиётни, жамият ва оилани ривожлантиришнинг интенсиф ишлаб чиқариш омилидир. Бу инсон капиталини ривожлантиришнинг ишлаб чиқарувчи омили сифатида самарали ва оқилона амал этишини таъминлайди. С.Алкире инсон капитали ёки қобилияти одамларга жамиятда яхши фаолият юритиш учун зарур бўлган кўникма ёки қобилиятни таъминлашини

таъкидлайди. Инсон қобилиятининг етишмаслиги одамни ишини йўқотиш, касаллик ёки оиладаги ўзгаришлар каби зарарли ҳодисаларга дуч келганда иқтисодий жиҳатдан заифроқ ҳолатга келтиради. Инсон капиталининг юқори сифатига эга бўлган шахслар меҳнат бозорида яхши натижаларга эришадилар.

БМТнинг Тараққиёт Дастури экспертлари томонидан 1990 йилдан бошлаб “Инсон тараққиёти” индекси ҳар йили турли мамлакатларда турмуш даражаси, саводхонлик, таълим, умр кўриш давомийлиги каби инсоннинг асосий хусусиятларини ўлчаш ва таққослаш учун ҳар йили ҳисоблаб чиқилади. У турли мамлакатлар ва минтақалар турмуш даражаси ўртасидаги умумий фарқларни аниқлашда стандарт ва восита вазифасини ўтайди.

1-жадвал: Инсон тараққиёти индексидаги тенденциялар, 1990-2021 йиллар

| | Инсон Тараққиёти Индекси (HDI) | | | | | | | HDI Даражасининг ўзгариши | | Инсон Тараққиёти Индексининг ўртача йиллик ўсиши | | |
|------------|--------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|---------------------------|-----------|--|-----------|-----------|
| | Қиймат | | | | | | | | | (%) | | |
| | 1990 | 2000 | 2010 | 2015 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2015-2021 | 1990-2000 | 2000-2010 | 2010-2021 |
| Ўзбекистон | .. | 0,607 | 0,673 | 0,701 | 0,720 | 0,726 | 0,721 | 0,727 | 11 | | 1,04 | 0,70 |

Учта асосий йўналиши бўйича узоқ умр кўриш ва соғлом ҳаёт, билимга эга бўлиш ва муносиб турмуш даражаси билан ўлчанадиган инсон тараққиёти индекси бўйича Ўзбекистоннинг 2021 йилдаги кўрсаткичи 0,727 ни ташкил этди ҳамда мамлакатимиз инсон тараққиёти бўйича юқори тоифага кириб, 191 мамлакат ичида 101-ўринни эгаллади. 2000-2021-йилларда Ўзбекистоннинг Инсон тараққиёти индекси кўрсаткичи 0,599 дан 0,727 гача, яъни 20,8 фоизга ўсди. 1990-2019 йилларда Ўзбекистонда туғилишда кутилаётган умр кўриш давомийлиги 5,2 йилга, ўртача таълим йиллари 2,7 йилга ва кутилаётган ўқиш йиллари 0,8 йилга ошган. Ўзбекистонда аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулот 1990-2019 йилларда қарийб 115,6 фоизга ошган.

Инсон капитали одамларнинг бутун умри давомида тўплайдиган, жамиятнинг самарали аъзоси сифатида ўз салоҳиятини рўёбга чиқариш имконини берувчи билим, кўникма ва саломатликдан иборат. Инсон капиталини ривожлантириш орқали инклюзив жамиятлар яратишимиз ва камбағалликка барҳам беришимиз мумкин. Бу одамларга овқатланиш, соғлиқни сақлаш, сифатли таълим, иш ўринлари ва

кўникмалар орқали сармоя киритишни талаб қилади. Инсон капитали иқтисодий ўсиш ва камбағалликни камайтиришда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Инсон капиталининг тўпланиши меҳнат унумдорлигини оширади, капиталнинг даромадлилигини оширади ва иқтисодий ўсишни янада барқарор қилади, бу эса, ўз навбатида, камбағалликни қисқартиришни қўллаб қувватлайди.

Инсон капитали назариясига мувофиқ, инсон капиталининг тўпланиши энг асосийлари таълим олиш ҳамда касбий тайёргарлик давомида қобилиятларни ривожлантириш асосида капитални тўплашдир. Одатда бу қатордан оиладаги тарбия ҳам ўрин олади. Камбағалликни бартараф этишда таълим муҳим рол ўйнайди. Таълим ва соғлиқни сақлаш каби инсон капиталини тўплашга қаратилган омилар, даромадлар тенгсизлиги йўқотиш ва иқтисодий ўсишни таъминлаш орқали камбағалликни қисқартиришда муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кендрик Дж. Совокупный капитал США и его функционирование. – М.: Прогресс, 1976. - С.113.
2. Курганский С.А. Введение в теорию человеческого капитала. - СПб.: ГУЭФ, 1999. -60 С.;
3. Becker, G. S. (1993). Human Capital (3rd ed.). Chicago: University of Chicago Press
4. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономическая теория. — М., Юнити, 2002. - С. 21.
5. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. –Т.: Меҳнат, 2009. - Б.182.
6. Инсон тараққиёти. Дарслик Қ.Х.Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 77 б.
7. Alkire, S. (2007). Choosing dimensions: The capability approach and multidimensional poverty. CPRC Working Paper, 88, 1-25
8. UNDP. Human Development Report 2021. <http://hdr.undp.org/en/data>

Туризм индустриясида ёшлар тадбиркорлигини рағбатлантиришнинг ташкилий жиҳатлари

Сирожиддин ХАЛИЛОВ
Тошкент шаҳридаги
“Alfraganus University”
доценти, и.ф.ф.д.

Туризм индустрияси жаҳон хўжалик тизимининг жадал суръатлар билан ривожланиб бораётган тармоғи саналади. Туризм индустриясининг мамлакат миллий иқтисодиётидаги улушини кўпайтириш учун креатив лойиҳалар ҳаётга татбиқ этилмоқда. Ана шундай илғор давлатлар сирасига Франция, Испания, Америка Қўшма Штатлари, Сингапур, Япония кабиларни киритиш ўринли. Бугунги кунда Ўзбекистонда ҳам туризм индустриясини ривожлантиришга устувор аҳамият қаратилган ҳамда мазкур тармоққа иқтисодиётнинг стратегик сектори мақоми берилган.

Ўзбекистонга туризмнинг махсус йўналишларида туристлар оқимини барқарор жалб қилиш учун, биринчи навбатда, бу соҳада ёш тадбиркорларнинг стартап-лойиҳалари ва инновацион ишланмаларини тизимли қўллаб-қувватлаш механизмини пухта ишлаб чиқиш тақозо этилади. Боиси, хорижий ва маҳаллий туристларга хизмат кўрсатишда анъанавий дастурлар ва қулай инфратузилмага эга йирик дестинацияларга таяниб қолинган. Масалан, тарихий-маданий, ишбилармонлик ва зиёрат туризми мақсадларидаги саёҳатлар асосий локомотив вазифасини бажармоқда. Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Хива шаҳарлари етакчи аттракция ҳудудларига айланиб қолган. Бу ҳолат эса тақдим этилаётган туристик маҳсулотларни латерал диверсификациялашни талаб қилади. Пировард натижада Ўзбекистонга кирувчи ёшлар туристик оқими ортади. Шунингдек, туризмнинг альтернатив йўналишларида профессионал малакага эга ёшларнинг тадбиркорлик фаолияти кенгайди. Шу маънода, Ўзбекистоннинг куйидаги альтернатив йўналишлардаги салоҳиятидан рационал фойдаланиш зарурати долзарб аҳамият касб этмоқда: экстремал туризм; спелеотуризм; гастрономик туризм; караванинг; агротуризм; этнографик туризм; рекреацион туризм; экотуризм шулар жумласидан.

Латерал диверсификация чоралари, ўз ўрнида, глобал туризм бозорини сегментлашга таргетинг ёндашувини шакллантириш билан параллел амалга ошади. Қуйидаги жадвалда туризмнинг махсус йўналишлари кесимида миллий туристик маҳсулотни диверсификациялашнинг демографик спецификага кўра таргетинг ёндашуви ўз аксини топган (1-жадвал).

1-жадвал.


Ёшлар тадбиркорлигини ривожлантириш мақсадида демографик сегментация мезонларига кўра миллий туристик маҳсулотни диверсификациялаш йўллари⁷⁵

| Т/р | Туризмнинг муқобил йўналишлари | Инициатив туроператорлар фаолият олиб бораётган туристик оқимнинг потенциал импортёрлари |
|-----|--------------------------------|--|
| 1. | Экстремал туризм | Испания, Малайзия, Қирғизистон |
| 2. | Спелеотуризм | Португалия, Жанубий Корея, Таиланд |
| 3. | Гастрономик туризм | Италия, Озарбайжон, Филиппин |
| 4. | Караванинг | Германия, Индонезия, Покистон |
| 5. | Агротуризм | Франция, Арманистон, Хитой |
| 6. | Этнографик туризм | Буюк Британия, Ҳиндистон, Тожикистон |
| 7. | Рекреацион туризм | Бельгия, Туркия, Қозоғистон |
| 8. | Экотуризм | Чехия, Миср, Туркменистон |

Ўзбекистоннинг миллий туризм бренди халқаро тарғибот кампаниясини ташкил қилишда юқорида келтирилган сегментация натижаларига амал қилиш мақсадга мувофиқ. Шу билан бирга, туризмни ривожлантиришга мўлжалланган давлат мақсадли жамғармаси йиллик бюджетидан молиялаштириладиган “устуворликлар триадаси”ни белгилаш орқали иқтисодий натижадорликни кафолатли таъминлаш лозим. Яъни ҳар йили энг камида учта йўналишда комплекс ривожланиш ва инфратузилма объектларини модернизациялаш дастурларини тасдиқлаш самарали ечим бўлади.

Таъкидлаш жоизки, туризм индустриясида ёшлар тадбиркорлик фаолияти давлат ваколатли органи томонидан алоҳида эътибор ва манзилли қўллаб-қувватлашга эҳтиёж сезади. Шундай экан, туризм индустриясида мустақил тадбиркорлик субъекти сифатида фаолият олиб бораётган ёки айна фаолият тури билан шуғулланиш истагида бўлган ёшларнинг бизнес-ташаббусларини рағбатлантиришнинг ташкилий жиҳатларини тизимлаштириш лозим (1-расм).

⁷⁵ Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.



1-расм. Туризм индустриясида ёшлар тадбиркорлигини давлат томонидан рағбатлантириш бўйича ташкилий чоралар мажмуи

Хулоса қилиб айтганда, туризм индустрияси креатив ғоялар ва инновацион ечимларга ҳар қачонгидан ҳам муҳтож. Жаҳон туризм бозорида Ўзбекистоннинг рақобат позициясини қатъий эгаллаш ва мунтазам мустаҳкамлаб бориш ушбу тармоқда ёшлар қатламининг бизнес-ташаббусларини манзилли қўллаб-қувватлаш билан узвий боғлиқ. Конъюнктуравий ўзгаришларга адаптация хусусиятига кўра рақобат босимиға қарши тактик кураш олиб боришда ёш тадбиркорлар нисбатан бардошли ҳисобланади. Бунда марказлашган стимуляцион ядро вазифасини Ўзбекистон Республикаси Маданият ва туризм вазирлиги бажаради. Ривожланишнинг замонавий трендлари эса вазирлик томонидан тасдиқланувчи ташкилий-административ тадбирларнинг стратегик оптималлигига эришишни тақозо қилмоқда.

Geologiya sohasida yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan muhrlanmoqda

Mirhomid MIRAKBAROV
*Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti mustaqil izlanuvchisi*

Murodilla XAYDAROV
*Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
Geologiya fanlari universiteti birinchi prorektori,
t.f.d., professor (Ilmiy rahbar)*

“Bir paytlar O'zbekistonda geologiya ancha rivojlangan, raqobatbardosh soha edi. Hatto boshqalar kelib, yurtimiz mutaxassislaridan tajriba o'rganib ketardi. Lekin oxirgi o'ttiz yilda bu soha e'tibordan chetda qolib ketdi. Bor salohiyatni saqlab qololmadik. Olimlarga yo'nalish, rag'bat bo'lmadi. Zamonaviy kadrlar yetishib chiqmadi. Aslida, geologik tadqiqotlar iqtisodiyotning hamma sohalari uchun kerak. Tashxissiz bemorni operatsiya qilib bo'lmaganidek, geologiyasiz sanoatni rivojlantirib bo'lmaydi. Biz bugun shu soha rivojiga asos bo'ladigan ilm dargohiga poydevor qo'ymoqdamiz”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 31-yanvar kuni poytaxtimizning Olimlar ko'chasidagi ilmiy-tadqiqot institutlariga tashrif buyurdi. Ma'lumki, 2020-yil mamlakatimizda Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilindi. Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida shu boradagi maqsadlarga to'xtalar ekan, har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. 2021-yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiyada fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratilishi belgilandi. Yurtimiz zamini tabiiy resurslarga boy. Ularni tadqiq qilib, samarali o'zlashtirish uchun geologiya birlamchi asos. Shu bois, Prezidentimiz bu sohani alohida nazoratiga olib, uning rivojlantirish asoslarini yangidan tashkil etib bermoqda. Bugungi kunda yer qa'rini geologik o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi 4 ta muassasa – Geologiya va geofizika instituti, Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti, Mineral resurslar instituti, Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti tomonidan olib boriladi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mazkur institutlar negizida yaxlit majmua – zamonaviy universitet tashkil etilishi rejalashtirilgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 31-yanvar kuni ushbu yangi universitet kampusiga tamal toshi qo'ydi. Mazkur muassasa ta'lim va ilm-fan klasteri shaklida bo'ladi. 4 ta institutning moddiy-texnik bazasi va ilmiy kadrlar salohiyati birlashtirilib, eng ilg'or uskunalar bilan jihozlanadi. Sankt-Peterburg tog'-kon universiteti va boshqa nufuzli dargohlar bilan hamkorlikda ta'lim dasturi yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari Geologiya fanlari universiteti qurilishiga oid loyihalar bilan tanishdi. O'quv binolari va laboratoriyalarni chet el tajribasi hamda kasb spetsifikasidan kelib chiqib qurish, maydonlardan samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlari, jumladan, kimyo, neft va gaz, energetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, zargarlik sanoatini xomashyo bilan ta'minlash uchun, avvalo, geologiya-qidiruv sohasini tubdan rivojlantirish lozimligi qayd etilib, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi oldiga shu yilda yangi istiqbolli maydonlar va konlarni aniqlashni 35 foizga, kelgusi yilda esa 40 foizga oshirish vazifasini qo'yilgan edi.

Tabiiyki, sohada foydali qazilmalar zaxiralarini ko'paytirish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash, hududlarda zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishda yetarli xomashyo bazasini yaratish, bir so'z bilan aytganda, mazkur vazifani sifatli bajarish uchun, eng avvalo, geologiya ilm-fani va ta'limini rivojlantirish zarur. Chunki, har qanday soha malakali va tajribali mutaxassislarining salohiyati va mehnati evaziga rivojlanadi. Mazkur dolzarb vazifani amalga oshirish 2020-yilgi Davlat dasturining 181-bandida belgilangan.

Davlat rahbarining joriy yil 8-iyun kuni imzolagan "Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan sohadagi kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq mavjud muammolar hal etiladigan bo'ldi.

Qarorga ko'ra, geologiya sohasida ta'lim, ilmiy-tadqiqot va amaliyot integratsiyasiga ixtisoslashgan, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi ta'sischiligida Geologiya fanlari universiteti tashkil etiladi.

«Art Therapy» atamasi ikkita so‘zning qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. “Art” inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib- “san‘at”, “terapiya” so‘zi esa yunoncha “therapeia” so‘zidan olingan bo‘lib – “davolash” degan ma‘noni anglatadi. Bugungi kunda art-terapiya ayniqsa nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashda qo‘llash muhim va zarur bo‘lib kelmoqda. Deyarli har bir bola ishtirok etishi mumkin, hech qanday iste‘dod talab qilmaydi, art-terapiya ishi tasviriy faoliyat qobiliyati yoki badiiy mahoratni rivojlantiradi. Bundan tashqari, tasviriy ijod mahsullari obyektiv nutq nuqsonli bolalarni ruhiy va fikrlarining dalillari ulardan diagnostika sifatida foydalanishga yordam beradi. Shunday qilib, art-terapiyaning nutqida kamchiliklari bor bolalarning nutqini faollashtirishda qo‘llanilishi, ularni hayotga faol shaxs qilib tayyorlash vazifa qilib olinganligi va bu muammo deyarli ilmiy tomondan ishlanmaganligi uning dolzarbligini belgilab beradi.

Ushbu makola art-terapiya texnologiyasi asosida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini faollashtirish masalasiga bagishlandi. Art-terapiya yordamida nutqi rivojlanmagan bolalar nutqini faollashtirish jarayoni Toshkent shahridagi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markaziga (RBIMM) baza sifatida tanlandi, og‘ir nutq nuqsoniga ega bolalar jalb etildi.

Tadqiqotda 3 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan 50 nafar 1, 2, 3-darajali nutqi rivojlanmagan bolalar ishtirok etdi. Art-terapiya asosida nutq kamchiliga ega bo‘lgan bolalarning nutqini faollashtirish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va rivojlantirish; bola bilan aloqa o‘rnatish (rasm chizishga dastlabki motivatsiyani rivojlantirish, negativizmlarni yengish, tasviriy faoliyatga qiziqishni rivojlantirish); chizmachilik ko‘nikmalarini rivojlantirish; rasm chizish jarayonida savol-javob, suhbat, imo-ishoralar, klaster usullari orqali fikrlashni, dadil gapirishni, nutqni faollashtirishni o‘rgatish.

Art-terapiya metodikasini qo'llashda bir nechta chizish usullaridan foydalandik: bo'yoqlar bilan barmoq vositasida chizish; qo'l kafti bilan chizish; mo'yqalam yordamida chizish; qalam bilan chizish; turli xil buyumlar yordamida chizish. Baholash mezonlari: 3-ball- topshiriq to'liq bajarildi, faqat sekinlashgan sur'atda. Savollar javobga qaraldi; 2 ball -topshiriq logoped yordamida bajarildi; Savollarga javob yo'q; 1 ball - topshiriq logoped yordamida bajarildi. Sharchalar to'liq bo'yalmadi. Savollarga javob yo'q.

Topshiriqni bajarish uchun logoped tomonidan jihozlar tayyorlab qo'yilgan. Endi bolalar oldiga rangli bo'yoqlar va rangli qalamlar kukuni qo'yiladi. Ularga bo'yab berish taklif qilinadi. Bolalar xohishiga qarab bo'yoq yordamida yoki rangli kukun yordamida barmoqlari vositasida bo'yab berishadi.

Natijalar bo'yicha 1 ball bilan motor alaliya, ZRR, ZPRR, Daun sindromli 21 nafar bolalar natija ko'rsatishdi chunki ulardagi mayda barmoqlar harakatchanligi sust bo'lganligi, diqqat tarqoqlik va gipper harakatchanlik kuchliligi sabab bo'ldi. 2 ball bilan motor alaliya, duduqlanuvchi, BSF, Zprrr bo'lgan 13 nafar bola natija ko'rsatdi, Bolalardagi harakatchanlik sustligi diqqat tarqoqligi sabab bo'ldi. 3 ball bilan BSF, motor alaliya, duduqlanish, Zprrr, bolalar nevroz, zaif eshituvchi 16 nafar nutqi faol bo'lmagan harakatlarida, mushaklarida tortishishlar mavjudligi sabab bo'lib ko'rsatildi (Jadval 1).

Art-terapiya metodining mezonlari, ko'rsatkichlari va samaradorligi darajasi og'ir nutq kamchiligiga ega bolalar nutqini faollashtirishda o'z natijasini berdi.

Art-terapiya texnologiyasi asosida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini faollashtirish natijalari. Natijalar bo'yicha 1 ball bilan 14 nafar bolalar, motor alaliya, duduqlanuvchi, ZPRR, bolalar nevrozi, Zaif eshituvchi bolalar tashkil qildi chunki bolada kirishuvchanlik, tortinchoqlik va qol harakatlari sustligi sabab bo'ldi. 2 ball bilan 15 nafar bola natija ko'rsatdi, motor alaliya, duduqlanuvchi, ZPRR, BSF bolalar tashkil qildi chunki bazi bolalarda mushaklar tortishuvchanlik, harakatning cheklanganligi kuzatildi. 3 ball bilan esa 21 nafar motor alaliya, ZRR, ZPRR, BSF nutqi faol bo'lmagan bola natija ko'rsatdi.

Jadval-1

| Nuqsonli bolalar tashhisi | Motor alaliya | Duduqlanish | ZRR | ZPRR | RAS | BSF | Bolalar nevrozi | Daun | SDVG | Aqli zaif esgirtuvchi | Natija |
|---------------------------|---------------|-------------|-----|------|-----|-----|-----------------|------|------|-----------------------|--------|
| 3 ball | 4 | | 1 | 5 | | 10 | | 1 | | | 21 |
| 2 ball | 2 | 3 | | 4 | | 6 | | | | | 15 |
| 1 ball | 1 | 1 | | 4 | | 3 | 2 | | | 3 | 14 |
| Jami | 7 | 4 | 1 | 13 | 3 | 16 | 2 | 1 | 1 | 4 | 50 |

Zamonaviy imkon beruvchi ko'p qirrali pedagogik texnologiyalardan foydalanish bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni hal qilishga ko'maklashadi. Bunday texnologiyalar ichida art-terapiyadir.

Taklif qilingan pedagogik texnologiyalar, nutq kamchiligiga ega bolalarda Art-terapiya ishini tashkil etish va bunda bolani jalb qilish, Art-terapiyada ishlab chiqilgan tizim orqali nutq kamchiligiga ega bolalarni bosqichma-bosqich kiritish; bolalarning hissiy nutq sohasini tuzatish dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan va tajriba davomida olingan ma'lumotlar Art-terapiyani nutqni rivojlanish va faollashtirish ta'sirining samaradorligini tasdiqlaydi.

Art-terapiya asosida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini faollashtirish bo'yicha pedagogik tavsiyalar qo'llanilishi tavsiya etiladi:

1. Art-terapiyaning mazmuni har qanday yoshdagi bola uchun tanlanishi mumkin, chunki ushbu texnikada ko'plab yo'nalishlar mavjud. Art-terapiya ishlarida deyarli har bir bola ishtirok etishi mumkin.

2. Art-terapiyaning vizual ijod mahsulotlari bolaning kayfiyati va fikrlarining obyektiv dalilidir, bu ularni diagnostika sifatida ishlatishga imkon beradi.

3. Art-terapiya o'zingizni va atrofingizdagi dunyoni bilishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda Art-terapiya ishlari bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni va qiziqishni uyg'otadi, passivlik va tashabbusning yetishmasligini yengishga yordam beradi va yanada faol hayotiy pozitsiyani shakllantiradi.

4. Og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan art-terapiyani defektologlar va ota-onalar faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan dabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori
2. Qishki I.A. nutq faoliyatining Lingvopsixologiyasi. M.: Moskva psixologik-ijtimoiy instituti, Voronej: "NPO modek", 2001 y. 432-b.
3. Levina, R. E. bolalarda nutq va yozuvning buzilishi. Tanlangan asarlar. M.: "Arkti Nashriyoti", 2005 y. 222-b.
4. Leontiev, A. A. Til, nutq, nutq faoliyati. M.: "Ma'rifat", 1989 y. 214-b.
5. Luriya, A. R. Til va ong. // E. D. Xomskaya tahriri ostida. M., 2001 yil. 416-
6. Tkachenko, T. A. Biz to'g'ri gapirishni o'rgatamiz. M.: GNOME va D, 2003
7. Muminova L. R. Logopediya. T. 2014
8. Maxus ta'limda badiiy pedagogika va Art-terapiya: o'rta va oliy pedagogika o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. E. A. Medvedeva, I.Y. Levchenko, L.N. Komissarova, T. A. Dobrovolskaya M.: "Akademiya", 2001y. 248-b.
9. Valdez Odriosola M. Art-terapiya yordam dasturi rivojlanish mummolari M.: Gnome va D, 2004 64 b.
10. Kopitin, A. I. Art-terapiya nazariyasi va amaliyoti / A. I. Kopitin. SPb: "Nutq". 2002 366-b.
11. Lebedeva, L. D. Art-terapiya amaliyoti: yondashuvlar, diagnostika, darslar tizimi St.Peterburg 2003 y. 256-b.
12. Rybakova G. Zpr bilan qasallangan bolalar uchun Art-terapiya "Nutq". 2007 y. 139-b.
13. Sakovich, N. A. Art-terapiya ijodi usullari / N. A. Sakovich Sankt-Peterburg: nutq.2006.-172 b.

III. YOSHLARNI UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT, VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASH

“Ustoz-shogird” an’analari va unga tarixiy va zamonaviy qarashlar

Nuriddin RUZIYEV
Andijon davlat universiteti
Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi kafedrasida o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada qator Ustoz-shogird qadriyatlari bo’yicha faoliyat yuritgan va o’zining an’anasiga ega bo’lgan mutafakkirlar haqida so’z boradi. Ma’lumki, ta’lim tizimi ustoz va shogirdlar faoliyatini o’z ichiga oladi. Ustozning faoliyati va shogirdlar faoliyati o’zaro bog’liq, ammo ustozning o’quv faoliyati va shogirdlarning tarbiyaviy ishlari taniqli farqlar bilan ajralib turadi. Masalan, amaliy mashg’ulotlarni tashkil etishning guruh shaklida ustoz, qoida tariqasida, barcha shogirdlar bilan bir vaqtda ishlashi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Ustoz-shogird, ta’lim, tadqiqot, bilim, ko’nikma, zamonaviy ta’lim, ijtimoiy guruh, modellar, intellektual salohiyat, an’ana.

Ayni paytda mamlakatimiz ta’lim va ijtimoiy-madaniy sohadagi tub o’zgarishlarga intilmoqda, bunga ehtiyoj fikrlash, maqsadlarni belgilash va harakatlar shakllarining o’zgarishi, shuningdek, iqtisodiy sektorning istiqbollari bilan bog’liq.

Ushbu sohalarni uyg’un va tizimli ravishda o’zgartirishning ahamiyati ta’lim tizimida o’z aksini topgan bo’lib, unda barcha ta’lim muassasalari oldiga ikkita asosiy maqsad qo’yilgan: ta’limining global raqobatbardoshligini ta’minlash va xalqlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va madaniy an’analariga asoslangan barkamol rivojlangan va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash. Ushbu maqsadlarga ko’nikmalar, iste’dodlar va kompetensiyalarni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yaratmasdan erishish mumkin emas. Ushbu tizim barcha talabalarni o’z taqdirini o’zi belgilash va kasbiy yo’naltirish muammosini hal qilishga hissa qo’shishi kerak.

Yuqorida aytib o’tilgan maqsad va vazifalarga javob beradigan eng samarali strategiya “Ustoz-shogird” metodologiyasidan foydalanish bo’lib, uning doirasida turli darajadagi va ta’lim shaklidagi talabalarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O’qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o’tkazilgan tantanali marosimda so’zlagan nutqida ta’lim sifatini oshirishda “Ustoz-shogird” tizimini qaror toptirish zarurligi haqida

to'xtalib, "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak. Bunday ustozlar qo'lida ta'lim olgan farzandlarimiz biz orzu qilgan O'zbekistonning yorug' kelajagini bunyod etishga qodir avlod bo'lib kamol topadi", deb ta'kidladi.

O'qituvchining o'z ustida ishlashi, pedagogik mahoratini oshirib borishida "Ustoz-shogird" usuli kutilgan natija berishi shubhasiz. Zero ustoz-shogirdlik azaldan xalqimizning tabiatiga xos xususiyat bo'lib, uni tizimga aylantirish ta'lim samaradorligini oshirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham "Ustoz-shogird" an'anasini ta'lim-tarbiya tizimida mustahkam qaror toptirish juda muhimdir. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da "Ustoz - shogird" an'alarini tiklash ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishning muhim vazifasi sifatida belgilanganligi ayni muddao bo'ldi.

"Ustoz-shogird" tizimida mafkuraviy tayyorgarlik masalalari g'oyat muhimdir. Shogirdning siyosiy ongi, mafkuraviy tayyorgarligi, tafakkur madaniyati qancha kuchli bo'lsa, uning kelgusida "ustozdan ham o'zib ketishi" uchun mustahkam zamin hozirlanadi. Bunday zaminni yaratish uchun esa ustozning o'zi kuchli bilim va saviyaga ega bo'lishi lozim. Buyuk Arastu "oldinga ketganlarni quvib etadigan va ortda qolganlarni kutmaydigan shogird har narsaga ulguradi", deb bejiz aytmagan.

"Ustoz-shogird" an'ansi faqat ta'limni rivojlantirishga qaratilgan tor doiradagi usul emas, u eng avval, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni farovon, saodatli qilishdan iborat ezgu g'oyadir. Ayniqsa, bu g'oya islom falsafasidan oziqlanganda yanada to'laqonli ma'no kasb etadi. Buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy asarlarida, Imom Buxoriy hadislari-yu, Bahouddin Naqshbandning "Dil va yoru, dast ba kor» tamoyilida bu ezgu g'oyaga doir qimmatli hikmatlar mujassam. Mutafakkir ajdodlarimiz ijodida ko'plab ustozlik timsollari yaratildi.

Darhaqiqat, ta'lim tizimi taraqqiyoti davomida Sharq va G'arb davlatlarida intellektual salohiyatning o'sishi o'ziga xos ravishda rivojlandi. Bu jarayon Qadimgi Hindistonda braxman va gurular, Xitoyda Konfutsiy, Yunonistonda Suqrot maktabi, Aflotun akademiyasi, Arastu litseyi, o'rta asrlar Sharqida Bag'dod Ma'mun akademiyasi yoki Xorazm Ma'mun akademiyasida ta'lim tizimining yangi ilg'or an'alarini shakllantirdi.

“Ustoz-shogird” an’analarining o’lmas qadriyatlarini asrlar davomida shogirdlar tomonidan e’zozlanishini Suqrot va uning shogirdlari timsolida tahlil etish mumkin. Uning “Kuch – bilimda”, “Qanchalik ko’p bilsam, shunchalik ko’p bilmasligimni bildim”, “O’z-o’zingni angla” aforizmlari bugungi kunda ham o’ta dolzarb. Suqrotchilar maktablari eramizdan avvalgi V asrda uning shogird va izdoshlari tomonidan shakllantirilgan yunon falsafiy maktablari: Aflotun akademiyasi, Megar maktabi, Elida-eretreya maktabi, Keren maktabi va kiniklar oqimi shular jumlasidandir.

Ustozga hurmat va ehtirom oliy qadriyat sifatida Aflotun asarlarida yorqin ifoda etiladi. Uning “Suqrotchilar dialogi”da alloma ustoz qarashlarini haqqoniy aks ettirishga, g’oyalarini tizimli va mufassal targ’ib qilishga harakat qiladi. O’zi tashkil etgan akademiyada qariyb qirq yil davomida rahbarlik qilar ekan, ustoz qarashlari targ’ibotini ham muttasil olib boradi. Aflotun akademiyasining 900 yildan ortiqroq faoliyati davomida bu an’ana saqlanib qolganligi Suqrot butun insoniyatning ma’naviy ustoziga bejizga aylanmaganligini ko’rsatadi.

VIII-XI hamda XV asrlar insoniyat tarixida Sharq Uyg’onish davri sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda mamlakatimiz hududlarida yashab ijod etgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari Bag’dod, Marv va Xorazmdagi ilmiy-ma’rifiy markazlarda olib borildi. O’rta asrlarda tashkil etilgan ilmiy maktablarda dunyoviy va diniy fanlar rivojiga vatandoshlarimiz ulkan hissa qo’shdilar. Natijada “ustoz–shogird” an’analarining davomiyligi asosida mazkur ilmiy maktablarda buxoriylar, farg’oniylar, xorazmiylar, termiziylar, samarqandiylar avlodi ulkan ilmiy yangiliklari bilan insoniyat tarixida o’chmas iz qoldirdi.

Suqrotning asosiy didaktik yutug’i – ustoz tomonidan o’ylab qo’yilgan savollar yordamida haqiqatga eltuvchi dialogik tortishuv. Ustoz shogirdning kuchli ruhiy jihatlarini uyg’otishi va uning o’zini yaratib olishiga ko’maklashishi kerak.

Aflotunning fikricha, ustozlik vazifasini, eng avvalo, yoshi katta kishilarga ishonish mumkin. Bu borada J.J.Russoning fikricha, ustozning eng asosiy va qiyin san’ati – shogird bilan hech narsa qilmaslikni bilishdir.

XX asr boshlarida ustozlik muammolari haqida K.D.Ushinskiy ham o’z fikrlarini bayon etgan. U tajribalilik bilan maqtanmaslik, o’z tarbiyaviy faoliyati yillarini sanab g’ururlanmaslik kerakligini ta’kidlab, kasbiy tajriba nazariy tayyorgarlik yo’qligini qoplab yuboradi, degan xato fikrga bormaslikni maslahat beradi.

Sharq xalqlarining yozma yodgorliklari “Panchatantra”, “Kalila va Dimna”, “Avesto” kitoblarida, Konfutsiy “Hikmatlari”da, Abu Homid G‘azzoliyning “Ilm kitobi” asarida, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniya” asarida “Ustoz–shogird” an‘analarining sharqona qadriyatlari ifodalangan.

Ma‘lumki, ta‘lim tizimi ustoz va shogirdlar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ustozning faoliyati va shogirdlar faoliyati o‘zaro bog‘liq, ammo ustozning o‘quv faoliyati va shogirdlarning tarbiyaviy ishlari taniqli farqlar bilan ajralib turadi. Masalan, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning guruh shaklida ustoz, qoida tariqasida, barcha shogirdlar bilan bir vaqtda ishlaydi. Shogirdlari tomonidan ustozning ko‘rsatmalarini o‘zlashtirish, bilim, ko‘nikma, shaxs fazilatlarini, dunyoqarashini shakllantirish har bir shogird uchun uning aqliy va jismoniy rivojlanishi, dastlabki tayyorgarligi, o‘rganishga qiziqishi, irodali fazilatlarini va boshqa xususiyatlariga qarab individual ravishda sodir bo‘ladi. Bularning barchasi ustozdan har bir shogirdning shaxsiy xususiyatlari va farqlarini iloji boricha hisobga oladigan o‘quv faoliyatining bunday usullaridan foydalanishni talab qiladi, ya‘ni darsdagi har bir shogirdning faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning imkoniyatlariga mos keladigan bo‘lsa, o‘quv jarayonining bunday sharoitlarini yaratish o‘z samarasini beradi.

Bugungi kunda Hasan Basriyning “Olimlar bo‘lmaganda odamlar hayvonlardek bo‘lib qolishardi”, “Olimlar yulduzlarga o‘xshaydi. Agar ko‘rinib tursa, odamlar ular yordami bilan o‘zlariga yo‘l topishadi. Agar ular ko‘zdan yo‘qolib, o‘zlari zulmatda qolishsa, qayoqqa yurishni bilmay hayron qolishadi”, degan fikri juda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Faxriddin, Rizouddin ibn. Ilmning o‘n to‘rt qanoti / Shogirdlik odobi /tarj. Jamalov Sagdulla. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – 88 b.
2. Ron J. Aql vitaminlari. – Toshkent: Future-books, 2021. – 383 b.
3. Rtveladze E. Taraqqiyotning mangulik chashmasi.
<http://www.Adolat.gzt.uz/society/munosabat/4390>
4. To‘raev B. Uchinchi muallim – O‘zbekiston falsafasi yutuqlarini targ‘ib qilgan vakil // [https://uza.uz/uz/posts/uchinchi muallim O‘zbekiston falsafasi-yutuqlarini-targ‘ib-qilgan-vakil_332585](https://uza.uz/uz/posts/uchinchi_muallim_O'zbekiston_falsafasi-yutuqlarini-targ'ib-qilgan-vakil_332585)
5. Tursun, Ahmad Muhammad Hasan Basriy. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – 55 b.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. – 456 b.
7. Sharafiddinov O. Domlalar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2009. – 280 b.

Жамиятнинг трансформациялашув жараёнида ёшлар маънавий қиёфасини шакллантиришга таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар

Наргиза НОРКУЛОВА

*Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги
хузуридаги Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва
истиқболли кадрлар тайёрлаш институти
доценти, псих.ф.ф.д. (PhD)*

Ёшларнинг жамиятдаги ижтимоий фаоллигини оширишда, ҳаётий ролини аниқлашда маънавий омилнинг ўрни салмоқлидир. Буни илмий-назарий жиҳатдан асослаб бериш ва амалиётда маънавий етук ёшларни етказиб беришга мўлжалланган дастурларни ишлаб чиқиш ҳозирги замоннинг ўта мураккаб ва долзарб муаммоларидандир.

Бугунги кунда келажаги буюк давлат фуқароси бўлган комил инсонни вояга етказмасдан, унинг сиёсий онги, маданияти, маънавияти, ижтимоий ва яратувчанлик, креатив фаолиятини юксак даражага кўтармасдан туриб, барқарор умумтараққиётга эришиш мумкин эмас. Шунинг учун ҳам, маънавий омилнинг сиёсий, амалий моҳияти ҳамда ёшлар ижтимоий фаоллигининг ошиб боришига таъсир этувчи муаммоларини тадқиқ қилиш ҳаётий эҳтиёжга айланмоқда.

Миллий ҳамда маънавий қиёфанинг шахс ҳаётида нечоғлик муҳим аҳамият касб этишини Ғайбуллоҳ ас-Салом "... Ўз қиёфасига эга бўлмаган киши шахс эмас. Ўз қиёфасига эга бўлмаган жамоа, оломон – халқ ёхуд жамият эмас. Ўз қиёфасига эга бўлмаган қавм миллат эмас" деб таърифлаган экан¹.

Дунё тараққиёти ижтимоий-сиёсий муносабатларининг, инсоннинг моддий-маънавий ҳаёти фаолиятининг бирлиги негизида амалга ошади. Жамият тараққиётини муҳим йўналтирувчи иқтисодиёт ва маънавиятнинг ўзаро уйғунлиги ҳисобланиб, улар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик тараққиётнинг шартларидан бирига айланади. Бунда шахснинг маънавий ривожланиши, уни таъминловчи ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-психологик омилларнинг ўрни катта. Ҳар бир ривожланиш даврида шахс шаклланишининг ўзига хос устувор фаолияти бўлганидек, ёшлар маънавияти, уларнинг маънавий қиёфаси,

¹ Ғозиев Э.Ғ., Маматов М.М., Л.С.Турсунов, А.И.Расулов ва бошқалар. Ижтимоий-психологик қиёфанинг илмий-услубий асослари. // Монография. – Тошкент: ЎЗМУ, 2010. – 103б.

унинг фаоллиги, ҳаётининг позициялари, энг аввало, ўқув ва меҳнат фаолиятларида рўёбга чиқади.

Фикримизча, ёшларимизнинг маънавий қиёфасини яратишда миллий урф-одатлар, қадриятлар, этнопсихологик хусусиятлар, энг муҳими бизнинг мавзуимиз ҳисобланмиш аффилиация, яъни ёшларни бирлаштирмақ, гуруҳий фаолият, уларда яқдиллик туйғуларини шакллантирмақ ўта муҳим. Инсон қаерга бормасин инсонлар билан мулоқот ўрнатиши, шахслараро муносабатлар доирасига киришига тўғри келади ва бунга эҳтиёж ҳам сезади. Шундай экан, ҳар қандай шахс муомала усулларини билиши, уларни ҳаётда қўллаш олиши муҳим, чунки унинг муомаласи асл инсоний фазилати ва қобилиятларини ифода этади.

Шахс ижтимоий хулқи, одобини тартибга солишда аффилиация мотиви билан биргаликда миллий урф-одатларнинг ҳам хизмати катта бўлиб, улар онгини ортиқча зўриқишдан ҳоли қилади ва кишилардаги истак ва мақсадлар бирлигини юзага келтиради. Ташқи стимул ҳисобланган миллий урф-одатлар, анъаналар ижтимоий хулқини барқарорлаштиради, маънавий қиёфани шакллантиришга асосий омиллардан бири бўлиб хизмат қилади.

Агар маълум бир мотивлар ундовчи вазифани бажарса, одатлар тартибга солувчи вазифани бажаради. Маънавий баркамолликнинг асосий вазифаларидан бири шахснинг жамиятга, шахсий ва умумий интилишга бўлган муносабатидир. Таъкидлаш лозимки, аффилиация мотивининг юқори даражаси, сўзлашув маданияти шахснинг ахлоқий ривожланишининг асосий омилларидан биридир. М.Тўйчиеванинг таъкидлашича, «...шуни ҳам унутмаслик керакки, таълим ва маданиятнинг ўзи маълум бир йўналтирилган тарбия тизими шахснинг маънавиятини тўлиқ таъминлаб бера олмайди. Бу тизимда ижтимоий-психологик воситалар бўлиб ҳисобланган анъаналар, педагогик-психологик фанлар, оиладаги бола тарбияси, дарсдан ташқари ўтказиладиган тадбирларнинг ўрни ҳам каттадир»[161, б. 10].

Муаллиф яна шуни таъкидлайдики, инсонда турли аҳамиятга эга хулқ-атвор мотивлари мавжуд. Баъзилари бир вазиятда мотивлар бўлса, иккинчилари инсон характери ва йўналганлигини ифода этувчи мотивлар бўлиб, фаолият жараёнида қуйи мотивлар юқори мотивларга айланади. Бунда инсон ўзи қилаётган ишига шунчалик берилиб кетадики, натижада бу унинг ҳаётининг мақсадига айланиб кетади. Бу

феноменал ҳодиса маънавий эҳтиёжнинг шаклланиш жараёнида ҳам кузатилади.

С.Тўйчиеванинг назарий психологик фикрларидан келиб чиққан ҳолда, ёшларнинг маънавий қиёфаси қуйидаги фазилатлардан таркиб топиши мумкин: ватанпарварлик, одоб-ахлоқли бўлиш, хушмуомала бўлиш, меҳнатсеварлик, инсонийлик, жонкуярлик, дўстлик, камтарлик, маънавий бойлик, интизомлилик, фаоллик, мақсад сари интилиш, байналминаллик, ростгўйлик, ишбилармон, тадбиркор бўлиш, оилани мустаҳкам сақлаш руҳида тарбиялаш, ор-номусли бўлиш, соғлом, жисмонан етукликка интилиш, масъулиятни ҳис этиш, виждонлилик»¹.

Юқорида келтирилган мезонларни ўзида мужассамлантирган талаба «Маънавий етук» шахс деб қабул қилиниши мумкин, лекин бу рўйхатда унинг гуруҳдаги позитив ўрнини белгиловчи, жамоавийликка интилишни кучайтирувчи аффилиатив хусусиятлар назаримизда инобатга олинмаган ва олиб борилган эмпирик тадқиқотимиз ушбу муҳим омилларни инобатга олган ҳолда муаллифлик моделини яратилишига асосий сабаб бўлди.

Биз аффилиация мотивацияси ва маънавий қиёфани ҳозирги давр ёшларида шакллантириш борасида олиб борган илмий-тадқиқот ишлари билан чуқур танишган ҳолда, қуйидаги ўз муаллифлик «Аффилиация мотивацияси таъсирида талабаларда маънавий қиёфани шакллантириш» моделимизни таклиф этдик (1-расмга қаранг)². Ушбу моделда инсон фаолият муваффақиятини таъминловчи, умуман олганда комиллик сари етакловчи омил сифатида маънавий қиёфани шакллантиришга хизмат қилувчи хислатни маънавий қобилият деб атадик. Ушбу маънавий қобилиятни таркибий қисми сифатида даставвал «Етакчи фаолиятни», яъни инсоннинг кунлик мезонига асосланиб бажарадиган индивидуал-ижтимоий фаолияти доирасида одатлар тусига кирган хатти-ҳаракат, амалларни назарда тутдик. Кейинги ўринда маънавий қиёфани шакллантиришга хизмат қилувчи барча маънавий-ахлоқий фазилатлар, хислатлар ва хис-туйғуларни хисобга олдик. Ундан кейин инсонни тўлақонли шахс, фаол фуқаролик позициясига эга жамият аъзоси сифатида тан олинишини таъминлашга

¹ Тўйчиева С.М. Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси. Монография / 1 мас.муҳар.: М.Г.Давлетшин. – Тошкент: ТДПУ, 2000. – 19 б.

² Норкулова Н.Т. Аффилиация мотиви- талабалар маънавий қиёфасини шакллантирувчи ижтимоий-психологик омил сифатида // Псих.фан.фал. док. ... дис. Т: ТДИУ., – 2017. – 144 б.

хизмат қилувчи ижтимоий масъулият хиссини киритдик, бунинг сабаби барча мураккаб иродавий акт билан боғлиқ бўлган виждонлилик, кучли иймон, эътиқод каби умуминсоний сифатлар индивидуал бўлиб, фикримизча, ушбу масъулият ҳиссида мужассам бўлади. Кейинги ўринда альтруистик хатти-ҳаракатлар, ўзганинг кечираётган ҳолатига ҳамдардлик билдира олиш сингари эмпатия, бошқаларни ёқтириш симпатияни, кейинги ўринда ижтимоий киришимлилик, яъни, инсоннинг ижтимоий муносабатлар тизимига муваффақиятли кириб боришига хизмат қилувчи сифат ва хислатларни киритдик.

Ҳозирги даврдаги ёшларимизда маънавий қиёфани шакллантиришга хизмат қилувчи ижтимоий-психологик омиллар, аффилиатив хулқ-атвор сифатида англанган когнитив билишга интилиш, конатив хулқ-атвор сифат ва хислатларини ўзида мужассамлаштириш, жамиятда ўз-ўзини таъкидлаш, тан олдириш таълим жараёнидаги ҳамкорлик, шерикчилик муносабатлари, мулоқотнинг англанган жабҳалари асос қилиб олинди(1-расмга қаранг).

Ҳақиқий бозор муносабатлари фақат юксак маънавият, ахлоқий ва ватанпарварлик негизидагина яратилиши мумкин. Ўзбекистон умуминсоний қадриятларга чуқур ҳурмат, маданиятда умуминсоний тамойиллар устуворлиги йўлини танлаганлигини бутун жаҳонга маълум.

Аффилиация мотивининг шахс маънавий қиёфаси ва қадриятларга алоқасини тадқиқ этиш натижасида биз шу нарсага амин бўлдикки, ёшлар маънавий қиёфасида содир бўлаётган салбий ўзгаришларни таълим жараёнида айнан гуруҳий ҳамжиҳатлик орқали маънавий ҳаётда юз бераётган жараёнларни ижтимоий онги тарафидан янгича қабул қилиши, халқимизнинг маънавий меросини мустаҳкамлаши, ўзининг маънавий қобилиятлари, имкониятларини эркин ифода этиши, бирдамлик, Ватанпарварлик, бурч, ғурур, инсонийлик, масъулият, ахлоқий поклик каби сифатларни шу йўл орқали шакллантириш мумкин. Чунки айнан маънавият – инсонни инсон қиладиган, уни инсонийликка олиб борадиган қудратли йўлдир³.

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2010. – 176 б.


Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ғозиев Э.Ғ., Маматов М.М., Л.С.Турсунов, А.И.Расулов ва бошқалар. Ижтимоий-психологик қиёфанинг илмий-услубий асослари. // Монография. – Тошкент: ЎЗМУ, 2010. – 103б.

2. Тўйчиева С.М. Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси. Монография / 1 мас.муҳар.: М.Ғ.Давлетшин. – Тошкент: ТДПУ, 2000. – 19 б.

3. Норкулова Н.Т. Аффiliation мотиви- талабалар маънавий қиёфасини шакллантирувчи ижтимоий-психологик омил сифатида // Псих.фан.фал. док. ... дис. Т: ТДИУ., – 2017. – 144 б.

1-расм. Ёшларда маънавий қиёфани шакллантириш модели



Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ҳамда ҳарбий ислоҳотлар тарғиботида телекўрсатувларнинг аҳамияти

Шунқор БЎРИЕВ

*Мудофаа вазирлиги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар департаменти бўлим бошлиғи,
ЎзЖОКУ мустақил изланувчиси*

Аннотация. Мазкур мақолада ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ҳарбий кўрсатувлар, видеороликлар, ҳужжатли фильмлар тайёрлаш ва уларнинг эфирга узатилиши, жанр, услуб ва тил масалалари муҳокама қилинган. Бунда ҳарбий хизматчиларнинг мардлиги, жасурлиги, юртга фидойилиги муҳим ўрин тутди, она Ватан учун бор куч, билим ва садоқатини ўзида акс эттирган бир нечта кўрсатувлар мисоллар билан таҳлил қилинган ва таклифлар берилган.

Калит сўзлар: ёшлар, ҳарбий-ватанпарварлик, ҳарбий кўрсатувлар, медиа, жанр, услуб, таҳлил.

Сўнгги йилларда барча соҳада амалга оширилган ислоҳотлар сингари мудофаа тизимида ҳам қатор янгиланишлар, ўзгаришлар амалга оширилди. Хусусан, 2017 йил 17 ноябрда “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини янада оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори имзоланди.¹

Ушбу қарорга асосан, Қуролли Кучларимизнинг эшиклари ёшлар учун очилди. Ҳар бир ҳарбий қисм ва муассасаларда Ёшлар иттифоқининг бошланғич ташкилотлари фаолияти йўлга қўйилди. Армияда хизмат қилаётган ёш ҳарбий хизматчилар орасидан иқтидорли, ташаббускорларни аниқлаш, жамиятимизнинг турли соҳаларида фаолият юритаётган ёшлар билан ўзаро узвий алоқа ўрнатиш, фикрлар алмашиш имкониятига эга бўлди. Бир сўз билан айтганда армия ва халқ яқдиллиги амалда кўзга ташланди.

Эскича қарашлар, эскича ёндашувлардан бутунлай воз кечилди. Бугуннинг ёш ҳарбий хизматчиси ўз таклиф ва ғоялари, ташаббусларини тенгдошлари билан ўртоқлашиб, миллий армиямизнинг нуфузи, шону шавкати оширишда муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

¹<https://kun.uz/70263677>

Албатта, ҳарбий хизмат — шарафли ва машаққатли касб. Юрт ҳимоячиси бўлиш эса кишидан нафақат, билим, жисмоний чиниқиш, саломатликни, балки она Ватанга бўлган садоқат, киндик қони тўкилган юртга бўлган юксак меҳр-муҳаббатни ҳам талаб этади. Ана шу туйғулар эса ҳарбий хизматнинг ҳар қандай машаққатларини енгиб ўтишга ундайди. Юқори кўмондонликдан тушган топшириқни бекамукўст бажаришда, бурчини мардонавор ўташда мустаҳкам пойдевор бўлади. Келажакимиз ворислари бўлган ўғил-қизлар қалбида ҳарбий-ватанпарварлик туйғуларини ошириш, уларнинг шарафли касбга бўлган қизиқишларини қатъий мақсадга айлантиришда албатта ҳарбий хизматчиларнинг жасорати, мардлиги, юрт, ватан ҳимояси йўлида собитқадам эканлигини акс эттирувчи видеоролик, телекўрсатув ва хужжатли фильмларнинг ўрни беқиёс.

Бунда асосан Мудофаа вазирлиги Ахборот ва оммавий коммуникациялар департаменти ижодий ходимлари томонидан тайёрланиб келинаётган “Ўзбекистон армияси”, “Vatanparvar” ҳамда “Armiya sporti” ҳарбий-ватанпарварлик кўрсатувлари, “Bolajon” телеканаллари орқали “Men harbiy bo‘laman” кўрсатуви ёритиб борилади ва шу орқали ҳарбий соҳа олами халқимизга, ёш авлодга таниш. “Yoshlar” телеканалларида узатиладиган “Vatanparvar” кўрсатуви канал номидан келиб чиққан ҳолда, армия ва ёшлар ҳаётини ўзида акс эттиради. Мазкур кўрсатув хронометражи 40 дақиқа бўлиб, бунда 5-7 тагача турли лавҳалар, хусусан, ҳарбий хизматчиларнинг жанговар ва маънавий-маърифий тайёргарлик машғулоти, ҳарбий хизматчилар ҳамда ёшлар иштирокидаги турли тадбирлар, мусобақалар, халқаро танлов ва беллашувлардаги ёш ҳарбийлар иштироки, инсонни жасоратга ундовчи видеороликлар ёритиб борилади. Унинг ўзига хослиги шундаки, армия ва ёшлар ҳаёти, юрт ҳимоячиларининг хизмат фаолиятига алоҳида эътибор қаратилади. Бошқа телеканалларда ҳарбий мавзудаги лавҳалар 2-3 дақиқани ташкил қилса, “Vatanparvar” кўрсатувининг 60 фоизи айнан ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашга бағишланган лавҳалардан иборат. Масалан, жорий йилнинг 11 июнь куни эфирга узатилган “Vatanparvar” кўрсатувининг навбатдаги сонидида “Янги Ўзбекистон – ёшлар мамлакати” шиори остидаги турли тадбирлар, “Кўмондон ва ёшлар”, “Генерал ва ёшлар”, “Мен аскар бўламан” мавзулардаги учрашувлари, ҳарбий қисмга ёшлар

ташрифи, ёш ҳарбий хизматчиларнинг қўлга киритган ютуқлари шарҳланган.²

Кўрсатувдаги лавҳаларда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларни ҳарбий соҳага қизиқтириш, қолаверса, ҳарбий хизматчиларнинг билими, маънавий дунёқараши, тафаккур ва идрок эта олиш қобилияти, юртга бўлган садоқати каби мавзулар ёритилса, жанговар тадбирларда мамлакат муҳофафасига ҳар дақиқа, ҳар томонлама шай эканлиги, ўзбек ўғлонининг мардлиги, жасурлиги турли ёндашувларда кўрсатиб берилади.

“Ўзбекистон армияси” кўрсатувини кузатсак, унинг асосий лавҳалари жанговар тайёргарликларга бағишланса-да, кўрсатувнинг негизида юртга фидойилик, ватанпарварлик туйғулари ўз аксини топади. Буни кўрсатувнинг 2023 йил 7 июнь куни “O‘zbekiston 24” телеканали орқали эфирга узатилган сонида ҳам кўриш мумкин. Эфирга берилган ҳар бир телелавҳаларда халқимиз тинчлиги, юртимиз осойишталиги учун юрт ҳимоячилари билимини, жисмоний ва жанговар тайёргарликларини ошириб бораётганлигини ўзида ифодалайди.³

Бундай ёндашувлар орқали албатта келажак авлод қалбида шарафли касбга бўлган қизиқиш ортади, уларда юрт корига камарбаста инсон бўлишдук қарашлар, эзгу мақсадлар пайдо бўлади.

Албатта, спорт—саломатлик гарови. Мудофаа вазирлиги Ахборот ва оммавий коммуникациялар департаменти томонидан тайёрланиб, “Sport” телеканали орқали эфирга узатиб келинаётган “Armiya sporti” кўрсатувининг ўзига хос жиҳатларидан бири телеочерк жанридан кенг фойдаланишдир. Унда асосан армия ўйинларида, турли ҳарбий спорт мусобақаларида юқори натижаларни қўлга киритган ҳарбий спортчилар ҳаёти, хизмат фаолияти, эришган ютуқлари ёритилади. “Armiya sporti” кўрсатuvi бугунги кунда ёшларни нафақат ҳарбий хизматга, балки спортга бўлган қизиқишини ҳам ошириб келмоқда.

Яна бир кўрсатувни алоҳида таъкидлаш жоиз, бу кичик ёшдаги болажонларни ҳарбий соҳа ҳақидаги тасаввурларини бойитиш, уларни аскар бўлишга қизиқтириш ва бўш вақтларини мазмунли ўтказишга бағишланган “Bolajon” телеканалда “Men harbiy bo‘laman” кўрсатuvi ҳам эфирга узатилади. Сизу бизга маълум, болани узоқ муддат бир

²<https://t.me/mtrkuzofficial/152791>

³<https://t.me/mtrkuzofficial/152247>

нарсга қизиқтириб ушлаб туриш қийин. Аммо мазкур кўрсатув 14-15 дақиқа давом этади ва ҳар сониди болажонлар учун қизиқарли бўлган, уларни ҳам жисмонан, ҳам руҳан, ҳам маънан чиниқишлари учун керакли бўлган кўплаб маълумотлар улашади. Болаларга хос бўлган содда тилда тайёрланадиган мазкур кўрсатув келажак авлод онгу шуурида Ватан, она юрт деган тушунчаларни шаклланишида, ҳарбийлик шарафли касб эканлигини англашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Умуман олганда, ҳарбий-ватанпарварлик материалларни ОАВда ёритишда ёндашувларнинг янгиланганлиги, қарашлар ва эфирга узатилаётган маълумотларнинг теранлигига алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Шу боис мавзуга оид кўрсатувларнинг жанр ва услубий хусусиятларига эътибор қаратиш, бугунги кун талабларига мос бўлган телевизион жанрлар элементларини киритиш алоҳида эътибор қаратиш замон талабидир.

Хулоса қилиб айтганда, ҳарбий журналистика ўзбек медиа майдонида янги йўналиш бўлса-да, тез суръатда ривожланиб бормоқда. Ушбу мақолада ўзбек телевидениясида ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган телекўрсатувларнинг ўрни ва аҳамиятининг асосий тамойилларини кўриб чиқдик. Бизнинг амалий тажрибамизни умумлаштириш, шунингдек, назарий материалларни тушуниш қуйидаги хулосалар чиқаришга имкон беради:

а) ёшларбоп телевизион дастур, айниқса, ҳарбий-ватанпарварлик мавзусидаги лавҳалар тайёрлашда креатив ёндашув зарур;

б) замон талаби асосида ҳарбий ватанпарварликни тарғиб этувчи видеороликлар, телеочерк ва ҳужжатли фильмлар тайёрлаш, уларнинг жозибадорлигини ошириш;

в) ҳарбий хизматчилар ва ёшлар иштирокидаги учрашувларни нафақат телеканалларда, балки ижтимоий тармоқда ҳам кенг тарғиб этиш тизимини жорий этиш таклиф этилади.

Ёш ҳарбий хизматчиларнинг жисмонан ва руҳан чиниқишида спортнинг аҳамияти ҳамда унинг медида ёритилишига тўхталиб ўтдик. Мақола турли кузатувлар натижалари билан бойитилди. Шунингдек, ҳарбий спорт мавзусидаги лавҳалар, репортажлар ва кўрсатувлар алоҳида таҳлил қилинди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://t.me/mtrkuzofficial>
2. <https://kun.uz/70263677>

Jadidlarning xalq ta'limini isloh qilish va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lida olib borgan harakatlari

Alisher NAZAROV
O'zDJTU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Turkistonda Rossiya mustamlakachiligining so'nggi davrida xalq ta'limidagi islohotlarning tarixiy tahlili yoritilgan. Maqolada mahalliy aholining boy madaniy an'alariga asoslangan va Yevropa sivilizatsiyasi yutuqlari asosida boshqariladigan, mustamlakachi hokimiyat siyosatida xalq ta'limini tashkil etilishi sifati hamda jadidchilikning madaniy-ma'rifiy faoliyatiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: pan-islomizm, pan-turkizm, mustamlakachilik siyosati, ta'lim, jadidchilik.

Insoniyat yaratilibdiki ezgulik va farovonlikka intilib yashab kelgan. Mustamlakachilik zulmini ko'rgan xalqimiz ham mustaqillikning qadrini juda yaxshi biladi. Istiqlol, mustaqillik bu nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim-tarbiyaga bevosita taalluqli voqelikdir. Mustaqillik, butun bir xalqning taqdiri, uning millat sifatida har tomonlama rivojlanishiga javobgarlikni kuchaytiradi, mustaqil iqtisodiy va madaniy rivojlanishning, boshqa millatlardan kam bo'lmagan taraqqiyotga erishish yo'llarini izlashga undaydi. Qadimiy tarixga ega bo'lgan, Sharq va dunyo sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan, ko'plab alloma-yu fuzalolar yashab o'tgan tabarruk Turkiston zaminida mustamlakachilikka qarshi kurash olib boradigan erkparvar kishilarning ko'p bo'lishi tabiiy edi. Bu haqda Respublikamiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2022 yil 22 dekabrda Oliy Majlis Murojaatnomasida shunday fikr bildiradi: "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Jadidchilik harakati davrning eng ilg'or va mazmunli oqimiga aylandi. Uning eng ko'zga tashlangan vakillaridan: Toshkentda – Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Xo'ja Mo'yin, Abduqodir Shakuriy, Obidjon Maxmudov, Ashurali Zoxiriy, Ishoqxon Ibrat; Buxoroda – Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Musa Saidjonov, Abdulvoxid Burxonov, Mirkomil Burxonov, Muhiddin Rafoat, Abduqodir Muxitdinov va boshqalar; Xivada –

Polvonniyoz Yusupov, Avaz O'tar, Xusayn Matmurodov, Otajon Abdalov, Xudoybergan Divanov, Matyoqub Pozachi, Otajon Sadayev va boshqalar xalq ta'limini takomillashtirish yo'lida salmoqli va asosli faoliyat olib bordilar. Ular o'zlarining asosiy vazifasini xalq ta'limining yangi tizimini tashkil etishda deb bildilar.

Turkiston jadidlarini o'z davrining islohotchilari sifatida baholab, ularning siyosat va madaniyat sohasidagi taraqqiyparvar qarashlarini ijobiy baholagan va uning o'ziga xos jihatlarini ochib bergan xorijlik olimlardan biri Adib Xoliddir. A. Xolid chorizm hukmronligi davrida O'rta Osiyo, jumladan Turkistondagi kitob bosish, nashriyotchilik va islohotchilik tarixiga bag'ishlangan maqolasida XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida o'lkadagi nashriyotchilik sohasidagi rivojlanishda jadidlarning tadbirkorlik faoliyatiga to'xtaladi. A. Xolid keltirgan ma'lumotlarning qiymati shundaki, bu materiallar taraqqiyparvarlarni yangi davriy nashrlar orqali o'lka aholisi ongi va turmush tarziga ta'sir etishga harakat qilishganini anglashga yordam beradi. A.Xolid aksariyat mahalliy ma'rifatparvarlar kabi turkistonlik taraqqiyparvarlar yangi zamonaviy texnologiyalardan xabardor, yetarli iqtisodiy bilimlarga ega shaxs bo'lganliklari, o'z tajribalaridan kelib chiqib to'g'ri fikr yuritganliklarini e'tirof etadi.

Mamlakatda kuchli madaniy-ma'rifiy harakat – jadidchilik Chor Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan xalq ta'limiga muqobillik sifatida vujudga kelganligi tarixan isbotlangan. Biroq sovet tarixshunosligidagi bu tarixiy voqelik ham ataylab buzib ko'rsatilib, "pan-islomizm", "pan-turkizm" kabi siyosiy tamg'alarga ega bo'ldi. Mustamlakachi hokimiyat tomonidan boshlangan jadidchilik g'oyasiga qarshi siyosiy repressiya sovet totalitar tuzumida ham davom ettirilib, qat'iy mafkuraviy tus oldi. Jadidlarning ta'lim-tarbiyani yangilash haqidagi milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda vujudga kelgan pedagogik qarashlari sovet hokimiyati tomonidan mutlaqo qabul qilinmadi va tan olinmadi.

Hukumatning yangi maktablarga salbiy munosabati mintaqadagi mahalliy xalqlarning milliy o'ziga xosligini rivojlantirishdan qo'rqish bilan bog'liq edi. Shuning uchun ham jadid maktablarining rivojlanishi va tarqalishiga har qanday yo'l bilan to'sqinlik qildilar. Yuqorida qayd etilgan sabablarga ko'ra viloyat ma'muriyati "qadimchilar" (konservativ ruhoniylar) to'liq nazorati ostidagi konfessiyaviy tipdagi siyosiy jihatdan ishonchli, ammo samaradorligi past bo'lgan eskirgan maktablarni afzal ko'rди, chunki ular ta'lim tizimi imkoniyatlarini kengaytirishdan mutlaqo manfaatdor emas edi".

Ammo qadimchilar va jadidchilar o'rtasidagi qarama-qarshilik podshoning o'lka boshqaruvida u xohlayotgan tizim edi.

“Mahalliy ma'muriyat mahalliy xalqlarning ma'naviy hayotidagi shunday muhim hodisani, jumladan, viloyatimizning turli hududlarida rus-davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan bir qatorda yangi ta'lim usullariga asoslangan rus mahalliy maktablar ochilganini to'liq e'tibordan chetda qoldira olmaydi” deb N.Ostroumov ta'kidlaydi. Yangi maktablarni yashirish va e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, aksincha - ular bilan hisoblashish kerak, chunki ular “biz uchun (Chor Rossiya imperiyasi) hayratlanarli darajada paydo bo'lgan va aftidan, mahalliy xalqning ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq holda mavjudligini ko'rsatadi”.

Taraqqiyotga erishishning kaliti ziyolilar ma'rifiy g'oyalarining amaliyot bilan birlashtirishni talab qildi. Umuman olganda, jadidchilik islohotchilik harakati sifatida dastlab ta'lim-tarbiya muammolarini amaliy hal etishni asosiy vazifa qilib qo'ydi. Biroq, birinchi navbatda, jadidlar ta'lim, ilm-fan, dinni qonuniylashtirish, yevropacha ta'limning afzalligini isbotlash asosida g'oyani nazariy konsepsiyaga aylantirdilar. Jadidlar intellektual salohiyatli bo'lganliklari uchun Sharq va Yevropa madaniyatini yaxshi bilishgan. Ular o'rta asr sharq donishmandlarining falsafiy qarashlari asosida tarbiyalangan, ammo chet el adabiyotini, ham sharq, ham Yevropa adabiyotini mukammal bilishgan. Aynan shu narsa jadidlarning islohotchilik faoliyatida aks ettirilgan falsafiy dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berdi.

Jadidlar Turkistondagi rus ma'muriyatining mustamlakachilik boshqaruv tizimi nafaqat milliy maqsadlarga mos kelmasligi, balki ulkan ma'naviy-iqtisodiy zarar yetkazishini ham tushunib yetdilar. Dunyoviy ta'limni yangi uslublar, milliy o'ziga xoslik va madaniyatga asoslangan jadal rivojlantirishni maqsad qilgan ilg'orlar nihoyat siyosiy tus oldi va mustaqillik va boshqaruvning demokratik shakllari uchun kurashga aylandi. Biroq, jadidchilikning dastlabki bosqichdagi ma'rifiy faoliyati rus millatchilari harakatidagi kabi siyosiy tus oldi. Bu harakat milliy o'zlikni anglash vazifasini ham o'z ichiga oladi. Jadidlar Turkiston hududi islom olamining bir bo'lagi bo'lgan, jahon tarixida o'ziga xos hodisa bo'lgan XX asrning murakkab va ziddiyatli kelajagida o'zining munosib o'rnini topish arafasida ekanligiga ishonch hosil qilgan edilar.

Xulosa qilib aytganda, Chor Rossiya imperiyasi ham Turkistonda xalq ta'limi muammolarini hal qila olmadi. Buning asosiy sabablari imperiya siyosatining mustamlakachilik manfaatlari bo'lsa, bu manfaatlarning asosiy maqsadi mustamlaka qilingan xalqlarni madaniy ruslashtirish edi. Xalq

ta'limining mustamlakachilik modeliga muqobil sifatida shakllangan madaniy-ma'rifiy harakat – jadidchilik milliy ozodlik harakatining shakllangan mafkurasiga ega bo'lgan holda mustamlakachilik bosimiga qarshi dalillarni asoslab bera oldi va siyosiy kurashga turtki berdi. Milliy taraqqiyparvarlik harakati tarixi, harakat yetakchilarining Turkistonni siyosiy, madaniy hayotidagi rolini yoritib beruvchi ko'plab tadqiqotlarning mavjudligi bugungi kunda Respublikada bu borada mustaqil ilmiy maktab shakllandi deb aytishga asos bo'ladi. Taraqqiyparvar jadidlarning xususiy mulkni saqlab qolish va rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va sanoatda islohotlar o'tkazish, zamonaviy texnologiyani joriy etish, ichki va tashqi savdoni jonlantirish, zamonaviy bank tizimini shakllantirish borasidagi qarashlari, namuna bo'ladigan amaliy ishlari, sa'y-harakatlarini o'rganish O'zbekiston tarixining mazkur davrini yangicha nuqtai nazardan, xolis yoritib berishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi ma'ruzasi. <https://review.uz/uz/post/O'zbekiston-Respublikasi-Prezidenti-Shavkat-Mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-to'liq-matn>
2. Khalid A. Printing, publishing and reform in Tsarist Central Asia // International Journal of Middle East Studies, 1994. – No 2. – Vol. 26. – P.187-200.
3. Khalid A. Tashkent 1917: Muslim Politics in Revolutionary Turkestan // Slavic Review. – 1996. – No 2. – Vol. 55. – P.270-296.
4. Xudoyqulov A.M. Prosvetitel'skaya deyatelnost djadidov Turkestana (kones XIX – nachalo XX vv.), avtoref. diss. kand. ist. nauk. – Tashkent, 1995. – S.15, 63
5. Ostroumov, N.P. Report of the Turkestan Teachers' Seminary for 25 years of its existence (April 30, 1879 - August 30, 1904). F. and G.Br. Kamensky, Tashkent. P 98.

Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda musiqaning o'рни

Nasibaxon IBROHIMOVA
Andijon davlat universiteti talabasi

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan manaviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obyektiv va subyektiv tomonlari mavjud.

Musiqaning madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: «Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko'proq shu vaqtda qalbgacha chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks xolda uning teskarisi bo'lib chiqadi.

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. «Musiqaning kishi ruhining axloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etadi». Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan (ya'ni musiqaning) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir».

Musiqaning inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvati hofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: «Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo'lganda edi, endigi hayotimda loqal haftada bir marta bo'lsa ham, bir necha she'r o'qishni o'zimga qoida qilib olardim». Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqaning madaniyatini tarbiyalash musiqaning tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga axloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqaning tarbiyasi katta ahamiyatga egadir.

Bolalar qobiliyati aktiv musiqaning faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko'nikma, malaka, ilmlarni olishi va

uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyat. Nerv sistemasining (tizim) analizatorlari sezgirligi, kuchi, nerv jarayonlarining harakatlanganligi, muvozanatlashganligi kabi omillar asosida rivojlanadi. Masalan: bir sinfda o'qiyotgan ikkita o'quvchiga o'qituvchi bir xil asar she'rni etyudini beradi. Lekin o'quvchilardan biri etyudni bir haftadan keyinroq, yana biri darhol chaqqon, tez o'zlashtira boshlaydi. Boshqa o'quvchi esa bu ishni bir oy o'tganda ham bajara olmaydi va ko'p xatolar qiladi. Muvaffaqiyatga erishishdagi bu farqni xohlagan bir pedagog ana shunday holatlarda o'quvchilardagi qobiliyatlar darajasiga bog'laydi.

Tug'ma qobiliyatlarning irsiy berilishi, masalan: tibbiyot ilmida va unga muvofiq pedagogikada ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ichkilikbozlikka berilgan ayrim oilalardagi bolalarda ba'zi bir irsiy ko'chib o'tadigan ruhiy kasalliklarga chalinish hollari uchraydi. Sog'lom kishilar farzandlarida aqliy faoliyat darajasi va sifati yuqori bo'lishi kuzatiladi. Jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lgan kishilarda ma'lumotlilik hamda bilish jarayonlarining rivojlanishi ko'p jihatdan ular qanday sharoitda o'qitilayotganligi yoki qanday sharoitga qo'yilganligi bilan belgilanadi.

Bizning talim-tarbiya tizimimiz hamma o'quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga har bir kishida mavjud bo'lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi, o'quvchilarga ularning individual o'ziga xosliklarini hisobga olgan xolda tabaqalashtirilgan xolda yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlar namoyon bo'lishi uchun esa uning egasi ko'p mehnat qilishiga to'g'ri keladi.

Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o'z ota-onasidan, oila a'zolaridan, o'z atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bir-biriga bo'lgan hurmat va e'tibor, mehribonlik, o'zaro yordam va ularning musiqaga bo'lgan munosabatlarini bolalarda dastlabki tushuncha va ko'nikmalarining rivojlanib borishida asosiy o'rin tutadi. Bolalar shaxsi uning faoliyati jarayonida tarkib topdi. Zotan, o'quvchining faoliyati juda maroqli, o'ziga xos go'zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga xos bo'lgan doimiy ehtiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma'naviy zavq beruvchi ana shu go'zal tuyg'u bolalar va o'quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo'ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma'naviy go'zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

Bolalar yoshlik xususiyatlarini e'tiborga olib uni ilk yoshidan tashkil qilish va yo'naltirish - pedagog vazifasidir. Aks xolda bola rivojlanishida orqada qolish seziladi. Misol uchun bolalarni ilk yoshida musiqaviy tovushlarning balandligi bo'yicha ajratib borishga o'rgatilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Z. Koday "Избранные статьи" М. 1982.
2. Lashenko "Хоравая культура как предмет изучения" Kiyev 1990.
3. R.Myunnik Germaniya "Yalen" tizimi. Solfedjio. Qo'shiqchilik.
4. B.Trichkov Bolgariya "Solfedjio"
5. T. Sudzuki Yaponiya "Skripka ijrochiligiga o'rgatish orqali musiqiy malakalarini rivojlantirish".

Qadriyatlar tarannumi aks etgan muzeylar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Dilshoda MUSAYEVA

Namangan davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Narimon DEHKANOV

*Namangan davlat universiteti birinchi prorektori,
s.f.d. (Ilmiy rahbar)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy xotirani jonlantirish omili bo'lgan muzeylar va muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, ularga axborot texnologiyalarini jalb qilish, O'zbekiston muzeylarini jahon talablariga javob bera oladigan muzeylar darajasiga olib chiqish va bu jarayonlarda zamonaviy texnologiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati, dolzarbligi va so'ngi yillarda O'zbekiston muzeylarining taraqqiyoti, sohada sodir bo'layotgan tub burilish va islohotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: IKOM, AMIKO, server, eksponat, fond, kartoteka, kommunikatsiya, ADIT missiyasi, assotsiatsiya, NATO, YUNESKO, BMT.

Fan-texnika taraqqiyoti ilg'or yutuqlarining boshqa barcha sohalari qatori muzey ishiga ham kirib kelishi tabiiy hol bo'libgina qolmasdan, hayotiy zarurat hamdir. Xususan, XX-asrning 90-yillarda hozirgi tushunchamizdagi kompyuterlar yaratilishi bilan muzey sohasida ma'lumot tizimini shakllantirish, axborotni to'laqonli yetkazish imkoniyatlari kengaydi. Ayniqsa, muzey mutaxassislari kompyuterni egallashi va yagona tarmoqning vujudga kelishi muzey fondlarini hujjatlashtirishda ko'pgina qulayliklarni yaratdi. Jumladan, eksponatlarning tasviri raqamli fotokamera orqali bevosita kompyuterga kiritilmoqda. Ularning tahlili va boshqa ma'lumotlar esa ilova qilinib, zaruriyat tug'ilganida mutaxassislar tomonidan qo'shimchalar va tuzatishlar kiritiladi. Bu muzey ishida doimiy harakatda bo'lgan katalog va kartotekaning sifati keskin yaxshilanishini ta'minladi.

Internet tarmog'ining kirib kelishi mazkur jarayonni xalqaro miqyosda faollashtirib yubordi. Hozir undagi «Muzeylar», «Madaniyat» bo'limlariga kirib dunyoning xohlagan muzeyi bo'ylab «sayr» qilish, muzeylar haqida umumiy ma'lumotlardan tashqari, fond eksponatlari, yangiliklar, maxsus tadbirlar va ilmiy anjumanlar haqida, soha mutaxassis-xodimlar manzili, ularning internetdagi elektoron pochталari va boshqa ma'lumotlarni olish mumkin. "AQShdagi AMIKO konsortsiumi tarqatgan ma'lumotga qaraganda, Internet tarmog'ida ikki yarim milliondan ortiq muzey eksponatlarining suratlari aks ettirilgan kartoteka tizimi mavjud."

O'zbekiston muzeylari ham internetda o'zlarining saytlarini yaratish ustida ish olib bormoqdalar. Buxoro Davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasida muzey xodimlarini shaxsiy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash masalasi asta-sekin ijobiy hal etilmoqda. Muzeyda Internet tarmog'iga ulanish, sayt yaratish va ma'lumotlar bazasini barpo etish ustida ayrim ishlar amalga oshiriladi. Ilk qadam sifatida, muzey fondidagi qo'lyozmalar to'plamini elektoron lazer diskiga ko'chirish ishlari boshlab yuborildi. Lekin, aslida respublikamiz muzeylarida bu sohadagi ishlar ancha sust bormoqda.

Ma'lumki, muzeyning asosiy vazifasi yig'ish, saqlash va namoyish etishdan iborat. Bugungi kunda muzeylar zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'zlariga tegishli eksponatlarning saqlanishini ta'minlashlari mumkin. Chunki, aniq hisobga olish muzey boyliklarini but saqlash va ularga egalik qilish huquqini kafolatlaydi.

Hozirgi kunda tarixchi, san'atshunos, muzeyshunos tadqiqotchilar va ijtimoiy sohaning boshqa vakillari muzey boyliklarini to'laqonli ilmiy o'rganishda ayrim muammolarga duch kelmoqdalar. Avvalo, yirik muzeylarimizda joriy etilgan tartib - qoidalar chetdan kelgan mutaxassis-olim va muzey ma'muriyati o'rtasida aksar hollarda kelishmovchilik va ba'zan qarshiliklarga olib kelmoqda. Amaliyotda shunday hodisalar kuzatilmoqdaki, o'zi xizmat qilayotgan ilmiy muassasaning rasmiy yo'llanma xati bilan murojaat qilgan tadqiqotchiga bo'limlardagi kartoteka bilan tanishishga ruxsat beriladi, xolos; ayrim muzeylar esa pulli xizmat turini taklif qilmoqdalar. Xorij mamlakatlaridan kelgan tadqiqotchilarning tijorat nashrlari uchun bunday xizmat turi maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Lekin respublikaning ilmiy muassasalaridagi xodimlar madaniy boyliklarimizni hech qanday to'siqsiz o'rganishlariga sharoit yaratilishi lozim. Chunki, birinchidan, ularga bu kabi izlanishlar uchun davlat byudjetidan qo'shimcha mablag' ajratilmaydi. Ikkinchidan, bunday tadqiqotlar respublikamiz ilmiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotini, jumladan, o'sha muzeylar manfaatini ko'zlab amalga oshiriladi.

Yuqoridagi muammo sababli O'zbekistondagi muzeylar fondi eksponatlarining bo'lsak, u yerda muzeylar faoliyati bilan shug'ullanuvchi qator uyushma va markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. "Internetda «Музей России» serveri, «Всероссийский реестр музеев» va boshqa saytlarda muzeylar hayotining hamma jihatlari batafsil yoritib borilmoqda. Davlat Tarix muzeyi (Moskva) 1997 yildan e'tiboran eksponatlarini Internet tizimi orqali namoyish etib kelyapti. Muzeyning uch mingdan ziyod eksponatlari

Umumevropa «Museum online» tarmog'iga kiritilgan. Davlat Ermitaj muzeyi ham zahirasidagi to'rt mingdan ortiq asarlarini shu yo'l bilan namoyish qilmoqda. "Ribinskiy badiiy muzeyi o'z sohasida ilg'orlik qilib, 2000 yil 10 martda Moskva shahrida 45000 kartochkadan iborat elektron sayti taqdimotini o'tkazdi.

Muzeylarda elektron tizimining joriy etilishi unda namoyish qilinadigan saytlarning shakli, tartibi, ko'rinishlari, tuzilishi va sohaning boshqa masalalariga bag'ishlab qator ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Ular orasida "ADIT (Автоматизация деятельности музеев и информационная технология) uyushmasi nodavlat tashkilot va idoralari bilan hamkorlikda muzey sohasiga zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlarini olib kirishda ko'pgina ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, uyushma har yili Rossiyaning turli shaharlarida ilmiy anjumanlar o'tkazib kelmoqda 2001 yil 28 may- 1 iyun kunlari Tula shahrida «Muzeylar va axborot maydoni: axborotlashtirish muammolari va madaniy meros» mavzuida ilmiy anjuman bo'lib o'tdi." Anjumanda muzey mutaxassislaridan tashqari, kutubxona, arxiv universitet, elektron nashriyot va texnika bilan shug'ullanuvchi firmalar, ko'plab xorijiy tashkilotlarning vakillari hamda muammoga aloqador boshqa sohalarning mutaxassislari qatnashadilar.

Anjuman o'z doirasida «ADIT missiyasi – muzeyi hujjatlari bo'yicha milliy Assotsiatsiya sifatida», «Informatsion menejment», «Hisobga olish va saqlash faoliyatini ma'lumotlash», «Muzeylarning ilmiy tadqiqot va ekspozitsiya-ko'rgazmalar faoliyatiga avtomatika tarmoqlarini olib kirish», «Tomoshabinlar bilan ishlashda ma'lumot tarqtish» mavzulari bo'yicha sektsiya majlislari o'tkazildi. Shuningdek, muzeylar uchun SD-ZOM elektron nashr va Internet-saytlardan namunalar namoyish etildi. Ommaviy axborot vositalari va Internet paydo bo'lishi bilan jamiyatdagi muzeyning o'rni sezilarli darajada o'zgardi. Hozirgi kunda muzeyga tegishli madaniyat tarqalishining asosiy funktsiyalari ilgari bosma, televidenie, radio, Internetga ko'chirilgan. Boshqa tomondan, mutaxassislar madaniy merosning global «radioeshittirish» muzey va muzey tarmoqlarining o'sishiga e'tibor qaratmoqdalar. 1980 yillarning boshlarida ham Xalqaro muzeylar Kengashi (ICOM) muzeylar faoliyatida axborot texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini e'lon qildi. Shu bilan birga, muzeylar Kengashida - Xalqaro hujjatlar - Cidoc kompaniyasi Kengashida ixtisoslashgan bo'limi tashkil etildi. XXI asr boshlarida. CDDOC dunyoning 65 mamlakatidan 800 ga yaqin mutaxassislarni birlashtiradi. Har yili xalqaro konferentsiyalarda, CIDCC, ular axborot texnologiyalarini rivojlantirish va tajriba almashish bo'yicha umumiy

tendentsiyalarni muhokama qiladilar. Muzei faoliyatini axborotlashtirish sohasidagi milliy dasturlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda xalqaro loyihalar kinidokal axborot resurslarini yaratish va foydalanish sohasidagi turli mamlakatlarning turli mamlakatlarining milliy dasturlarini uyg'unlashtirish va birlashtirish bo'yicha xalqaro loyihalarda faol tarqatilmoqda. XXI asr boshlarida. Cidot Global muzei aloqalari sohasida muvofiqlashtirish va maslahatlashuv funktsiyalarini amalga oshiradigan transmilliy shilliq va maslahat funktsiyalarini amalga oshiradigan ilmiy va dizayn-maslahat-fikr yurituvchidan o'tadi. Elning to'rtinchi doirasi doirasidagi (1994 - 1998 yillarda), shuningdek, axborot jamiyatiga o'tish paytida madaniyat sohasini takomillashtirish maqsadida, bunday niyatlar qatorida, bunday niyati deb e'lon qilindi: «Harakat va muvozanatli sharoitlar yaratish uchun shartlar Xizmat va dasturiy ta'minot va telekommunikatsiya komponentlari bozorini rivojlantirish, Yevropa madaniy merosiga kirish imkoniyatini beradi. «1996 -2002 pp-ga Yevropa hamjamiyatining qo'shma tashabbusi (Kengaytirilgan kommunikatsiya texnologiyalari va xizmatlari). Ikkita yirik loyihalar amalga oshirilmoqda:»Multimedia Yevropa madaniy merosiga kirish» (Yevropa madaniy merosiga ega bo'lgan «(ko'p ommaviy axborot vositalarining Yevropa merosi), qisqartirildi -» Loyiha MO «, amalga oshirish muddati 1 996 -1998 pp.» Madaniy tashabbuslarning integratsiyasi orqali ta'lim olish uchun multimedia» (madaniy tashabbuslarni integratsiyalashgan madaniy tashabbuslar hisobiga yollash bo'yicha multimedia), qisqartirildi - «Medici Loyiha» va 1998 yildan boshlab amalga oshirildi 2002 yil HP.

«MO» loyihasi doirasida Evropa hamjamiyatining komissiyasi uning mavqeini ikkita asosiy hujjatni e'lon qildi: «Tushunish memorandumini» va «Evropa madaniy merosiga elektron kirish».

Birinchi hujjatning asosiy qoidalari:

- tushunish g'oyalarini tiklang;
- tushunish memorandumini tashkilotlar (muzeilar va galereyalar, davlat va jamoat tashkilotlari, o'quv va ilmiy markazlar, elektron nashriyot va dasturiy majmualarda ixtisoslashgan kompaniyalar, masalan, masalalar bo'yicha konsensusga erishish uchun faol targ'ib qilinadi);
- o'zaro manfaatli a'zolarini aniqlash.

O'zaro eoporozumin memorandumini bunga asoslangan shartnomalarni amalga oshirish uchun majburiy javobgarlikni kiritmaydi. Bu faqat belgilangan tamoyillarga rioya qilish va ma'lum umumiy rejani va konsensusga erishishga intilishdir.

Tushunish memorumlari 465 turli institutlar vakillari, shu jumladan 297 muzey, 47 ta davlat muassasalari (ilmiy va o'quv yurtlari), 76 tijorat kompaniyalari va 45 ta nodavlat tashkilotlari tomonidan imzolangan. Memorandumni imzolash orqali «Mo» loyihasi ishtirokchilari muayyan majburiyatlarni olishdi:

xususiy sektor bilan muzeylar va galereyalar hamkorligi uchun sharoit yaratadi;

intellektual mulk va mualliflik huquqi sohasidagi qonun hujjatlariga zarurona tushunchalar; to'g'ridan-to'g'ri jamoatchilik yoki tijoriy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan hollarda elektron axborot resurslarini yaratish xarajatlarida ishtirok etish; maktablar, universitetlar va jamoat tashkilotlarida axborot tarqatish va ma'lumot tarqatishni ta'minlash; elektron marketing mexanizmlarini saqlash (shu jumladan muzeylar va mualliflik huquqi va intellektual mulk egalari).

Ishlab chiqaruvchilarning majburiyatlari (apparat va dasturiy ta'minot komplekslari, telekommunikatsiya tarmoq operatorlari, xizmatlari va elektron nashriyotlari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar):

- yuqori moslik protokollarini yaratish, ma'lumotlar, kirish protseduralari va hk;

- obuna to'lovi va mualliflik huquqi egalari o'rtasida abonent to'lovi va uni qayta taqsimlashni o'tkazish uchun intellektual mulk huquqlarini himoya qilish uchun bozor mexanizmlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

- muzey kolleksiyalarining elektron to'plamlarini va bunday tovarlar va xizmatlarning keng bozorlarini tashkil etish bo'yicha moliyalashtirish ishlarini moliyalashtirishda ishtirok etish;

maktab va universitet o'quv rejalari ishtirok etish uchun Evropaning madaniy merosiga elektron kirish huquqini beradi.

Muzeylar va galereyalar bo'yicha majburiyatlar:

- montajning katta qismiga kirish huquqini elektron tarmoqlar orqali amalga oshirishni ta'minlash;

- elektron rasmlar va tarmoqqa kirish huquqini yaratish uchun yagona tartibni belgilash;

- yevropa Ittifoqi hududida va undan keyingi hududlardagi maktab va universitetlar uchun narx siyosatini, tarmoqqa kirish tartibi, tavsifi to'g'risidagi maqbul qoidalar va protokollar to'g'risida kelishib olish;

- axborot resurslaridan turli darajadagi kirish darajasini tashkil etish to'g'risida kelishib olish;

- muzey axborot resurslariga elektron kirish huquqini kengaytirish

sifatida muzeylarga to'g'ridan-to'g'ri tashriflar va Jahon madaniy merosi to'g'risidagi bilim va g'oyalarni tarqatish usuli sifatida.

«MO Loyiha» doirasida olingan natijalar Evropa Ittifoqining beshinchi va 1999 -2002 HP doirasida Medici loyihasini amalga oshirish orqali hamjamiyat komissiyalarining quyidagi tashabbuslarini rag'batlantirdi.

Loyiha amalga oshiriladi (individual subprojektorlar hozirgacha to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha tadbirlar to'plami:tezkor tematik virtual ko'rgazmalar;

- madaniy meros va ta'lim sohasida yangi axborot texnologiyalari;
- madaniy meros va turizm sohasida yangi axborot texnologiyalari;
- foydalanuvchi uchun eng muhim masalalar (huquqiy masalalar, standartlar, moliya va boshqalar) tarkibidagi aniq tavsiyalar bo'lgan amaliy qo'llanmani tayyorlash.Standartlashtirish bo'yicha xalqaro standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO) Yaqinda kompyuter rasmlari ma'lumotlar bazalari uchun ISO-10918 8 muzey standarti. Ushbu standart Muzey ob'ekti («yorlig'i» ning minimal tavsifi, kompyuterdagi rasmlarning yagona formati va kompyuter rasmlarining bitta formati mavjud. Kompyuter indekslash to'g'ridan-to'g'ri rasm faylida standart qisqacha tavsifni biriktirish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu standartga asoslanib, yagona Yevropa tasvirlari «Muzeydagi muzey», shuningdek dunyoning muzeylari uchun standartlar paketi yaratildi.

Ushbu yozish paytida Yevropa Ittifoqining o'quv qo'llanmalari muzeylar, ta'lim va turizm madaniy merosi sohasida va boshqalarga qaraganda, Yevropa Ittifoqining qo'shnilarida. XXI asr boshlarida. Yevropa insoniyat global madaniy merosining global madaniy merosining tarkibiy qismi sifatida milliy muzey merosimizni insonparvarlik va demokratlashtirishning yangi axborot texnologiyalari to'plami bilan qiziqmoqda. Ukraina muzeylari davlat tomonidan e'lon qilingan Yevropa muzeylari Yevropa ma'lumotlari va madaniy maydon tashqarisida mavjud va rivojlanishi mumkin emas. Endi ukrainalik muzeylari o'zlarining Yevropa hamkasblari bilan jadal etib borishi va qo'shma muzey va axborot loyihalarini amalga oshirishda faol qo'shilishlari kerak. Axir, ularning ortida post-sanoat jamiyatining muzey biznesi kelajagi.Axborot jamiyati Axborotni boshqarish va boshqaruv printsipiga asoslangan holda, axborotni boshqarish va boshqaruv printsipiga asoslangan holda o'tkaziladi. Axborotni boshqarish - bu axborot makonini shakllantirish va tashkil etish, ma'lumotlarning yordami bilan boshqarish - ushbu maydondan faoliyatni talab qilish sifatida foydalanish.

Bugungi kunda yangi texnologiyalar yordamida muzeyni kompyuterlashtirish va axborotlashtirish tizimini, balki davlat va global tarmoqlar va shirkatchilikka oid doimiy kommunikation va axborot almashinuvi tizimini yaratishingiz mumkin.

Dunyoning eng yaxshi menejmenti va kommunikatsion axborot tizimining eng yaxshi milliy standartlari - «Monarx» (Buyuk Britaniya) va «Merisee» (Frantsiya).

1990-yillarning o'rtalarida Angliya tarixiy yodgorliklari bo'yicha Qirollik komissiyasida «Monarx» ning ingliz tilidagi elektron ma'lumotlar bazasi (Angliya, Raxm, Raxme) va 1999 yilda P. Ingliz merosi xizmati tarkibiga (ingliz merosi) birlashtirilgan. Ushbu xizmatning rasmiy veb-sayti «Monarx» davlat kompyuterlari ma'lumotlar bazasi 400 mingdan ortiq arxeologik joylar, qazish va arxivlar, marinika va boshqa ob'ektlar mavjudligi haqidagi statistik guvohnoma mavjud. Qurilish va faoliyat ko'rsatish tamoyillariga, axborotni jamlash printsiplariga yaqin, Fransiya Madaniyat vazirligi va «Merimee» ning birinchi yarmida yaratilgan. Ular bilan taqqoslaganda, Ukrainaning muzeyi, bu tadqiqotchi uchun juda qiyin bo'lgan yopiq turdagi axloqiy eskirgan arxiv shaklida qanchalik afsuslanishiga qaramay (ayniqsa chet ellik) ushbu fondlar to'plamlari bilan tanishish cheklangan rejim.

XXI asrda axborot texnologiyalari. Muzeyning barcha sohalarini bajaring: axborotni boshqarish va an'anaviy ekspozitsiyalarning elektron tijoratidan.

Internetning global axborot sohasida dunyoning barcha muvaffaqiyatli muvaffaqiyatli muzeylarining marketing xizmatlari ularning faoliyatini ochdi. Internet orqali ular ushbu yoki ushbu muzeyga tashrif buyurganlar orasida marketing tadqiqotlarini o'tkazadilar va potentsial tashrif buyuruvchilar orasida muzeylar ommabop anketalari. Internet tarmog'idagi madaniy boyliklarni ommalashtirish va singdirish uchun Internet muzeyi orqali tajovuzkor yoki rasmi reklama kompaniyalari uchun xizmat qiladi.

Yangi axborot texnologiyalari bir qator strategik afzalliklarga ega muzeyni ta'minlaydi. Ular orasida, xususan, bunday:I. Muzey Buxgalteriya hisobi shakllarining kompyuter tizimlari, muzeylar to'plamlari davlat tizimlarini yaratish nafaqat davlat organlari, balki boshqa muzeylar va jamiyatning o'zi ham bo'lishi uchun mumkin.III. Aloqalarning axborot kanallari sheriklarni topish va ular bilan qo'shma muzeylar va loyihalar doirasida o'zaro aloqada bo'lish uchun samarali vosita sifatida amalga oshiriladi. Korporativ ma'lumotlar va axborot resurslari, elektron yozishmalar, o'zaro kelishuvlar, masofadan turib konsalting va qo'shma

harakat rejalarini muvofiqlashtirish, hamkorlik aloqalarini faollashtirish, kuchaytiradi va kengaytiradi - bu barcha muzeylar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini faollashtiradi va kengaytiradi Boshqa tashkilotlar. Muzey veb-saytining interaktivligi tufayli uning xodimlari global Internetning ko'plab foydalanuvchilariga bir qator pullik qidiruv, axborot va maslahat va ekspert xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega. Har kuni muzey saytlariga kiradigan kompyuter so'rovlarini qayta ishlash va texnik xizmat ko'rsatish, statistikaga ko'ra, XXI asr boshlarida Yevropa Ittifoqining minglab muzeylarini katta foyda keltiradi. Elektron kataloglar mavjud bo'lsa va ko'plab tadqiqotlar va ommabop bo'lsa, muzey buyumlari ma'lumotlar bazalari, u o'z xavfsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan narsalarni amalga oshiradigan va narsalarni bajarmasdan amalga oshiriladi. Yangi axborot texnologiyalarining qo'llanilishi muzeylarni nashriyot faoliyatini sezilarli darajada oshirdi va ilmiy-moddalar (monografiyalar, entsiklopediyalar) nashriyotlarning, shu jumladan elektron ommaviy axborot vositalarida (DVD, SD-R) nashr etish jarayonini tezlashtirdi. Dastlabki buyurtma berish va muzey chiptalari, kataloglar, Internet orqali suvenirlar qo'llaniladi. Bu, ayniqsa muzey mahsulotining korporativ mahsulotlarining korporativ iste'molchisi uchun ancha qulayroq, u turistik shaxsning madaniy hordiq chiqaradigan sayyohlik kompaniyalari uchun foydali, bu G'arb mentalitetining odami uchun osonroq, Bu iste'mol qilingan xizmatlar uchun naqd pulsiz to'lovlarga ko'nikib turadi va bu tejamkor, an'anaviy ravishda Internet orqali buyurtma qilingan chiptalar va tovarlarga kichik chegirmalarni taqdim etadi. Muzeyning mahalliy tarmog'iga kiritilgan aktsiyalar muzeyiga kiritilgan va shu sababli cheklangan muzey mahsulotini ishlab chiqarishda faol ishtirok etadi (ham material - ko'rgazma, bosma va virtual).

Yangi axborot texnologiyalari muzeyga virtual tashrif buyuruvchilar tinglovchilarini sezilarli darajada kengaytiradi, o'zlarini va boshqalarni eslatib turishga yoki dunyo bo'ylab muzeyning muzeyini, ekspozitsiyasini va imidjini ommalashtirishadi. Ularning yordami bilan foydalanuvchi zudlik bilan yangi tadbirlar va muzey va muzey aktsiyalari, ulardan foydalanadigan narsalar va ularning kataloglari haqida ma'lumot olish, elektron qo'llanma va shunga o'xshash narsalar haqida ma'lumot olishi mumkin.

Bu erda ular muzeyning konservativ puxta o'ylangan xodimlari uchun ta'kidlash kerak - virtual sayohat muzey zallariga haqiqiy turini almashtirishga qodir emas. Monitor ekranidagi kichik rasmlar Arthyume asarlarini almashtirish mumkin emas, kompyuter rasmlari odatdagi axborot va psixologik «o'lja», bu odamning xotirasida tasvirlangan va unga bo'lishni

xohlaydi Ushbu muzey. Kompyuterning kompyuterning kompyuterining maqsadi shakllantiriladi (Aytgancha, kompyuterning mavjudligi sababli biron bir joyga tortish qiyin), u badiiy va umumiy madaniy qadriyatlarga jalb qilinadi, Internet odamni jalb qiladi Institutlarga tashrif buyurish majburiy yoki ixtiyoriy dasturga kiritilgan Muhexnik yoki ixtiyoriy dasturda kognitiv sayohatlarga sayohat qiling.

Hozirgi kunda boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo'lgani kabi, respublika muzeylarida aynan nashr masalasi katta moliyaviy muammolarga duch kelmoqda. yevropa va Amerikaning muzey, kutubxona va arxivlari mazkur muammoni yana o'sha Internet tarmog'idan keng foydalanish orqali hal qilishga intilmoqdalar." Masalan, nemis mutaxassislari 2001 yil 19-22 iyun kunlari Myunxenda bo'lib o'tgan IV Xalqaro «Muzey ishi, komplektlashtirish, ta'mirlash va ko'rgazmalar uchun texnologiya» mavzuidagi ixtisoslashgan ko'rgazma materiallarini maxsus saytda e'lon qilishdi. Rossiya muzeyshunoslari «Музеи будущего: информационные технологии культурное наследие» nomli maqolalar majmuining bir qismini va boshqa nashrlarni Internet tarmog'ida yoritdilar. Ulardan ayrimlari rus tilida muzeylarimizning boshqa xorijiy tillarni bilmaydigan mutaxassislari uchun qulaylik yaratadi."

Yuqoridagilardan kelib chiqib, muzeylarni qo'llab-quvvatlash respublika «O'zbekmuzey» jamg'armasi qoshida muzeylar uchun elektron dasturlar yaratuvchi mutaxassislardan iborat maxsus markaz tashkil etish kun tartibidagi dolzarb masala, deb hisoblaymiz. Chunki, aynan shunday markaz orqali O'zbekiston muzeylarida ma'lumot tarqatish va saytlar yaratishning yagona tizimini joriy qilish mumkin. Yirik muzeylarimiz xorijiy sarmoyalarni jalb qilgan holda xalqaro standartlar negizida elektron axborot majmuini yaratishlari mumkin. Lekin bunda muzeylarda ma'lumotlar to'plashning turlicha uslub va ko'rinishlari hosil bo'lib, ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Shuni hisobga olgan holda respublikaning turli yo'nalishdagi 80 dan ortiq muzeyda saytlar, hisobga olish va kartotekaning yagona andozasi tayyorlansa, bu keyinchalik respublika muzey fondining yagona katalogini nashr qilishda juda asqotgan bo'lardi.

Xullas, boshqa madaniy muassasalar qatorida muzeylarimizning ham elektron nashrlari bilan dunyo ma'lumotlar oqimiga qo'yilishlarini tabiiy hol va zamon talabi deb qabul qilmog'imiz lozim. Zero ma'lumot tarqatish bilan muzey o'zini jamiyatda reklama qilishi, tomoshabinlarni ko'paytirishi va horijiy hamkasblar bilan tez va qulay aloqa o'rnatishi mumkin. Elektron axborot tarqatish vositalari tizimini joriy etish muzeylarimiz boyligini keng

omma, xususan, yoshlar orasida targ'ib qilishda ham o'zining ijobiy rolini o'ynaydi.

“Xalqaro Tinchlik yili nishonlangan 1986 yilda Samarqand shahrida Xalqaro tinchlik va birdamlik muzeyi ochilgan bo'lib, 1989 yili unga «Xalq muzeyi» nomi berildi.” O'ziga xos axborot – aloqa markazi vazifasini bajaruvchi bu muzey ko'plab ta'limiy dasturlar, xalqaro loyihalar va badiiy ko'rgazmalar o'tkazib turish bilan birga doimiy ekspozitsiyasiga ham ega.

Muzey bisotida barcha qit'alardan keltirilgan yigirma mingdan ko'proq eksponat-plakatlar, rasm, gobelen, bayroq, vimpel, kitob, nishonlar, videofil m, audiokasseta, kompakt-disklar va boshqa ko'plab ashyolar mavjud. “ Ular orasiga Nagasakida atom bombasi portlashi natijasida erib ketgan uy tomi cherepitsasining parchasi, Stalingrad janggohlari, Osventsim, Xirosimadagi Tinchlik bog'i to'prog'i solingan. kapsulalar, Berlin devori bo'lagi, yo'q qilingan «Pershing-2» Amerika yadro raketalarining soati, astronaut R.Furrerning «Chellenjer» kemasida o'zi bilan parvozga olib chiqqan sovg'asi qo'yilgan; tug'ma nogiron bo'lgan frantsuz rassomi Denis Legrining go'zallik va hayotga muhabbat ruhi bilan chizgan rasmlari hayratga soladi, ekspozitsiyada bolalarning ham ko'plab tasviriy asarlari qo'yilgan.”

Muzey ko'pgina xalqaro va milliy (hukumatlararo hamda nodavlat) tashkilotlar hamda barcha qit'alardagi pok niyatli insonlar bilan keng aloqa bog'lagan. BMT, OBSE, yevropa Kengashi, yevropa Ittifoqi Komissiyasi, YuNESKO, IKOM, NATO, Xalqaro PEN- klub, Norvegiya Nobel instituti, Umumjahon Cherkovlar Kengashi, Jahon Banki, Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va boshqa tashkilotlarning muassasalari muzeyga o'z nashrlarini yuborib turadi.

Jenevadagi Xalkaro tinchlik byurosiga va Jahon muzeylarining umumjahon tarmog'iga a'zo bo'lgan muzey fondidagi ko'rgazmalar Kipr, Frantsiya, Gollandiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda namoyish qilindi. Uning faoliyati ko'plab maqolalarda, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar dasturlarida aks ettirilgan. Kezi kelganda shuni aytib o'tish lozimki, Xalqaro muzeylar kengashi tomonidan Parijda ingliz, frantsuz, ispan tillarida nashr etiladigan «IKOM N yus» jurnalining 2000 yildagi birinchi soni Samarqanddagi Xalqaro tinchlik va birdamlik muzeyi faoliyatiga bag'ishlangan maqola bilan ochilgan.

Muzey faoliyat ko'rsatayotgan davrda uning muayyan ish yo'nalishlari shakllanadi. Bunga mashhur arboblardan, shoirlar, olimlar, musiqachilar, san'atkorlarning dastxatli surat va shaxsiy nomlarini qamrab oluvchi «Tinchlik dasxati», bolalar ijodiga bag'ishlangan «Dunyo va mamlakatlar

bolalar nigohida» yo'nalishlarini misol keltirish mumkin. Istiqbolda doimiy amal qiluvchi Bolalar rasmlari xalqaro galeriyasi, «Urush o'yin emas. Harbiy o'yinchoqlar o'ynash nimaga kerak? Tinchlik mendan boshlanadi» shiori ostida «Tinchlik va qurolsizlanish bolalar festivali», O'zbekistonda xorijlik rassomlarning tabiat fusunkorligini tasvirlovchi «Go'zallik dunyoni asraydi» nomli ekspozitsiyalarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Bu asarlarning bir qismi muzeyning doimiy ekspozitsiyasiga kiritilgan. Kelajakda Samarqandda «Go'zallik dunyoni asraydi», «Dunyo jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar nigoxida», «Tabassum olami», «Esperanto» baynalmilal klubi nomli badiiy galereyalarni vujudga keltirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, muzeyda «Buyuk Ipak yo'li» galereyasi tashkil etgan holda o'z vositalari yordamida qadimda shu yo'l tufayli yuzaga kelgan an'analarni qayta tiklash, xalqlar orasidagi madaniy ayirboshlash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadi ko'zda tutilgan.

O'tgan davr mobaynida muzey MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlarida o'ziga xos betakror muzey sifatida istiqbolli salohiyatini ko'rsata oldi. Biroq yetarli moddiy – texnikaviy sharoitlar bo'lmaganligi sababli uning juda katta imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti. Muzeyning barcha ishlari asosan uning faollarining beg'araz mehnati va do'stlari yordamida amalga oshirilmoqda. Hozirgi paytda muzey tashabbuslarini qo'llab -quvatlovchi Muzey do'stlarining jamiyati tashkil topmoqda.

70 foizi o'zining fundamental tadqiqotini kutib yotibdi. Kutubxonalaridagi mavjud nashrlar esa ko'pi bilan ularning 10 foizini yoritadi, xolos.

Holbuki, hozirgi paytda dunyoda muzey ishi juda ilgarilab ketganining guvohi bo'lmoqdamiz. Jahondagi deyarli barcha zabardast muzeylar internet tarmog'i orqali tinimsiz chiqishlar qilib, o'z saytlarini muntazam yangi axborotlar bilan to'ldirib borishyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya.- Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012.02-bet
2. Mirziyoyev SH.M Buyuk kelagagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz."O'zbekiston" NMIU, 2017.-485-bet
3. Karimov IA Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.148-bet
4. Egamberdiyeva N.M "Ijtimoiy pedagogika"-T. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009 y

5. Z. Xaydarov “Muzeyshunoslik” fanidan o‘quv uslubiy majmua.-
Namangan-2022
6. www.wikipediya.uz
7. Xs.uz
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini
birgalikda barpo etamiz.Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-29 b.
9. Mavlanova R. va boshqalar Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T.:2010 y.
“Fan va texnologiya” nashriyoti.461-bet
10. Pedagogika.M. Toxtaxodjayeva umumiy tahriri ostida.T.:
O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,2010-y

Milliy qadriyatlar va an'analarning yosh avlod tarbiyasida tutgan muhim o'рни

Sevinch QURBONOVA
O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti

Shohsanam SHUKUROVA
*O'zDJTU ingliz tili amaliy fanlar
№3 kafedrası o'qituvchisi (Ilmiy rahbar)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oltinga teng buyuk tariximizni asrlar davomida saqlab kelinishi va shu yo'lda jonini fido qilgan ota-bobolarimizning sa'y harakatlari yosh avlodni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash haqida so'z boradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlash maqsadida yo'lga qo'yilgan islohotlar ham ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, milliy ruh, Abdulla Avloniy, tarbiya, an'ana, tarix.

“Tarixsiz, milliy qadriyatlarsiz yorqin kelajak bo'lmaydi” – deb ota-bobolarimiz bejizga oldinlardan buyon ta'kidlamaydilar. Chunki, tarix va milliy qadriyatlarimiz bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda tarixini va an'analarni saqlab qolish va dunyo bo'ylab yoyishga harakat qilayotgan davlatlar sifatida O'zbekiston davlati va uning xalqini misol qilsak bo'ladi. Mamlakatimiz juda katta tarixga ega, qadimdan nishonlanib kelinadigan urf-odatlar ostida katta esa hikmat yotadi. Bu urf-odatlarni va ulkan tariximizni asrash va kelajak avlodga yetkazish bu bizning oliy maqsadlarimizdan biridir. Qadimda bobolarimiz, “tarix bu eng katta muallim”, “tarixi yo'q davlat o'zligini anglay olmaydi” shu kabi maqol va ibratli so'zlardan eshitganmiz. Darhaqiqat, mamlakatimiz yoshlarini tarixni, urf-odatlarimizni bilgan holda va ularga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim, bu esa o'z navbatida dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Xususan davlatimizda, tariximizni davlatlararo tanitish, yosh avlodni milliy qadriyat va an'anaga bo'lgan qiziqishini oshirish ustida olib borilayotgan islohotlar bir talay desak adashmagan bo'lamiz.

Jamiyatimizda tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniyning yozishmalarining ko'pini tarbiya mavzusi hisoblanadi. Shu o'rinda hazratning so'zlarini tilga olsak, “tarbiya yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” - deb berilgan ta'rif ham uning naqadar buyuk kuchga ega ekanligini yaqqol tasvirlab turibdi. Tarbiya - inson tug'ilganidan to uning hayotining so'ngi daqiqalarigacha bo'lgan tabiiy jarayon hisoblanadi. Farzand oilaning nasli davomchisi bo'lish bilan bir

qatorda uni bog'lab turuvchi zanjir hamdir. Oila esa barkamol avlodni tarbiyalovchi muqaddas maskan deb atasak bo'ladi. Yoshlar odatda o'z uyida shakllangan ma'naviy tarbiyani jamiyatga ko'rsatishga moyil bo'lishadi. Avvalo, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, ya'ni ota-ona munosabatlari, farzandlar uchun ota-onalar har taraflama ibrat bo'lishlari darkor. Shundagina farzandlar ongida ota-onaga va vatanga bo'lgan mehr shakllanib boradi.

O'zbek xalqining uzoq asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan an'ana va milliy qadriyatlari mavjud va ular uzoq tarixiy o'tmishda paydo bo'lgan. Jumladan, o'z tug'ilib o'sgan muqaddas diyoriga bo'lgan ehtirom, vatani uchun jonini fido qilgan ajdodlarga sadoqat, kattalarga doimiy hurmatda bo'lish, yashash tarzi va turmushi doimo toza va pok bo'lmog'iga katta e'tibor berishlik singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz hisoblanadi. Qadriyatlar asosan xalqni bir-biriga yanada yaqinlashtiruvchi, hamjihatlikka undovchi kuchdir. Millatning o'tmishi, buguni va ertasining muhim omili sifatida qadriyatlar va milliy an'analarni belgilashimiz boisi ham shu. Milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar hisoblanadi. "Qadriyatlar", "o'zlikni anglash", "milliy g'oya", "milliy g'urur" singari atamalar bolaga ona allasi bilan birga ongiga singadi.

Yoshlarimizning ma'naviy yetuk inson sifatida tarbiyalanishida oila bilan bir qatorda mahalla va o'qitish muassasalarining ham o'rni beqiyosdir. Mahalla va ta'limgohlar azaldan urf-odatlar, udumlar va an'analarga tayangan holda ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajarib kelgan. Keksa qariyalarning pand nasihatlar va o'gitlari sababli odamlarning ongiga ezgulik g'oyalari singdirilgan va hozirda ham shunday. Bejizga aytishmaydi axir "qarisi bor uyning, parisi bor deb".

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ham milliyligimizni, qadriyatlarimizni, buyuk tariximizni saqlab qolish maqsadida bir qancha islohotlar yo'lga qo'yilgan. Bunga misollar sifatida, viloyatlarda tarixiy joylarni yanada obod qilish, olim va tarixchilar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar, tadqiqotlar va ular natijasida hududlarda muzeylarning sonini ko'paytirish ham keng yo'lga qo'yilgan. Bu islohotlar esa o'z navbatida buyuk tariximizning keng yoyilishiga asosiy sabablardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har yili O'zbekistonga minglab chet ellik mehmonlar va olimlar uning tarixiy joylarini ko'rish, o'rganish va hatto uning tarixi, milliyligi va qadriyatlari haqida kitob yozish uchun ham tashrif buyurishadi. Bu esa o'z navbatida davlatimiz rivoji uchun katta yutuqlardan biri.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tarix - bu bizning ertamiz, o'zligimizni anglashimizda eng katta ustoz, bizning ajdodlarimiz va shuni unutmaslik kerakki tarix - bu bizning ildizimiz. Bilamizki daraxt ildizsiz ko'karmas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/470>
2. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/download/5540/3509/15243
3. <https://muhaz.org/yoshlarni-milliy-va-umuminsoniy-qadriyatlar-ruhida-tarbiyalash.html>
4. <https://xs.uz/uz/post/milliy-qadriyatlar-va-ananalarni-rivojlantirishning-bebaho-manbai>

Yoshlar tarbiyasida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'рни

Ruxshona TOSHEVA
UzDJTU 1-bosqich talabasi

Aziza TALIBJANOVA
UzDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasida katta o'qituvchisi (Ilmiy rahbar)

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodning tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning ahamiyati va ularning ta'lim olishida tutgan o'рни haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, qadriyat, o'g'itlar, urf-odat, ma'rifat, Vatan, maktabgacha bo'lgan ta'lim, egosentrizm.

Xalqimiz orasida milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat va sadoqat yildan yilga rivojlanib, O'zbekistonning ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yuksalishiga poydevor bo'lmoqda. Ayni shu umuminsoniy qadriyatlar yoshlarni kitoblar va ota-bobolarimizning hayotiy o'g'itlari orqali komillikka yetaklovchi bir kuchdir desak, adashmagan bo'lamiz. Hozirgi kunda qadriyatlarimiz tiklanishiga ham katta e'tibor berilmoqda. 2021-yil 19-yanvar kuni bo'lib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan yig'ilishda yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev shunday fikrlarni bildirganlar: " Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi- bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat".

Bundan tashqari, milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini butun dunyo tan olmoqda. Xususan, Amir Temur, A.Navoiy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek kabi dunyo tan olgan buyuk allomalar-u Buxoro, Xiva, Toshkent, Samarqand kabi keng tarixga ega shaharlarga bag'ishlab qilingan yubileylarda ellikdan ortiq davlat vakillari ishtirok etganligi milliy qadriyatlarimizning nafaqat O'zbekiston, balki butun jahonda bir butun yaxlit holda insonlar qalbidan chuqur joy olayotganligining o'zi yorqin bir dalildir.

Bilamizki, dunyoda har bir xalqning o'z milliy an'analari bor. Ularni kelajak avlodga ham o'rgatish va ularga sodiq qolgan holda hurmat qilish yosh avlodga kichikligidan o'rgatilishi kerak. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy barkamol

qilish, an'analariga sodiq farzand sifatida shakllantirishligini hisobga oladigan bo'lsak, kelajak avlodga bular haqida kichikligidan uqtirilsa, ularning zamirida katta hikmat borligini his qilsalar, demak, bu qadriyatlar yashab qoladi. Bu uchun yana turli xil yo'llar ham bor: yoshi katta insonlarning o'git va nasihatlarini tinglash, undan o'zlariga kerakli xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish orqali, turli vositalar bilan yoshlarning tarbiyasiga samimiy yondashish va tinimsiz izlanishlar orqali erishish mumkin.

Qo'shimcha qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham qadriyatlarimiz o'z aksini topgan. Bularni bunyodkorlik g'oyalariga asoslangan sodiqlik, yuksak mas'uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlar va an'analari, mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, vijdon erkinligi, mehnat tamoyillari misolida ko'rish mumkin. Qadriyat deganda, asosan, ota-onaga ehtirom, tozalik, o'zbek tili, diniy bag'rikenglik, so'z erkinligi, lafz, yelkadoshlik va mehmondo'stlik, rozi-rizolik kabilar tushuniladi. Bularning bari xalqimizning boy tarixi, ma'naviy merosi, hayotiy qarashlari va turmush tarzi, e'tiqodidan kelib chiqqan desak, adashmagan bo'lamiz.

Tarbiya haqida gapiradigan bo'lsak, u inson umrining oxirigacha davom etadigan, rivojlanib boradigan jarayondir. Axloqiy tarbiyaning bir qancha ko'rinishlari mavjud:

Oilada axloqiy tarbiya. Bolani tarbiyalash katta xizmat va mas'uliyat talab qiladi. Avvalambor , bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida tarbiyalanadi. Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning harakatlarini qo'llab-quvvatlab mehribonlik bilan munosabatda bo'lishi bolaning sog'lom, odob-axloqli bo'lishiga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya. Bu davr bolaning ayni dunyoni bilishga intilayotgan, o'z munosabatlarini ifodalashga istagi kuchayayotgan bo'lib, bola tarbiyasidagi eng kerakli nuqta shudir.

Boshlang'ich ta'limda axloqiy tarbiya. Bolalar maktabga kelgach yangi muhit, yangi ustoz, yangi do'stlar va yangi tartib -qoidalar bilan tanishadi. Ularning ta'lim olishi ancha aniq bir tizimga o'tadi. Xususan, ularning ma'naviy bilimi uchun odobnoma darslari qo'yiladi. Bundan tashqari, boshqa fanlarda ham qo'shimcha ravishda axloqiy tarbiya ham berib boriladi.

O'rta ta'limda axloqiy tarbiya. Bunda o'quvchi o'rganishi kerak bo'lgan narsalar ancha murakkablashadi. Endi o'quvchilar burj, vijdon, nomus, adolat, ezgulik kabi tushunchalarning haqiqiy mag'zini tushuna boshlaydilar.

Oliy o'quv yurtlarida axloqiy tarbiya. Yoshlar biror mutaxassislikni tanlagan holda o'zlarining intellektual qiziqishlari ustida ko'proq ishlaydilar. Internet va barcha informatsion vositalardan, turfa xil kitoblardan foydalangan holda ko'proq izlanish olib boradilar. Bu esa axloqiy tarbiya va bilimi uchun katta samara beradi.

Ta'limdan keyingi faoliyatda axloqiy tarbiya. Uzoq muddatli ta'lim natijasida o'zlari mutaxassis sifatida shakllanganliklari uchun bevosita o'zlari yosh avlodga bilim ulashadilar, o'quvchilarni axloqiy ruhda tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar. Xalq farovonligi, mamlakat taraqqiyoti, yurt tinchligi uchun bilimli, yaxshi xulq-atvorli, sofdil, xalqsevar, salohiyatli, mard, umuman olganda, sog'lom avlodni tarbiyalash kerak. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov sog'lom avlod haqida fikr yuritib: " Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman" -deb ta'kidlab o'tganlar. Tarbiyaga e'tiborli bo'lishga katta urg'u berilmoqda. Bugun yurtimizda qadriyatlarni qadrlaydigan, ezgu an'analarga muhim omil sifatida qaraydigan yoshlar talaygina. Lekin, o'z istiqboli va hayotida ularni ahamiyatga olmaydigan e'tiborsizroq bo'lgan yoshlarimiz borligini ham inkor eta olmaymiz. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobiy jarayonlar bilan birga yosh avlodning qalbi va ongini egallashga intilayotgan ma'naviy tahdidlar ham ko'paymoqda. Bilamizki, ijtimoiy hayotni ko'p yillardan beri qadrlanib kelayotgan an'alarimizsiz tasavvur qilish qiyin. Biroq qadriyatlarimizga qarshi buzg'unchi g'oyalar, ya'ni "shaxs erkinligi"ga qarshi jamiyat oldidagi mas'uliyatni, "individualizm"ga qarshi mahalladoshlikni, "egosentrizm"ga qarshi ota-ona, qarindosh-urug'larni hurmat qilish va mehrni saqlash orqali jamiyatimiz barqarorligiga tahdid soluvchi mafkuraviy illatlardan uzoqlashib, qadriyatlarimizni asrab qolishimiz mumkin. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "...g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish , olishish mumkin".

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqil O'zbekistonda madaniy -ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlarning barini hukumat zimmasida deb o'ylamasdan biz ham farzandlarimizni umuminsoniy, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni o'z oldimizga dolzarb mavzu sifatida qo'ya olmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov -"Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent - "Ma'naviyat" 2008-y.

2. Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi" –T : "O'qituvchi" 1994-y
3. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik, shartlari va taraqqiyot kafolatlari". 1997-y. 6-jild. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston", 2000-y
4. <https://oyina.uz/uz/article/1605>
5. <https://lex.uz/docs/-3864155>

Yangi O'zbekiston: Yangilanish va taraqqiyot omillari

Murodjon ESHBEKOV
BuxDU, talabasi

Iroda SAIDMURATOVA
BuxDU, talabasi

Bugungi kunda mamlakatimiz prezidentining o'zining ilg'or olib borayotgan siyosatlari va ma'naviy-milliy yangilanib borayotgan xalqimiz jahon hamjamiyati va reytinglarida o'zining munosib o'rnini egallab kundankunga rivojlanish tendensiyalarini oshirib bormoqda. Bu borada xalqimiz "milliy tiklanishdan, milliy yuksalish sari" deya jiplashib dadil qadamlar tashlamoqda. Hozirgi murakkab globallashuv asrida xalqimizning bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, yangi taraqqiyot strategiyasini amaliyotga tatbiq etish, uni amalga oshirish, jamiyatimizning har bir sohasida rivojlanishni ta'minlash bugungi kunimizning eng muhim maqsad va vazifasiga aylangan.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ilm-fan, sport, adabiyotga qaratilayotgan e'tibor va berilayotgan imkoniyatlar keng jamoatchilikning ijobiy fikriga sabab bo'lmoqda. Mamlakatimizda taraqqiyot strategiyasini tizimli tashkil etish, uning ta'sirchanligini oshirish, xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish, vatanga sadoqat tuyg'usini har bir jamiyat a'zosida shakllantirish, barkamol avlodni tarbiyalash ushbu kunning eng dolzarb vazifalari ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizning ma'naviy hayotini yangilash va uni yanada yuksaltirish bo'yicha o'ziga xos yangi tajribalar paydo bo'lib rivojlanib bormoqda. Shu jumladan : 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta muhim tashabbus bo'yicha belgilangan vazifalar amalga tatbiq etildi. Shu yillarda amalga oshirilgan "Obod qishloq" "Obod mahalla" "Beshta muhim tashabbus" kabi konsepsiyalar aholimiz va jamiyatimiz a'zolarini yangicha fikrlashga da'vat etdi. Islohotlar natijasida, respublikamizdagi bir necha chekka hududlardagi mavjud muammolar hal etildi, ularning qiyofasi tubdan o'zgardi. Hozirgi kunda yoshlarning ma'naviy va ma'rifiy yuksaltirish maqsadida madaniyat va san'at arboblari, ijodkor ziyolilardan iborat targ'ibotchilar guruhlari tashkil etilmoqda. Respublikamizda yoshlarni ongi va qalbida vatanga muhabbatni, ma'naviyatni, milliy qadriyatlarni o'z yoshiga mos, bosqichma-bosqich

shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ishlab chiqilishi mamlakatimiz yoshlarini umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur konsepsiya o'z ichiga to'rt bosqichni qamrab oladi:

Birinchi bosqich: oilalarda (farzand tug'ilgandan to 3 yoshgacha bo'lgan davr);

Ikkinchi bosqich: maktabgacha bo'lgan 3-6 yoshgacha bo'lgan davr ;

Uchinchi bosqich: umumiy o'rta ta'lim 7-10 yoshgacha boshlang'ich sinf, 11-17 yosh yuqori sinf davri;

To'rtinchi bosqich: ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan, band bo'lmagan, shuningdek, o'rta-maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar;

Ushbu konsepsiyadan asosiy maqsad qilib xalqimizning farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini oshirish, milliy qadriyatlarga, ma'naviyatga befarq bo'lmagan avlodni tarbiyalash bo'yicha samarali usullar va amalga oshirish yo'llari ko'rsatilib o'tilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatning rivojlanish sur'atlari va ko'rsatkichlari, jamiyatdagi fuqarolararo munosabatlarning takomillashuvi, ma'naviyat sohasida olib borilayotgan targ'ibot ishlarining samarasi bilan ham belgilanadi. Bu jarayonga bevosita OAV, ta'lim tizimi, teatr , kino, adabiyot, san'at, falsafa ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sohalarda yoshlar uchun olib borilayotgan so'ngi yillardagi islohotlarni ilmiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

Yoshlar o'rtasida adabiyotshunoslik va kitobxonlik sohasida madaniyatni yuksaltirish bo'yicha. Bu haqida to'xtalsak, Toshkent shahrida Adiblar xiyobonining bunyod etilganligi, u yerda eng mashhur adiblarning haykali o'rnatilganligi, Jizzax shahrida atoqli ijodkorlar: Hamid Olimjon, Zulfiya, Sharof Rashidov, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozov xotiralarini abadiylashtirish ishlari tizimli amalga oshirilganligi e'tirofga loyiq. "Eng kitobxon talaba", "Eng kitobxon o'quvchi", "Eng kitobxon oila" kabi tanlovlarning o'tkazilishi yoshlar o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqishini oshirib, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmati oshmoqda.

Milliy festivallarimiz misolida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish: bugungi kunda mamlakatimizda o'tkazilayotgan milliy festivallarimiz mamlakatimizning xalqaro maydondagi imijini oshirish, yoshlar o'rtasida ma'naviy-marifiy ishlarni amalga oshirish, milliy qadriyatlarimizni tarannum etish vazifasini bajarmoqda. Ushbu zaruratlar taqozosida, mamlakatimizda

turli festivallar o'tkazilmoqda. Masalan: "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Xalqaro hunarmandchilik festivali", joriy yilning 24-26-aprel kunlari Sirdaryo viloyatida III "Xalqaro baxshichilik festivali" o'tkazildi. Unda shaxsan Madaniyat va Turizm vazirining tashabbusi bilan, 74 davlatdan 160dan ortiq turli xalqaro tashkilotlari vakillarining ishtiroki e'tirofqa sazovor. Ushbu sa'y harakatlar biz yoshlarga nasl nasabimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy ildizlarimizni chuqur anglagan holda, kelajak sari birlashib harakat qilishimizga ko'maklashadi.

Milliy o'zbek kinosi misolida yoshlarni umuminsoniy va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash : O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan beshta muhim tashabbus doirasida yoshlarni san'at va kino sohasi orqali vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash bo'yicha keng islohotlar amalga oshirildi. Jumladan 2019-yil 1-sentabrdan mustaqilligimizning 29 yilligi munosabati bilan "O'zbekiston tarixi" va 2020-yildan "Renessans" telekanallarining ishga tushganligi buning yorqin misolidir. Shu jumladan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida Jaloliddin Manguberdi siymosiga bag'ishlangan kinoning suratga olinganligi, Abdulla Avloniy, Shiroq kabi tarixiy shaxslarimizning hayotini yoritib beradigan kinolarni ko'proq suratga olish jamiyatimiz va biz yoshlar taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa o'rnida yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun quyidagi tavsiya va takliflarni mavjud :

1. Respublikamizning har bir hududi o'ziga xos madaniyat va qadriyatlarga ega bo'lganligini inobatga olib, yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbatni yuksaltirish uchun har bir viloyat, shaharlar o'z maqsadlari va strategiyalarini ishlab chiqish.

2. Xalqaro hamjamiyatlardagi imijimizni mustahkamlash uchun, madaniyatimizni dunyoga tanitish, turli xildagi milliy tadbirlarni amalga oshirish, yoshlarimiz o'rtasida ommalashtirish va bu borada qardosh xalqlar bilan aloqani mustahkamlash.

3. YUNESKO ro'yxatiga kiritilmagan boshqa madaniy meroslarimizni kiritish masalalarini ko'rib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati. 23-son 2021-yil 18-yanvar.

2. Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatni birga barpo etamiz-T. O'zbekiston,2016

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda “O'tkan kunlar” romanining o'рни

Zarina SUYUNOVA
*Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda ular sirasiga kiruvchi Vatanga sadoqat tuyg'usida tarbiyalashda Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanining o'рни ochib berilishi ko'zda tutiladi.

Kalit so'zlar: Urf-odat, ma'naviy yetuklik, Vatanga sadoqat, yurt qayg'usi, qadriyatlar, Otabek, Yusufbek hoji, ittifoqsizlik, bee'tibor munosabat.

Media ta'lim shaxsning axborot olish va tarqatish huquqining bir qismi. YuNESKO tomonidan media ta'lim dunyoning barcha mamlakatlari ta'lim tizimlari milliy o'quv rejalariga joriy etishni tavsiya etiladi. Hozirgi kunda Yevropa davlatlari, AQSh, Avstraliya va Rossiya singari mamlakatlarda media ta'lim majburiy fan sifatida ta'lim tizimiga kiritilgan. Rostov davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi И.В.Челышеванинг "Методика и технология медиа образования в школе и вузе"[2,67] nomli monografiyasining o'quvchilar va talabalar auditoriyasida media ta'lim darslarini tashkil etish, media ta'lim jarayonining shakllari, usullari va texnikasi bo'limida media ta'limni o'rganishda davriy nashrlar ahamiyati borasida shunday misol keltirilgan:

“OAV manbalarini jalb qilgan holda darsda ishlashning yana bir qiziqarli shakli davriy matbuotdagi ilmiy-texnikaviy maqolalarni ko‘rib chiqish bo‘lishi mumkin. Muntazam ravishda, u yoki bu ilmiy ommabop jurnallar nashr etilishi bilan maktab o‘quvchilari auditoriyani og‘zaki yoki yozma (referat yoki ijodiy ish shaklida) eng qiziqarli nashrlar bilan tanishtiradilar. Keyinchalik bu ishlar maktab devoriy gazetasida chop etilishi mumkin.”

“Media ta‘lim” so‘zi MDH davlatlari hududiga o‘tgan asrning 80 yillarida kirib keldi. Inglizcha “media education” so‘zini shunchaki so‘zma- so‘z tarjima qilish yaramaydi. U matndagi o‘rniga ko‘ra turli ma‘nolarda qo‘llanilishi mumkin. Shunga qaramay, media ta‘limning tayanch tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. A.A. Журин ularni uch turga bo‘lgan:

1. Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o‘smirlarga ta‘sirini o‘rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta‘lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan uchrashuvga tayyorlovchi pedagogik fan.

2. Bolalar va o‘smirlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi amaliy faoliyati.

3. Ta‘limning ommaviy axborot vositalarining madaniyat va dunyoni tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va media axborotlari bilan samarali ishlash ko‘nikmasini shakllantiruvchi qismi. [3,24]

Hozirgi vaqtda media ta‘lim bir qator fanlarni (pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik) o‘zida mujassam etgan, ommaviy kommunikatsiya qonuniyatlarini va turli ijtimoiy guruhlar tomonidan media resurslardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganuvchi fanlararo soha sifatida belgilanadi.

Rossiyada bolalar uchun 200 dan ko‘p nomda gazeta va jurnal chop etilmoqda. Shuning uchun ham Rossiya bolalar nashrlari tipologiyasida nashrlar tarqatilish qamrovi bo‘yicha bir nechta guruhga bo‘linadi: Rossiya bo‘ylab tarqatiladigan nashrlar, MDH davlatlari va yaqin xorijiy mamlakatlar bo‘ylab tarqatiladigan nashrlar (“Пионер”, “Мы”, “Штучка”, “Путеводная звезда”, “Круто”, “Том i Djerry” va h.k. jurnallar); Rossiya va MDH davlatlari bo‘ylab tarqatiladigan nashrlar (“Мурзилка”, “Маруся”, “Бумеранг”, “Молоток”, “Браво”, “Yes!” va h.k. jurnal); faqat Rossiya bo‘ylab tarqatiladigan nashrlar (“Для самых-самых маленьких”, “Карпуз” va h.k. jurnallar); mintaqa bo‘ylab rus va milliy tillarda, ko‘p hollarda ikki tilda chop etiladigan nashrlar (bugungi kunda Rossiyada 90 ta ana shunday jurnal chop etilmoqda. Ular orasida Cheboksarida chuvash tilida chiqadigan “Танташ” (“Tengdosh”), Saranskda mokshan tilida chop etiladigan “Якстер Тяשתеня” (“Qizil yulduzcha”), Vladikavkazda osetin tilida chiqadigan “Nogdzau” (“Pioner”),

Elistada qalmoq va rus tillarida chop etiladigan “Bair” (“Quvonch”), Qozonda tatar va rus tillarida bosiladigan “Sabig’a” (“Bolajon”) va boshqa jurnallar bor. Garchi mazkur oylik adabiy-badiiy bolalar jurnallari 2-3 ming nusxada chop etilsa-da, matbuot bozorida o‘z o‘rniga ega); Rossiya Federatsiyasining alohida hududiy birliklari bolalariga mo‘ljallangan viloyat (bunday nashrlar har bir viloyatda ikkitadan sakkiztagacha bor) va tuman hamda shahar nashrlari (Caviloyatida chiqadigan “Знайка”, Volgograd viloyatida chop etiladigan “Новая улица” jurnallari) va h.k. nashrlari mavjud. Bundan tashqari, biror bir o‘quv yurti, masalan, maktab, litsey, gimnaziya, kollej, texnikumlar muassisligida chop etiladigan bolalar nashrlari ham o‘ziga xos o‘ringa ega.

F.M.Dostoevskiy bir marta o‘ziga shunday savol beradi: “Olamni yovuzliksiz, biroq bolalarsiz qabul qila olish mumkinmi? Va shunday javob beradi: Yaxshisi hammasi o‘z holicha qolsin, lekin bolalar bilan bo‘lsin. Bolalar – dunyodagi bema’niliklarni va yovuzlikni muvozanatda ushlaydi. Insonda buyuk, oliyjanob qobiliyat bor – bu kelajakda sodir bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’iy nazar kelajak haqida o‘ylashdir. Nega? Chunki kelajakda bizning farzandlarimiz yashaydi. Bolalar bu dunyoning abadiy mavzusidir. Ular hamisha insoniyatning asosiy tashvishi, fikr va umid markazida bo‘lgan.”[4,55]

Hozirgi zamon bolalarini internet tarmoqlari, xususan Telegram, Instagram, Facebook va ayniqsa You tube dan mutlaqo ajratishni iloji bo‘lmasligini hisobga olgan holda, jurnalda ushbu tarmoqlarda bolalar uchun qiziqarli va asosiysi aniq axborotlarga ega kanal va sahifalarni ma’lum qilib borish, ushbu kanal va sahifalar bilan hamkorlik qilish ijobiy ijodiy muhit hosil qilish ehtimoli bor. Zamonaviy bolalar qo‘llaridagi gadjet orqali ma’lumot olishga ko‘nikkan bo‘lsa, aynan ana shu gadjetlar yordamida ularni bosma nashrlarga qaytarish, eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlarining OAVda bolalarning huquqlari muntazam ravishda yoritilib kelinmoqda. 1999 yilning noyabr oyida Norvegiyaning Oslo shahriga OAV xodimlari, jurnalistlar, bola huquqlari bo‘yicha ekspertlar to‘planib, OAV butun dunyoda bola huquqlari rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishi mumkin, degan savolga javob izladilar va bu borada 5 ta yo‘nalishni belgilab oldilar. Bu yo‘nalishlar quyidagilar:

- bolalarning OAVga, shu bilan birgalikda yangi OAVda qatnashish huquqi;
- bolalarning OAVda ta’lim olish huquqi;
- bolalarning OAVga ega bo‘lish huquqi;

- bolalarning OAVdan kelayotgan zarardan himoyalaniş huquqi;
- OAVning bolalar huquqlarini himoyalash va rag'batlantirishdagi roli.

Bolalarning OAVdan kelayotgan zarardan himoyalaniş huquqi punkti aynan bolalar media ta'limining funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Bolalarga ma'lumot tarqatuvchi bolalar nashrlarining bu huquqni poymol qilgan taqdirida javobgarlikka tortilish ehtimoli mavjudligini tasdiqlaydi. OAVda bolalarning qanday yoritilishi boshqalarda ularga nisbatan shunday munosabatning shakllanishiga turtki bo'ladi. Aynan OAV bolalar masalalarini ijobiy yoki salbiy hal qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. OAVda aksariyat holatlarda bolalar passiv, indamas qurbonlar sifatida tasvirlaydi. Bolalar va o'smirlarning o'zlarining nomlaridan gapirishga imkon berish OAVda ular nima istashlari, o'zlarining yutuqlari, o'ylantirayotgan masalalari haqida fikrning shakllanishiga sabab bo'ladi. Xalqaro jurnalistlar federatsiyasining xabariga ko'ra, bolalar obrazlarini shakllantirishda OAV aksariyat holatlarda bir xil afsonadan foydalanadilar.[5,43] Bular: o'z individualligi va insoniyligini yo'qotgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qilayotgan oilalarning ahvoli, qashshoqlikda yashayotgan bolalar, urush va tabiiy falokatlar qurbonlari.[6,36]

O'zbekiston umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fani bilan media ta'limni integratsiyalash samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida esa media ta'limdan foydalanish samaradorligini oshirishga maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, litsey, kasb-hunar kolleji, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda biz qanday natijalarga erishishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning yoshi va rivojlanishidan kelib chiqib, mediani turlarga ajratishga o'rgatish:

- verbal - ko'rish va kuzatish: turli multfilmlar, bolalar uchun dasturlar va ko'rsatuvlarning asl mohiyatini tushuntirish;
- noverbal - eshitayotgan axborotlari: ertak, afsona, hikoya va she'rlarining mazmunini sharhlash;
- audiovizual - radiodasturlar, ovozli yozib olingan disklardagi ma'lumotlarni bolalarga tushunarli tarzda, real hayot bilan bog'lab sharhlab berish.[7,56]
- ushbu media turlariga mansub axborotlarni tarbiyaviy ahamiyatini to'laligicha, soddalashtirilgan holda bola ongiga yetkazish, eng muhimi bolani real hayot va vizual olamning farqini anglashga o'rgatish zarur.

Boshlang'ich va o'rta (5-6) sinflarda:

- media shakllari va vositalarini tanlay olish(masalan, fotografiya, rasmlar, jurnal ilustrasiyalarini tanlash va farqlash); vizual matn yoki qisqa syujet rejasini tuzish va aniqlash (fotografiya, video, komiks, ertak, kompyuter grafikasi va h.k)
- o'z media loyihasi taqdimotini tayyorlash va taqdim etish.[8,45]
Maktabning yuqori sinflarida:
- surat asosida turli syujetlar yaratish(surat shakli va elementlarini o'zgartirgan holda);
- mavjud media shakllardan foydalanish yuzasidan qarorlar qabul qilish (fotografiya, video, matbuot va h.k), o'z qarorlarini muhokama qilish va asoslab berish;
- o'z media loyihasini bajarish va taqdim etish.
Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida:
- maxsus matnlar va "xabarlar" jo'natish shakllari va texnologiyalaridan foydalanish asosida tajribalar o'tkazish;
- media matnlar tuzish va rejalashtirishda turli texnikadan foydalanish, natijani aniq va tanqidiy tahlil qilish;
- maxsus auditoriyaga mo'ljallangan media mahsulotlarni o'sha auditoriya qanday qabul qilishini oldindan ko'ra olgan holda yarata olish;
- o'z medialoyihasini bajarish va taqdim etish. 8 yil avval masalaga konkret taklif berilganiga qaramay, muammo hali hanuz dolzarb va hal etilmaganicha qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida mediata'limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni bugun mustaqil shaxslar uchun turli-tuman mavzudagi gazeta jurnallar soni ko'p. Bilimga tashna, oqni qoradan ajrata olmaydigan yoshdagi bolalar uchun esa, narxi hamyonbop, mazmuni oltinga teng ilmlardan iborat bolalar davriy nashrlari esa sanoqli ekani eng dolzarb muammoning o'zidir. Bolalarni fikrlashga undash faqatgina badiiy adabiyot bilan cheklanmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In: Education for the Media and the Digital Age. Vienna: UNESCO, 1999.

2. Чельшева.И.В. Методика и технология медиа образования в школе и вузе. –М.: Директ-медиа, 2013.

3. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы. Медиаобразование. – М., 2005.

4. Лебедева.А.Э. Приобщение детей к чтению классики как международная социальная и педагогическая проблема. –М., 1999г.

5. Права ребенка и журналистика. Практический аспект: опираться на права. Учебная программа, одобренная региональным офисом ЮНИСЕФ по Центральной и Восточной Европе и Содружеству Независимых Государств(ЦВЕ\СНГ)© UNICEF - Дублинский технологический институт, 2007.

6. Qosimova N. Toshpo'latova N. O'zbekiston OAVda bolalar mavzusining yoritilishi. O'quv qo'llanma. –Т.: 2014.

7. Бэээлгэт К. Ключевые аспекты медиаобразование. Доклад на российско-британском семинаре по медиаобразованию. –М., 1995

8. Федоров А.В., Медиаобразование и медиаграмотность. Учебное пособие для вузов. –М., 2007.

Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ҳарбий наشرлар ва виртуал платформаларнинг роли

Дилшод РЎЗИҚУЛОВ
*Тошкент давлат шарқшунослик
университети ўқитувчиси, фил. ф.ф.д.*

Мамлакатимизда ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ёшларга оид давлат сиёсатининг асосий мақсадларидан биридир. Давлат ва ҳукуматнинг мудофаа соҳасига бўлган муҳим эътибори ҳамда ҳарбий хизматчиларнинг жамиятдаги нуфузи сабабли ёшларда қудратли миллий армиямиз билан фахрланиш туйғуси, Ватан ҳимоячисидек шарафли касбга ҳурмат-эҳтиром ҳиссини уйғотмоқда. Бунда шу соҳага ихтисослаштирилган оммавий ахборот воситалари ва интернет ресурслари алоҳида ўрин тутади.

Ҳозирги кунда ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари, умумтаълим мактабларининг битирувчиларида мазкур соҳани танлаб, келажакда етук олий ҳарбий мутахассис бўлишга иштиёқ, қизиқиш кучли. Бу бўйича керакли маълумот олишда ахборот тақчиллигига дуч келади. Чунки ҳарбийлашган вазирликлар тасарруфидаги 8 та олий ҳарбий таълим муассасасининг интернет тармоғида веб-сайти, ижтимоий тармоқларда саҳифалари мавжуд эмас ёки мунтазам юритилмайди. Юритилганларида эса, бу ҳақида янги маълумот топиб бўлмайди. Масалан, Фавқулудда вазиятлар вазирлиги тасарруфидаги Ёнғин хавфсизлиги институтининг веб-сайти ва ижтимоий тармоқларда бирор электрон саҳифаси йўқ. Фавқулудда вазиятлар вазирлиги академиясининг www.ipb.uz сайти асосий менюсидан «Abiturientga» бўлимига киришга ҳар қанча уринилмасин, экран ойнасида намоён бўладиган «Error» белгиси бу ерда ахборот йўқлигини ифодалайди.

Мудофаа вазирлиги Ахборот-коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти, Ўзбекистон олий ҳарбий авиация билим юрти, Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти, Қуролли Кучлар ҳарбий тиббиёт академияси бўйича абитуриентларнинг ахборотга эҳтиёжи қониқарли даражада таъминланмаган. Ҳолбуки, буларнинг барчаси очиқ маълумотлар сирасига киради.

Ўзбекистон Қуролли Кучлари академиясининг тест режимида ишлаётган www.akad.uz, Ички ишлар вазирлигининг www.akadmvd.uz веб-манзилларида абитуриентлар учун маълумот келтирилган, аммо бу

ахборотлар сайтга ўтган йили жойланган. Ушбу ахборот билан танишгач, курсантликка номзодларда ўзларини қизиқтирган саволлар туғилиши табиий. Аммо бу электрон манзилларда масъул ходимлар билан қайта алоқа ўрнатиш механизми тўлақонли йўлга қўйилмаган.

Бундай пайтда блогинг ва электрон журналистика материаллари қўл келади. Жумладан, Мудофаа вазирлиги Ахборот ва оммавий коммуникациялар департаменти томонидан юритиладиган mudofaa.uz веб-сайти, унинг «Facebook» ижтимоий тармоғидаги «Uz_armiya» блогидаги ахборотлар мунтазам ёритилади. Аммо ёшлар хоҳлаётган маълумотларга чуқур ёндашилмайди. Тўғри, «Ватанпарвар», «Постда-На посту», «Ўзбекистон армияси», «Қалқон» сингари ихтисослаштирилган газета-журналларда юрт посбонларининг мардлик фазилатлари ёритилиши билан бир қаторда, абитуриентлар учун керакли маълумотлар берилади. Аммо унда барча олий ҳарбий таълим муассасалари қамраб олинмайди. Ўқишга қабул бўйича материал чоп этилган ҳарбий матбуот нашрларининг айнан ўша сонини эса сотувда, матбаа дўконларидан топиш жуда мушкул.

Табиийки, бу пайтда, ахборот технологиялари тараққий этган замонамизда ёшлар глобал ахборот тармоғига юзланади, ундан ўзига зарур ахборотни қидиради. Ахборот тақчиллиги натижасида ҳаётини Ватанни ҳимоя қилишдек энг улуғ ва олижаноб ишга бағишлаш ниятидаги абитуриент сохта янгиликларга дуч келмаслиги кафолатланмаган. Тармоқ фойдаланувчиларининг аксариятида медиа-саводхонлик етишмайди.

Ижтимоий тармоқларда ўзлари ташкил этган онлайн гуруҳлар уларни ягона мақсад, бир маслак атрофида бирлаштиради. Ижтимоий тармоқлардаги бундай мулоқот платформалари ёшларга ўзаро фикр алмашиш, ахборот узатиш, маълумот етказиш имкониятини бермоқда. Мисол учун, «Telegram» мессенжерида Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юртига жорий йилда ўқишга кириш истагидаги ёшлар ўзлари учун алоҳида гуруҳ яратган (линки: t.me/Chirchiq_oliy_tank_qomondon). Маълумки, бошқа олий ўқув юртларидан фарқли ўлароқ, олий ҳарбий таълим муассасаларига кириш имтиҳонлари вақтлироқ бошланади. 2020 йилнинг февраль ойида очилган мазкур гуруҳ 930дан ортиқ аккаунт эгасини ўзида жамлаган. Унда гуруҳ аъзолари оммавий ахборот алмашади, уларнинг ўртача ёши 18-22 ёшни ташкил этади. Фуқаролик журналистикасининг бир кўриниши бўлган бу гуруҳни кузатганимизда, тармоқ

фойдаланувчиларининг мулоқотида этика қоидаларига риоя қилинавермаслиги, шу боис гуруҳ қоидаси сифатида ўзаро ҳурмат, чиройли муомала қилиш зарур, гуруҳда жанжал кўтариш, реклама ташлаш мумкин эмаслиги қайд этилганига амин бўлдик.

Интернет журналистикаси миллий медиа майдонида ижтимоий онг ва дунёқарашнинг тўғри шаклланишига катта таъсир кўрсатади. Интернет тармоғида ёшлар мулоқотининг ижтимоий томонларини тадқиқ этар эканмиз, илмий ва жиддий ёндашилмаган бу мавзу ҳамон ўз ечимини кутмоқда ва изчил чора, механизмларни амалиётга татбиқ этишни тақозо этипти.

Халқимизнинг ёш, ботир ўғлонлари тақдирини ўйлар эканмиз, уларнинг жамиятда ўз ўрнини топишига журналистик ахборот орқали кўмаклашиш, муносиб ҳисса қўшиш зарур. Бунинг учун:

- интернет ва ижтимоий тармоқларда ёшлар ўртасида сўровнома ўтказиш орқали айнан қайси турдаги ахборотга эҳтиёж сезаётганини аниқлаш;

- мутахассислар билан ёшлар ўртасида савол-жавоб, соҳа мутасаддилари, олий ҳарбий таълим муассасалари ўқув бўлими бошлиқлари билан ўқувчиларни қизиқтирган мавзу юзасидан суҳбат, интервью жанрларида туркум материаллар тайёрлаш;

- уларни ижтимоий тармоқлардаги саҳифа ва блоглар (масалан, [facebook.com/UzArmiya](https://www.facebook.com/UzArmiya), [instagram.com/uzbekistanarmy/](https://www.instagram.com/uzbekistanarmy/)), «Telegram» каналлари (@mudofaa_press), ҳарбий матбуот нашрлари, уларнинг веб-сайтлари (mv-vatanparvar.uz)да мунтазам равишда бериб борилишини йўлга қўйиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 30 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари кунига бағишланган байрам табриги. www.uza.uz. 2022 йил, 14 январь.

2. <http://www.ipb.uz/ru>. 2023 йил, 15 март.

3. <http://www.akad.uz>, <http://www.akadmvd.uz>. 2023 йил, 16 март.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalari

Ulug'bek O'RINBOYEV
Sirdaryo Viloyati Yuridik texnikumi
Mutaxassislik fanlari o'qituvchisi
3-darajali yurist
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Bugun yurtimizda tinchlik va barqarorlik hukm surayotganiga qaramay, bundan buyon ham mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash ustuvor maqsad bo'lib qolaveradi. Bu, bir tomondan, mustaqillik biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga o'zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va vatanimiz manfaati yo'lida foydalanish huquqini bergani O'zbekiston yoshlari ham ana shu oliy ne'matdan bahramand bo'layotgani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarida ana shu muqaddas qadriyat va milliy an'analarga tayangan holda yashash huquqini ham berdi. Uni saqlab qolish uchun mustaqillikni asrab-avaylash kerak bo'ladi.

Ma'lumki, mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Navro'z, ramazon, qurbon hayiti kabi muqaddas milliy bayramlar taqiqlangan edi. Amir Temur, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Bahouddin Naqshband, xo'ja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi. Bugun mustaqillik tufayli ularning nomlari, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o'zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz. Bugun yoshlar o'z milliy tarixini o'rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an'alarining qayta tiklanib borayotgani ularni o'zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutuqdir. "Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'rganib qolayotgani yo'q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo'lmoqda. Xorijiy davlatlarda o'qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar"¹.

¹ Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 2019 O'zbekiston

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari haqida tahlil olib borildi. Tursunova N.ning "Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlari" nomli o'quv qo'llanmasi metodologik manba bo'lib belgilandi. Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" Ma'lumki, 2020 yilda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 18 million 720 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 14 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni² tashkil etgan edi. O'z-o'zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali-beri yechilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimizning diqqat markazida turibdi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek "Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatni shakllantirishda, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, boqimandalikning o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan komil komil insonlarni tarbiyalashdan iborat"³.

Ma'lumki, tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglash, yon atrofga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, ushbu jarayon mutanosibligini ta'minlashda ta'lim- tarbiya ishini uyg'un tarzda olib borish lozim bo'ladi. Ta'lim orqali yoshlar hayotida o'z o'rinlarini topishda ma'lum bir kasb- hunarni o'rganish bilan birga, o'zlarini bo'lajak hayotga tayyorlab boradilar.

Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, boshlovchi ahamiyatga egadir. Birinchi prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg'ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o'zida mujassam etadigan ma'naviyatni yuksaltirish asosiy va ustuvor vazifalardan biriga aylandi"⁴. Yoshlar dunyoqarashida

² Мадалиева З. Ҳуқуқий маданият ва ёшлар.- Т.: "Академия", 2020. 5- бет.

³ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.7- жилд. -Т.: "Ўзбекистон", 1999. 304-бет.

⁴ Каримов И.А. биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.7- жилд. -Т.: "Ўзбекистон", 1999. 306-бет.

milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'zni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o'ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o'ldirishga yoki zarar yetkazishga yo'l qo'ymaydi."⁵ deb ta'kidlaydilar. Erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olib borilgan ishlar va xatti-harakatlar axloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o'zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo'ladi. Erkinlikni to'g'ri tushunib, uni hayotimizga to'g'ri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne'mat-adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin.

Yoshlar dunyoqarashida milliy - ma'naviy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar :

- Yoshlar o'z dunyoqarashida milliy - ma'naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O'zining milliy, ma'naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi.

- Yoshlarning milliy, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining hozirgi holatini o'rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko'proq qaysi qadriyatlar ustuvor bo'lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularning milliy-madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodni mustahkamlashdan iborat.

- Yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodining mustahkam bo'lishi O'zbekiston tanlagan o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo'yadi.⁶

Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda milliy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizmini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi globallashtirish sharoitida, bir tomondan,

⁵ Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" O'zbekiston 2019

⁶ Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. -T.: "Akademiya", 2020. 15-16- betlar.

milliy qadriyatga, ikkinchi tomondan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy- huquqiy yangilash jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbek xalqining ibratomuz, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda katta ta'sir eta oladigan urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlari va marosimlari borki, bularni bugungi kunda oilada bolalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma'naviy tahdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishdagi muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 2019 O'zbekiston
2. Мадалиева З. Хуқуқий маданият ва ёшлар.- Т.: "Академия", 2020. 5-бет.
3. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.7- жилд. -Т.: "Ўзбекистон", 1999. 304-бет.
4. Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. -Т.: "Akademiya", 2020. 15-16-бетlar.

Badiiy kulolchilik mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari va usullari

Jahongir BEGIJONOV

Andijon davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashg'ulotlarning faol shakllari ma'ruza-dialog, muammoli ma'ruza, maslahat, suhbat, referat, ekskursiya, ishbilarmonlik o'yini, munozara, davra suhbat, konferensiya. Mashg'ulotlarni o'tkazishning faol usullari: ko'rgazmali qurollar, o'z-o'zini tarbiyalash darslari, muammoli ta'lim, amaliy topshiriq, muammoli topshiriq, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, dialog, munozaralar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Mashg'ulot, ko'rgazmali qurollar, o'z-o'zini tarbiyalash darslari, muammoli ta'lim, amaliy topshiriq, muammoli topshiriq, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, dialog, munozara, polemik.

Pedagogikada ta'lim shakllari – bu mashg'ulot turlari. Ular o'quv jarayonini talabalarning ehtiyojlari va o'quv-kognitiv faoliyat doirasida qo'yilgan vazifalarga muvofiq tashkil etish imkonini beradi. Maqsadga erishish uchun mos shaklni tanlashga alohida e'tibor berish kerak, chunki u asosan jarayonning samaradorligini belgilaydi.

O'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning shakllari va usullari – bu quyidagi rag'batlantiruvchi ta'sir yo'llari va usullaridir:

- aqliy faoliyat;
- ta'lim sifatini oshirish yo'llarini topishda kreativ yondashuvni ko'rsatish;
- olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish.

Mashg'ulotlarni o'tkazishning shakllari va usullaridan unumli foydalanishning zaruriy sharti o'qituvchining yuqori nazariy tayyorgarligi va uslubiy mahoratidir.

Shakllar va usullar bir-biri bilan bog'liq. Bir tomondan, usullar yordamida shakllar aniq tarkib bilan to'ldiriladi, boshqa tomondan, shakllar usullarni tanlashga ta'sir qiladi.

Darslarni o'tkazish usullari quyidagilarga bo'linadi:

Bilim, ko'nikma, malakalarni egallash manbasiga ko'ra:

- og'zaki;
- vizual;
- amaliy.

Talabalarning faolligi va mustaqilligi darajasiga ko'ra:

- tushuntirish va illyustrativ;
- axborot;
- qisman-qidiruv tizimlari;
- muammoli;
- tadqiqot.

Mashg'ulotning shakli – bu ta'lim muassasasi o'quv tizimi, ichki tuzilishi, uni o'tkazishning ma'lum tartibi. Mashg'ulotlarning faol shakllari – bu o'rganilayotgan mavzu mazmunini to'g'ri tushunishga qaratilgan muammolarni jamoatchilik muhokamasi, tinglovchilarning faol o'zaro aloqasi, ular o'rtasida fikr almashish uchun mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etish.

Mashg'ulotlarning faol shakllari: ma'ruza-dialog, muammoli ma'ruza, maslahat, suhbat, referat, ekskursiya, ishbilarmonlik o'yini, munozara, davra suhbat, konferensiya.

Mashg'ulotlarni o'tkazishning faol usullari: ko'rgazmali qurollar, o'z-o'zini tarbiyalash darslari, muammoli ta'lim, amaliy topshiriq, muammoli topshiriq, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, dialog, munozara, polemik.

Mashg'ulotlarning faol shakllari quyidagilardan iborat:

Ma'ruza – bu ommaviy nutqning bir turi bo'lib, uning davomida ma'ruzachi tinglovchilar bilan jonli aloqada bo'lib, ma'lum bir mavzu, hodisa haqidagi g'oyalar tizimini ochib beradi, tinglovchilarga muammoni tushunishga va ma'lum bir xulosaga kelishga yordam beradi.

Eng ko'p ishlatiladigan ma'ruza turlari: ma'ruza-dialog, muammoli ma'ruza. Ma'ruzaga quyidagi eng muhim talablar qo'yiladi: ilmiy, yuqori nazariy daraja, hayot bilan bog'liqlik, ravshanlik, tushunarlilik, ilmiy dalillar.

Konsultatsiya (maslahat) – bu o'qituvchining murakkab va dolzarb nazariy savol, muammoni tushuntirishi; nazariyani, muammoni samarali mustaqil o'rganish uchun zarur.

Maslahat turlari: shaxsiy, guruhli, sharhli, alohida masalalar bo'yicha.

Suhbatlashish – bu mavzu bo'yicha maxsus tashkil etilgan suhbat. Uning maqsadi o'rganilayotgan muammoni yaxshiroq tushunish uchun fikr almashish orqali yordam berishdir.

Suhbatlashishning asosiy vazifalari: mashg'ulotda – o'z-o'zini tarbiyalashda yordam berish, olingan bilimlarni amalda qo'llash usullari bilan tanishish bajariladi, bilimlarni sinashda – tavsiya etilgan adabiyotlar o'qilganmi? amaliy topshiriq bajarildimi? talaba olgan bilimlarini amalda qanday qo'llashni biladimi? savollariga javob olinadi.

Konferensiya dolzarb nazariy va ilmiy–amaliy muammolarni jamoaviy o'rganish va muhokama qilish shaklidir.

Konferensiyalar turlari va ularda ko'rib chiqiladigan masalalar quyidagilardir:

nazariy konferensiya – o'qitish va tarbiyalash nazariyasining dolzarb muammolari;

ilmiy-uslubiy – psixologik-pedagogik muammolar; o'qitish va tarbiyalash metodikasi masalalari, ishning eng samarali shakl va usullaridan amaliy foydalanish; pedagogik tajribani umumlashtirish va ta'lim va tarbiya masalalari, pedagogika fanining so'nggi yutuqlari;

ilmiy-amaliy – ishning mazmuni, shakllari va usullarini tahlil qilish; muayyan ta'lim muassasasida tarbiyaviy ishlarning dolzarb masalalarini ko'rib chiqish.

Konferensiyada sinfda muhokama qilinganda eng yaxshi deb topilgan ilmiy ishlar (loyihalar), tezislar, ma'ruzalar mualliflarini nutq so'zlash uchun jalb qilish tavsiya etiladi.

Davra suhbatlari fan, nazariya va amaliyotning dolzarb masalalarini jamoaviy muhokama qilish shaklidir. Ishtirokchilarni taklif etilganlarning tarkibi, muhokama qilinishi kerak bo'lgan masalalar bilan oldindan tanishtirish kerak, shunda ular suhbatda ishtirok etishlari mumkin.

Bahs – bu munozarali masalani ommaviy og'zaki muhokama qilish, unda ushbu masala bo'yicha hisobotlar va qoida tariqasida, raqiblarning nutqlari eshitiladi. Bahs mavzusi: o'tkir nazariy muammolar, dolzarb masalalar, axloqiy muammolar, davriy nashrlardagi o'tkir maqolalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Muhokama qilinadigan masalalarning matni haqida yaxshilab o'ylab ko'rish, ularga muammoli xarakter berish va ishtirokchilarni ular bilan oldindan tanishtirish muhimdir.

Yakuniy so'zda ishtirokchilarning e'tiborini munozara o'z ishtirokchilariga bergan qimmatli va foydali narsalarga qaratib, natijalarni umumlashtirish kerak.

Ishbilarmonlik o'yini – bu muayyan amaliy vaziyatlarni simulyatsiya qiladigan faoliyat shakli, o'quv jarayonini faollashtirish vositalaridan biri. Ishbilarmonlik o'yinlari turlari va ular erishadigan maqsadlar: muayyan ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish; talabalar tomonidan olingan bilim va ko'nikmalarni baholash; yangi yoki ma'lum bir faoliyatning ma'lum usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

Ishbilarmonlik o'yinini tayyorlash va o'tkazish elementlari:

1. Taqlid obyekti yoki o'yin obyekti.

2. Maqsad, vazifalar.
3. Natijalar doirasi.
4. O'yinchilarning rollari, funksiyalari.
5. Qoidalar, o'yin shartlari.
6. O'yin va rol o'ynash.
7. Hujjatli qo'llab-quvvatlash.
8. Reytinglari.

Ekskursiya – vizual o'rganish, tarbiyaviy ishlarning eng samarali shakllaridan biridir. Kursni, mavzuni o'rgangandan so'ng ekskursiyalarni o'tkazish tavsiya etiladi.

Mavzuni o'rganishdan oldin ekskursiyalar o'tkazish mumkin. Ular talabalarni sinfda ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalarga yo'naltiradilar. Ekskursiyaga borishdan oldin talabalar aniq o'quv vazifalarini qo'yishlari, ularni ekskursiya rejasi bilan tanishtirishlari kerak.

Ko'rgazmali qurollar – o'quv jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar, texnik o'quv qo'llanmalari idrok samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Ko'rgazmali qurollarning turlari:

Tabiiy-ishlab chiqarish obyektlari.

Vizual: 1) majoziy – fotosurat, rasm, plakat; 2) shartli-sxematik – xarita, diagramma, sxema, jadval.

O'qitishning texnik vositalari: 1) ommaviy axborot vositalari – televideniya, kino; 2) o'qitishning mahalliy texnik vositalari: ekran, ovoz, ekran-ovoz.

Ko'rgazmali qurollardan quyidagicha to'g'ri foydalanish lozim: muammoni o'rganish vaqtini 20-25 % ga qisqartirish; ko'rib chiqilayotgan muammoni tushunishni 25 % ga yaxshilash; o'quv materialini yodlash darajasini 35 % ga oshirish.

Mashg'ulot uchun ko'rgazmali qurollar oldindan tanlanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi nafaqat vizualizatsiya vositalarini namoyish etadi, balki ularning mazmunini tushuntiradi, tafsilotlarga e'tibor qaratadi.

Ko'rgazmali qurollar o'qituvchini almashtirmaydi, faqat uning nutqini to'ldiradi. Amaldagi ko'rgazmali qurollar soniga nisbatan mutanosiblik tuyg'usini kuzatish kerak, ular bilan haddan tashqari qiziqish yangi materialni idrok etishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muammoli ta'lim – bu talabalar bilimlarni tayyor shaklda emas, balki mustaqil faoliyat natijasida, ta'lim muammolarini hal qilish natijasida oladigan

usullar tizimi. Bu kognitiv vazifalarni mustaqil hal qilish uchun harakatlar tizimini o'rgatishga yordam beradi.

Muammoli ta'lim darajalari:

1. O'qituvchi muammoni qo'yadi va shakllantiradi, talabalarni mustaqil ravishda uning yechimini izlashga yo'naltiradi.

2. O'qituvchi faqat muammoni nomlaydi va talabalar o'zlari uni shakllantiradilar va yechimini topadi.

3. Talabalar muammoni mustaqil ravishda anglaydilar va shakllantiradilar, uni hal qilish yo'llarini o'rganadilar.

Muammoli ta'limni tashkil qilish usullari:

1. O'quv materialining muammoli taqdimoti.

2. Qidiruv suhbat, uning davomida talabalar o'qituvchi rahbarligida ta'lim muammolarini hal qilishadi.

3. Qidiruv xarakterining mustaqil ishi.

Muammoli ta'limning ajralmas sharti – olingan bilimlarni amaliy faoliyatga kiritish; olingan bilimlarni muayyan sharoitlarda qo'llashni o'rganish. Muammoli vazifalarning maqsadi haqiqiy muammolarni nazariy tushunish, ularni amalda hal qilish yo'llarini izlash bo'lishi kerak.

Dialog – bu ma'lum bir fikr yoki qarashlar tizimini isbotlash maqsadida ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasida suhbat, intervyu, fikr almashish. Dialog – bu fikrlarni oshkor qilishning dogmatik bo'lmagan usuli; bahs, munozara shakli; birgalikda aks ettirish shakli.

Mashg'ulotlarni o'tkazish usuli sifatida dialogning xususiyatlari quyidagilardir: rejasiz muloqot; so'roq gaplarning ko'pligi; kontekstuallik (dialog qismlarining bir-biri bilan semantik aloqasi); fikrlar, dalillarni taqdim etishning aniqlanmagan, erkin shakli; suhbatdoshlarning nusxalari; vaziyatlilik (ko'rib chiqilayotgan vaziyatga munosabat).

Munozara – bu turli masalalarni muhokama qilish, kognitiv faoliyatni rivojlantirishning samarali usullaridan biri. Munozaraning vazifalari: turli nuqtai nazarlarni taqqoslash orqali haqiqatni aniqlash; o'z g'oyalari, qarashlari, pozitsiyalarini asoslash va himoya qilish; nizo jarayonida qarama-qarshiliklarni hal qilish; ilmiy qarashlarni rivojlantirish.

Muhokama – munozarali masalani jamoaviy muhokama qilish, ularni hal qilish yo'llarini topish; o'quv jarayonini faollashtirish usullaridan biri.

Muhokama mavzusi: bilim va jaholat, to'liq va to'liq bo'lmagan bilimlar, ilmiy va kundalik bilimlar, bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati va qobiliyatsizligi o'rtasidagi qarama-qarshilikning aksi sifatida yuzaga keladigan muammolar.

Muhokama qoidalari: o'z fikrlarini aniq shakllantirish; mohiyat bo'yicha bahs; haqiqatni o'rnatish istagi; raqib nuqtai nazarini hurmat qilish; kamtarlik va o'zini tanqid qilish; o'zini tutish. Muhokama uchun mavzu talabalarning qiziqishlari va talablarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak.

Muayyan vaziyatlarni tahlil qilish – dolzarb muammolarni o'rganish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi aloqani mustahkamlashning faol usullaridan biridir.

Vaziyat turlari: vaziyatlar-illyustratsiyalar; vaziyatlar-mashqlar; vaziyatlar-baholash; muammoli vaziyatlar.

Vaziyatlarning mazmuni: rivojlanish, o'zgarish bosqichidagi hodisalar yoki jarayonlar; yuzaga kelish, rivojlanish manbalari va sabablari, har qanday faktlar, hodisalarning me'yoridan chetga chiqish; ko'rib chiqilayotgan vaziyatlarda ishtirok etadigan muayyan shaxslarning xatti-harakatlari yoki harakatlari.

Amaliy vazifa – bu olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ish turi. Vazifalar shakllari: shaxsiy va jamoaviy.

Xalq ijodiyoti an'analari talabaning estetik g'oyalarini shakllantirish, shuningdek, uning maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos bo'lishi kerak. O'qituvchining vazifalaridan biri bu qobiliyatlarni, xususan, kreativlikni tan olish, ularni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish, tanlangan material – loyni qayta ishlash uchun bilim va ko'nikmalar asoslarini berishdir. Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish samarali bo'lishi uchun ushbu materialning o'ziga xos xususiyatlarini (loy) va uni qayta ishlash usullarini batafsil o'rganish kerak bo'ladi.

Kulolchilik mahsulotlarini sanoat ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi murakkab uskunalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bizning eksperimental ishimizning vazifalaridan biri ommaviy materiallar, asbob-uskunalar va asboblardan foydalangan holda loyni qayta ishlash texnikasini, shuningdek, o'quv jarayonida kulolchilik mahsulotlarini tayyorlashning oddiy usullarini ishlab chiqishdir.

Xom ashyo va materiallar. Kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi eng muhim nuqtalardan biri – bu xom ashyo – loyni tayyorlashdir. Rassom g'oyasining muvaffaqiyati va mahsulot sifati loyni qanchalik ehtiyotkorlik bilan tayyorlanishiga bog'liq. Shuning uchun xom ashyo va materiallarni tanlash va tayyorlashga bo'lgan talab oshadi. Xom ashyoni tanlash bir necha bosqichlardan iborat.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, tabiiy xom ashyoning xususiyatlari va uni qayta ishlash texnologiyasi, asbob-uskunalar va jihozlarga ishonchli egalik qilish g'oyalarni samarali amalga oshirishga yordam beradi va natijada kreativ kompetensiyani rivojlantirish bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. -T.: Fan, 1977. -149 b.
2. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. - T.: O'qituvchi, 1981. - 56 b.
3. Ergashev Q. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi. -T.: Ma'naviyat, 1999. - 40 b.
4. Xolmatov. B. Naqqoshlik. - T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 64 b.
5. Xudoyberganov. K. Yozuvlarga yashiringan tarix. Xiva: Xorazm, 1996. - 72 b.
6. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi, 1993. - 224 b.
7. Qosimov Q. Naqqoshlik: Badiiy shakl to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi. (To'garak rahbarlari uchun qo'l.) -T.: O'qituvchi, 1982. -72 b.
8. G'ulomov. K. Naqqoshlik. -T.: Iqtisod-moliya, 2007. -96 b.
9. Haqqulov A. Ta'mir san'ati. -T.: Mehnat, 1991. -100 b.
10. Pugachenkova G.A. Temurning me'moriy merosi. - T.: Glavnaya redaksiya ensiklopediya, 1996, - 126 b.
11. Pritsa I. Tashkentskaya rezba po ganchu. - T.: Mehnat, 2001.
12. Bulatov S.S., Mansurov O'. Milliy me'morchilikda naqqoshlik falsafasi. - T.: Fan, 2005. -152 b.

O'zbekistonda gender tenglik

Nazokat XUDOYQULOVA

*O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish
va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti
tayanch doktoranti*

Gender lotincha genus (inglizchada gender) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida jins ma'nosini beradi. Fanga genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asr o'rtalarida kirib kela boshladi. Gender terminini 1952-yilda Yangi Zelandiyalik ruhshunos olim Jon Mani (5) o'z ilmiy tadqiqotlarida birinchi qo'llagan. Keyinchalik 1963-yilda Stokgolmda ruhshunoslarning xalqaro anjumanida AQShlik olim Robert Stoller (6) jamiyatda ijtimoiy jinsning o'z-o'zini anglash tushunchalari to'g'risidagi ma'ruzasi orqali gender terminini ilm ahliga taqdim etdi hamda jinsni biologik va madaniy turlarga bo'lib o'rganishni taklif qildi. R.Stoller, biologik jinsni (inglizcha sex) biologiya va fiziologiya, madaniy jins (gender), ya'ni genderni ruhshunoslik va jamiyatshunoslik sohalari tadqiqot obyekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Shuningdek, 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli (4) ham "Jins, gender va jamiyat" nomli ilmiy ishida bu terminni izohlab o'tgan. Gender konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizcha – sex) ijtimoiy jins (inglizcha – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotin-qizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar fiziologik farqlardan sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins anatomik, fiziologik tushuncha, ya'ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbayeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

Ushbu konsepsiyani tanqid qiluvchilar asosiy postulatlarini keltirib, tenglik tushunchasi hamma uchun teng imkoniyatlar berishdir, deb ta'kidlaydilar. Gender tengligi konsepsiyasini tanqid qiluvchilar buni deyarli imkonsiz deb bilishadi, chunki “erkak va ayol bir-biridan farq qiladi va nafaqat fiziologik, balki ruhiy jihatdan ham” va shuning uchun “tenglik” haqida gap borganda “hech qanday savol bo'lishi mumkin emas”, chunki jamiyat erkaklarni ayollar sevadigan ishlariga majbur qilsa (do'konlarga borish, kiyim-kechak sotib olish, yuzlarini kosmetika bilan bezash, bolalarga g'amxo'rlik qilish, uyni shinam qilish) ular baxtli bo'lolmaydi. Ayol, o'z navbatida, jamiyat uni faqat erkaklar ishini bajarishga majbur qilsa: baxtli bo'lmaydi: o'tin kesish, mashinalarni ta'mirlash, buldozer haydash». Biroq, gender tengligi nazariyasining tarafdorlari, bu fikr ko'p avlodlar davomida patriarxal ta'lim va insonlarning ilmga qarshi nazariyalar, stereotiplar va jamoatchilik fikrlarini idrok etishiga katta ta'sirga ega deb ta'kidlaydilar. Ba'zi sotsiologlarning fikriga ko'ra zamonaviy jamiyatda psixika, xulq-atvor motivlari va fikrlash uslubi jinsga bog'liq degan fikr hukmronlik qilmoqda.

Tenglik tushunchasini tanqid qiluvchilar, umuman tushunchaning mohiyatini tan olsalar-da, unga yana bir ta'rif berishadi: Gender tengligi — bu ayolning ayol sifatida, erkak esa erkak sifatida 2015-yilda Pokiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va ayollarning huquqlarini

kengaytirish bo'yicha bo'limi tomonidan hisobot tayyorlandi. Bu hisobot „BMT-ayollar“ deb tanilgan.

Hisobotning markaziy masalalaridan biri ayollarni ish bilan ta'minlash masalasi edi. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, oliy ma'lumotli ayollar soni tarixiy maksimal darajaga yetganiga qaramay, ularning ish bilan ta'minlanish holati achinarli ko'rinishga ega. Universitetlarni imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, tibbiyot va matematika kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmaydilar. Hatto ish topishga muvaffaq bo'lganlar ham har doim ham ijtimoiy ishonchsizlik tufayli o'zlarini ishonchli his qila olmaydilar. Ushbu masala rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa dolzarb bo'lib, ularda ayollarning 75 foiz ish o'rinlari, ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlari himoyalanganini tashkil etadi.

Hisobotda ta'kidlanganidek, rivojlangan mamlakatlarda gender tengligi holati ham ideal darajadan uzoq emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiyada ayollar erkaklarnikiga nisbatan maoshlaridagi farq 31 foizga kam, Germaniyada 49 foizga kamroq, Turkiyada esa 75 foizga teng. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, gender tengsizligiga qarshi kurashning asosiy choralari butun dunyo bo'ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta'minlash huquqi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gender, avvalo erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Bu tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liq holda rivojlanib boradi. Tarixdagi matriarxat yoki patriarxat tushunchalari ham bunga yaqqol misoldir. Ta'lim-tarbiya yo'nalishida gender tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o'z xususiyatiga ko'ra o'g'il va qiz bolalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab ta'riflaydi, ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linganligi, xatti-harakat va individlarning psixologik xarakteristikalarida o'ziga xosliklar mavjudligini o'rganadi. Ko'rinib turibdiki, olimlarning gender so'zini termin sifatida o'rganishni taklif qilishlari nafaqat psixoanalitika yoki jamiyatshunoslik, balki turli sohalar, jumladan pedagogika va tilshunoslikda ham keng qo'llanishiga yo'l ochib berdi. Bugungi kunda bu yo'nalishlar tarkibida gender pedagogikasi va tilshunosligi shakllanib, gender munosabatlari, gendercha tahlil, gendercha tenglik kabi mavzularda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ma'lumki, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan tashqari gender omillarga madaniy xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Muayyan madaniyat insoniyat tomonidan dunyo haqidagi bilimlarni anglash

va tartibga solish davomida vujudga kelgan narsapredmet, voqeliklar bo'lib, u milliy gender qarashlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Genderchilikda gender farqlarning tashkil topish jarayoni odatda ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'lanadi. Ijtimoiylashtirish – bu, individ tomonidan jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat yuritish imkonini beruvchi bilim, me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashtirish o'z ichiga ta'sir etishning ijtimoiy nazorat qilish jarayonlarini qamrab oladi. Masalan, ta'lim-tarbiya, yoki uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy jarayonlar. Bugun ijtimoiylashtirishning muhim qismi bo'lgan gender munosabatlar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan jadal o'rganilayotganligi bu yo'nalishda qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'pligidan darak beradi.

Xususan, O'zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlari berilayotgan chuqur e'tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko'rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O'RQ-562-sonli "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hokazo. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to'qqizta vazifa ishlab chiqilganini ham ta'kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi. Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo'naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to'lovlarini to'liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin.

Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta'kidlash zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlatimizda gender siyosatining muhim strategik maqsadi millat oilasida xotin-qizlarning o'rne, ularning moliyaviy ahvolini va ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Oilada gender tengligiga erishish, ya'ni ayol kishini kamsitilishi kabi illatlarni yo'qotishga erishish turli ijtimoiy institutlar va sohalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga olib keladi. Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishi kundalik hayot va mehnat faoliyati sohasidagi gender munosabatlariga yetarlicha e'tibor bermaslik bilan ham bog'liq. Zotan, suveren jamiyatda gender tengligi muammolari ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Bizning fikrimizcha, gender tengligi sohasidagi asosiy muammolarni yanada samarali hal etish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: gender masalalarini hal etishga qaratilgan institutlarning samarali faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratish; gender siyosatini amalga oshirishni barcha darajalarda, jumladan, hududiy, milliy va sektoral muvofiqlashtirishning aniq tizimini shakllantirish; ayollarning iqtisodiy qaramligini va zaifligini yumshatish uchun oilaviy yuklarni teng taqsimlashga intilish; davlat mehnat bozorini tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada ko'paytirishga erishish, ya'ni kam haq to'lanadigan joylarda ayollar ulushini kamaytirish yoki ish haqini ko'paytirish; turmush darajasini oshirishga va tengsizliklarni bartaraf etishga, shu jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy o'sishga yordam beradigan hayotiy ko'nikmalarni o'rganish imkonini beruvchi amaliy ta'lim tizimini kuchaytirish, qizlarni ta'lim olishiga past nazar bilan qarovchi oilalarda tushuntirish ishlarini olib borish zarur; hududiy gender kamsitish amaliyotini keskin cheklash, ushbu sohadagi muammolarni huquqiy tizim kontekstida hal qilish imkoniyatlarini kengaytirish, sohalarda gender tengligiga erishish kabilar shular jumlasidandir. Zero, gender tenglikka erishish nafaqat demokratik qadriyatlardan biri, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jahon miqyosida orttirilgan tajriba shundan dalolat beradiki, aynan erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar mavjud davlatlarda aholi turmush farovonligi va ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori darajada bo'lib, islohotlar muvaffaqiyati ta'minlanadi (10). Umuman olganda, O'zbekistonda gender sohasidagi o'zgarishlarning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mamlakatda gender siyosatini har jihatdan amalga

oshirishda davlat organlari va xotin-qizlar tashkilotlari birgalikda harakat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kalabixina Irina Yevgenevna kandidat ekonomicheskix nauk, dotsent kafedri narodonaseleniya ekonomicheskogo fakulteta MGU.
2. Kalabixina I.Ye. Kratkiy ponyatiyniy slovar po gendernim issledovaniyam // Sotsialniy pol: ekonomicheskoe i demograficheskoe povedenie Uchebno-metodicheskie materialy po kursu. M., 1998.
3. Gender tenglik bo'yicha butunjahon statistikasi.
4. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati (PDF).

Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda nodavlat-notijorat tashkilotlarning o'rni

Elyor G'OYIBOV

*O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish
va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti
tayanch doktoranti*

So'nggi yillarda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash, ularga qulayliklar yaratish, faoliyati erkinligini kafolatlash, davlat organlari va ular o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda

Ta'kidlash lozimki, nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat tomonidan qulaylik va yengilliklar yaratish, ular faoliyatining erkinligini ta'minlash sohasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun ajratiladigan davlat ijtimoiy buyurtmalari sonini oshirish, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarini ijtimoiy ahamiyatga ega grant loyihalarini tayyorlash hamda ularni amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan bir qatorda, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining huquqiy bilim va savodxonligini oshirish, qonunchilikda belgilangan talablardan xabardor etish maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda malaka oshirish kurslari va turkum seminar tadbirlarini tashkil etish lozim.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mavzusi hech bir davrda o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydigan masaladir. Unga davlatning muhim ijtimoiy masalasi deb qaraladi.

2022-yil 29-yanvar kuni "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" qabul etilgani to'g'risida xabar tarqaldi. Hujjatning 70-maqsadi: "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" etib belgilangan. Xususan, bunda "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" mas'uliyati yuklatilgan.

Demak, davlat rahbari takroran bundan buyon ham yoshlarning harbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish ishlarini jadal davom ettirilishini takidlamogda.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarda Vatanni sevish, uni fidokorona himoya qilishga tayyorgarlik va bunga qodirlikni shakllantirishga yo'naltirilgan. Uning ma'naviy-ma'rifiy va nazariy asosi Vatanni himoya qilish to'g'risidagi zamonaviy tegishli ilm-fan sohalarining xulosalari, xalqimizning Vatan va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy amaliy tajribasi, ilmiy merosi hamda mazkur masala bilan bog'liq umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablar hisoblanadi.

Yoshlarni turli yot g'oya va tahdidlardan asrash, o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash eng asosiy maqsadlardan biriga aylanmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanganidek, "Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi".

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini yaratish barcha vatandoshlarimizning ezgu orzu umidlaridan biriga aylanmog'i kerak.

Darhaqiqat, "Yangi O'zbekiston - barchamizning ezgu orzuimiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda. Uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasiga jamuljam bo'ldi. Barchamiz jiplashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamadan mehnat qilsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi", deydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash va davlatning xavfsizligini ta'minlash barcha zamonaviy davlatlari qatori O'zbekiston uchun ham hayotiy zaruratsdir. Shularni nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat

va xalqaro munosabatlarning sub'yekti sifatida o'zining mudofaa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligini, shuningdek, davlatlararo tarkib topgan chegaralarning buzilmasligi va o'zgarmasligini hurmat qilish prinsiplariga asoslaydi.

O'qituvchi va o'quvchi yoshlarni o'z millatiga, ona Vataniga, yurtiga sadoqatli bo'lishga, ularda sog'lom kuch-quvvat, tafakkur, iymon-e'tiqod va pok vijdonni shakllantirish, millat manfaati yo'lida yashash, Vatan oldidagi mas'uliyatni tarbiyalash, o'z ongiga singdirish, har tomonlama sog'lom turmush tarzini shakllantirishga o'rgatishi kerak. Yurt ravnaqi, millat obro'-e'tiborini yuksaltirishga hissa qo'shish, foyda keltirish, fidoyilik va halollik bilan mehnat qilish, xalq sha'ni va manfaatini o'ylash, rag'batlantirish uchun turli yo'l va vositalarni topishga harakat qilgandagina ularning insonparvar bo'lishlari uchun o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish uchun yangi pedagogik texnologiyaning barcha ko'rinishlaridan foydalanish, uning yangi shakllarini topish va yaratish, eng avvalo, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ona Vatanni hurmat qilish va qadrlashga o'rgatish zarur. Zero, vatan go'zalligi shu qadar yoqimli tushunchaki, u har bir zamin egasi qalbida g'urur va iftixor uyg'otishi mumkin. Odamlar o'rtasida adolat va tinchlikni ta'minlash ham vatanparvarlik hamda insonparvarlikdir. O'z navbatida, bu jarayonlar kishilarning ma'naviy-ma'rifiy axloqiy sharoitlariga ta'sir qiladi. Ayni paytda yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim vositasidir.

Xulosa. Ayni paytda yoshlarimizni vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish, ularga Vatan mazmun-mohiyatini teran anglashga o'rgatish, vatanparvarlik yuksak axloqiy tamoyil ekanligini tushuntirish axloqiy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi davr talabidir. Milliy vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan teran tafakkurli yoshlarni tarbiyalash milliy o'zlikni anglashning asosiy omilidir. Shunday ekan, Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan har bir yoshimiz yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi zarur. Zero, vatanparvarlik ijtimoiy hayotimizning asosiy zaruratdir, chunki usiz bunyodkorlik ham taraqqiyot ham bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

2. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O„zbekiston, 2017. - 488 b.
3. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma’naviyat”, 2003.
4. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.
5. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G‘.G‘. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
6. A.Allayarov, G‘.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.

IV. YOSH KADRLARNI TAYYORLASHDA YANGICHA YONDASHUVLAR: GLOBAL TENDENSIYA VA MILLIY AN'ANALAR

Yosh kadrlarni tayyorlashda global tendensiyalar va milliy yondashuvlar: qarashlar va imkoniyatlar

Bahodir ILXOMOV
*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi huzuridagi
O'quv markazining "Davlat moliyasi"
kafedrasida dotsenti v.b. (PhD)*

Jahon ta'lim tizimidagi islohotlar va ta'lim bozorida raqobat muhitini shakllanishi, mutaxassislar tayyorlash tizimini kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va ta'lim standartlarida belgilangan malakaviy talablarni uzluksiz takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish va kasbiy ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash maqsadida izchil va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlangan 70-maqsadida yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

O'zbekistonda yosh kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni joriy etish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Innovatsion usul va texnologiyalarni joriy etish, amaliy mashg'ulotlar va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish, shuningdek, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash yosh kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. O'qitishning innovatsion usullari yosh kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvning asosiy jihatlaridan biridir. Turli mamlakatlarda yoshlarning ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga yordam beradigan turli innovatsion usullar joriy etilmoqda. Bunday usullarga misollar:

Faol va amaliy ta'lim: ushbu yondashuv amaliy tajribaga va talabalarni faol o'quv faoliyatiga jalb qilishga qaratilgan. Bu talabalarning amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun simulyatsiyalar, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari va guruh vazifalaridan foydalanishni o'z ichiga

oladi. Simulyatsiyalar talabalarga haqiqiy vaziyatlarni qayta tiklashga va tahlil qilingan qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Amaliy topshiriqlar va loyiha ishlari ham faol ta'limning muhim tarkibiy qismidir. Ular talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash, muammolarni hal qilish va aniq vazifalarni bajarish imkoniyatini beradi. Bu ijodiy fikrlash, mustaqillik, muloqot qobiliyatlari va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilarni faol va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha axborot, uslubiy tavsiyalar va materiallar bilan ta'minlaydigan maxsus resurs markazlarini yaratish muhimdir. Ushbu markazlar turli ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida tajriba almashish va hamkorlik qilish uchun platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish: interfaol doskalar, onlayn platformalar, vebinarlar va mobil ilovalar kabi zamonaviy texnologiyalar yosh kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular interaktiv va individual o'quv materiallarini yaratishga, dolzarb ma'lumotlar va o'quv manbalariga kirishni ta'minlashga imkon beradi. Jahon miqyosida XXI asr ta'limi bevosita Internet va elektron ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalashib bormoqda. Ta'lim jarayonida quyidagi AKTdan foydalanish mumkin: interfaol doskalar, onlayn platformalar, vebinarlar, mobil ilovalar

Fanlararo ta'lim: ushbu yondashuv murakkab muammolarni hal qilish uchun turli fanlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Turli mutaxassislik sohalari talabalari innovatsion yechimlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish uchun hamkorlik qiladilar. Fanlararo ta'lim-bu murakkab va fanlararo muammolarni hal qilish uchun turli fanlar va fanlarni birlashtirgan yondashuv. Talabalar har bir fanni alohida o'rganish o'rniga, haqiqiy muammolarni tahlil qilish, tushunish va hal qilish uchun turli sohalardagi bilim va ko'nikmalarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Fanlararo ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bu turli bilim sohalari talabalari o'rtasidagi hamkorlikdir. Turli fanlar vakillari bilan jamoaviy ishlash ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi, chunki talabalar muammoga o'ziga xos nuqtai nazardan qarashni va innovatsion yechimlarni taklif qilishni o'rganadilar. Mazkur innovatsion usullarni turli mamlakatlarda qo'llash milliy an'analarga va ta'lim tizimining kontekstiga qarab farq qilishi mumkin.

O'zbekistonda yosh kadrlar tayyorlashda global tendensiyalarni integratsiyalash, o'qitishning innovatsion usullarini moslashtirish kabi amalga oshirilishi mumkin bo'lgan turli yondashuv va strategiyalar mavjud. Jumladan: *Zamonaviy o'quv dasturlarini yaratish:* jahon tendensiyalariga

muvaffaqiyatli moslashishning muhim jihatlaridan biri raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talab va yoshlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqishdir. Bunda o'qitishning yangi usullarini joriy etish, amaliy tajribaga e'tibor qaratish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi jihatlar muhim. *Milliy an'ana va qadriyatlarni hisobga olish:* global tendensiyalarni moslashtirishda milliy an'ana va qadriyatlarni hisobga olish muhimdir. Bunga o'zbek madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlari elementlarini ta'lim jarayoniga singdirish orqali erishish mumkin. *Hamkorlikni rivojlantirish:* ta'lim muassasalari, biznes va davlat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish global tendensiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyasining muhim omili hisoblanadi. Bu turli sohalar o'rtasida o'zaro hamkorlik va tajriba almashishni ta'minlash, shuningdek, real ish muhitida innovatsion yondashuvlarni qo'llash uchun sharoit yaratish imkonini beradi. Masalan, korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish talabalarga amaliy tajriba orttirish va o'z bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi.

O'qitishning innovatsion usullarini moslashtirish va qo'llash tegishli infratuzilma, resurslar va malakali o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar va o'qitish usullariga mos keladigan zamonaviy o'quv materiallari, o'quv dasturlari va platformalarini yaratish lozim. Ta'limni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri bu raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ularning o'quv jarayoniga tatbiqi bo'lib, kompyuterlar, Internet, mobil ilovalar va onlayn platformalar kabi raqamli texnologiyalar yosh kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, zamonaviy mehnat bozori yosh kadrlardan nafaqat texnik bilimlarni, balki ma'lum ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni ham talab qilmoqda. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga yondashuvlar muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik, yetakchilik va jamoaviy ishlashga e'tiborni o'z ichiga oladi. Ko'pgina mamlakatlar o'zlarining ta'lim dasturlariga bitiruvchilar zamonaviy mehnat bozori talablariga tayyor bo'lishlari uchun ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar va modullarni kiritmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda o'qitishning innovatsion usullarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va talab qilinadigan ko'nikma va malakalarni rivojlantirish O'zbekistonda yosh kadrlar tayyorlashda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan muhim jihatlardir. Bu mehnat bozorining o'zgaruvchan

talablariga muvaffaqiyatli moslasha oladigan zamonaviy va raqobatbardosh ishchi kuchini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 -2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
4. «The Future of Learning: Education in the Era of Partners in Code» by Carla Aerts (2020) - Journal: EdSurge.
5. «Educational Innovation in Economics and Business: Educating Knowledge Workers for Corporate Leadership» edited by William B. Walstad and Charles A. Ingene (2003) - Journal: Springer.

Давлат фуқаролик хизматини ёш кадрлар билан таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмлари

Дилмуроджон РАХИМОВ

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги
Давлат бошқаруви академияси таянч докторанти*

Сўнгги йилларда мамлакатимизда давлат хизмати фаолияти самарадорлигини ошириш ва ёшларни давлат хизматига ҳамда раҳбарлик лавозимларига танлаб олиш ва тайёрлашга қаратилган кенг қўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Мазкур ислоҳотлар соҳага оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар яратилиши билан бир қаторда бўлиб ўтмоқда. Шундан келиб чиқиб, охириги бир неча йилда ёш кадрларни давлат фуқаролик хизматига жалб этиш ва тайёрлаш бўйича фаолиятнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини таҳлил қилиш ва уларни такомиллаштириш борасида таклифларни илгари суриш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Ёшларни давлат фуқаролик хизматига тайёрлашнинг асосий тизими олий таълим тизими ҳисобланади. Давлат фуқаролик хизматчилари олий таълим муассасалари битирувчилари ичидан шаклланади. Олий таълим муассасалари сони 2016 йилда 77 тани ташкил этган бўлса, бугунги кунда уларнинг сони 210тага етди. Олий таълим билан қамров даражаси эса 9 фоиздан 38 фоизга етди. Ушбу натижалар, шубҳасиз, давлат фуқаролик хизматига малакали, рақобатбардош кадрларнинг келишига замин яратади.

Давлат фуқаролик хизмати тизимида ёш раҳбар кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш масаласи ҳам муҳим ўрин тутади. Бу борадаги дастлабки ҳуқуқий қадам 2017 йил 5 июлда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги 5106-сонли Фармони бўлди, дейиш мумкин. Унда билимли ва ташаббускор, ёш раҳбар кадрларни тайёрлаш ва уларни масъул лавозимларига тавсия этиш устувор вазифалардан бири этиб белгиланди. Натижада мазкур Фармон ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви Академияси қошидаги Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти фаолиятини ташкил қилиш чора-тадбирлари

тўғрисида”ги ПҚ-3206-сон Қарори билан Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти ташкил этилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июндаги “Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги фармонида биноан эса Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти Ёшлар ишлари агентлиги тузилмасига ўтказилди. Ўтган давр мобайнида институт томонидан аксарият ёшлар давлат фуқаролик хизматининг бошқарув ва раҳбарлик лавозимлари учун муваффақиятли тайёрлаб берилди.

“Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси” ёшларни давлат фуқаролик хизматига жалб этишнинг стратегиясини белгилаб берган. Концепцияда ёш салоҳиятли кадрларни қўллаб-қувватлаш ва уларни давлат фуқаролик хизматига тайёрлаш, меҳнат бозорида рақобатбардошлигини таъминлаш йўналишида бир қанча вазифаларни амалга ошириш белгиланган бўлиб, мазкур йўналишлар умумий мазмунга эга эканлигини кўриш мумкин. Уларни хусусийлаштириш ва аниқ механизмларни белгилаш мақсадга мувофиқ саналади. Хусусан, ёшларни давлат фуқаролик хизматига жалб этиш бўйича Республика танловларини жорий этишни таклиф этиш мумкин.

Ёшларни давлат фуқаролик хизматига тайёрлаш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги ва Давлат бошқарув академияси томонидан янги тизим ҳам яратилмоқда. Хусусан, “Келажак лидерлари”, деб номланган махсус малака ошириш дастури ишлаб чиқилиб, давлат органлари ҳамда ташкилотларининг ўрта бўғинида фаолият юритиб келаётган 30 ёшгача бўлган бошқарув раҳбарлари орасидан 200 нафари танлов асосида саралаб олиниб, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясида илғор замонавий таълим технологиялари асосида қисқа муддатда малакаси оширилди. Назаримизда, ушбу дастурга ёшларни танлаб олишнинг тартиб-қоидалари ва механизмларини аниқ белгилаш лозим. Унда танловнинг ўтказилиш муддатлари, босқичлари, мазмун доираси каби масалалар белгиланиши мумкин. Бу, бир томондан, ушбу махсус дастурга қизиққан ёшларни танловга олдиндан тайёргарлик кўриб боришига имкон яратса, бошқа томондан, очиқлик, шаффофлик каби давлат фуқаролик хизматининг принципларини таъминлашга хизмат қилади.

“Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатини ва давлат

фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 5843-сонли Президент Фармонида танлов саралашлари натижалари ҳамда давлат органлари ва ташкилотларининг кадрлар захирасини интеграциялаш асосида Миллий кадрлар захирасини шакллантириш белгиланган. Шу мақсадда жорий йилнинг апрел ойида тажриба тариқасида Давлат хизматини ривожлантириш агентлигининг Самарқанд вилояти ҳудудий филиали қошида 50 нафар ёшлардан иборат “Келажак лидерлари” клуби ташкил этилди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев Ёшлар кунига бағишланган тантанали маросимда нутқ сўзлар экан, ёшлар орасидан энг иқтидорлилари танлаб олиниб, “Келажак лидерлари” клублари ташкил этилишини таъкидлади. Шундан сўнг ҳар бир вилоятда “Келажак лидерлари” клубларни ташкил этиш ишлари амалга оширилди. Бунинг учун 2021 йил июль ва август ойларида 4 босқичли танловлар ўтказилди. Жами 6246 нафар номзодлар орасидан тест ва суҳбат асосида ҳар бир вилоятдан 50 нафардан (Тошкент ва Сирдарё вилоятларида 40 нафардан) энг муносиб номзодлар “Келажак лидерлари” клубларига тавсия этилди. Шундай қилиб, Республикаимизнинг 12 та вилояти, Қорақалпоғистон Республикаси ва Тошкент шаҳрида “Келажак лидерлари” клублари фаолияти йўлга қўйилди ва бу клублар жами 680 нафар ёш кадрлардан иборат бўлди. Клубларнинг асосий мақсади давлат хизмати учун янги муносиб авлод кадрларини шакллантириш, ёшлар, хусусан, ёш аёлларни давлат хизматига жалб қилиш ва ёш истиқболли кадрлардан бошқарув кадрлари захирасини шакллантиришдан иборат. Ижобий мақсадларда ёшлар орасида давлат хизматчиларининг захирасини шакллантиришга эътибор берилаётган бўлса-да, “Келажак лидерлари” клубларини шакллантириш ва фаолият юритишининг тартиб-қоидалари белгиланмаган. Ушбу масалалар норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан тартибга солиниши лозим.

Хулоса қилганда, ўтган даврда ёш кадрларни танлаб олиш ва тайёрлаш бўйича тизимли ишлар бирмунча йўлга қўйилди. Эндиликда ушбу тадбирларни янада ривожлантирган ҳолда давом эттириш ва юқорида таъкидланган қонунчилик асосларини такомиллаштириш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар

иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида // <https://lex.uz/docs/3255680>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви Академияси қошидаги Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти фаолиятини ташкил қилиш чоратадбирлари тўғрисида // <https://lex.uz/docs/4922150>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида // <https://lex.uz/docs/4880129>

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида // <https://lex.uz/docs/5234746>

5. “Келажак лидерлари” – истиқболли ёшлар учун имконият // https://uz.uz/uz/posts/kelajak-liderlari-istiqbolli-yoshlar-uchun-imkoniyat_269599

6. Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда Янги Ўзбекистонни албатта бунёд этамиз.

Сиёсий лидерликни тадқиқ этишнинг айрим назарий хусусиятлари

Камол МАХМУДОВ

Тошкент молия институти

“Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти,

Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бугунги замонавий сиёсий жараёнда сиёсий лидерларнинг роли ортиб бормоқда. Шу муносабат билан муайян ҳокимият субъектлари томонидан энг муҳим бошқарув функцияларини амалга ошириш механизмлари билан боғлиқ бўлган сиёсий лидерликнинг фаоллик хусусиятини ўрганиш муҳимдир. Турли сиёсий режим, ижтимоий тузилмалар ва умуман жамиятнинг фаолияти сиёсий лидерликларнинг бошқарув ҳаракатлари самарадорлигига боғлиқ бўлиб турибди.

“Сиёсий лидерлик” тушунчаси замонавий сиёсий жараёнда ўрганишда универсалликка эришди. Инглиз тилидаги “лидер” атамасининг бошқа тилларга ўзгаришсиз киритилгани унинг универсаллигидан далолат беради, бунга қисман инглиз тилининг замонавий дунёда халқаро мулоқотнинг универсал тилга айланиши ёрдам берди. Сиёсий лидерлик кенг тарқалган ва қоида тариқасида, интуитив равишда тушунилган ҳодисаларни англатади. Сиёсий лидерлик тушунчасини, аксинча, аниқлаш қийин, чунки у институционал, маданий ва тарихий контекстларга, умумий ва хусусий вазиятга боғлиқ.¹

Қисқача Оксфорд инглизча луғати раҳбарни гуруҳ, ташкилот ёки мамлакатни бошқарадиган ёки унга буйруқ берадиган шахс сифатида белгилайди. “Раҳбарлик қилиш” дегани, одам ёки ҳайвонни унга эргашишга мажбурлаш (мажбурлаш), эскорт орқали манзилга йўл кўрсатишни англатади.² Бошқача қилиб айтганда, “лидерлик” XIX асрда кўплаб мамлакатларда лингвистик жиҳатдан мослаштирилган. Раҳбарлик оммавий сиёсатнинг юзага келиши, ижтимоий гуруҳлар ўрнининг ошиши, оммавий жамиятнинг шаклланиши, коммуникатив алоқаларнинг ривожланиши муносабати билан тадқиқотларнинг умумий объектига айланган. Ўзбек тилида ҳам “сиёсат” ва “етақчилик”

¹Biondel J. Political Leadership. London. Sage, 1987; Klenke K. Women and Leadership: A Contextual Perspective. New York: Springer, 1996; Wildavsky A.A. Culture Theory of Leadership//Leadership and Politics: New Perspectives in Political Science. Lawrence: University Press of Kansas, 2006, p.p. 87-113.

² The Concise Oxford English Dictionary.

тушунчалари бир хил маънода келади. “Бошчилик”, “бошлаб бормоқ”, “раҳбарлик”.³

Кўпинча лидерлик ва бошқарув ҳақидаги адабиётларда маҳаллий ва миллий даражадаги сиёсий лидерлик одатда ижтимоий етакчиликнинг кичик тури сифатида қаралади. Етакчилик ташкилотларда, бизнесда, динда, касаба уюшмаларида, хайрия ташкилотларида, норасмий ташкилотларда ва бошқаларда мавжуд. Етакчиликнинг мавжудлиги учун гуруҳларнинг мавжудлиги зарур ва гуруҳлар пайдо бўлган жойда етакчилик пайдо бўлади. Етакчилик гуруҳ ичидаги ҳодиса сифатида норасмий муносабатлар таркибида алоҳида ўрин тутаяди. Бу шахсий таъсирга асосланиб, гуруҳнинг маълум бир қисмини ўз ниятларига мувофиқ ҳаракат қилишга ёки ўзини тутишга ундайдиган шахсдан келиб чиқадиган норасмий етакчилик ёки таъсир функцияси билан боғлиқ. Ушбу функцияни бажарадиган ёки ўз зиммасига олган шахс етакчидир.⁴ Лекин сиёсий лидер эмас. Сиёсий лидер давлат ва жамият объектини тўлиқ қамраб олади ҳамда уйғунлаштиради.

Ижтимоий етакчилик тоифасига ташкилий, диний, технологик ва бошқа етакчилик турлари, шу жумладан ижтимоий турлардан бири бўлган сиёсий етакчилик киради. Кўп жиҳатдан сиёсий лидерлик ижтимоий етакчиликнинг бошқа турлари билан бир хил эканлигига асосланиб, шунинг учун баъзи олимлар буни кенгроқ категория контекстида кўриб чиқаяди. Дарҳақиқат, ҳар қандай етакчилик воқеалар ривожини аниқлаш ва ўзгартириш қобилияти билан узвий боғлиқдир. Бироқ, сиёсий лидерликнинг ўзига хос хусусиятлари бор. Сиёсий лидерликнинг бошқа ижтимоий етакчилик турларидан фарқи шундаки, раҳбарлар кучга эга, яъни воқеалар ривожини ўзгартириш учун ижтимоий таъсирнинг барча усулларидан фойдаланиш қобилият-таъсири (ҳокимият ва ишонтириш, рағбатлантириш, моддий ва маънавий ва мажбурлаш (зўравонлик ва тўғридан-тўғри зўравонлик таҳдиди)).⁵

Жамият фаолиятининг ўта оғир шароитида унга миллий ҳаракатни бошқаришда ёрдам берадиган фазилатларга эга бўлган

³Ўзбек тилининг изоҳли луғати. https://n.ziyouz.com/books/o'zbek_tilining_izohli_lug'ati/.

⁴Блондель Ж. Политическое лидерство. Путь к всеобъемлющему анализу. - М.: 1992.С-45.

⁵КупчинН. Политическое лидерство как феномен гражданского общества тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 23.00.02, доктор политических наук, 2008. С-34.

миллий миқёсдаги сиёсий раҳбарга эҳтиёж туғулиши бугун илмий аксиомасига айланган. У қуйидаги фазилатларда намоён бўлади:

- аввалги анъаналари йўқолган, пароканда жамият ҳукмронлик қилган шароитда мақсадлар, дастурлар, мафкураларни шакллантириш қобилияти;

- муайян тарихий давр учун асосий миллий қадриятларни акс эттириш қобилияти;

- экстремал вазиятда қарор қабул қилишда бюрократик процедуралардан ташқарига чиқишга қодирлик;

- асосий миллий манфаатларни мамлакат тарихи, замонавий ва олдинги авлод анъаналари билан боғлаш қобилияти;

- элитадан бутун жамиятга тарқаладиган хулқ-атвор ва фикрлашнинг тубдан янги моделини яратиш санъати;

- миллатнинг ишончи ва оптимистик руҳиятини илҳомлантириш, унга мавҳумлик ва бошбошдоқликни енгишга ёрдам бериш қобилиятлари билан белгиланади.⁶

Ҳокимиятдан ташқари, сиёсий лидерлик ижтимоий етакчиликдан сиёсий раҳбар ҳал қилиши керак бўлган муаммолар кўлами билан фарқ қилади. Ж. Блонделнинг таъкидлашича, “сиёсий лидерлик -бу кенг кўламли масалалар ва муаммолар бўйича амалга ошириладиган маънода ҳокимиятнинг алоҳида тури. Агар кўпчилигимиз гуруҳ устидан ҳокимиятга эга бўлсак ва узоқ вақт давомида, натижада улар ҳам етакчи бўлишлари мумкин, аммо сиёсий лидерлар ўз кучларини халқаро ишлар, мудофаа, фуқароларнинг иқтисодий ва ижтимоий фаровонлигини ўз ичига олган соҳада амалга оширадилар, ҳатто маданият ва санъат”.⁷

Контекстли ўзгаришлар юз бериши мумкин бўлса-да етакчиликка риоя қилиш ҳар доим гуруҳнинг турмуш тарзи ёки қадриятларига қарши турадиган атроф-муҳит ёки контекстга янгилик ва мослашувнинг ижтимоий жараёнидир. Раҳбарнинг вазифаларига қуйидагилар киради: муаммони талқин қилиш; муаммони ҳал қилиш йўллари таклиф қилиш; муаммонинг шахсий қарашларини тарқатиш ёки тарғиб қилиш ва уни ҳал қилиш; муаммони ҳал қилиш йўллари амалга ошириш учун тарафдорларни сафарбар қилиш.

⁶Мухаев Р.Т. Теория политики: учебник для студентов вузов, обучающихся по гуманитарно-социальным дисциплинам (020000) и специальности «Международные отношения» (350200). М., 2005. С.447-448.

⁷БлондельЖ. Политическое лидерство. Путь к всеобъемлющему анализу. –Москва, 1992. –С.15.

Бошқача қилиб айтганда, бошқарув ва бошлиқ, биринчи навбатда, расмий тузилманинг воситаси ва функционери. Жамият субъекти сифатида жамоа ҳаётининг барча жабҳаларини расмий тартибга солиш жараёнларини амалга ошириш учун раҳбар бутун жамоанинг расмий раҳбари ролига тайинланади ёки сайланади. Бошлиқ - баъзи умумий ижтимоий меъёрларни ифодаловчи шахс. Ушбу стандартлар жамоанинг барча аъзолари учун мажбурийдир. У уларнинг хўжайини, жамоаси умуман жамият ўртасида ташувчи ва воситачи. Ва агар менежер жамият талабларига жавоб бермаса, унда янада барқарор даражадаги гуруҳ нормалари бузилади ва жамоа деформацияланади.

Менежер гуруҳнинг тартибга солиш функцияларининг ҳуқуқий асосларига таянади. У муҳим расмий функцияни бажаради ва обрўли мақомни эгаллайди, чунки у маълум бир куч даражасида. Бу жамоа аъзоларини унинг расмий ваколатларини тан олишга мажбур қилади. Бундай раҳбарнинг ҳаракатларининг асоси ҳокимиятнинг ваколатидир. Менежер жамият миқёсида бир неча бор ижтимоий муносабатлар воситачилигидаги умумий фаолият дастурини тузишда қарор қабул қилиш учун жавобгарликни ўз зиммасига олади. Бошлиқ макро муҳит ҳодисалари билан кўпроқ боғлиқдир. Менежмент жамоа ҳаётини ташкил этишнинг барқарор омилидир.⁸

Сиёсий лидерлик етакчиликнинг турли шакллари орасида алоҳида ўрин тутади, чунки унинг жамоат ҳаётига ва кўплаб одамлар тақдирига оид воқеаларга таъсири айниқса муҳимдир. Сиёсий лидерлик етакчиликнинг барча шакллари бирлаштирадиган хусусиятларга эга⁹.

Биринчидан, сиёсий лидерлик билвосита характер билан ажралиб туради. Сиёсий раҳбарлар ва жамият ўртасидаги алоқа кўплаб институтлар воситачилигида амалга оширилади; сиёсий партиялар, манфаатдор гуруҳлар, давлат органлари, оммавий ахборот воситалари, шаҳар маъмуриятлари, корхоналар, муассасалар ва бошқалар.¹⁰

Иккинчидан, замонавий сиёсий лидерлик хилма-хиллиги билан ажралиб туради. Масалан, “президентлик” тушунчаси мураккаб тузилмани ва катта аппарат ишини назарда тутади. Ҳар қандай сиёсат баёнотни эълон қилишдан олдин Президент соҳадаги мутахассислар билан маслаҳатлашади. Президент маслаҳатчилари мавжуд вазиятни

⁸GrintK. Leadership: Limits and Possibilities. - New York: Palgrave Macmillan, 2005, 192 p.

⁹БлондельЖ. Политическое лидерство. Путь к всеобъемлющему анализу.-Москва, 1992. -С.87.

¹⁰Heifetz R. Leadership Without Easy Answers. Cambridge MA: Harvard University Press, 1994; Tucker R.C. Politics as Leadership, 2nd edn. Columbia MO: University of Missouri Press, 1995.

баҳолашда муҳим рол ўйнайди, нутқ муаллифлари баёнот матнининг сайқаллашувида иштирок этадилар. Сиёсий лидерлик кичик гуруҳлар раҳбариятидан шундай фарқ қилади.

Учинчидан, тўғридан-тўғри алоқаларга асосланган кичик гуруҳлар ўз раҳбаридан етакчи ролини бажариш қобилияти ва тайёрлигини талаб қилса, кўп сонли одамларни жалб қиладиган сиёсий соҳа раҳбарлари лавозимларини расмийлаштиришни талаб қилади. Шундай қилиб, сиёсий лидерлик ҳокимиятга асосланган ва жамият томонидан раҳбарнинг ўз ролини енгиш қобилиятини тан олишни назарда тутадиган норасмий жиҳатларни ҳам, маълум бир шахснинг ташкилот аъзоларига устувор таъсирини ифодаловчи расмий жиҳатларни ҳам ўз ичига олади.

Тўртинчидан, сиёсий раҳбарларнинг аксарияти эркаклардир. Маргарет Тетчер (Буюк Британия), Беназир Бхутто (Покистон), Индра Гандти (Ҳиндистон), Ангела Меркел (Германия) каби машҳур аёл сиёсатчиларнинг сиёсий мартабалари камдан-кам истисно ҳодиса. Парламентлараро Иттифоқ маълумотларига кўра, аёллар бутун дунё бўйлаб депутатлар корпуси аъзолари умумий сонининг атиги 13 фоизини ташкил қилади, шу билан бирга уларнинг ҳаммаси ҳам сиёсий лидер тушунчаси мезонларига жавоб бермайди¹¹.

Маданий контекст сиёсий лидерлик таърифига катта мазмун беради. Масалан, ўзбек маданий контекстида сентементал ҳамдард ёки заиф характерга эга бўлган раҳбар муваффақиятсиз шахс сифатида рад этилади. Чунки, сиёсий режим ва сиёсий лидерлик феномени жамият маданий даражаси орқали ҳам шаклланади. Тоталитар психология устувор бўлган жамиятда демократик режим ривожланмайди. Бироқ, аксарият тадқиқотчилар сиёсий лидерлик таърифининг қуйидаги элементлар аҳамияти тўғрисида яқдил қарашлар мавжуд: лидернинг шахсияти ва хусусиятлари, шу жумладан ахлоқий ва ақлий, раҳбарнинг ўзига хос хусусиятлари ва у билан мулоқот қиладиган издошларнинг ахлоқий-маданий характери, умумий маданият, сиёсий маданият, сиёсий иқлим, нормалар ва институтлар, ҳар бир аниқ тарихий вазиятда раҳбарлар ва уларнинг издошлари дуч келадиган жамоавий муаммолар, раҳбар ҳукмларининг табиати ва уларнинг атроф-муҳит томонидан талқин қилиниши, раҳбар ўз ва умумий мақсадларига эришиш, шунингдек, ўз позициясини қўллаб-қувватлашни таъминлаш учун

¹¹Молчанова Е.Н. К вопросу о тендерной психологии лидерстве // Сборник «Социальное партнерство в решении тендерных проблем». - Набережные Челны, 2002. - С. 77.

фойдаланадиган воситалар, раҳбарнинг саъй-ҳаракатлари натижаларининг самарадорлиги, ҳақиқий ёки рамзий, узоқ муддатли ёки қисқа муддатли оқибатлари¹² билан ифодаланади. Ш.Рашидов тоталитар шароитда айнан шундай сифат ва фазилатлари билан тоталитар муҳитни либераллаштиришга эришади. Бундай сиёсий ҳодиса тоталитар режимнинг ҳам типологияларга бўлиниши мумкинлигини вужудга келтирадики, бу жиҳатлар ҳамон ўрганилган эмас.

Шундай қилиб, сиёсий етакчилик нафақат фуқаролик жамиятининг ривожланиши, унинг институтлари томонидан маълум даражада етукликка эришиш натижаси, балки шаклланишнинг зарурий шarti, омили сифатида тоталитар, авторитар ва демократик жамиятлар сиёсий режими шароитида кўриб чиқиш ва лидерликнинг барча даврларга хос умумий хусусиятларини аниқлаш лозим бўлади. Аксинча, лидерлик феноменини белгилашга доир бугунги илмий тадқиқот нуқсонлари такрорланиб келаверади. Яъни илмийликдан кўра, тор доирадаги миллийлик хусусиятлари устуворлик қилади. Яъни башарият учун диспотик раҳбар, айни бир пайтда, миллат учун сиёсий лидер даражасига кўтарилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Biondel J. Political Leadership. London. Sage, 1987; Klenke K. Women and Leadership: A Contextual Perspective. New York: Springer, 1996; Wildavsky A.A. Culture Theory of Leadership//Leadership and Politics: New Perspectives in Political Science. Lawrence: University Press of Kansas, 2006, p.p. 87-113.
2. The Concise Oxford English Dictionary.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. https://n.ziyouz.com/books/o'zbek_tilining_izohli_lug'ati/.
4. Блондель Ж. Политическое лидерство. Путь к всеобъемлющему анализу. - М.: 1992. С-45.
5. GrintK. Leadership: Limits and Possibilities. - New York: Palgrave Macmillan, 2005, 192 p.
6. КупчинН. Политическое лидерство как феномен гражданского общества тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 23.00.02, доктор политических наук, 2008. С-34.
7. Мухаев Р.Т. Теория политики: учебник для студентов вузов, обучающихся по гуманитарно-социальным дисциплинам (020000) и

¹²Mascinlli J., Molchanov M.A., Knight W.A. Op. cit., p. 5-6.

специальности «Международные отношения» (350200). М., 2005. С.447-448.

8. БлондельЖ. Политическое лидерство. Путь к всеобъемлющему анализу. –Москва, 1992. –С.15.

9. БлондельЖ. Политическое лидерство. Путь к всеобъемлющему анализу. –Москва, 1992. –С.87.

10. Heifetz R. Leadership Without Easy Answers. Cambridge MA: Harvard University Press, 1994; Tucker R.C. Politics as Leadership, 2nd edn. Columbia MO: University of Missouri Press, 1995.

11. Молчанова Е.Н. К вопросу о тендерной психологии лидерстве // Сборник «Социальное партнерство в решении тендерных проблем». - Набережные Челны, 2002. - С. 77.

12. Mascinlli J., Molchanov M.A., Knight W.A. Op. cit., p. 5-6.

Organization of new personnel in the Republic of Uzbekistan

Shaxzoda ZAYNUTDINOVA
EMU University Dentistry faculty
205B-group student

Gulnoza MASUDOVA
EMU University (Scientific advisor)

Abstract. This article is about the training and organization of new personnel for the country of Uzbekistan. The national training program has been prepared in accordance with the provisions of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", based on an analysis of domestic experience and world-class achievements in the education system, a high general and professional culture focused on creative and social activities.

Key words: personnel, profession, experience, achievement, creative, social, culture.

The national training program has been prepared in accordance with the provisions of the Law of the Republic of Uzbekistan «On Education», based on an analysis of domestic experience and world achievements in the field of education, a high general and professional culture aimed at creative and social activities, at the formation of new personnel with the desire to achieve an independently set goal in socio-political life, able to put forward and set long-term tasks.

The program provides for socio-political, legal, psychological-pedagogical and other conditions for the implementation of the national training model, the conscious selection of educational and professional programs that are mature in all respects, adapted to life in society, and then comprehensively mastered. means the creation, education of citizens who feel their responsibility to society, the state and the family.

The achievement by the Republic of Uzbekistan of state independence and the choice of its own path of economic and social development necessitated the reorganization of the structure and content of training and a number of activities: «Education - the introduction of the Law on» (1992); introduction of new curricula, programs, textbooks, development of modern didactic support; certification and accreditation of educational institutions, the creation of educational institutions of a new type.

The state policy of support for gifted children and students is steadily pursued. Special funds have been created to search for talented teenagers and girls, to provide them with assistance, to develop their abilities and talents, to

train and educate talented youth in leading educational institutions and scientific centers abroad. transmission has begun. International relations in the field of science and education are expanding.

However, the changes introduced could not improve the quality of personnel training and meet the requirements of the country's socio-economic development.

Monitoring the implementation of the national training program.

At this stage, children from six to seven years old are accepted into the school, taking into account their physical and mental development. The necessary student places are being consistently prepared, provided with the necessary material and technical conditions and teaching staff.

-Based on the results of monitoring the implementation of the first stage, clarifications will be made to the directions for the implementation of the National Program.

-Second stage (2001-2005) Full implementation of the national program, development of the labor market and real socio-economic conditions.

The transition to compulsory general secondary and secondary specialized, vocational education, as well as differentiated education, depending on the abilities and capabilities of students, has been fully implemented.

The staffing of educational institutions with specially trained and qualified teaching staff is ensured, and an environment based on competition is created in their activities.

Training and retraining of personnel is aimed at updating and deepening the professional knowledge and skills of specialists. Based on the results of training in educational institutions for the training and retraining of personnel, a certificate or certificate of a state sample is submitted.

-For the organization and development of the system of training and retraining of personnel, it is necessary:

- Formation of a new content, content and management system in the system of advanced training of personnel and their retraining;

-Training highly qualified staff of specialist teachers and ensuring that they fill the area;

-creation of a regulatory framework for a system of advanced training of personnel and their retraining, which ensures the formation of an environment based on competition and effective activities in this area;

-Development and implementation of a system of state certification and accreditation of educational institutions for staff development and retraining;

- to promote the creation and development of state and non-state educational institutions that provide prompt retraining of personnel and specialists and improve their skills in accordance with the requirements of the state and non-state sectors of the economy, organizations and institutions of various forms of ownership;

-Development, creation and practical development of advanced technologies and equipment for vocational training, as well as simulators for complex technological processes that require scientific achievements.

In conclusion the program is aimed at the implementation of the national model of personnel training, at the conscious choice of educational and professional programs, and then at their thorough development. and other means of creating conditions, educating citizens who feel their responsibility to society, the state and the family.

References

1. <https://lex.uz/acts/-48401>
2. <http://buxpxti.uz/?p=1654>

Талаба ёшларда лидерлик кўникма ва малакаларини шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг аҳамияти

Камол МАХМУДОВ

Тошкент молия институти

“Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти.,
с.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация. Мазкур мақолада талаба ёшларда лидерлигининг мазмун-моҳияти, ёшлар ўртасида лидерлик кўникмаларини шакллантирувчи ва ривожлантирувчи ташкилотларни ўрни ва аҳамияти, талаба ёшларда лидерликни шакллантириш йўллари ва усуллари ёритилган бўлиб, бугунги кунда ижтимоий, сиёсий, маданий ва маънавий ҳаётда олиб борилаётган туб ўзгаришлар даврида ёшлар лидерлиги, етакчилик, билим, малака ва кўникмаларни шакллантириш услубиёти очиб берилган.

Таянч сўзлар: лидер, етакчилик, раҳбарлик, ҳақиқий етакчилик, глобаллашув, ҳиссий интеллект, гамификация усул, етакчилик симуляциялари усул.

Тарихдан бизга маълумки, ҳар бир даврда мавжуд бўлган жамият ва давлатлар жамиятнинг ҳаракатга келтирувчи кучи (драйвери) бўлган ёш авлодни баркамол ва комил инсонлар бўлиб улғайишлари учун давлат бюджетидан миллион ва миллиардлаб бюджет маблағларини эртанги кунининг устуни бўлган ёшлар камолоти учун сарфлаб келмоқда. Бугунги кунда сайёрадаги барча жамиятлар ва давлатлар ёш авлод таълим ва тарбияси масаласига катта аҳамият бериб келмоқда.

Шу ўринда Ўзбекистон Республикасида ҳам ёшлар сиёсати борасида бир қатор ишлар амалга оширилди. Жамиятимизнинг эртанги куни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқлигини ҳеч қачон унутмаслигимиз керак. Жамият (ота-она, маҳалла, боғча, мактаб ва олий таълим муассасалари)нинг асосий вазибалари ёшларнинг мавжуд бўлган қобилият ва салоҳиятини ўз вақтида намоён этишлари учун барча зарурий шарт-шароитларни яратиш, ёшлар ўртасида миллий маънавиятимизга ёт бўлган ғоя ва қарашларни тарқалишини олдини олиш ва уларга қарши ёшларда мафкуравий дунёқарашни шакллантириш давр талабларидан биридир.

Давлат ва жамият ёш авлодни ижтимоий-иқтисодий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қувватлаши, ёшлар ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя

қилиш ва рўёбга чиқариш борасида намуна бўлиши ҳамда кўп томонлама ҳамкорликларни ривожлантириши зарур.

“Шу муносабат билан Ўзбекистон глобаллашув ва ахборот-коммуникация технологиялари жадал ривожланиб бораётган бугунги шароитда ёшларга оид сиёсатни шакллантириш ва амалга оширишга қаратилган умумлаштирилган халқаро ҳуқуқий ҳужжат – БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенциясини ишлаб чиқишни таклиф этади.

Бизнинг назаримизда, мазкур ҳужжатни имзолайдиган давлатлар ушбу соҳани ўз ижтимоий сиёсатининг асосий ва муҳим ҳаётий устувор йўналишларидан бири даражасига кўтариш бўйича қатъий мажбуриятларни ўз зиммасига олиши керак”¹.

Ёшларнинг онгу-тафаккури ва дунёқарашини, ақли, билим ва маърифатини ижтимоий-гуманитар фанлардаги бой маънавий мерос ва кўлга киритилган илмий-назарий ютуқлар орқали шакллантириш ҳамда тарбиялаш жамият олдидаги энг муҳим вазифалардан бири десак адашмаган бўламиз.

“Бугунги дунё ёшлари – сон жиҳатдан бутун инсоният тарихидаги энг йирик авлоддир, чунки улар 2 миллиард кишини ташкил этмоқда ҳамда экстремистик фаолият ва зўравонлик билан боғлиқ жиноятларнинг аксарияти 30 ёшга етмаган ёшлар томонидан содир этилмоқда”². Бугунги вазият ҳар қачонгидан ҳам мураккаб ва зиддиятли даврда ёш авлодни глобал вазият ва муаммолар бўйича билими, дунёқарашини шакллантиришда бир қатор амалий ишларни амалга оширишимиз даркор. Бунинг учун аввало, ёшлар таълим ва тарбиясига катта эътибор қаратиш, ижтимоий дастурларни сони ва ҳажмини ошириш, оилаларда камол топаётган ёш авлодни оилавий таълим даврасидаги тарбия ва таълим сифатини ошириш, таълим масканларида ташкил этилаётган маънавий ва маданий тадбирларни сонига эмас сифатига эътибор қаратиш зарур. Жамият аъзолари ёшлар олдида масъуллик ҳиссини унутмаган ҳолда жамоат намуналари кўрсатиш орқали ёшлар тарбияланишини унутмасликлари шарт. Ёшларнинг камол топиши учун шарт-шароит яратиш, уларни масъулият, меҳнатсеварлик, ўзгаларга ҳурмат ва маданий меросга ўргатиш муҳим

¹ <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/O'zbekiston-Prezidenti-Shavkat-Mirziyoyev-BMT-Bosh-Assambleyasining-72sessiyasida-nutq-so'zladi.html>

² <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/O'zbekiston-Prezidenti-Shavkat-Mirziyoyev-BMT-Bosh-Assambleyasining-72sessiyasida-nutq-so'zladi.html>

аҳамиятга эга. Шунингдек, ёшларнинг сеvimли машғулотлари ва қизиқишларини қўллаб-қувватлаш, уларнинг салоҳиятини рўёбга чиқариш, ўз олдига қўйган мақсадларига эришишда кўмаклашиш муҳим аҳамиятга эга.

Бугун дунё ёшларини чалғитувчи, ёшларни ўз домига тортишни истовчи турли ташқи кучлар кўпайиб бормоқда. Энг ачинарлиси, дунёнинг қайси бурчагида бирор бир кўнгилсизлик ёки жиноят содир бўлса, албатта бу жараёнда ёшларнинг “қўлидан” фойдаланилганлигини кўриш мумкин.

“Ёшлар тарбияси ҳар бир даврнинг ўта долзарб масаласи бўлиб келгани айна ҳақиқат. Муаррихларнинг ёзишича, Геродот шарққа қилган сафарлари чоғида Миср эҳромларидаги бир битикка ажабланган: “Ёшлар тарбияси бузилиб кетяпти. Нима қилиш керак?!”. Муаррих бу ёзувни ўқиганига ҳам икки минг йилдан ошиб кетди. Ёзувнинг битилганига эса, ким билсин қанча вақт бўлган? Демак, ёшлар масаласи ҳамиша ўз долзарблигини йўқотмаган, бунга ҳамма даврларда ҳам турли даражада муносабат билдирилган экан-да”³.

Ёшларда етакчилик фазилатларини шакллантириш узоқ муддатли жараён бўлиб, жамият, давлат ва таълим муассасаларининг биргаликдаги саъй-ҳаракатларини талаб қилади. Бироқ, бу жамият тараққиёти учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган янги авлод раҳбарларини шакллантиришга ёрдам берадиган келажакка сармоядир.

Бу комплекс ёндашув ва барча манфаатдор томонларнинг фаол иштирокини талаб қилувчи муҳим вазифадир. Энг аввало, ёшларда билим олиш, ташкилот ва жамият ҳаётида иштирок этиш каби етакчилик фазилатларини ривожлантириш учун шароит яратиш зарур.

Қолаверса, ёшлар онгига етакчилик қадриятини, ўз ҳаракатларига масъулиятни сингдириш муҳим аҳамиятга эга. Буни турли дастур ва тадбирлар орқали амалга ошириш мумкин, бу эса ёшларга етакчилик нафақат имтиёз, балки жамият олдигаги масъулият эканлигини тушунишга ёрдам беради.

Ниҳоят, ёш етакчиларни қўллаб-қувватлаш, уларни руҳлантириш, уларнинг ғоя ва лойиҳаларини амалга оширишлари учун шароит яратиш зарур. Бу уларга тажриба орттириш, ўзига ишонч ва ўз қобилиятларига ишончни оширишга ёрдам беради.

³ <https://xs.uz/uzkr/post/yoshlar-ta'lim-tarbiyasi-eng-ustuvor-vazifa>

Умуман олганда, ёшларда етакчилик фазилатларини шакллантириш доимий эътибор ва ҳаракатни талаб қиладиган вазифадир. Бироқ бу келажак сармояси бўлиб, ўз ҳаёти ва жамият тараққиёти учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган раҳбарларнинг янги авлодини шакллантиришга хизмат қилади.

Лидерлик ҳар қандай муваффақиятли ташкилотнинг муҳим жиҳати ҳисобланади. Бу одамларни умумий мақсадларга эришиш учун илҳомлантириш ва йўналтириш қобилиятини ўз ичига олади. Яхши раҳбар – бу нафақат билимли ва малакали, балки одамлар билан алоқа ўрнатиш ва уларни ўз имкониятларини тўлиқ рўёбга чиқаришга илҳомлантириш қобилиятига эга бўлган одамдир.

Етакчилик фақат одамларга нима қилиш кераклигини айтишдан иборат эмас. Бу кўришни яратиш, йўналишни белгилаш ва одамларга ўз ҳаракатларига эгалик қилиш ва масъулиятни оширишга қаратилган. Яхши раҳбар – бу ўз жамоасини умумий мақсад сари биргаликда ишлашга ундай оладиган ва илҳомлантирадиган одам. Улар ўз жамоасининг кучли ва заиф томонларини қандай аниқлашни биладилар ва бу маълумотлардан ҳар бир аъзони ўзларининг тўлиқ салоҳиятини ривожлантириш учун фойдаланадилар.

Бундан ташқари, вояга етган ёшларга сиёсий ҳуқуқ ва эркинликларидан фаол фойдаланишлари учун ёшларни сайловларда қатнашиш ёки нодавлат ва нотижорат ташкилотларда фаол бўлиши ва ишлаш орқали жамият ва давлат ҳаётида иштирок этишга ундаш керак. Бу уларга жамоа бўлиб ишлаш ва жамоада ишлаш кўникма ва малакаларини шаклланишида ёрдам беради ҳамда етакчи ёшларни қарорлар қабул қилиш ва муаммоларни ҳал қилишда тажриба орттиришга ёрдам беради.

Умуман олганда, ёшлар етакчилигини ривожлантириш доимий амалиётга боғлиқдир. Ёшлардан етакчилик ва гуруҳни бошқариш кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам берадиган турли тадбирларда иштирок этишни талаб қилади.

1. Мулоқот, конфликтларни бошқариш, ташкилотчилик, қарор қабул қилиш ва ҳоказолар каби етакчилик қобилиятлари ва малакаларини ўргатиш.

2. Ёшларнинг самарали етакчи бўлиб етишишига кўмаклашувчи онг, интроспекция ва ўз-ўзини акс эттиришни ривожлантириш бўйича тренинг ва семинарлар ташкил этиш.

3. Ёшларнинг ўзаро тажриба, билим ва илғор тажриба алмашиши учун етакчиликка оид мавзуларда давра суҳбатлари ва суҳбатлар ўтказиш.

4. Ёшларга жамоада ишлаш, етакчилик ва етакчилик бўйича тажриба орттиришга ёрдам берувчи лойиҳа ва дастурий тадбирларда иштирок этиш.

5. Ёшларнинг ўз етакчилик фазилатлари ва маҳоратини ҳаётда намоён этиши учун платформа ва имкониятлар яратиш.

6. Ёш етакчилар билан ўз тажриба ва билимларини баҳам кўра оладиган тажрибали етакчилар томонидан устозлик ва устозлик қилишни таъминлаш.

7. Ёшларнинг етакчилик фазилатларини намоён этиши, ўз ғоя ва лойиҳаларини амалга ошириши учун етакчилик ташаббуси ва тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш.

Ёшларда етакчилик фазилатларини шакллантириш узоқ муддатли жараён бўлиб, жамият, давлат ва таълим муассасаларининг биргаликдаги саъй-ҳаракатларини талаб қилади. Бироқ, бу жамият тараққиёти учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган янги авлод раҳбарларини шакллантиришга ёрдам берадиган келажакка сармоядир.

Бу комплекс ёндашув ва барча манфаатдор томонларнинг фаол иштирокини талаб қилувчи муҳим вазифадир. Энг аввало, ёшларда билим олиш, ташкилот ва жамият ҳаётида иштирок этиш каби етакчилик фазилатларини ривожлантириш учун шароит яратиш зарур.

Қолаверса, ёшлар онгига етакчилик қадриятини, ўз ҳаракатларига масъулиятни сингдириш муҳим аҳамиятга эга. Буни турли дастур ва тадбирлар орқали амалга ошириш мумкин, бу эса ёшларга етакчилик нафақат имтиёз, балки жамият олдидаги масъулият эканлигини тушунишга ёрдам беради.

Ниҳоят, ёш етакчиларни қўллаб-қувватлаш, уларни руҳлантириш, уларнинг ғоя ва лойиҳаларини амалга оширишлари учун шароит яратиш зарур. Бу уларга тажриба орттириш, ўзига ишонч ва ўз қобилиятларига ишончни оширишга ёрдам беради.

Умуман олганда, ёшларда етакчилик фазилатларини шакллантириш доимий эътибор ва ҳаракатни талаб қиладиган вазифадир. Бироқ бу келажак сармояси бўлиб, ўз ҳаёти ва жамият тараққиёти учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган раҳбарларнинг янги авлодини шакллантиришга хизмат қилади.

Лидерлик ҳар қандай муваффақиятли ташкилотнинг муҳим жиҳати ҳисобланади. Бу одамларни умумий мақсадларга эришиш учун илҳомлантириш ва йўналтириш қобилиятини ўз ичига олади. Яхши раҳбар – бу нафақат билимли ва малакали, балки одамлар билан алоқа ўрнатиш ва уларни ўз имкониятларини тўлиқ рўёбга чиқаришга илҳомлантириш қобилиятига эга бўлган одамдир.

Етакчилик фақат одамларга нима қилиш кераклигини айтишдан иборат эмас. Бу кўришни яратиш, йўналишни белгилаш ва одамларга ўз ҳаракатларига эгалик қилиш ва масъулиятни оширишга қаратилган. Яхши раҳбар – бу ўз жамоасини умумий мақсад сари биргаликда ишлашга ундай оладиган ва илҳомлантирадиган одам. Улар ўз жамоасининг кучли ва заиф томонларини қандай аниқлашни биладилар ва бу маълумотлардан ҳар бир аъзони ўзларининг тўлиқ салоҳиятини ривожлантириш учун фойдаланадилар.

Етакчилик - бу доимий ривожланиш ва малакани оширишни талаб қиладиган динамик сифат. Ёш талабалар учун етакчилик қобилиятларини ривожлантириш уларнинг келажакдаги муваффақиятлари учун жуда муҳимдир. Бироқ, етакчиликни ўргатишнинг анъанавий усуллари ҳар доим ҳам ёш талабалар учун самарали бўлмаслиги мумкин. Ушбу мақолада биз ёш талабаларда етакчилик қобилиятлари ва малакаларини шакллантиришнинг илғор ва инновацион усуллари ўрганамиз.

Тажрибали таълим усули: Тажрибали ўрганиш - бу етакчилик қобилиятлари ва малакаларини ўргатишнинг тасдиқланган усули. Бу ёш талабаларга амалий тажриба орқали ўрганиш имкониятини беришни ўз ичига олади, уларда реал вазиятларда қўлланилиши мумкин бўлган амалий кўникма ва билимларни ривожлантиришга имкон беради.

Эҳтиёткорлик ва ҳиссий интеллект бўйича тренинг усули: Эҳтиёткорлик ва ҳиссий интеллект бўйича тренинглари ёш талаба ва ўқувчиларга ўз-ўзини англаш, эмпатия ва самарали мулоқот қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради. Ушбу кўникмалар самарали етакчилик учун жуда муҳимдир, чунки улар раҳбарларга ўз жамоа аъзолари билан боғланиш ва уларнинг нуқтаи назари ва эҳтиёжларини тушуниш имконини беради.

Гамификация усули: Гамификация етакчилик қобилиятлари ва малакаларини ўргатиш учун ўйин элементлари ва механикадан фойдаланишни ўз ичига олади. Бу усул ёш ўқувчилар учун самарали бўлиши мумкин, чунки у ўрганишни қизиқарли ва самарали қилади

Шахсийлаштирилган таълим усули: Шахсийлаштирилган таълим ўрганиш тажрибасини индивидуал талабаларнинг эҳтиёжлари ва манфаатларига мослаштиришни ўз ичига олади. Ушбу усулдан фойдаланган ҳолда, ўқитувчилар ёшларнинг етакчилик қобилиятлари ва малакаларини мазмунли ва уларга мос келадиган тарзда ривожлантиришга ёрдам беришлари мумкин.

Етакчилик симуляциялари усули: Етакчилик симуляциялари ёш талабаларга хавфсиз ва бошқариладиган муҳитда ўзларининг етакчилик қобилиятлари ва малакаларини қўллаш имконини берувчи реал сценарийларни яратишни ўз ичига олади. Бу усул ёшларда танқидий фикрлаш, қарор қабул қилиш ва муаммоларни ҳал қилиш кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам беради.

Ёш талабаларда етакчилик кўникма ва малакаларини шакллантиришнинг ушбу илғор ва инновацион усуллари самаралидир, чунки улар ёшларга амалий кўникма ва билимларни шакллантириш имконини берувчи шахсийлаштирилган ва қизиқарли ўқув тажрибаларини тақдим этади. Тажрибали ўрганиш, зеҳн ва ҳиссий интеллектни ўргатиш, ўйинлаштириш, шахсийлаштирилган ўрганиш ва етакчилик симуляцияларидан фойдаланиш орқали талабаларга келажакда самарали етакчи бўлишлари учун зарур бўлган кўникма ва малакаларни ривожлантиришга ёрдам бериши мумкин.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, талаба ёшларга таълим муассасаларида ижтимоий-гуманитар фанларни чуқур ўқитиш орқали ёш талабаларимизда етакчилик кўникма ва малакаларини шакллантириш уларнинг келажакдаги муваффақиятлари учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бироқ, етакчиликни ўргатишнинг анъанавий усуллари ҳар доим ҳам самарали бўлмаслиги мумкин, айниқса ёш талабалар учун. Тажрибали ўрганиш, зеҳнлилик ва ҳиссий интеллектни ўргатиш, ўйинлаштириш, шахсийлаштирилган таълим ва етакчилик симуляцияси каби илғор ва инновацион усуллардан фойдаланган ҳолда профессор-ўқитувчилар ёш талабаларга самарали лидер ва етакчи бўлиш учун зарур бўлган кўникма ва малакаларни ривожлантиришга ёрдам бериши мумкин. Шундай қилиб, бугунги кун талаба-ёшларини таълим муассасаларда ҳамда ёшларнинг қизиқиши асосида шаклланган интеллектуал жамоаларда, ёшлар ўзларини эркин ҳис қиладиган жамоаларида ва ундан ташқарида ижобий таъсир кўрсатиш орқали келажак авлод раҳбарларини тайёрлашимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/O'zbekiston-Prezidenti-Shavkat-Mirziyoyev-BMT-Bosh-Assambleyasining-72sessiyasida-nutq-so'zladi.html>
2. <https://xs.uz/uzkr/post/yoshlar-ta'lim-tarbiyasi-eng-ustuvor-vazifa>
3. 140-сон 2018 йил 23 февраль . Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида (lex.uz)

Yosh kadrlarni tayyorlash va kadrlar zaxirasini shakllantirish usullari

Ozoda ABDUG'AFFAROVA
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi,
ilmiy izlanuvchisi*

Abdusattar ABDUG'AFFAROV
*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
texnika fanlari nomzodi, dotsent*

Ayrim sohalarda lavozimga tayinlangan rahbarlarning ishni talab darajasida olib keta olmayotganligi, tashkilot faoliyatini strategik maqsadlar asosida tashkil qila olmayotganligi, qolaversa, jamoada o'z atrofiga kompetent kadrlarni jamlab ola bilmayotganligi kabi qator kamchiliklar sababli rahbarni yana almashtirish zarurati kelib chiqayotganligi holatlarining negizi kadrlar zaxirasini tayyorlash va shakllantirish masalasiga borib taqaladi. Chunki hech qachon biron bir soha bo'yicha mutaxassis, u qanchalik kuchli mutaxassis bo'lmasin, o'z-o'zidan rahbar bo'lib shakllanmaydi. Buni uzoq yillik jahon tajribasi isbotlab bergan va dunyoning rivojlangan va rivojlanib borayotgan barcha mamlakatlarida kadrlar, eng avvalo, rahbar kadrlar zaxirasi bilan ishlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda, bu masala bo'yicha ilmiy asoslangan tizimlar yaratilgan, amaliyotga tatbiq etilgan va bu tizimlar hayotda sodir bo'ladigan o'zgarishlar va tendensiyalarni oldindan prognoz qilish yo'nalishida takomillashtirib borilmoqda.

Kadrlar siyosatidagi mavjud bunday holat kadrlar zaxirasini shakllantirish va zaxira bilan ishlash masalasiga ilmiy nazariy jihatdan yondashish butun dunyo mamlakatlari qatorida bizning mamlakatimizda ham juda dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Chunki kadrlar zaxirasini shakllantirish, ular bilan tizimli ishlash, zaxiradagi kadrlardan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanish, rahbar kadrlarni lavozimda o'sib borish mexanizmi va texnologiyasini to'g'ri qo'llashga o'rganish orqaligina kadrlar siyosatini samarali tashkil etish va pirovard natijada jamiyatimizning umumiy rivojiga erishish mumkin bo'ladi.

Fanda nazariy asoslar deganda tadqiq etilayotgan jarayonlar yoki hodisalarning mazmunini, qonuniyatlarini, amal qilish omillari va sharoitlarini, va shuningdek, boshqaruvning mexanizmlari, tamoyillari, metodlari, vositalari va asosiy funksiyalarini ochib beruvchi isbotini topgan

ilmiy qoidalar tushuniladi. Kadrlar zaxirasi bilan bog'liq masalalarni asosiy ikkita: "zaxira" va "kadrlar" tushunchalari aks ettiradi. Zaxira (lot. Reservare - ehtiyot qilmoq, saqlamoq) so'zi: 1) yangi vositalar, kuchlar hosil qilinadigan, to'planadigan manba; 2) nimanidir zarurat holati uchun saqlab qo'yiladigan xazinasi; 3) ma'lum bir vaqtgacha saqlab turiladigan va jang vaziyatidagi o'zgarishlarga bog'liq ravishda harakatga kiritiladigan qo'shinlar qismi; 4) safarbarlikka binoan armiyaga chaqiriladigan harbiy xizmat yoshidagi tarkib mazmunini bildiradi. "Kadrlar zaxirasi" tushunchasi asosan boshqaruv faoliyati amaliyotini ochib beradigan Rossiya ilmiy va maxsus adabiyotida qo'llaniladi. Xorijiy mualliflar bu atamani deyarli qo'llamaydilar, faqat uning sinonimlarini ishlatadilar.

Misol uchun, R.U.Mondi, R.M.Nou, X.T.Grexem, R.Bennettlar kadrlar zaxirasini "izchillikning rivojlanishi, ichkaridan martabasi oshishi" bilan, M.Amstrong, A.Mamfrod, D.Gold "boshqaruv tizimi rahbarligining (succession management system) izchilligi" bilan, U.S.Bayxem, O.B.Smit, M.D.Pizi "guruhviy tezlashtirilgan rivojlanish" bilan aynan bir xil tarzda qaraydilar. Tadqiqotchilar fikrlarining, shuningdek, "kadrlar" va "zaxira" atamalarining normativ huquqiy aktlarda biriktirib qo'yilgan mazmuniy yuklamasining tahlili "kadrlar zaxirasi" tushunchasining mazmunida qarama-qarshiliklar borligini e'tirof etish imkonini beradi. Shu sababli biz T.A.Shavirina tomonidan amalga oshirilgan "kadrlar zaxirasi" atamasining barcha ta'riflarini umumlashtirish va unda qator asosiy xarakteristikalarni ajratib ko'rsatishga oid ilmiy pozitsiyaga qo'shilmiz va bu quyidagilardan iborat: 1. Kadrlarni tanlash va undan keyin joy-joyiga qo'yish onda-sonda bo'ladigan emas, balki tizimli xarakterga ega, chunki shaxsiy tarkibni yangilash jarayoni doimiy bo'lib turadi (bu obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq: shtatlar miqdorining oshishi yoki qisqarishi, xizmat lavozimida o'rinlar o'zgarishlari, boshqa bo'linmalarga o'tkazish, ishdan bo'shatish) va har kuni amalga oshadi. 2. Zaxira bilan ishlash kompleks bo'lib, u ham tashkilotning xodimlarga bo'lgan ehtiyojini baholash va kadrlarga taalluqli vaziyatning tahlili bilan, xuddi shunday har bir alohida xodimning lavozimda o'sishini rejalashtirish bilan chambarchas bog'liq. 3. Rahbarlik lavozimlariga zaxiraga ko'rsatilayotgan xodimlar rejalashtirilayotgan lavozim tomonidan qo'yiladigan talablarga javob beradigan ma'lum bir qobiliyatlar va sifatlarga ega bo'lishi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishning psixologik-pedagogik tamoyillarini tahlil qilish bizga barcha tamoyillarni quyidagi 3ta guruhga jamlash imkonini berdi: 1) shaxs rivojlanishining bazaviy tamoyillari; 2) rivojlantiruvchi va

ta'lim beruvchi ta'sir ko'rsatish tamoyillari; 3) kompleks tizimli yondashuv tamoyillari.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishda umumiy tamoyillar quyidagilar: 1) tashkilotning har bir xodimi uchun lavozimda o'sishda ochiqlik va barchaga teng huquqlik; 2) nomzodlarni tanlashda va ularni kadrlar zaxirasiga kiritishda obyektivlik; 3) nomzodlarning professionalizmi va kompetentligi; 4) kasbiy o'sishda xodimlar imkoniyatlarining tengligi; 5) xizmat lavozimida o'sish istiqboliga ega xodimlarni motivatsiyalash; 6) kadrlar zaxirasiga kiritish va unda bo'lishning ixtiyoriyligi.

Rahbarlikka kadrlar zaxirasini shakllantirishning asosiy maqsadlari qilib quyidagilar belgilanadi: 1) rahbarlik lavozimlarini to'ldirishga bo'lgan kundalik va istiqboldagi ehtiyojlarni ta'minlash; 2) kompaniya(tashkilot)ning rahbarlik lavozimlarni to'ldirishga bo'lgan ehtiyojlarni o'z vaqtida qondirish uchun kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish faoliyatini takomillashtirish; 3) tashkilot xodimlarining sifat tarkibini yaxshilash; 4) tashkilotning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida qondirish.

Mutaxassislar va boshqa xodimlar kadrlar zaxirasi bilan ishlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: 1) tashkilot xodimlarining kasbiy o'sishga bo'lgan motivatsiyasi darajasini oshirish; 2) xodimlarning kasbiy faoliyati natijalarini yaxshilash; 3) xodimlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish; 4) xodimlar kasbga kirishganda ularning moslashuvi davrini qisqartirish.

Muammoni tahliliy nuqtai nazardan o'rganish orqali olingan natijalar ko'rsatishicha, kadrlar zaxirasini shakllantirish ishiga ilmiylik, tizimlilik, amaliyotga yo'nalganlik tamoyillari orqali yondashish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin. Bu tizim kadrlar zaxirasi tushunchasiga aniqlik kiritishni, masalaga metodologik jihatdan yondashuvni, masalaning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil qilishni, zaxira bilan ishlashning aniq maqsadlarini belgilab olishni o'z ichiga olgandagina kadrlar zaxirasini shakllantirish va u bilan ishlash jarayonida adashishlar va xatoliklar oldi olingan bo'ladi. Ilmiy asosli yondashuv o'z natijadorligi bilan kadrlar bilan bevosita ishlayotgan mutaxassis va mas'ul shaxslar uchun ham kadrlar bilan, ayniqsa rahbar kadrlar bilan ishlashda to'g'ri yo'nalish beruvchi mayoq vazifasini bajarishi aniq va ravshandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amstrong M. Inson resurslarini boshqarish amaliyoti / M. Amstrong. Per. ingliz tilidan. S.K. Mordovin. -Sankt-Peterburg: «Peter», 2014. b. 524.

2. Byham W.S. Rahbaringizni ko'taring. Qanday qilib iqtidorli yetakchilarni topish, rivojlantirish va saqlab qolish mumkin / U.S. Byham, O.B. Smit, M.D. Pisi. Per. ingliz tilidan. -M.: ID «Uilyams», 2012. b. 45.

3. Bulyko A.N. Xorijiy so'zlarning katta lug'ati. 35 ming so'z. Ed. 2, rev. - M.: "Martin", 2018. b. 493.

4. Galanin O.A. Ma'muriy islohot talablaridan kelib chiqqan holda Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar organlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlash uchun zaxira bilan ishlashni tashkil etish: muallif. diss. qonuniy Fanlar. -M.: 2010. P.12.

5. Graham H.T. Inson resurslarini boshqarish / X.T. Graham, R. Bennett. Per. ingliz tilidan. ed. T.Yu. Bazarov va B.N. Eremin. -M.: UNITI-DANA, 2013. b. 353.

Developing young professionals' soft skills: The global relevance

Nargizakhon VALIEVA

Student of the 3rd English faculty, UzSWLU

Zafar ABDUSAMADOV

PhD in Philology,

Associate Professor of General Linguistics Department,

UzSWLU (Scientific advisor)

Abstract. This article explores the development of young professionals' soft skills, and investigates international trends and cultural contexts. Soft skills are essential personal attributes and interpersonal competencies that contribute to professional success. The study examines the changing nature of work, the demand for specific soft skills, and the role of education, vocational training, mentorship, and continuous learning.

Keywords: soft skills, young professionals, professional development, teamwork.

At the moment, special attention is paid to preparing young personnel for future professions by the head of our state, which can be reflected in the resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan «On measures to create a center for training young students for future professions in the system of the Ministry of Public Education». In today's rapidly evolving and interconnected global workforce, the significance of soft skills in shaping the success and employability of young professionals cannot be overstated. As technological advancements reshape the nature of work, employers are increasingly recognizing the value of soft skills in fostering effective collaboration, problem-solving, adaptability, and leadership. However, the development and application of soft skills are influenced by a multitude of factors, including international trends and cultural contexts.

This article aims to explore the importance of developing soft skills in young professionals, delving into international trends and examining the influence of cultural contexts on the acquisition and application of these skills. By understanding the global landscape and cultural nuances, policymakers, educators, and employers can implement targeted strategies to enhance the soft skills of young professionals, promoting their personal growth, employability, and long-term career success.

Soft skills are a set of personal attributes, communication abilities, and interpersonal competencies that are crucial for success in the professional

arena. They encompass a wide range of skills that can be categorized into different domains, including communication, teamwork, adaptability, problem-solving, leadership, emotional intelligence, critical thinking, and time management . Effective communication skills enable professionals to articulate ideas clearly, listen actively, and engage in meaningful interactions with colleagues, clients, and stakeholders. Teamwork skills foster collaboration, cooperation, and the ability to work harmoniously within diverse teams. Adaptability skills empower individuals to navigate change, embrace new technologies, and thrive in dynamic work environments. Problem-solving skills equip professionals with the ability to analyze complex issues, generate innovative solutions, and make informed decisions. Leadership skills enable individuals to inspire and motivate others, drive initiatives, and create a positive work culture. Emotional intelligence skills, including self-awareness and empathy, contribute to building strong relationships and effectively managing interpersonal dynamics. Critical thinking skills promote logical reasoning, creativity, and the ability to evaluate and solve complex problems. Finally, time management skills ensure efficient task prioritization, organization, and the ability to meet deadlines. Each of these domains plays a vital role in the professional context, contributing to individuals' overall effectiveness, collaboration, and success in their careers. By developing and honing these soft skills, young professionals can enhance their employability and thrive in today's global and diverse workforce .

The global relevance of soft skills in the contemporary work landscape is increasingly prominent due to the changing nature of work and the growing recognition of their importance. As automation and artificial intelligence continue to reshape job roles, there is a heightened need for individuals to possess a strong foundation of soft skills that complement technical expertise. International trends reveal a shift in the demands of the workforce, with a greater emphasis on soft skills such as communication, adaptability, emotional intelligence, and collaboration. Employers across industries and geographical boundaries seek professionals who can effectively navigate diverse teams, communicate with clarity and cultural sensitivity, and adapt to evolving technologies and market demands . The impact of soft skills on employability and career advancement is substantial, as these skills contribute to improved teamwork, problem-solving, and leadership abilities. Professionals who possess well-developed soft skills not only excel in their current roles but also demonstrate the potential for growth and progression, opening doors to new opportunities and enhanced career trajectories. In a

globally interconnected job market, the possession and continuous development of soft skills can significantly enhance individuals' employability and competitiveness, allowing them to thrive in diverse cultural and professional contexts .

Several strategies can be implemented to effectively develop soft skills in young professionals. Educational institutions play a crucial role in fostering soft skills development by integrating them into their curriculum. By incorporating activities that promote communication, teamwork, critical thinking, and problem-solving, educational institutions can provide a foundation for young professionals to develop and enhance their soft skills. Additionally, vocational training programs and experiential learning initiatives offer practical experiences and real-world challenges that allow individuals to apply and refine their soft skills in professional settings. These programs often simulate workplace scenarios, providing young professionals with opportunities to collaborate, adapt, and communicate effectively . Mentorship and coaching programs are also instrumental in soft skills development, as they provide guidance, support, and feedback to individuals as they navigate their careers. The continuous learning aspect is essential for maintaining and improving soft skills throughout one's professional journey. Young professionals should actively engage in ongoing professional development, attend workshops, seminars, and industry conferences to stay updated with the latest trends and practices. Best practices and successful case studies of soft skills development programs can serve as valuable references for organizations and individuals seeking to enhance their soft skills. By analyzing and implementing successful approaches, organizations can tailor programs that align with their specific cultural contexts and workforce requirements, ensuring effective soft skills development in young professionals.

In conclusion, this article has explored the development of soft skills in young professionals, considering the global relevance. The key findings indicate that soft skills play a critical role in the success and employability of young professionals in today's evolving workforce. The domains of soft skills, including communication, teamwork, adaptability, problem-solving, leadership, emotional intelligence, critical thinking, and time management, are universally important in the professional context. The research has highlighted the changing nature of work and the growing demand for specific soft skills globally, necessitating their integration into education and training programs. Developing soft skills in young professionals, we can better prepare

individuals to thrive in a globally connected and diverse professional landscape.

References

1. Adams, M. (2017). Soft Skills Training in the Workplace. *International Journal of Humanities and Social Science*, 7(10), 1-8.
2. Alipour, F., & Hafezimehr, N. (2018). Developing Soft Skills for the Global Workplace: A Systematic Review. *European Journal of Training and Development Studies*, 1(1), 1-9.
3. Chaudhary, R., & Chauhan, N. (2018). The Role of Soft Skills in Employability: A Review. *International Journal of Research in Engineering, Science and Management*, 1(1), 75-81.
4. Choudhary, A., & Pathak, R. D. (2019). Developing Soft Skills for Enhancing Employability of Engineering Graduates: A Literature Review. *International Journal of Applied Engineering Research*, 14(2), 260-265.

Yoshlar kasbiy raqobatbardoshligini oshirishga doir sotsiologik yondashuvlar

Nilufar NAZAROVA

*Toshkent davlat transport universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

Yoshlarni mamlakatimiz kelajagi, ijtimoiy taraqqiyot davomchilari sifatida tadqiq etish va ular bilan bog'liq masalalarni o'rganish Yangi O'zbekistonda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlanishicha, «Jamiyatni taraqqiy ettirish, fan-texnika va texnologiya taraqqiyoti sur'atlarini jadallashtirish, mamlakat hayotini takomillashtirish zamirida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash mujassamki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning yuksak bilim darajasiga ega bo'lishlarini ta'minlash bilan birga XXI asrda turgan murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal etishdek jiddiy mas'uliyat yuklaydi»[6. 78-80].

Yoshlar raqobatbardoshlik sifatlariga doir zamonaviy sotsiologik yondashuvlar haqida munosabat bildirganimizda, mazkur mavzu bo'yicha nafaqat sotsiolog olim va tadqiqotchilar balki, iqtisodchilar, menejment vakillari, psixolog va pedagog olimlar tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganilganligini kuzatishimiz mumkin. «Raqobat» konseptining sotsiologik o'ziga xosligi shundaki, bunda V.V.Radayev yozishicha, «bir-biriga bog'liq bo'lmagan va mustaqil ishtirokchilar o'rtasidagi raqobat sifatida emas, balki boshqa bozor ishtirokchilariga qaratilgan ijtimoiy harakat sifatida tushuniladi»[7. 16-25]. Shunga ko'ra, raqobatbardoshlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati raqobatchiga nisbatan yuqori natijalarga erishishdir.

Sotsiologik talqin doirasida, raqobat jarayonida agentlar, ijtimoiy aloqalarga kirishadilar va raqobat jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashga ko'maklashishi bilan birga, shaxs tomonidan bilim va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishga va shaxsning bunday aloqalarga tayyor bo'lishiga ham ta'sir qiladi. Tadqiqotchi D.N.Gerasimchukning yozishicha, samarali raqobat strategiyasining eng muhim elementi ijtimoiy tarmoqlardir. «Agar shaxs ko'p sonli ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etish shaklida kuchli qo'llab-quvvatlansa, u turli manbalardan ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi va natijada esa yanada raqobatbardoshlik sifatleri ortadi»[4. 50]. Tadqiqotchi bunda, raqobatbardoshlikni oshirishda axborot omiliga e'tibor qaratadi. Negaki, axborotlashuv jarayoni taraqqiyot tendensiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, jarayonlar sur'atining

tezlashuviga ham sabab bo'layotganligini inobatga olish lozim. Shu bilan birga mehnat bozorida muvaffaqiyatli agentlar, ma'lum insoniy (ta'lim, ko'nikma va qobiliyatlar) va ijtimoiy kapitalga ega bo'lgan shaxslardir. Inson va ijtimoiy kapitalga investitsiyalar shaxsiy raqobatbardoshlikni oshirishning eng foydali strategiyasidir. Bu borada professor M.Bekmurodov yozishicha, «agar dunyoda insonning 3 yoshidan 22 yoshigacha bo'lgan davrida unga kiritilgan investitsiya 19-22 marta foyda keltirsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 4 marta foyda berishi kuzatilmoqda»[3. 22-25]. Demak, yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishdan nafaqat yosh mutaxassis kadrlarning o'zi balki, butun bir jamiyat va qolaversa davlat manfaatdordir. Shu bois professor T.U.Abdullayev yoshlarning raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish jarayonining murakkab ekanligini nazarda tutib, «Bu jarayon bir tekisda kechmaydi, chunki yoshlar bilimi va saviyasi turli darajada namoyon bo'ladi. Shuning uchun fanning vazifalaridan biri – hayot tajribasi bilan birga yoshlar bilimini va bilish qobiliyatini oshirib borishdir»[1. 5-7] deya masalaga funksional tarzda yondashdiki, bizningcha bu jarayonda ijtimoiy omillar rolini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi. Yoshlardagi raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishda baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi G.Z.Yefimova fikricha, «raqobatdoshlik darajasi «ijtimoiy qatlamga mansublik», «hayotdan umumiy qoniqish», «sog'lig'ini qadrlash», «sog'lom turmush tarziga intilish» kabi ijtimoiy omillarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, bunda ta'lim-tarbiya muhim o'rin egallashini qayd etadi»[5. 97]. Demak, raqobatbardoshlikning yuqori darajasini ta'minlash uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va shaxsning hayot sifatiga investitsiyalar tikish kabi omillar ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Tor talqinda raqobatbardoshlik ko'pincha yoshlarning mehnat bozori talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi, bu unga ma'lum bo'sh ish o'rinlariga ariza berish imkonini beradi. Biroq, ba'zi mualliflar shaxsiy raqobatbardoshlik va martaba (karyera) raqobatbardoshligini farqli jihatlarini ajratib ko'rsatishgan. Shaxsiy raqobatbardoshlikka ko'pincha maishiy-ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyat sifatida qaralsa, martaba (karyera) raqobatbardoshligiga esa kasbiy muvaffaqiyatga erishish sifatida qaralishini ko'rsatishgan[2. 468]. Garchi bu ikkala raqobatbardoshlik turi sinonimi sifatida ishlatilsada, ammo bu turli xil konseptlar ekanligini ko'rsatuvchi ilmiy izlanishlar ham mavjud[8. 146-152].

Yuqorida keltirilgan nazariy manbalarining qiyosiy tahlili asosida quyidagi xulosalarni ilgari surishimiz mumkin:

1. Sotsiologik nuqtai nazardan yoshlar raqobatbardoshligining asosiy parametrlari ishlab chiqilgan, raqobatbardoshlikning ijtimoiy-psixologik hamda siyosiy-psixologik talqini amalga oshirilgan, yoshlar raqobatbardoshlik sifatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi sotsial omillar aniqlanib, ular ichida hayotdan qoniqish darajasi dinamik xarakterga egaligi asoslangan.

2. Yoshlar raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi sotsiopsixologik omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarda raqobatda sinmaslik uchun doimiy ravishda o'qib o'rganish, yangilikka intilish, o'z kasbiy faoliyatiga innovatsion texnologiyalarini joriy eta olishi ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun esa oliy ta'lim tizimi o'quv rejalariga «Raqobat sotsiologiyasi», «Raqobat psixologiyasi», «Raqobatbardoshlik strategiyasi va taktikasi» nomli o'quv kurslari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimiga «Raqobatbardoshlik ko'nikmalarini shakllantirishning metodologik asoslar» nomli modulni kiritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев Т.У. Ёшлар фаоллигини ўсиб боришида фалсафанинг ўрни. / Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини жамиятга тадбиқ қилишда фалсафа фанининг ўрни ва аҳамияти. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – Б. 5-7.

2. Андреев В.И. Конкурентология. - Казань: Центр инновационных технологий, 2013. - 468 с.

3. Бекмуродов М. Ижтимоий ривожланиш жараёнларининг социологик асослари. /Ахборотлашган жамиятда замонавий социологиянинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ЎЗМУ, 2019. -Б. 22-25.

4. Герасимчук Д. Н. Социальный капитал как фактор конкуренции субъектов регионального рынка труда. / Дис. ... канд. социол. наук. - Южно-Сахалинск, 2015. - С. 50.

5. Ефимова Г. З. Конкурентоориентированность и конкурентоспособность в оценке студенческой молодежи. //Образование и наука. Том 19, № 7. 2017 /The Education and Science Journal. Vol. 19, № 7. 2017. -С. 97.

6. Исақова З.Р. Миллий ва умуминсоний қадриятлар-ёшлар маънавий камолотининг муҳим омили. Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини жамиятга тадбиқ қилишда фалсафа фанининг ўрни ва аҳамияти. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – Б. 78-80.

Arts and culture management (management arts) scientific approaches and its modern classification

Odiljon TOPILDIYEV
*Head of the Department
of Cultural Studies of NamSU,
Candidate of History, Associate Professor*

Jakhongir MAKHMUDOV
Student of Namangan State University

Abstract. Practical management methods used in art management learning, summarizing, drawing conclusions. Achievements of creativity in art management Adaptation to the conditions of Uzbekistan, new technological mechanisms of management based on study, the activities of all art institutions in our Republic are correct develop recommendations to help manage. The chosen topic is theoretical although it is devoted to problems; it is only a theory during the writing of the article not to be limited to, but also serious about the practical importance of the issue attention was paid. Because the goal of any theoretical idea is to improve the practical situation, is to increase the level of the achieved result in terms of quality. This research best practices and recommendations of the field of art management were widely used.

Key words: art, culture, management, scientific approach.

The first President of the Republic of Uzbekistan I.A. Karimov and the President the ideas and thoughts put forward in the works of Sh. Mirziyoyev, as well as the scientific literature within the scope of the topic, serve as a theoretical basis for the wide coverage of the topic. Management and marketing of the field of art and culture theoretical generalization of the achieved scientific achievements, its most advanced methods and methodologies creative learning, modern in the perspective of the art and culture of Uzbekistan using art management recommendations. This work is primarily culture and art for employees, cultural and artistic institutions for, theoretical importance for specialists of culture and sports system earns. Research conclusions, as well as art institutions, theaters, museums, also theoretical in the activity of recreation parks, exhibitions, concert-tour associations can be applied. In addition, with art management, with the art market that our work becomes of practical importance for practicing art managers we hope The management of art and culture in our country is different classes of population educating its representatives in artistic, aesthetic, moral, socio-political directions, organization of spiritual and creative activity of people, a well-rounded person it has a great place and role

in its formation. Changes in the field of culture and art, in particular, culture and recreation centers, palaces of culture and art, museums, culture and recreation parks, neighborhood events, information resources centers, libraries, art galleries. During the time of the former Soviets, this activity was carried out under the name of cultural education. The main content of the work is the ideology of the totalitarian system of the population through artistic means served to reach the lower layers. The club of that time People hardly enter the institutions, organized in the name of artistic amateur creativity were killed.

The doors of libraries in rural areas are locked. The number of books in them does not exceed 3-5 thousand, and they are mostly political literature consisted of Management is an English word, given in the Oxford English Dictionary by definition it is:

- Management authority and art;
- Exceptional resource management and administrative skills understood.

Culture and art management is in culture and art institutions means managing processes and personnel.

The history of culture and art is ancient. Its roots are the first of mankind goes back to the period of associations. The first forms of association in scientific literature are stone, It is interpreted that it was formed during the bronze and iron ages. People in this period cultural socialization, ensuring life, determining its stable duration arose out of necessity. People to provide material aspects of life hunting, fishing, planting crops, attracting the opposite sex who learned to achieve it in various games and exercises. Teaching is continuous, continued continuously. Continuity and continuity of teaching is a separate field of education caused its formation as Therefore, the activities of the cultural sphere of education can be said to be the basis.

The concept of «manager» is as follows in the National Encyclopedia of Uzbekistan explained:

«Manager» (English - manager):

1. Non-owners of enterprises and companies, who have received special training, a qualified specialist who knows the rules of management, hired manager;

2. Company, firm, enterprise, bank, finance in developed countries a manager, director, leader who has executive power of institutions, director, administrative manager, executive employee;

3. Issuance of bonds and their transfer on the capital market leading participant of bank syndicate groups dealing with.

There are two ways to talk about culture and art management. Firstly, in a broad sense, a person as a social reality, styles of human living conditions thoughts about the system of social events and not related to socialization: culture and art represent the material and spiritual environment, human formation and makes it possible to rise. Secondly, in a narrow sense, it is clear in the life of society thoughts about the circle: (circle of culture and art). Preservation of cultural and historical heritage and covers their use (museum, library, archival works, national and local traditions, holidays, etc.). Art education and children's creativity, art, creative (harmonious to artistic) activity, concert activity, entertainment in free time organization of work, hobby, ethnographic arts and crafts, as well as them providing activities (cultural economy, financing, management, information, vocational training and retraining). Within culture activities of various official agencies (state, municipal, private, public organizations and etc.) are also carried out by some people. After that, theirs all are called firms for short.

The current globalization process also affects the labor mentality. «Later, the term «organizational culture» was introduced into scientific circulation. M. Bekmurodov, a well-known sociologist who is conducting research on this issue in his opinion, the organization represents not only the business nature of the cultural institution, rather, the culture characteristic of the organization is reflected in the behavior of each employee means that a person's character will rise to the level of motive. Organization culture is not mastered by employees on their own, but on a planned basis it is consistently instilled into the minds and psyches of experts.»

In conclusion, the study of the research conducted by the above scientists, art management and development of art, formation and support of art plays an important role in supporting and freedom in all areas of the cultural sector, helps to achieve freedom and equality. Art policy and management your understanding of art and the principles, methods and principles of art serves to deepen.

References

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. -Tashkent: Uzbekistan, 2016.

2. Actions on further development of the Republic of Uzbekistan strategy» collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan. -2017 year.

3. «Culture and creating conditions for the development of public-private partnership in the field of art Resolution No. PQ-3892 of October 16, 2017, PQ 3325-number.

4. Decision of the President of the Republic of Uzbekistan Republic of Uzbekistan Fund for the development of culture and art under the Ministry of Culture on establishment, August 1, 2018, No. PQ-3892.

Ta'lim tizimida samaradorlikni oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'рни va ahamiyati

Azizaxon NURIDDINOVA
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining o'рни, tarbiya masalasi, o'quvchilarga bilim berishda o'qituvchining vazifalari, rahbar mas'uliyati, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini shakllantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, rahbar, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, bilim, ko'nikma, malaka, subyekt, muomala madaniyat.

Ta'lim, tarbiya masalasi hamma zamonda dolzarb bo'lib kelgan. O'tmishda ham kishilar ta'lim olishgan, ta'lim berishgan. Bugun ham o'quv yurtlari, bilim maskanlari faoliyati jamiyatning diqqat markazida. O'ylaymanki, kelajakda ham ta'limga bo'lgan e'tibor kuchaysa, kuchayadiki, aslo kamaymaydi. Ta'limda, eng avvalo "ta'lim oluvchi"ni tilga olish to'g'riroq bo'lsa kerak. Agar ta'limga ehtiyoj bo'lmasa, uning keragi ham bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, ta'lim oluvchi bor ekan – ta'lim ham bo'ladi.

Ta'limda ishtirok etuvchi va o'z navbatida muhim subyektlardan biri bu – oila, ota-onadir. Endi, sizga ma'lumki, har qanday ish, har qanday loyiha ma'lum reja, qonun-qoida asosida amalga oshadi. Uning boshqaruvchisi bularni belgilab berib, borishini nazorat qiladi. Ta'limda ham bunday vazifani o'z bajaruvchisi bor. Ta'lim tizimini tashkil etib, isloh qilib, unda ishtirokchilar vakolatlari, huquq va majburiyatlarini belgilab, bu ishning borishini nazorat qiluvchi subyekt bu – Davlatdir. Davlat deyilganda Respublika Prezidenti, Oliy vakillik organlaridan boshlab to rektor, direktor va uning o'rinbosarlarigacha bo'lgan boshqaruv tizimi tushunilishi lozim. Chunki ular bu sohada Davlat nomidan ish ko'rishadi. Ushbu ro'yxatga shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va boshqalarni ham kiritishimiz mumkin. Ular ham o'z vakolat doirasidan kelib chiqqan holda ta'lim tizimida o'z o'rniga ega.

Maktab – bola ma'lum yoshga yetgach, uni o'z bag'riga olib, unga ta'lim-tarbiya beradigan maskan. Hozirda jamiyatimizda o'quvchi birinchi sinfdan o'n birinchi sinfgacha umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim –tarbiya oladi. Ya'ni o'quvchilar umrining o'n bir yilini shu dargohda o'tkazadi. Maktab pedagoglari esa o'quvchilarga o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim berishadi.

O'quvchilarning birgina vazifasi bor bo'lib, bu ham bo'lsa – ta'lim olish, mustahkam bilim egallash. Agar diqqat bilan nazar tashlasak, hozirgi kunda o'qituvchi – murabbiylarga alohida mas'uliyat yuklatilgan. Chunki, ta'limdan maqsad – barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash. Bu sohada tarbiyalanuvchi bilan eng ko'p muloqotda bo'ladigan shaxs bu – o'qituvchidir. O'qituvchi – qadimdan turli davlatlarda nafaqat oddiy aholi, balki davlat rahbarlari tomonidan hurmatlanib, ardoqlanib kelgan kasb egalari. Ularni turlicha atash mumkin: o'qituvchi, murabbiy, ustoz, mudarris, muallim va boshqalar.

O'quvchilar – o'qituvchining eng xolis, eng adolatli hakamlari. Ular bilan ikki-uch og'iz suhbatlashsangiz, har qanday o'qituvchi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lasiz. Yuqoridagi so'rov natijalari hamda shaxsan o'zimning kuzatuvlarim asosida o'qituvchilar quyidagilarga rioya etishlari lozim deb o'ylayman:

- bolalarni sevishi;
- o'z sohasini yetarlicha egallagan bo'lishi
- muomala madaniyatiga ega bo'lishi;
- shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatni aralashtirib yubormasligi;
- o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi;
- boshqalar(turli komissiya va tekshiruvchilar) uchun emas, balki O'zbekiston kelajagining taqdiri o'zini qo'lida ekanligini anglagan holda faqat va faqat barkamol avlodni tarbiyalash uchun mehnat qilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston kelajagi yosh avlod qo'lida! Shunday ekan bugun biz qanday ta'lim bersak, ertaga bizdan ta'lim olgan yosh avlod shunday hayot kechiradi. Shunday ekan, keling, bizga yuklatilgan sharafli vazifani dildan his etaylik, mas'uliyat bilan bajaraylik. Biz yashab turgan jamiyatning haqiqiy vatanparvar, madaniyatli, ma'naviyatli a'zolarini tarbiyalaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. // «Pedagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.
2. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. T-2006y.
3. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil

Pedagogical factors for the development of professional competence of students

Gozzal GUBENOVA

*Nukus State Pedagogical
Institute named after Ajiniyaz
Theory and history of pedagogy
1-year independent researcher*

Abstract. In this thesis, opinions and reflections are made on the pedagogical factors of the development of professional competence of students. The development of professional competence of students involves the acquisition of knowledge, skills and relationships necessary to become a competent and responsible specialist in their field. Teachers must clearly set learning goals for their courses and communicate them to their students. Academic goals must meet the professional standards of the field and help students develop relevant competencies.

Key words: Students, ethnicity, competence, development, pedagogical factors, methods, professional skills, relationships.

Actual assessments, such as Case Studies, simulations, or project-based assignments, are more closely related to actual work situations than traditional exams. These assessments help students develop professional skills and knowledge in Real-world conditions. Regular, timely, and constructive feedback is important to help students develop their professional skills. Feedback should be specific to educational goals and aimed at identifying areas of improvement.

Professional competence requires not only knowledge and skills. Students must also develop the ability to analyze complex problems, think critically, and develop evidence-based solutions. Teachers can promote critical thinking and problem solving by giving students the opportunity to engage in challenging questions and scenarios.

Effective communication is an important skill for professionals in all areas. Teachers can help students develop communication skills, including oral and written communication, and encourage them to engage in conversation and discussion. Moral and social responsibility is an important component of professional competence. Teachers can provide opportunities for students to reflect.

The development of professional competence in students is influenced by various pedagogical factors that play a significant role in their educational

journey. Here are some key factors that contribute to the development of professional competence:

- **Curriculum Design:** The design of the curriculum plays a crucial role in developing professional competence. A well-structured curriculum should include a balance between theoretical knowledge and practical application, providing students with opportunities to gain hands-on experience in their field of study.

- **Active Learning:** Active learning methods, such as problem-solving activities, case studies, group discussions, and project-based learning, promote the development of critical thinking, problem-solving skills, and practical application of knowledge. These approaches encourage students to engage actively in the learning process and develop their professional competence through real-life scenarios.

- **Competency-Based Education:** A competency-based approach focuses on defining specific learning outcomes and assessing students' mastery of those outcomes. By clearly articulating the required competencies for a particular profession or field, educators can align their teaching methods and assessments to help students develop the necessary skills and knowledge.

- **Practical Training and Internships:** Providing students with opportunities for practical training and internships in relevant professional settings enhances their understanding of real-world contexts and develops their practical skills. These experiences bridge the gap between theory and practice, allowing students to apply their knowledge and acquire industry-specific competencies.

- **Collaborative Learning:** Collaborative learning environments, such as group projects and teamwork, promote effective communication, interpersonal skills, and cooperation among students. These skills are essential for professional competence, as many professions require individuals to work effectively in teams and collaborate with colleagues.

- **Guidance and Mentoring:** Effective guidance and mentoring by experienced professionals in the field can significantly contribute to the development of students' professional competence. Mentors can provide valuable insights, advice, and support, helping students navigate their educational journey and gain a deeper understanding of their chosen profession.

- **Continuous Assessment and Feedback:** Regular assessment and timely feedback are vital for students to monitor their progress and identify

areas for improvement. Constructive feedback from educators and mentors helps students enhance their professional competence by highlighting their strengths and addressing any weaknesses.

- **Technology Integration:** Integrating relevant technologies into the learning process can enhance students' digital literacy and familiarize them with industry-specific tools and practices. Technological advancements in various fields have transformed professional practices, and equipping students with technological skills prepares them for future professional roles.

- **Professional Ethics and Values:** Emphasizing professional ethics, integrity, and values throughout the educational journey helps students develop a strong moral compass. Professional competence is not only about technical skills but also about ethical decision-making and responsible behavior in their chosen field.

- **Lifelong Learning:** Encouraging a mindset of lifelong learning is essential for the development of professional competence. Students should be motivated to stay updated with the latest advancements, research, and trends in their field, fostering a commitment to continuous self-improvement and professional growth.

By considering these pedagogical factors and integrating them into the educational process, educators can enhance the development of professional competence in students, preparing them for successful careers in their chosen fields.

Conclusion. Actual assessments, such as Case Studies, simulations, or project-based assignments, are more closely related to actual work situations than traditional exams. These assessments help students develop professional skills and knowledge in Real-world conditions. Regular, timely, and constructive feedback is important to help students develop their professional skills. Feedback should be specific to educational goals and aimed at identifying areas of improvement.

REFERENCES

1. Asqarov A. Some theoretical and scientific methodological foundations of ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. «History of Uzbekistan» magazine. 2002.
2. Holikov.A, pedagogical skill, T., 2021yil.
3. Munavvarov A.Q. Pedagogy. T., 2016.
4. Gaibullaev N., Khabirov R., Mamatqulova R., Toshmurodova Q., Pedagogical lecture text. T., 2016.

5. Shanyozov K. The process of formation of the Uzbek people. - Tashkent, 2001. P. 19
6. Yakubovsky A.Yu. About the issue of the emergence of the Uzbek, people. - Tashkent. 1941.
7. Khojaev A. Ethnonyms related to Turkic peoples in ancient Chinese sources. «Uzbekistan in the Middle Ages: history and culture». - Tashkent, 2003. Pp. 178-184.
8. Asqarov A. History, archaeology and Ethnology in the years of independence. Journal of Social Sciences in Uzbekistan. 1996.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'quv motivatsiyasi muammosining dolzarbligi va ilmiy o'rganilishi darajasi

O'tkirbek ARZIQULOV

Andijon davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarida o'quv motivatsiyasining namoyon bo'lishining aktual tomonlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, talaba, ta'lim, tibbiyot, o'quv motivatsiyasi, kasbiy motivatsiya, motiv, maqsad, ehtiyoj, kasbiy tayyorgarlik.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining yuqori bosqichi bo'lmish, oliy ta'lim tizimida bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil fikrga ega va yuksak saviyali kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir. Jumladan, tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga ko'rsatilayotgan e'tiborni tasdig'i sifatida 09.07.2020 yil holatiga kelib, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat tibbiyot oliygohlari soni 11 tani tashkil etilganligi e'tiborga molikdir. Ularda ko'plab bo'lg'usi shifokor o'g'il-qizlar ta'lim olyapti va ular bugungi Yangi O'zbekistonni qurishda o'zining bor kuchi hamda imkoniyatlarini safarbar qilgan holda, o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarida o'rtasida motivatsiyani o'rganishga qiziqish yuqori darajadagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu kasbni o'zlashtirishning murakkabligi bilan bog'liq muammolar ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida qayd etilganligi ahamiyatlidir.

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining bilim olishi tibbiyot va umuman sog'liqni saqlashni rivojlantirishning muhim bosqichlaridan biridir. Bo'lajak shifokorlar orasida eng yuqori motivatsiya klinik bo'limlarning yuqori kurslarida o'qiyotganda, talaba kelajakdagi kasbiga "yaqinroq" bo'lganda kuzatiladi. Bu borada talabalar o'quv faoliyatiga ta'sir qilayotgan muammolar ham mavjuddir. Ulardan biri sifatida past darajali o'quv motivatsiyasini misol qilishimiz mumkin.

Shu o'rinda, "motivatsiya" tushunchasining psixologik mohiyatiga to'xtalib o'tsak, to'g'ri bo'ladi. Psixologiyada inson xulq-atvoridagi qo'zg'atuvchi holatlarni tasvirlash va tushuntirish uchun qo'llaniladigan

tushunchalar orasida motivatsiya va motiv tushunchalari eng umumiy va asosiy bo'lib hisoblanadi.

«Motivatsiya» atamasi «motiv» atamasiga qaraganda kengroq tushunchaga ega. «Motivatsiya» - hozirgi zamon psixologiyasida xulq-atvorni determinatsiyalovchi omillardir. Bunga, xususan, ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, intilishlar va boshqa ko'pchilik tizimini belgilovchi va xulq-atvor faolligini ma'lum darajada tutib turuvchi, rag'batlantiruvchi jarayon xususiyati sifatida ikkilangan ma'noda qo'llaniladi. Biz motivatsiya tushunchasini birinchi ma'noda qo'llaymiz. Demak, motivatsiya inson xulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik xususiyatga ega bo'lgan sabablar yig'indisi sifatida belgilash mumkin.

Motivatsiya – ehtiyoj yoki istak, stimullashtirilgan va yo'naltirilgan xulq - atvordir. “Motivlar – insonni u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishga majbur etuvchi ichki turtki kuchi”dir. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar .

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmazlik kerak. Lekin tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining insonlar salomatligini tiklash yoki tibbiy jihatdan yordamni adekvat tashkil etish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishlariga majbur qilgan psixologik omillar - sabablar muhim bo'lib, bu sabablarni - faoliyat motivlari deb aytiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida birinchi o'rinda talabaga faqat ma'lum ko'nikma, bilim va malakalarni o'rgatish emas, balki ta'lim jarayonining natijasini aks ettiruvchi shaxsning xususiyatini va individualligini shakllantirish , shaxsning ehtiyojlari va motivlari tizimini ishlab chiqish zarur bo'lib, bu o'z navbatida ta'lim sifatining ko'rsatkichidir .

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalari kelgusi kasbiy faoliyatning motivatsiyasini shakllantirishga ilmiy yondashuvga binoan motivatsiyaning ichki salbiy ta'siri va ijobiy ta'siriga oid ma'lumotlar mavjudligi mazkur maqolada ko'rilayotgan mavzuning naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga kasbiy motivatsiyaning xususiyatlarini ochib beruvchi qarama-qarshi yondashuvlar ushbu yo'nalishda yangi tadqiqotlarni olib

borishni talab qiladi. Ya'ni, alohida jihati bo'lajak shifokorlarda talabalarning muvaffaqiyatiga qarab ichki va tashqi kasbiy motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muammosini dolzarblashtiradi.

Motivatsiyaning ichki turida faoliyat shaxsning o'zi uchun muhim bo'ladi. Tashqi kasbiy motivatsiyada faoliyatning mazmuniga nisbatan boshqa tashqi ehtiyojlarning qondirilishi istagini tushuniladi (ijtimoiy obro' - e'tibor, ish haqi va boshqalar), ular o'z navbatida: tashqi ijobiy va tashqi salbiy turlarga bo'linadi. Tashqi ijobiy motivlar, tashqi salbiy motivlarga qaraganda har tomonlama samaraliroq va istalgan bo'lishi shubhasizdir .

Bizga ma'lumki, talabalardagi o'quv motivatsiyasi yondosh tushunchalardan bo'lgan kasbiy motivatsiya bilan ham bog'liq bo'lib rivojlanadi. Ya'ni yuqori darajadagi o'quv motivatsiyasi o'z navbatida kasbiy motivatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi muammosi zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Buning bir misoli etib insoniyat umri va hayoti uchun ta'sirli bo'lgan koronavirus infeksiyasi bo'lgan Covid-19ning asoratlari bartaraf etishda tibbiyot sohasida raqobatbardosh yangi kasblar va mutaxassisliklarning paydo bo'lishi zarurati ko'rsatadi. Kasbning rivojlanish mantig'i shundaki, u boshlanishida odamlarning ma'lum bir talablaridan paydo bo'ladi. Keyin amaliy tajribani yig'ish va uni chuqur mulohaza qilish orqali amalga oshiriladi .

Psixologiyada shaxsning kasbiy motivatsiyasini o'rganish, birinchi navbatda, motivatsiya psixologiyasining umumiy nazariy yondashuvlariga asoslangan; ikkinchidan, kasbiy va mehnat faoliyati nazariyalarining konseptual asoslariga asoslangan.

Kasbiy motivatsiyani tushuntirishda xorij olimlari tomonidan quyidagi nazariyalar taqdim etilgan: F.Herzbergning ikki omil nazariyasi (1959); S.R.Alderferning ERG nazariyasi (1972); K.Levinning kutish nazariyasi (2001); A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi (2003); D.Mc.Clellandning orttirilgan ehtiyojlar nazariyasi (2007); D.Mc.Gregorning maqsadlarni belgilash nazariyasi (1985); V.H.Vroomning mehnat motivatsiyasining "paternalistik" konsepsiyasi(1964); J.S.Adamsning tenglik/adolat nazariyasi (1965) va boshqalar. Masalan, biogenetik nazariya namoyondasi Uilyam McDugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan o'z qarashini isbotlash uchun tug'ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog'lab tushuntirishga harakat qilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, kasbiy motivatsiyaning xorijiy nazariyalari aksariyat holda boshqarish psixologiyasiga mos ravishda ishlab chiqilgan

(Xekxauzen H.,2003; Kixler E., Roder K., 2003; Shults D., Shults S., 2003; Muchinski P., 2004; Nutten J., 2004; Ritchi Sh, Martin P., 2004), ya'ni, ularning ta'limotlari asosan subyekt tomonidan bevosita bajariladigan mehnat faoliyati va kasbiy majburiyatlarga tegishlidir.

Shaxsning kasbiy motivatsiya darajasiga bir nechta tashqi va ichki ijtimoiy – psixologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Oliy o'quv yurti talabalarida ham kasbiy motivatsiyaning turlicha bo'lishi ham aynan yuqoridagi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Ammo oliy o'quv yurtiga qabul qilingan va kasbiy motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan talabalarda keyinchalik, yuqori bosqichlarga o'tgan sari kasbiy motivatsiya darajasi birmuncha pasayish hollari uchraydi. .

A.K.Markova fikriga ko'ra, ta'lim motivatsiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) shaxsning hissiy namoyon bo'lishiga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantiruvchi motivlar;

2) umumiy bilimning va xususan, predmetning ahamiyatini tushunishga asoslangan o'quv faoliyatining istiqbolli motivatsion motivlari;

3) bilish jarayonining o'zidan qoniqishga asoslangan aqliy motivatsion motivlar .

E.Yu.Patyayeva ta'lim motivatsiyasi o'quv vaziyatlari asosida turlicha namoyon bo'lishini ajratadi: berilgan ta'lim uchun motivatsiya; spontan o'qitish motivatsiyasi; motivlar va his-tuyg'ular to'qnashuvi sharoitida qaror qabul qilish; o'z pozitsiyasini shakllantirish, uni asoslash va himoya qilish, turli pozitsiyalarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish, harakat qilish qobiliyatini o'z ichiga olgan o'z-o'zini o'zi belgilaydigan o'quv faoliyati uchun motivatsiya va boshqalar .

Oliy o'quv yurtlari talabalarining ta'lim motivatsiyasi muammosini qarasa, mazkur muammoning ko'p o'rganilgan jihatlari quyidagilardir: B.G.Ananiev, T.A.Matis, V.A.Yakunin va boshqalar talabalarining motivatsion sohasi tuzilishidagi aloqa motivatsiyasining o'rnini; M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, S.L.Kandibovich, L.F.Jeleznyak va boshqalar ta'lim samaradorligi va kelajakdagi kasb talablariga muvofiq ijtimoiy qadriyat motivlarini rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni; S.V.Bobrovitskaya, A.N.Pechnikov, G.A.Muxina, M.V.Vovchik-Blakitnaya va boshqalar universitet, institutlarga kirish motivlari va o'qish jarayonida motivlarning o'zgarishi dinamikasini; A.A.Rean, V.A.Yakunin, N.I.Meshkov va boshqalar talabalarining turli o'quv fanlariga munosabatini; I.R.Altunina, R.I.Tsvetkova, R.S.Nemov va boshqalar talabalarining xulq-atvoriga, o'quv kasbiy va kasbiy faoliyatiga ta'sir

etuvchi motivatsion omillar va mexanizmlarni; P.S.Vaysman, O.N.Arestov, P.R.Bibrich, M.G.Rogov va boshqalar o'quv jarayonida yutuq motivining rolini; S.A.Gaponova, E.P.Ilin va boshqalar kursantlarni tayyorlash jarayonini motivatsion qo'llab-quvvatlash masalalarini ilmiy tadqiq etganlar.

E.P.Ilinning ta'kidlashicha, Institutga kirish, ta'lim olish sabablarini aniqlash amaliy ahamiyatga ega, ya'ni – bu hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar bilan belgilanadi. Muallifning ta'kidlashicha, shunga qaramay, ijtimoiy-hayotning boshqa ko'rinishlarida o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan doimiy ravishda namoyon bo'ladigan motivlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Institutga kirishning asosiy motivlari: talaba yoshlar davrasida bo'lish istagi, kasbning katta ijtimoiy ahamiyati va uni qo'llash doirasining kengligi, kasbning qiziqish va mayllarga muvofiqligi, ijodiy imkoniyatlarini izlash.

E.P.Ilin bu borada qizlar va o'g'il bolalarda motivlarning ahamiyatidagi farqlarni ta'kidlaydi: qizlar ko'pincha kasbning katta ijtimoiy ahamiyatini, uni qo'llash doirasining kengligini, yirik shaharlarda va ilmiy markazlarda ishlash imkoniyatini, talabalarning badiiy havaskorlik faoliyatida ishtirok etish istagini va kasbning yaxshi moddiy ta'minlanganligini inobatga olishlari, lekin bizning mentalitetimizda qizlarga ko'proq kasb bo'yicha topiladigan ishning o'zi yashab turgan mintaqada ish topishning osonligi, qulayligi, yaxshi moddiy ta'minlanganligi, o'zi yashab turgan oilaning ijtimoiy muhitiga mos kelishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, yigitlar ko'pincha tanlangan kasbi ularning qiziqishlari va moyilliklariga, oilaviy an'analarga ham mos kelishi muhimdir.

M.V.Gamezo, E.A.Petrova, L.M.Orlovaning ta'kidlashicha, talabalarning o'qitish motivlari bevosita kasbiy tayyorgarlik sifati shakllanishiga ta'sir qiladi. Mualliflarning ba'zilariga mazmunli tavsif beradilar: shaxsiy obro'-e'tibor motivi, mavqeni saqlash va ko'tarish motivi, o'zini o'zi anglash motivi, o'zini o'zi anglash motivi, tasdiqlash, moddiy motivlar va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tibbiyot oliy o'quv yurti talabalari o'quv motivatsiyasi bo'yicha nazariy va amaliy o'rganishlar asosida hamda mutaxassislarning ta'riflariga asoslanib talabalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

1. Talabalar institutga nima uchun va nima sabab kirganliklarini imkon qadar erta tushunishlari, ushbu harakatning muhimligini anglab etishlari va yanada muvaffaqiyatli o'qishga harakat qilishlari uchun ularning o'quv faoliyatida pragmatik va rag'batlantiruvchi motivlarning ahamiyatini baholash zarur.

2. Institutda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish muhim bo'ladi:

a) talabalar bilan ishlash (talabalarga kerakli mutaxassislar haqida ma'lumot berish, kasbiy yo'nalishni shakllantirish, ta'lim faoliyati uchun muhim motivlarni va o'qishga ongli qiziqishni shakllantirish, ijtimoiy va kasbiy mavqeini aniqlashga yordam berish va boshqalar);

b) o'qituvchilar bilan ishlashning ijtimoiy - pedagogik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ijtimoiy-pedagogik yordam berish, o'quv jarayonini tashkil etishda uslubiy yordam berish va boshqalar;

c) ota-onalar bilan ishlash (ularga farzandlari o'qishlarida qanday yordam berishni o'rgatish va boshqalar.

3. Tibbiy yo'nalish maskanlarining yetakchi mutaxassislari, shuningdek, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari tomonidan elektiv kurslarni joriy etish;

4. Turli treninglar, tanlovlar, loyihalar va boshqalarni tashkil etish va o'tkazish;

5. Fan va kompleks olimpiadalarni tashkil etish, unda turli mutaxassislik va kurs talabalari imkon qadar ko'proq jalb etilish maqsadlidir.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirishda talabalarning ta'lim motivatsiyasini oshirishdagi qiyinchiliklar va muammolar to'g'risida o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar dolzarb bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 5-iyundagi PQ - 3775 - sonli Qarori //http://lex.uz.

2. Karimova V.M., Akramova F.A. va boshqalar. Psixologiya. Darslik. - T.: TDIU, 2012. - 387 b.

3. Б.А.Рахимов. Психология фанида талабалар касбий мотивациясини ўрганишга қаратилган тадқиқотлар таҳлили // "Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш масалалари" мавзусидаги Республика илмий-амалий семинари материаллари. Тошкент-2020. 84-85 б.

4. Башмаков О.А., Петросов С.Н., Гурдус В.О., Соловьев В.В. Профессиональная деятельность современного врача: ее особенности и мотивация // Вестник Всероссийского общества специалистов по медикосоциальной экспертизе, реабилитации и реабилитационной индустрии. - 2014. - № 2. - С. 90-94.

5. Долганов Д.Н., Законнова Л.И., Седовских М.Е. Мотивационная

готовность и отношение студентов технического ВУЗа к осуществлению научно-исследовательской деятельности // Вестник Кузбасского государственного технического университета. – 2015. – № 3(109). – С.172-181.

6. Черных А.В., Косянчук Н.М. Динамика учебно-профессиональной мотивации студентов-медиков // Педагогическое мастерство и педагогические технологии. – 2015. – № 3 (5). – С. 123-125.

7. <https://oliygo.uz/post/tibbiyot-sohasidagi-oliy-ta'lim-muassasalari>

8. Ковалевская А. В. Влияние учебной мотивации на успеваемость подростков // Научно-методический электронный журнал «Кон-цепт». – 2015. – № S1. – С. 126–130. – URL: <http://e-koncept.ru/2015/75026.htm>.

9. Соловьев В.Н. Влияние адаптации и мотивации учебной деятельности на успеваемость студентов // Фундаментальные исследования. – 2004. – № 5. – С. 81-83.

10. Луцкова Л.Н., Русина Н.А. Исследование факторов, влияющих на учебную мотивацию студентов медицинского вуза // Медицинская психология в России: электрон. науч. журн. – 2012. – № 1. URL: <http://medpsy.ru> (дата обращения: 12.07.2018).

11. Ковалев В.И. Мотивы поведения и деятельности. М., 1988.

12. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2002.

13. Маркова А.К. Формирование мотивации учения / А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. М.: Просвещение, 1990.

14. Патяева Е.Ю. Мотивация учения: заданное, стихийное и самоопределяемое учение. Современная психология мотивации/ под ред Д.А. Леонтьева. М.: Смысл, 2002. 343 с. С.289-314.

O'smirlar sotsial intellekti muammosi va uni psixologiyada o'rganilishi

Akromxon ORIFOV

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Tadqiqot muammomiz O'smirlar sotsial intellektining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Aqliy qobiliyatni tadqiq etishning bosh maqsadi ham sotsial intellektni shakllantirishdir. Shunday ekan sotsial intellektning individual xususiyatlari hamda o'ziga xos jihatlari o'rganish va tadqiq qilish, ularni boshqarishning samarali metodlarini izlash bugungi kun psixologiya fanining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda bu sohadagi faqat yaxlit nazariy ta'limotgina fanning amaliyotga sezilarli ta'sirini ta'minlay olishi mumkinligi haqidagi qarashlar har tomonlama tan olinmoqda. Shu sababli ayni vaqtda jahon psixologiyasida sotsial intellekt va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xususiyatlar va ko'rinishlarining nazariy asoslarini jadal suratda ishlab chiqishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Sotsial intellekt tushunchasini birinchi marta 1920 – yili Amerikalik psixolog bixeviorizm maktabi vakili Edvard Torndayk ishlatadi. U bu tushuncha yordamida shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni oldindan ko'ra bilishni tasvirlaydi va uni insonlar o'rtasidagi xatti – harakat va munosabatlarga aqliy yo'l bilan yondashib qiyoslaydi.

E.Torndayk talqiniga ko'ra intellektning uchta turini ajratib ko'rsatadi:

- Abstrakt intellekt – bu abstrakt intellekt, verbal va matematik belgilarni tushunish va ular yordamida turli xil harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir;
- Sotsial intellekt – odamlarni tushunish va ular bilan munosabatlarga kirishish qobiliyati.

E.Torndaykning intellektning abstrakt turi haqidagi yondashuviga o'xshash holat rus psixologi V.A.Kruteskiy ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Uning ta'kidlashicha intellekt xususiyati bo'lgan matematik belgilar va qobiliyatlar tez va aniq hisoblash qobiliyatidan iborat deb hisoblaydi. Aslida esa, hisoblash qobiliyati chinakam matematik qobiliyatni tarkib toptirish bilan hamma vaqt ham bog'liq bo'lavermaydi va matematik belgilarga qobiliyatli bo'lgan shaxslar formulalar, raqamlar va sonlarni eslab qolish uchun juda yaxshi xotiraga ega bo'ladilar deb hisoblanadi. Qobiliyatli shaxslarning matematik belgilar jarayonidagi ijodiy tafakkuri: a) tez va keng umumlashtirish bilan; b) tugal xulosa chiqarish tendensiyasi bilan; v) fikrlash

jarayonlarining harakatchanligi, masalalarni yechishga yondashishlarning xilma – xilligi, bir aqliy faoliyatdan ikkinchisiga oson va erkin o'tish bilan; g) masalani yechishda aniqlikka, oddiylikka va ratsionallikka intilish bilan xarakterlanadi deb ta'kidlaydi.

1937-yili Amerikalik mashhur psixolog Gordon Ollport sotsial intellektni odamlarni to'g'ri baholay bilish, ularning xulqini to'g'ri bashorat qilish va shundan kelib chiqqan holda ular bilan munosabatga kirishish qobiliyati deb tavsiflaydi. U boshqa odamlarni yaxshi tushunishni ta'minlovchi bir qator sifatlarni ajratib ko'rsatgan. Bu sifatlar tarkibiga sotsial intellekt alohida qobiliyat sifatida kiritilgan.

Intellektual faollikning oliy bosqichi kreativlikdir. Aksariyat o'smirlar o'spirinlik davrida bo'lganligi uchun ularda tafakkurning o'sishi, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. 1950 – yildan buyon psixologlar kreativlik masalasi bilan qiziqib kelmoqdalar. Chunki ijodiylik sotsial intellekt imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. 1962 – yili Getsels va Jekson intellekt va ijodiylik ko'rsatkichlari orasida bog'liqlik yo'q degan ma'lumotni matbuotda e'lon qilishadi. Ular ijodiylikni o'lchash uchun o'zlarining (Cr) koeffisientini kiritishadi.

1960-yillarda sotsial bilish va kommunikativ kompotentlikka oid ishlar paydo bo'la boshlandi. Shu yillarda sotsial persepsiya muammosiga odamlarning bir – birlarini tushunishlariga katta e'tibor qaratilgan va hosil bo'lgan sotsial intellektning tabiati va tarkibi to'g'risidagi konseptual tasavvurlar asosida uni o'rganishning metodik apparatini yaratishga uringanlar.

Sotsial intellektni o'lchashga mo'ljallangan birinchi ishonchli testni yaratgan J.Gilford uni umumiy intellekt omilidan mustasno bo'lgan va eng avvalo xulq-atvoriga oid bo'lgan axborotlarni tushunishi bilan bog'liq bo'lgan intellektual qobiliyatlar tizimi sifatida o'rgangan. Gilford va uning izdoshlari aqliy ijodiylikni xarakterlaydigan aqliy qobiliyatning 16 faktorini ishlab chiqdilar. Ular ko'chuvchanlik, ravonlik, tafakkur aniqligi, o'ziga xosligi, muammoni izlashda ziyraklik va boshqalardan iborat.

Kengroq fazoga chiqish hodisasi shunchalik muhimki, buni Gilford o'zi yaratgan aql nazariyasida maxsus holat qilib ajratib ko'rsatadi. Bu holat „har tomonlama fikrlash“ qobiliyatiga mos bo'lib, uni divergent tafakkur deb atagan. Keyingi o'n yillikda „divergentlik“ chet el psixologlarining „ishonch ramzi“ bo'lib qoldi. Hozir mazkur tushuncha bilan aqliy ijodiylikning barcha ko'rinishlarini bog'lamoqda. Odatda tafakkur divergentligi kreativlik (aqliy ijodiylik) testlari asosida yotadi. Gilford fikricha, o'ziga xoslik (originallik) – bu

divergent tafakkur yordamida yangi aql yoki sun'iy g'oyalarni olishdir. Ijodiyotning muhim intellektual tarkibiy qismi – divergent tafakkurning ustunligidir. Divergent tafakkurda bitta savolga har xil to'g'ri va teng huquqli javoblar to'plamini topish ko'zda tutiladi. Konvergent tafakkurda bitta savolga bittagina javob topiladi. Bu haqda L.Durik shunday deb yozadi.

1980-yillarda D.Kiting axloqiy yoki odob bilan fikrlashni baholash uchun test yaratgan. M.Ford va M.Tisak intellektni baholashning negizida muammoli holatlarni to'g'ri yechish yotishini ta'kidlaydilar. Ular sotsial intellekt sotsial axborotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan mental qobiliyatlarning aniq va mutanosib guruhini o'z ichiga olishini ko'rsata bildilar. Bu qobiliyat guruhi esa o'z o'rnida „formal” tafakkur asosini tashkil qiluvchi va „akademik” intellekt testlari bilan tekshiriluvchi qobiliyatlardan tubdan farq qiladi.

N.Kentor sotsial intellektni odamlarga sotsial hayotda bo'layotgan hodisalarni avvaldan ko'ra bilish va ulardan unumli foydalanish imkoniyatini beradigan kognitiv kompotentlikka tenglashtiradi. Aynan sotsial intellektni tashkil etuvchi hodisalar va ularni talqin qilish odamlarni kelajakdagi hodisalarga avvaldan tayyor turishlariga yordam beradi. Amaliy masalalarni hal qila olish qobiliyati, verbal va sotsial kompotentlik – sotsial intellektning tarkibini tashkil etuvchi asosiy kompotentlar hisoblanadi.

Sotsial intellekt to'g'risida oddiy odamlar qanday tasavvurga ega ekanliklarini tushunish maqsadida R.Shternberg (1981) tadqiqot o'tkazgan va bu tadqiqot natijasi odamlar sotsial intellekt tushunchasiga quyidagilarni kiritishlarini ko'rsatgan:

- Amaliy masalalarni hal qilish qobiliyati: odam mantiqiy fikr yuritadi, muammoni barcha tomonlarini ko'ra biladi, yaxshi yechimga kela oladi, zarur axborotlarning original manbalariga murojaat etadi va barcha dalillarni eshitadi;

- Verbal qobiliyat: aniq va ravon tilda gapiradi, o'qiganini yaxshi tushunadi, lug'at boyligi kuchli va yaxshi, yozuv nutqida muammolarga duch kelmaydi, odamlar bilan oson va samimiy muomalaga kirishadi va hokazo;

- Sotsial kompotentlik: boshqa odamlarni qanday bo'lsalar shundayligicha qabul qiladi, uchrashuvlarga kechikmaydi to'g'ri xulosa va qarorlarga kela oladi, boshqalarning xohish va ehtiyojlarini seza biladi, qiziquvchan va hokazo.

Shternberg shuni ko'rsatdiki, odamlar aqlli insonga xos bo'lgan sifatlarni sanab o'tar ekanlar „akademik intellekt” ni tasvirlaganlarida

keltirilgan tavsiflardan farq qiladi. Sotsial intellektni juda ko'p hollarda donolik deb biladilar.

Sotsial intellekt mustaqil hodisami? degan savolga E.Torndayk sotsial intellektni oddiy intellektdan farqli deya ta'kidlagan. Ko'plab mualliflar Kiting va Guilford sotsial intellektni akademik va formal intellekt qobiliyatlaridan farq qiluvchi mental qobiliyatlarning mustaqil guruh sifatida tavsiflaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Анастаси А.Урбина С.Психологическое тестирование. СПб. 2001. с – 686.
2. Адизова Т.М.Психокоррекция.Т.2006.б-37.
3. Боцманова М.Э.Новые исследования в психологии и возрастной физиологии.М.Педагогика.1989.с – 141.
4. Виноградов Р.И,Фадеева И.П.Диалоговое обучения развитие мышления.1998.с – 33.
5. Getzels, Jackson.Creativity and intelligence. New York.1992.p – 173.
6. Guilford G.Isolation and prescription occupational stereotypes. Psychol.1997.p – 57 – 67.
7. Guilford G.Intellectual factors in productive thinking.New York.1997.p – 48.

Modern ideas on organizational and management skills of master's students in socio-cultural activity

Gulsanam KHASANOVA
Journalism and Mass Communications
University of Uzbekistan
Associate Professor, PhD

The formation of managerial competencies of a master's student is one of the complex and large-scale problems, while having certain social, organizational and pedagogical features. Such authors as G.P. Kornev, V.A. Slastenin, V.S. Serikova, V.I. Stolbov and others devoted their research to the problem of training managerial personnel, considering it from the point of view of professional pedagogy. Later, O.V. Popova studied the formation of managerial competencies among university students in the process of extracurricular activities, in their studies, N.A. Ran and A.E. Shastina studied the features of the formation and problems of modeling managerial competencies among students of technical specialties. And today this problem is underdeveloped .

The change in the socio-economic conditions taking place in the modern world has led to a change in the role of education in society, led to the introduction of a multi-level system of education, the implementation of which is associated with the development of the institute of magistracy .

Organizational and managerial activity in scientific research is presented as a problem associated with the formation of organizational and managerial abilities of students and in this aspect is formulated based on understanding it as a complex of general and special abilities necessary to ensure the life of an institution ; it is noted that organizational and managerial activity consists of a complex of activities (cognitive, projective, stimulating, educational), the specificity of which determines their qualitative certainty, and its content (organizational and managerial activity) comes from the process moments of the designated types of activity: taking into account the terms of the concept organizational and managerial activity researchers put managerial activity in the first place, which includes organizational aspects.

In this aspect, management activity is a complex intellectual activity of a person, which requires special knowledge and experience and is one of the most important factors in the functioning and development of an organization in a market economy; at the same time, approaching the professional accents

of managerial activity, a type of professional activity is considered, aimed at co-organizing the activities of other people in achieving goals .

R.G. Panteleev defines the organizational and managerial competence of a specialist as an integrative characteristic, which includes a set of acquired knowledge, skills, professionally important qualities that determine his ability and motivational readiness to carry out organizational and managerial activities and manifests itself in the process of self-realization .

In the structure of the professional competence of a master's student, as one of the key ones, many authors, including us, single out organizational and managerial competence. So S.G. Markovchin and S.A. Kravtsov understand organizational and managerial competence as "... an individual, integral, dynamically changing, relatively stable characteristic of a person, which is the result of his continuous professional and personal development and manifests itself in an independent and responsible solution of the tasks of ensuring optimal relationships».

As V.A. Belikov notes, denoting the structure of organizational and managerial competencies formed among students, and the structure "...should be clear and logical so that the future specialist, receiving theoretical knowledge at a university, could be able to solve problems based on this knowledge..."

We understand the organizational and managerial competence of a master's student as a systemic psychological and personal characteristic, including the following fundamental components: cognitive, motivational, activity, design-research and personal, designed to provide him with the effective performance of organizational and managerial functions in the course of the implementation of high-tech production technologies .

In modern conditions of development of innovative technologies, the problem of uninterrupted and reliable control is of particular relevance. First, this requires the formation of organizational and managerial competence of undergraduates in the process of their professional training. In turn, the promotion of this competence is ensured by the creation of the necessary pedagogical conditions, which we outlined in the study . This complex of pedagogical conditions represents those conditions, the provision of which leads to the successful promotion of its structural components.

For us, the most preferable analysis of the structure of the organizational and managerial competence of the student in the implementation of master's programs, proposed by E.V. Savenkova

Based on the foregoing, we note that the process of professional training of a master's student at a university is a targeted training in theoretical aspects, the formation of professional knowledge, skills, and their development, consolidation through practice-oriented classes that enrich the student with personal experience.

The specificity of the master's program is that the student receives a deep theoretical training, acquires professional competence of a higher level. This program includes in-depth educational and research components, conducting research and scientific-pedagogical practices and writing a dissertation. A large number of hours are given to the master for independent work, which is extremely relevant on the way to becoming a master in his professional activity.

Thus, we note that university education should be based on motivating students to be true subjects of the educational process, since only personal work will allow a student to turn into a competitive, highly qualified specialist.

References

1. Беликов, В.А. Философия образования личности: деятельности аспект: монография/ В.А. Беликов. – М.: Владос, 2004. –357 с.
2. Ильмушкин Г.М., Нечаева Н.Ю. Педагогические условия формирования организационно-управленческой компетентности будущих специалистов атомной отрасли // Современные наукоёмкие технологии. 2018. № 12. С. 193–198.
3. Ильмушкин Г.М., Нечаева Н.Ю. Критерии и уровни сформированности организационно-управленческой компетентности будущих специалистов атомной отрасли // Современные наукоёмкие технологии. – 2019. – № 3-1. – С. 100-106.
4. Карпов А. В. «Психология менеджмента». – М., 1999 г.
5. Климова, Т. Е. Развитие научно-исследовательской культуры учителя Текст / Т. Е. Климова: Автореф. дис. д-ра пед. наук. Оренбург, 2001 – 35 с
6. Марковчин С.Г., Кравцов С.А. Проблемы управленческой деятельности офицера и формирование организационно-управленческой компетентности в военном вузе / С. Г. Марковчин, С. А. Кравцов // ЦИТИСЭ. 2020. № 4(26). С. 321–333.
7. Савенкова Е В. Развитие организационно-управленческой компетентности менеджеров образования при реализации магистерских программ: дис. ...канд. пед. наук: 13.00.08 / Савенкова Елена Викторовна. Москва, 2018. 212 с.

8. Сидоровский К. Ю. Формирование организационно-управленческих способностей у будущих менеджеров социально-культурной деятельности: Дис. канд. пед. наук, М., 2012. – 173 с

9. Panteleev R.G. Organizational and managerial competence of the future military specialist in the field of telecommunications / R.G. Panteleev, A.I. Kozachok // Scientific notes of the Orel State University. Orel: FSBEI VO "OSU named after I.S. Turgenev ", 2017. No. 4 (77). Pp. 229–233

Zamonaviy mehnat bozorida yosh mutaxassislarni masofaviy ish bilan ta'minlash va munosib mehnat sharoitlarini yaratish mexanizmlari

Samad TOLLIBOYEV
*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Inson Resurslarini boshqarish
fakulteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. O'rta va oliy ma'lumotli yosh mutaxassislarni bandligini ta'minlash va masofaviy ish bilan ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi. To'g'ridan-to'g'ri yosh mutaxassislar uchun masofaviy ish formatlarini ko'rib chiqish. Yosh mutaxassislarning masofaviy ish tajribasi bor yo'qligi, masofaviy ish bilan ta'minlash formatida yoshlar duch kelayotgan qiyinchiliklar, masofaviy ish bilan shug'ullanuvchi yosh mutaxassislarga bo'lgan talab, yoshlar uchun masofaviy ishlashning ijobiy va salbiy tomonlari, zamonaviy mehnat bozoridagi tendensiyalar.

Kalit so'zlar: masofaviy ish, yosh mutaxassislar, mehnatni tashkil etish, yuqori malakali mutaxassislar, mehnat bozori tendensiyalari, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, O'zbekiston iqtisodiyoti.

O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning salmog'i yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligi va ularni kasbga tayyorlash ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajada ekanligi kutilmoqda. Bugungi kunda yoshlar mehnat bozorini tartibga solish va qishloqda ishsizlikni va avvalo 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida bartaraf etish masalalari haligacha o'rganilmoqda. Yosh kadrlar uchun ish o'rinlarini tahlil qilish va saqlab qolishga hamda yaratishga moddiy rag'bat va imtiyozlar yo'qligi, qishloq yoshlari tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlanmaganligi, yoshlarda malaka yetishmasligi, mehnat bozori infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligi, istiqbolda ish bilan bandlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan dasturlarning ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yosh mutaxassislarni bandligini ta'minlash va mehnat bozorini rivojlantirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. So'nggi ikki yil ichida masofaviy ish formati O'zbekiston Respublikasi aholisi orasida faol ravishda rivojlana boshladi. Ko'p jihatdan bu jarayonga turli sohalar, jumladan, mehnat bozoridagi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini sezilarli darajada

o'zgartirgan COVID-19 pandemiyasi katta ahamiyat ega va bu jarayonlar va o'zgarishlar tugallanmagan bo'lsada, allaqachon sezilarli o'zgarishlar va ma'lum tendensiyalar mavjud. Mehnat bozorida Koronavirus pandemiyasi ko'plab ekspertlar tomonidan davlat va xalqaro iqtisodiyot hamda mehnat dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatgan salbiy omil sifatida baholanishiga qaramay, mehnat munosabatlarining yangi shakllarini rivojlanishiga sezilarli turtki bo'lgani aniq.

Pandemiya davrida ko'plab ish beruvchilar va mutaxassislar masofaviy bandlik formatida nafaqat qiyinchilik va to'siqlarni, balki yangi imkoniyatlarni ham ko'rdi. Xodimlar uchun bu ish va shaxsiy vaqtni yanada samarali rejalashtirish, ish joyiga borish va qaytish vaqtini tejash, qulayroq, uy sharoitida ishlash va boshqa hududda ish topish imkoniyatini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishida Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan ziyod. Bu – aholining qariyb 55 foizini tashkil etadi. Zamon talablarini ilg'ash va amalga oshirish, soha va tarmoqlarni olg'a boshlashda bu juda katta tayanch, bebaho xazinadir. Bugungi kunda 18-30 yoshlilar orasida rasmiy ishsizlik 17 foiz ekani qayd etildi. Yoshlar mehnat bozorining talab va taklifini shakllantirish va tartibga solish, yoshlarning mehnat munosabatlari, u yoki bu darajada mavzuga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar, tadqiqotlarga qaramasdan oliy ma'lumotli yosh mutaxassislarning ushbu yo'nalishdagi masofaviy bandlik shakllari va imtiyozlari yetarli darajada ko'rib chiqilmagan. Zamonaviy iqtisodiy voqelikda masofaviy ish formatlari mavzusining yangiligi, oliy ma'lumotli yosh mutaxassislarning ushbu sohadagi bandligi va afzalliklarini hisobga olgan holda. Shuning uchun Yangi O'zbekistonda ushbu mavzuni batafsil o'rganish juda muhim hisoblanadi. Yosh mutaxassislarning masofaviy faoliyati bo'yicha tadqiqotning nafaqat nazariy, balki sifatli empirik bazasini yaratish muhim hisoblanadi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, yosh mutaxassislar doimiy ravishda masofadan turib ishlashni xohlashlarini kuzatishimiz mumkin. Masofaviy bandlik formatiga tayyor bo'lmaslik sabablari orasida o'z-o'zini tashkil etishdagi qiyinchiliklar, ish vaqtini masofadan boshqarishning qiyinligi, hamkasblar, mijozlar va mijozlar bilan shaxsiy muloqot va o'zaro munosabatlarga intilish kiradi. Yosh mutaxassislarning doimiy intilishlarini belgilovchi omillarga bugungi kunda masofaviy ish odatiy (kunduzgi, ofis) ish formatini almashtirmoqda, deb aytish mumkin emas. Aksincha, masofaviy

bandlik yuzma-yuz ish formatlariga qo'shimcha hisoblanadi. Qayd etilishicha, har qanday holatda ham yaqin yillarda masofaviy mehnatga o'tkazib bo'lmaydigan bandlik sohalari paydo bo'ladi.

Mamlakatimizda yosh mutaxassislar orasida masofaviy bandlik eng ko'p talab qilinadigan va qo'llanilishi mumkin bo'lgan ish sohalari orasida IT sohasi eng ko'p qo'llanilmoqda. Aynan IT-sohasi (jumladan, dasturlash, qo'llab-quvvatlash, grafik dizayn, Big Data bilan ishlash va tahlil qilish, veb-ishlab chiqish va h.k.) yosh mutaxassislar masofaviy bandlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan eng istiqbolli yo'nalish deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda iqtisodiy sohalar jumladan Masofaviy bandlikka talab yanada ortib bormoqda jumladan, quyidagi yo'nalishlar: marketing, reklama, dizayn, konsalting xizmatlari, advokat maslahati, ta'lim, sotish, ishga qabul qilish, internet savdosi. Yosh mutaxassislar tomonidan ko'p o'rganilmoqda.

Mamlakatimizda yosh mutaxassislar orasida faol raqamlashtirish va internet aloqalarining kuchayishiga qaramay, qaysi kasblar har doim aholi orasida eng yuqori talabga ega bo'lishini muhokama qilar ekan, bu odamlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni talab qiladigan yoki qo'l mehnatini talab qiladigan kasblar ekanligini ta'kidlash lozim jumladan: shifokorlar, sanoat korxonalarini xodimlari (zavodlar), restoran/kafe xodimlari, oshpazlar, xizmat ko'rsatish xodimlari (sartaroshlar, kosmetologlar, manikyurchilar va boshqalar), quruvchilar, ishchi kasblar (elektriklar, chilangarlar, avtomexaniklar va boshqalar), uy-joy kommunal xo'jaligi xodimlari.

Mamlakatimizda oliy ma'lumotli yosh mutaxassislar orasida masofaviy ish bilan ta'minlashga bo'lgan talabning o'sishiga katta hissa qo'shayotgan bir qator sabablarni aniqlash imkonini berdi. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin: xodimlar uchun va ish beruvchi uchun.

Yosh mutaxassis xodimlarni masofaviy ishga joylashishiga qiziqishning asosiy sabablari;

- Ish uchun qulaylik (hech bir joyda yig'ilishning hojati yo'q, qulay va maishiy muhit);
- Ish joyiga hududiy bog'liqlik bo'lmasligi (siz istalgan joydan ishlashingiz mumkin);
- Siz shaxsiy vaqtni tejash (yo'lda, to'lovlar va boshqalarda vaqtni behuda sarflashning hojati yo'q);
- Siz ma'lum bir erkinlik darajasi ega bo'lishingiz mumkin (siz o'z jadvalingizni rejalashtirishingiz, vaqtni o'zingiz belgilashingiz mumkin);
- hamkasblar bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish qobiliyati (jamoada qiyin munosabatlarga ega bo'lganlar uchun, introvertlar uchun).

Ish beruvchi uchun masofaviy bandlikka talabning o'sishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- xarajatlarni optimallashtirish (ijara narxini pasaytirish, ish joylarini jihozlash va boshqalar);

- statsionar ishlarni tashkil qilmasdan xodimlarni tez kengaytirish imkoniyati;

- boshqa shahar, viloyat, shtatdan malakali xodimni yollash imkoniyati.

Bugungi kunda yoshlarning katta qismi zamonaviy kasbga intilib bormoqda. So'ngi yillarda yoshlarning sifatli oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining asosiy ustuvor vazifasi bo'lib kelmoqda. Xususan, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 4 barobar (2016-yildagi 9 foizdan 2022-yilda 40 foizga) oshdi.

Ta'lim xizmatlari bozorida xorijiy va nodavlat ta'lim xizmatlari vakillarining ishtiroki kengaydi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari soni 3 barobar (2016-yildagi 65tadan 2022-yilda 177taga), nodavlat OTMLar soni 13 karra (2016-yildagi 4tadan 2022-yilda 53taga) ko'paydi. Buning barchasi yoshlarni bandligini ta'minlash maqsadida olib borilmoqda. Zamonaviy kasbga yo'naltirilgan yoshlar davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda masofaviy ish joylarini tanlashmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz yoshlari o'zlarining ish jadvallarini mustaqil ravishda rejalashtirish, vaqt va moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish (sayohat, ish uchun to'lovlar, korporativ kiyinish holatini saqlash va boshqalar) istagini namoyon etadilar. Masofaviy ish yosh mutaxassislarga nafaqat vaqtini tashkil qilish, balki ish beruvchi, qiziqarli ish tanlashda ham ko'proq erkinlik beradi. Bandlikning hududiy chegaralari asosan o'chiriladi. Shunday qilib, mamlakatimizda va xorijda ishga joylashish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud. Ma'lum bo'lishicha, 30 yoshgacha bo'lgan yosh mutaxassislarga ko'p jihatdan masofaviy ishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi internet aloqalari, raqamlashtirish vositalari va yangi texnologiyalarni joriy etishning faol rivojlanishiga bimalol moslasha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2022-yil 30-dekabr. Xalq so'zi №276(7778).
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. - T.: «FAN», 2019. - 592 b.
3. Economic progress Report.- London. : 1981

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumoti 2022 yil.

5. Shulgina Yu. V., Vertakova Yu. V., Maltseva I. F., Plotnikov V. A. Masofaviy ishlashga o'tish sharoitida mehnat va ijtimoiy-mehnat monitoringini tashkil etishni o'zgartirish//Zamonaviy fan: nazariya va amaliyotning dolzarb muammolari. Seriya: Iqtisodiyot va huquq. 2020. № 11. S. 97102

Digitization of the teaching system of specialized subjects in technical universities and use of innovative technologies

Saidakhon ATAIONOVA

Andijan machine-building institute

Doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences

Abstract. This article is devoted to the modernization and improvement of training and education in technical universities, which causes the fourth industrial revolution, also called industry 4.0 (Industry 4.0). The purpose of this study is the qualitative modernization of education in technical universities based on innovative ideas and digital technologies.

Key words: training, educational programs, modernization, innovative ideas, digital technologies, innovative and interactive teaching methods.

Introduction. Over the past 30 years, the science of learning and related technologies have made significant and breakthrough advances, and they will no doubt continue to advance in the foreseeable future. To act wisely, analyze the past intelligently and examine how we got to where we are today, what achievements and pitfalls we have encountered, and what lessons can be applied in the future learning ecosystem.

Technological progress today is faster than ever before. Technology has changed the world unimaginably over the past decades; The fourth industrial revolution, also called industry 4.0, is being reflected in all segments, not only in factories and manufacturing, but in society as a whole. However, even high and complex technologies are not enough if we do not have people who can understand them, manage them, use them and take advantage of them, and last but not least, update and improve them.

Research methods. The main goal of education within the framework of the new modernization approach is to produce a «modern man». Since only education can easily change society, in order to create a «modern man», this theory increases the «need for achievements» of people, emphasizing the formal education of children using modern technology, where children learn in a very disciplined way. The educational approach and curriculum of the New Modernization Theory aims to train skilled workers with traditional values. Priority is also given to the use of modern science and technology. The new modernization theory implies traditional values, cultures and the synthesis of old and new values to ensure the country's sustainable economic growth.

The promise of education as a path to opportunity and social justice continues to drive widespread investment, policy development and practical achievement around the world. This growing interest in the leading driver of social improvement has led to a corresponding increase in the number of academics involved in the study of education. In the United States alone, the number of PhD degrees increased by 65% between 2000 and 2015 [1, 6]. This explosive growth in education research is indicative of a sustained interest in the field.

The critique of modernization is very well known for linking development and growth with education. This theory of development can have a positive impact on the masses of people and society only when it affects education. It mainly focuses on the positive effects that «developed» countries play in modernizing and promoting sustainable development in «developing» or «less developed» countries. This «development» is also defined by a «developed» country or nation, which means to be a «developed» country, a «less developed» country must seek help or learn from them.

Although this development theory is formed by a Western country, it also makes people aware of their rights and opportunities in society. It also helps the public to think confidently and form their own independent opinion.

To date, the modernization of educational programs is carried out by integrating digital technologies into the education system, in particular, into the higher education system. This leads to the integration of courses and disciplines into curricula for the development of digital competencies of future teachers of special disciplines. But along with the modernization and improvement of education, one should not forget about the main fundamental stage of the theory of the development of education - about didactics [2, 10].

All over the world, scientists have come to a common conclusion that the use of the latest information technologies in the classroom increases the motivation and cognitive activity of students, allows you to apply a student-oriented, interactive and educational technology. Contributes to overcoming the psychological barrier in the use of theoretical subjects (theory, i.e. physics and mathematics) as a means of applying natural knowledge in the study of new specialized subjects of engineering education. It makes it possible to avoid subjective assessment and increases the effectiveness of training and the quality of education. The use of multimedia technologies is well combined with the technology of developing education, as well as with problem-based and differentiated learning [2, 3, 4].

Conceptual formulations of modernization:

In the technical sciences, modernization is understood using four conceptual formulations.

1. Psychological formulation. Man's motivation and orientations, his way of thinking, beliefs, opinions, attitudes and actions are all conceived in a psychological formulation.

2. Normative formulation - The normative approach to modernization emphasizes such norms and values as idealism, humanism, rationalism, individualism, pragmatism, liberalism and secularism.

3. Structural formulation. The structural conceptualization of modernization emphasizes the structural components of society, such as bureaucracy, democratic associations, and a complex economy. At the same time, he recognizes the importance of both psychological and normative formulations.

4. Technological formulation. The technological approach to modernization emphasizes economic resources and the use of non-living energy in the production system.

Results. The ability of teachers to know why, when and how best to implement educational technologies has been identified as a critical factor in the successful implementation of educational technologies in higher education. However, the introduction of educational technologies by teachers is a complex process, which is influenced by many factors, both external and internal.

Important issues in the training of engineers in the field of mechanical engineering are, first of all, identified by engineering organizations (regional associations of engineers) and organizations of enterprises in the engineering industry (regional engineering plants), the discrepancy between the expected competencies of graduates of engineering and master's programs in the field of mechanical engineering. These problems may be related to: lack of interpersonal skills, lack of competencies related to entrepreneurship and innovation, limited practical experience, limited competencies in modern technologies (IT, mobile technologies, energy management), very limited language skills (minimum requirement), insufficient international experience [5, 6, 7, 11].

The main way to increase the effectiveness of student learning is to develop their activity in solving educational problems. In the pedagogy of higher education, enough promising concepts, theoretical provisions and technologies have been accumulated that are directly aimed at intensifying the educational process.

The result of the ongoing research in this direction is the modernized curriculum, curriculum and educational and methodological equipment for the bachelor's degree in the direction «Mechatronics and Robotics» developed by the author of this article at the Andijan Machine-Building Institute. The new modernized curriculum must meet all modern requirements so that students can solve the practical problems that they face in everyday life. [8, 9, 10].

The modernized curriculum takes into account the three activities of bachelors and thus differs from the old existing curricula. As modern types of professional activity in accordance with the new standards, we have chosen:

1. research;
2. design;
3. production and technological activities.

In order to increase the conciseness of education within the above types, as well as to achieve modern requirements, the following changes were introduced into the curricula: the curriculum consists of 240 credit hours, 3120 hours of classroom studies, 3510 hours of independent work. 35 disciplines. Academic hours are divided into 2 modules.

1. compulsory subjects
4. elective subjects.

State final certification:

1. In a foreign language, exams are taken corresponding to the world, as well as state standards IELTS or CEFR;
2. State exam in 4 subjects of the specialty of the direction or defense of the final qualified work

Based on the research hypothesis, it is necessary to study the current state of development of creative competencies of future teachers of vocational education institutions, develop the necessary didactic tools and develop pedagogical conditions, forms and methods for developing creative competencies based on interactive teaching methods and technology. Meeting these requirements, we tried to determine the level of formation of their creative competencies and the possibility of developing an interactive learning system based on the methodology proposed by the respondents in the course of empirical experimental work, which serves to highlight the practical aspects of developing the creative abilities of students' competence in interactive learning. For this purpose, methods of assessing academic performance, observation, questionnaires, interviews, self-assessment in

small groups, introspection, performance evaluation through control methods, such as role-playing games, setting pedagogical tasks, were used.

Conclusion. Our main goal is to change the philosophy of knowledge transfer in our educational system and achieve some positive social movements. Among other things, we would like to accelerate the adoption of technologies for the modernization of education and learning, contribute to the emergence of a digital learning ecosystem in Europe, contribute to the goals of the Open Education initiative and increase quality and efficiency of the educational process (achieving higher cognitive levels of knowledge).

An increase of 15% was achieved, the results were confirmed by mathematical and statistical methods. The obtained results confirm the effectiveness of the methodological model and methodology developed by us.

The theoretical assumptions, analysis and experimental studies carried out on the conduct of technical disciplines, with the study of machine elements and mechanisms from semiconductor devices, show that, unlike humanitarian subjects, teaching in technical schools requires a special approach.

References

1. Касимахунова, А., & Атажонова, С. (2023). Модернизация обучения в технических вузах, перспективы и результаты в цифрах: Модернизация обучения в технических вузах. *Engineering Problems and Innovations*, 1(1), 10–19.

2. Atajonova S.B., Modul kredit tizimi "O'zbekistonda bakalavriat ta'lim yo'nalishini innovatsion g'oyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish"// "Talim-tarbiya, ilm-fan, va texnologiya hamda innovation yo'nalishlarda olima ayollarning o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman, Andijon 15.03.2021. 406-410 betlar.

3. Atajonova S.B., Normatov A.M., Egamberdieva D.A., Modernization of the bachelor's degree curriculum "Mechatronics and robotics" STJ NETI, special issue 25.12.2020, pp 452-457 (05.00.00.33)

4. Atajonova S.B., Turgunova N., Reforming and modernizing the education system based on innovative ideas and digital technologies// Indonezia 16.02.2021(01.00.00.13)

5. Kasimakhunova A.M., Atajonova S.B. Method of teaching students to study the electrophysics properties of semiconductors and mathematical formula// *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, 2022.07 pp 81-87 (01.00.00.13).

6. Kasimakhunova A.M., Atajonova S.B., The development of professional training of students as a result of the improvement of new pedagogical technologies and teaching methods// *Scientific Bulletin of*

NamSU 2022 № 7 (13.00.00.30)

7. Abdullaeva M.A, «Improvement of training of semiconductor relay protection devices by new interactive methods.» CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 3.10 (2022): 28-33. <https://inlibrary.uz/index.php/crjp/article/view/14053>

8. Atajonova S.B. Methodology of teaching general educational disciplines with a professional focus in technical universities // Scientific and technical journal machine building STJ AndMI. 25.12.2022 № 5. Issue 2. pp. 509-515.

9. Atajonova S.B. Texnika oliy o'quv yurtlarida maxsus fanlarni o'qitishning yangi innovatsion usullarini joriy etish metodikasi algoritmi // NamMTI ilmiy-texnika jurnali 25.12.2022, № 1 maxsus son, -B.617-623

10. Атажонова С.Б. Применение цифровых технологий в модернизации педагогической науки//“Международная научно-практическая конференция «Цифровые технологии, инновационные идеи и перспективы их применения в сфере производства» Андижан, 28.05.2021 г. - Б.95-97.

11. Атажонова С.Б. Техника олийгоҳлари талабаларига мутахассислик фанларини ўқитишда ўқитувчи креативлигини ошириш//Энергиядаги перспективалар ва муаммоларнинг замонавий ечимлари халқаро илмий-амалий конференция. Наманган муҳандислик-технология институти 28-29-октябр. Наманган. 2022 й. –Б.89-92.

Ёшларда тадбиркорлик маданиятини шакллантиришда масофадан ўқитиш тизимининг ўрни

Жавоҳир ХАЙДАРОВ

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги
Давлат бошқаруви Академияси стажёр-тадқиқотчиси*

Аннотация. Ушбу мақолада ёшларда тадбиркорлик маданиятини шакллантиришда масофадан ўқитиш таълим тизимининг ўрни таҳлил қилинган. Шунингдек, ёшларда тадбиркорлик маданиятини шакллантиришда масофавий таълим моделлари изоҳланган.

Калит сўзлар: масофавий таълим, модел, платформа, виртуал ўқитувчи, стратегия, босқичма-босқич ўтиш йўл харитаси.

Мамлакатимиз таълим тизимида сезиларли ўзгаришлар рўй бераётганлиги кун сайин яққол кўриниб бормоқда. Турли таълим шакллари қатори айниқса, масофадан ўқитиш кенг қўлланилаётганлиги ҳам қувончли ҳол. Ҳар қандай тадбиркор ўз ишини бошлар экан, у тадбиркорлик фаолиятини муваффақиятли юритиш учун ўзидаги бор билим, савия, тажриба ва пул маблағларини ишлатади. Бунда у кўпинча ўзининг ҳаёт тажрибасига, ўқиган ўқув муассасасида олган билимларига, ота-онасидан ёки яқин инсонларидан билиб олган билимлар мажмуасига ва қандайдир этик қоидаларга риоя қилади. Ҳаётдан хоҳлаётган орзуларингизга тадбиркорлик орқали эришиш учун шубҳасиз тажрибали йўл бошловчилик мавқеига эга бўлиш лозим ва раҳбар ёрдамида ҳамда унинг фойдали маслаҳатлари асосида маълум бир йўналиш раҳбари (лидери) бўлиш муваффақият гарови бўлади. Ҳар бир соҳада бўлганидек, тадбиркорлик жараёнини амалга оширишда ҳам йўл бошловчи (лидер) таъсири туфайли жуда кўп нарсалар амалга ошади¹.

Интернетнинг имкониятлари кундан - кунга ошиб бормоқда. Интернетдан фойдаланишнинг янги босқичи бошланди. Яъни интернет турли соҳаларга татбиқ қилинди. Масалан: масофадан ўқитиш, электрон кутубхоналар, телемедицина, телеметрология, электрон тадбиркорлик, электрон магазин ва бошқалар.

Ёшларда тадбиркорлик маданиятини шакллантиришда масофавий таълим моделлари. Масофавий таълим - бу ўқитувчи ва ўқувчи орасидаги масофа ёки вақт муаммоларини замонавий ахборот

¹ Имомқориев Х.М. Тадбиркорлик маданияти асослари. -Т.:2015.

технологиялари ёрдамида ҳал этиш орқали жорий этиладиган таълим олиш тизимидир.

Бирламчи модел: Ушбу модел фақат масофавий ўқувчилар билан ишлаш учун яратилади. Улар виртуал ўқитувчига бириктирилади. Топшириқлар, назорат турлари ҳамда консултацияларни олиш учун ҳудудий бўлимлар бўлиши шарт. Бу моделда ўқувчи ва ўқитувчи ўзаро келишган ҳолда ўқиш шаклини танлаши мумкин. Бу моделга мисол қилиб Буюк Британиянинг Очиқ Университетидаги таълимни олиш мумкин².

Иккиламчи модел: Ушбу модел умумий шаклда масофавий ва кундузги таълим ўқувчилари учун яратилади. Иккала гуруҳда бир хил ўқув дастури ва дарслар жадвали, имтиҳонлар ва уларни баҳолаш мезонлари мавжуд. Бу моделга мисол қилиб Австралия Университетидаги таълимни олиш мумкин³.

Аралашган модел: Ушбу модел масофавий ва кундузги таълим тизимини интеграциялаштириш (боғлаш, умумлаштириш) учун яратилади. Ўқувчилар ўқув курсининг бир қисмини кундузги (яъни аудиторияларда), мантиқий давомини эса масофадан ўқийди. Бу моделнинг ютуқ тарафларидан бири узлуксиз таълимни ўзида сақлайди. Бу моделга мисол қилиб Янги Зеландиядаги Массей Университетидаги таълимни олиш мумкин⁴.

Консорциум: Ушбу модел иккита университетни бир бири билан бирлашишини талаб қилади. Бунда университетлардан бири ўқув курсларни ташкил этса, иккинчи университет эса уларни тасдиқлаб, курс учун тингловчиларни жалб этиш, яъни ташкилий ишлар билан шуғулланади. Университетлардан ташқари ўқув марказлари, нодавлат-нотижорат таълим ташкилотлари ҳам бу моделнинг элементи сифатида қўшилиши мумкин. Шу сабабдан бу моделда ўқув курсларни доимий равишда назорат қилиш ва муаллифлик ҳуқуқларини текшириш зарур бўлади. Бу моделга мисол қилиб Канададаги Очиқ ўқув агентлигидаги таълимни олиш мумкин⁵.

Франчайзинг: Ушбу модел иккита университет бир бири билан ўзлари қўшилиши ва умумий дастурлар асосида ўқитиш тизимини жорий этишида қўлланилади. Масофавий таълим соҳасида етакчи

² <http://www.ou.uk>

³ <http://www.une.edu.au>

⁴ <http://www.massey.as.nz>


⁵ <http://www.ola.bs.sa>

бўлган ўқув муассаса, бу соҳада илк қадам қўядиган муассасага ўзининг ўқув курсларни таклиф қилади. Ушбу моделда иккала муассаса ўқувчилари бир хил таълим ва дипломлар олишади. Бу моделга мисол қилиб Очиқ Университет Бизнес мактаби ва Шарқий Европа Университетлари билан бўлган ҳамкорлиги бўлиши мумкин.

Узоқлашган аудиториялар: Ушбу моделда информацион ва коммуникацион имкониятлар кенг фойдаланилади. Битта ўқув муассасада бўлиб ўтган ўқув курслар видеоконференциялар, радиотрансляциялар ва телекоммунакацион каналлар орқали синхрон телекўрсатувлар кўринишида бошқа аудиторияларга узатилади. Аралашган модел билан фарқи шундаки, бу моделда ўқувчилар кундузги таълимда қатнашмайди. Бу моделга мисол қилиб АҚШнинг Висконсинг Университетидаги ва Хитойнинг марказий радио ва телевидения Университетидаги таълимни олиш мумкин.

Лойиҳалар: Ушбу модел давлат ёки илмий изланиш мақсадидаги дастурларни бажариш учун яратилади. Асосий иш масофавий таълим мутахассислари ва педагоглар тўпланган илмий-методик марказга тушади. Ушбу моделда яратилган курслар аҳолининг катта қисмига намоёни қилиниб, ўз вазифасини бажаргандан кейин тўхтатилади.

Юқорида кўриб ўтилган моделларнинг барчасини таълим тизимимизга жорий этишимиз мумкин. Аммо масофавий ўқитиш тизимини мукамал ва фойдали тарзда жорий қилишимиз учун энг аввало йўл харита ишлаб чиқишимиз лозим. Чунки, аудиторияларда ўқитиладиган таълим тизими билан масофадан ўқитиладиган таълим тизими ўқувчига таъсир ўтказиши жиҳати билан тубдан фарқ қилади. Ёшларда тадбиркорлик маданиятини шакллантиришда масофавий таълим тизимини ишлаб чиқишда ёш жиҳатдан бир нечта гуруҳларга ажратган ҳолда ташкил этишимиз зарурдир (1-расм).



1-расм. Масофавий таълим тизими орқали ёшларда тадбиркорлик маданиятини шакллантириш босқичлари

Масофавий ўқитиш тизимини муваффақиятли ташкил этиш учун барча талабларга мос келадиган ягона таълим платформасини яратиш зарур. Бу ишни бошлашда аввало чет тилларини масофадан туриб ўргатишга мўлжалланган кичик платформада кичик гуруҳлар ташкил этиб, синовдан ўтказиш керак. Ушбу синов учун гуруҳ аъзоларини республиканинг турли нуқталаридан танлаш мақсадга мувофиқдир. Бу платформага маълумотларни тартибли жойлаштиришда, мутахассислар ўқитишнинг энг самарали дастурларидан фойдаланган ҳолда амалга оширишлари муҳимдир.

Бу кенг қўламли ишларни амалиётга жорий этиш учун қуйидаги икки ишни қисқа вақтда бажариш зарур:

Биринчидан, бутун республика миқёсида фаолият олиб борадиган вазирлик ёки агентлик ҳузуридаги ягона портал яратиш керак. Бу порталнинг вазифаси барча тадбиркорларни бир муҳитда жамлаш ва янги ёш тадбиркорларга мастер класслар жорий этиш бўлади.

Иккинчидан, мобил телефонлар ва компьютерларга мўлжалланган электрон дарслик, қўлланма ва веб ёки мобил тренер дастурларини босқичма-босқич лекин қисқа вақт оралиғида яратиш керак.

Хулоса қилиб айтганда, тадбиркорлик маданияти – давлат органлари мансабдор шахс ва ходимлари, жамоат ташкилотлари вакиллари, тадбиркорлар ва аҳолининг тадбиркорликни ривожлантириш, инновацион ташаббусларини илгари суриш, қўллаб-қувватлашга қаратилган билим ва кўникмалар йиғиндиси. Мазкур билим ва кўникмалар йиғиндиси тадбиркорлик компетенцияси шаклланишига боғлиқ. Мазкур жараённи масофавий таълим орқали

амалга ошириш барча ёшларни тадбиркорликка жалб этиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов А.А., Имомов Э.З. ва бошқалар. Узлуксиз таълим тизими учун ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш концепцияси // . –Т.: Шарқ, 2002. -15 б.
2. Азларов Т.Р. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари курсини миллий мактабларда ўқитишни такомиллаштиришнинг методик системаси. Пед. фан. ном. ... дисс. -Т., 2013. –150 б.
3. Имомқориев Х.М. Тадбиркорлик маданияти асослари – Т.:Янги китоб, 2018.й
4. Имомқориев Х.М. Тадбиркорлик маданияти асослари. –Т.: Янги китоб, 2015.
5. <http://www.ou.uk>
6. <http://www.une.edu.ay>
7. <http://www.massey.as.nz>
8. [http:// www.ola.bs.sa](http://www.ola.bs.sa)

Relationship between english learning and stem learning

Odina AHMADJONOVA
Namangan state university
PhD student

Due to globalization, English has become increasingly essential for communication. English is one of the most core subjects that students must acquire for greater social understanding. The language is also massively used in technology-based scheme. At the same time, education in the current era of modernization requires schools to be able to create students who are not only possessing cognitive skills but also 21st-century skills. Partnership for 21st Century Skills (P21) elaborated the skills as part of individual competencies known as «The 4 Cs» - communication, collaboration, critical thinking, and creativity. Individuals to face the challenges of the 21st century should possess these four skills.

STEM (Science, Technology, and Engineering & Mathematics) education could be one of the efforts to equip the 21st-century skills. The term STEM Education was first coined in the year 2001 by the scientific administrators of the US National Science Foundation. The word is an acronym for its four component subjects, which are Science, Education, Technology, and Mathematics. The model was thus conceptualized as an integrated and holistic learning experience for students in these disciplines. STEM offers students to learn to apply the main content and practice each of the STEM disciplines in all situations that students face in their lives¹. It provides an opportunity to communicate, collaborate, think at higher levels, and increase creativity as the requirements of the 21st century. With STEM, students are expected not only to be able to solve problems in science, technology, engineering, and mathematics, but also to be able to solve various types of complex problems that can also develop their higher-order thinking skills, besides that STEM can also prepare 21st-century human resource needs and develop competencies in the STEM field. For these reasons, teaching English and connecting this with STEM educational technology is becoming one of the crucial requirements of this period.

¹ Bybee, R. W. The Case for STEM Education- Challenges and Opportunities, NSTA Press, 2013

Over the last decade, STEM employment grew at a much faster pace than non-STEM jobs; 24% versus 4%². . Moreover, STEM employment is predicted to continue to grow much faster than other occupations for the foreseen future. Individuals in STEM fields enjoy 29% higher wages and 50% higher rate in obtaining a college degree compared to their counterparts in non-STEM fields³. Taylor claimed that during the next three decades 90% of the U.S. labor force growth will come from new immigrants and their children and predicted that ELL students will constitute a significant portion of the work force. Hence, STEM education becomes a critical component in preparing ELL students with the skill level needed to make them prosper in a job market that is fueled by advancements in science and technology.⁴

Having read related literature it has been found that college- and career-ready standards present both opportunities and challenges for ELs, necessitating that educators at multiple levels of the education system develop new areas of expertise. Historically, within the classroom, STEM content learning has been considered the province of STEM content educators, while language learning has been considered the province of language educators. Current understanding of the co-development of language and content necessitates that educators of STEM content are familiar with the nature of language, language learning, and exemplary STEM instruction that includes attention to language. To achieve this objective, educators of STEM content must learn to interrogate their preconceived notions and tacit assumptions about language, starting with the most fundamental, though rarely discussed, question, “What is language?” In the same way, language educators will need to become familiar with the nature of STEM content areas.

Research on Language Among English Learners as ELs increased in numbers and became a focus of attention in K–12 classrooms, the first response was to prepare ESL teachers who would teach English to ELs in separate classrooms and then send them to “content” classrooms once they had developed sufficient proficiency. An early response of the field of TESOL (Teachers of English to Speakers of Other Languages) to the challenge of ELs keeping up with grade-level learning in K–12 contexts was the emergence of

² Howard, N. R., & Ifenthaler, D. (2018). Integrating STEM opportunities for young learners, *Tech Know Learn*, 23, 195-197.

³ Langdon, D., McKittrick, G., Beede, D., Beethika, K., & Doms, M. (2011). *STEM: Good jobs now and for the future*. U.S. Department of Commerce; Economics and Statistics Administration. Retrieved from <http://www.esa.doc.gov/sites/default/files/reports/documents/stemfinaljuly14.pdf>

⁴ Taylor, P. (2014). *The next America: boomers, millennials, and the looming generational showdown* (1st ed.). New York: Public Affairs.

“content-based language teaching”. This approach recognized that children best learn language if it is taught in meaningful contexts of use, and that for children in school, the meaningful contexts are the subject areas. This idea was further supported by the work of Cummins ⁵; in particular, he made a distinction between informal conversational language and more formal academic language in his research on children developing bilingual competence at school. This distinction generated controversy from the beginning, but has nonetheless proved valuable in drawing attention to the many ways that individuals use and understand language in education, as well as more generally. Nevertheless, as “content-based language teaching” developed, it was unclear how the relationship between “content learning” and “language learning” was to be articulated. During the same time period, research was increasingly pointing to the need for explicit attention to language itself as part of the second-language learning process in school contexts, as exposure to the language alone did not lead to development of proficiency. Whereas initially this research primarily studied the ways teachers helped ELs use English with greater accuracy by providing feedback on errors, subsequently the main focus of research on English development has changed in recognition that learners inevitably make errors as they expand their meaning-making repertoires .⁶

This study concludes that english learners (ELs) bring a wealth of resources to science, technology, engineering, and mathematics (STEM) learning, including knowledge and interest in STEM-related content that is born out of their experiences in their homes and communities, home languages, variation in discourse practices, and, in some cases, experiences with schooling in other countries. ELs are those students ages 3 through 21, enrolled in an elementary or secondary school, not born in the United States or whose native language is a language other than English, and whose proficiency in speaking, reading, writing, or understanding the English language may be sufficient to deny the individual the ability to successfully achieve in classrooms where the language of instruction is English. The diversity of ELs includes heterogeneity in cultures, languages, and experiences that may have an impact on these students’ education (including the contexts that expose them to risk factors that may have negative impacts). Federal,

⁵ Cummins, J. (1981). The role of primary language development in promoting education success for language minority students. In California State Department of Education (Ed.), *Schooling and Language Minority Students: A Theoretical Rationale* (pp. 3–29). Los Angeles: California State University

⁶ Valdés, G. (2005). Bilingualism, heritage language learners, and SLA research: Opportunities lost or seized? *The Modern Language Journal*, 89(3), 410–426

state, and local policies can either facilitate ELs' opportunities in STEM or constrain teaching and learning in ways that are detrimental. This report addresses the factors that affect ELs' access and opportunity to rigorous, grade-appropriate STEM learning. ELs develop STEM knowledge and language proficiency when they are engaged in meaningful interaction in the Classroom that includes participation in the kinds of activities in which STEM experts and professionals regularly engage. Whereas there is no language without content, some content is less dependent on language. STEM subjects afford opportunities for alternate routes to knowledge acquisition (i.e., experimentation, demonstration of phenomena, and demonstration of practices) through which students can gain a sense of STEM content without resorting predominantly to language to access meaning-it is through this experience that language is also learned.

References

1. Ahmadjonova, O. A. (2023). Developing students' communicative competence on the basis of STEM educational technology: history and future. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(10), 162-168. (2023) <https://doi.org/10.5281/zenodo.7989045>
2. Bybee, R. W. *The Case for STEM Education- Challenges and Opportunities*, NSTA Press, 2013
3. Howard, N. R., & Ifenthaler, D. (2018). Integrating STEM opportunities for young learners, *Tech Know Learn*, 23, 195-197.
4. Langdon, D., McKittrick, G., Beede, D., Beethika, K., & Doms, M. (2011). *STEM: Good jobs now and for the future*. U.S. Department of Commerce;
5. Taylor, P. (2014). *The next America: boomers, millennials, and the looming generational showdown* (1st ed.). New York: Public Affairs.
6. Cummins, J. (1981). The role of primary language development in promoting education success for language minority students. In California State Department of Education (Ed.), *Schooling and Language Minority Students: A Theoretical Rationale* (pp. 3-29). Los Angeles: California State University
7. Valdés, G. (2005). Bilingualism, heritage language learners, and SLA research: Opportunities lost or seized? *The Modern Language Journal*, 89(3), 410-426

Bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari

Marjona UZOQOVA
O'zDJTU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Zafar ABDUSAMADOV
*O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti dekani
(Ilmiy rahbar)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yosh bolalarga ingliz tilini xorijiy til sifatida mukammalroq va har qachongidan samaraliroq o'rgatish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: texnologiya, metodlar, multimedik metod, ko'rgazmali qurollar, dunyo qarash, mutaxassis.

Hozirgidek rivojlangan bir zamonda, aynan bizning mamlakatimiz O'zbekistonda chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'rganish ta'lim sohasining bir muhim bo'g'inlaridan biriga aylangan. Buning asosiy sababi butun dunyo ingliz tilida muloqotga kirishayotganligidadir. Har bir O'zbekiston fuqarosi ingliz tilini o'z ona tilidan keyingi ikkinchi yoki uchinchi o'rinlarda mukammal bilishi, bu dunyo bilan hamnafas bo'lish, uning eng so'ngi yangiliklaridan xabardor bo'lish yoxud o'z yangiliklarini dunyoga oshkor qila olish imkonini beradi. Shunday ekan, bizning mamlakatimiz va undagi fuqarolar ingliz tilini ommaga kengroq va o'zgacha usullarda o'rgatish haqida bosh qotirmoqda. Bu kabi muhim jabhalarda eng kerakli yo'llardan biri bu o'quvchilarga ingliz tilini ularning bolalik chog'idan o'rgatib borishdir. Bolalarga til o'rgatish biroz murakkab bo'lishiga qaramasdan, o'z navbatida qiziqarli mashg'ulotlardandir.

Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish haqida gap borar ekan, o'rgatishning turli xil metodlari va usullari haqida gapirib o'tish darkor. Til o'rgatishda birinchi o'rinda til o'rgatuvchi mutaxassis o'z ishining ustasi bo'lishi talab qilinadi. Bu degani, o'qituvchilar faqatgina o'rgatadigan bilimni mukammal bilishi yetarli emas. Mutaxassis qaysidir ma'noda psixolog ham bo'lishi kerak. Ulardan bu nima sababdan talab qilinyabdi? – degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Bolalarga til o'rgatishga birlashtirilgan o'qituvchi, maktabgacha ta'lim muassasalarida esa tarbiyachi faqatgina o'rgatishi kerak bo'lgan til ya'ni ingliz tili haqidagi ma'lumotlarni mukammal egallagan bo'lishi, bu uning bolalarga o'zi bilganchalik ma'lumotlarni to'liq yetkaza olishini anglatmaydi. Buning uchun ularda psixologik va pedagogik

mahorat ham bo'lishi kerak. Chunki bolalarning fikrlashi va dunyo qarashi o'zgacha bo'ladi. Ular har qanday narsani ko'rsatilgan holatda eslab qoladi.

Bolalarga til o'rgatishda murakkab qoidalar va formulalardan foydalanish bu shunchaki har ikkala tomonning ham vaqtini behuda sarflash va bola miyasida turli xildagi chalkashliklarni keltirib chiqarish xolos. Bularni hozirda yetishib chiqayotgan pedagogik mutaxassislar juda yaxshi bilishadi. Demak quyida ular hozirgi kungacha foydalangan bolalarga til o'rgatish metodlari haqida o'z fikrlarimizni bildirib o'tamiz.

Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodlari:

Multimedik metod. Hozirda, ya'ni biz yashab turgan vaqt kompyuter texnologiyalari va internet shiddat bilan rivojlanayotgan davr hisoblanadi. Har bir sohada ularning ta'siri bor. Shunday ekan ingliz tilini o'rgatish metodlari orasida ham birinchi o'rinda ulardan foydalanish orqali o'rgatishni aytish o'rinlidir. Ya'ni turli xil texnikalar orqali til o'rganish metodiga – multimedik metod deyiladi. Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi bolalar o'qigan yoki yod olgan narsalaridan ko'ra ko'proq ko'zlari bilan ko'rgan narsalarini boshqalariga qaraganda tezroq eslab qoladilar. Multimedik o'qitish metodidan foydalanish orqali esa biz buni amalga oshirishimiz mumkin. Ya'ni kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilida bo'lgan biror bir qiziqarli va qisqa bo'lgan multfilm qo'yib berish, ularning ham zerikmasliklariga, ham bir vaqtning o'zida ingliz tilini o'rgana borishlariga olib keladi. Nega multfilmning qisqa bo'lishi kerakligini aytdik? –Negaki bola diqqati uzog'i bilan 10-15 minutni tashkil qiladi.



Shu muddatdan o'tgan sari bolada zerikish paydo bo'ladi. Hamda multfilmning qisqa bolishi kerak ekanligining boshqa bir sababi bu ularning sog'liklariga salbiy ta'sir ko'rsatishidir. Multimedik metodning yana bir qiziqarli turi bu ingliz tilidagi qiziqarli bolalar bob musiqani ularga qo'yib berib, so'ngra bolalarni bu kuyni kuylashga undashdir. Bu orqali til o'rganayotgan bolalarda talaffuzining ravonlashishi, eshitib tushunish qobiliyatining o'sishini kuzatish mumkin. Multimedik metodning foydali tomonlari ham shundadir.

O'yin metodi. Biz bilamizki barcha kichik yoshdagi bolalarning o'yin o'ynashga ishtiyoqlari baland bo'ladi va ularning har bir o'ynayotgan o'yinlarining zamirida nimadirni o'rganishga bo'lgan ma'no mavjud. Mana shu ma'noni ingliz tilini o'rganishga yo'naltirish bu - o'yin metodi deb nomlanadi.

Masalan: eng sodda o'yinlardan biri o'tirish-turish(Stand up-sit down) o'yini, o'yin boshida o'tirish va turish so'zlarining ingliz tilidagi muqobillari o'qituvchi tomonidan bolalarga aytiladi ya'ni o'rgatiladi, so'ngra o'yin davomida mana shu so'zlar ingliz tilida buyruq sifatida bolalarga berib boriladi. Bolalar o'yinda yengilmaslik maqsadida bu so'zlarni yaxshiroq eslab qolishga harakat qilishadi. Bu orqali ham bolalarda til o'rganish sodir bo'ladi, ham ularda zukkolik, tezkorlik kabi sifatlar ham rivojlana boradi.

Ko'rgazmali qurollardan foydalanish metodi. Bolalarga til o'rgatish uchun biriktirilgan o'qituvchilar yuqoridagi 2ta metoddan foydalanish bilan bir qatorda ularga ingliz tilini o'rgatish uchun ko'rgazmali qurollardan foydalanishlari ham mumkin. Bunga misol qilib, "Maktab o'quv-qurollari" nomlarining ingliz tilida aytilishini bolalarga o'rgatish uchun ularning barchasi ko'rsatiladi. Misol uchun, "ruchka" quroli "pen" deb aytiladi va "ruchka" bolalarga ko'rsatiladi va shu kabi boshqalari ham. Ya'ni bu metodda o'rgatilayotgan barcha narsa ko'rinishga ega bo'lishi talab qilinadi.

Ta'tib ko'rish metodi. Bu usuldan ko'pincha narsa va predmetlarning maza-tamini bildiruvchi so'zlarni ingliz tilida aytilishini o'rgatish uchun foydalaniladi. Masalan, "olma" mevasi ko'rsatiladi, bolalar uni ingliz tilida "apple" deb aytishadi. So'ngra ularga "olma"ni ta'tib ko'rish buyuriladi, ular "shirin" deganda o'qituvchi "shirin" so'zining ingliz tilidagi muqobili ya'ni "sweet" so'zi aytadi. So'ngra bolalar bu so'zni takrorlashadi va oson eslab qolishadi. Bu metod ham til o'rganishda anchagina samarali usul deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi.

Imo-ishora metodi. Imo-ishora metodi ham boshqa o'rgatish usullari kabi foydali metodlardan biridir. Bunda o'rganilayotgan lug'atdagi so'zlar ma'nosi o'qituvchi yoki u tomonidan tanlab olingan biror bolakay tomonidan

imo-ishora orqali ko'rsatib beriladi. Qolgan bolalar esa ishoralardan foydalangan holda shu so'zlar tarjimasini ingliz tilida aytib borishadi. Imo-ishora metodi orqali bolalarni aqliy o'ylash tezligini oshirish mumkin. Bu metod ularni zerikib qolishlarini oldini oladi va qiziqarli yo'llar bilan ko'proq va samaraliroq lug'at yodlashlariga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Blog.xabar.uz "Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi". Shomansurov Sh.
2. "Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini tez va oson o'rgatishning zamonaviy metodikasi". Yo'ldasheva.F.F , Sattorova.G.F
3. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini tez va oson o'rgatishning samarali usullari". Mustafoyeva S.

Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'рни

Xilolaxon SAIDOVA

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishda ta'lim texnologiyalarining o'рни va ahamiyati, ta'lim jarayoni texnologiyalarini tanlash, ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini shakllantiruvchi omillar ularning o'ziga xosligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, texnologiya, omil, sifat, o'quv jarayoni, maqsad, xususiyat, natija.

Inson faoliyatining har qanday turi maqsad va natijaga ega bo'lib, kutilgan natijani olishga imkon beruvchi muayyan harakatlar yoki operatsiyalar jarayoni, majmui va ketma-ketligi sifatida amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida maqsadga erishishga olib keladi. Ta'lim jarayoni odamlarning katta guruhining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'lib, bunga o'qituvchilar, talabalar, ta'lim ma'muriyati xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar kiradi.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari ta'limning maqsad va vazifasini belgilash va bu asosda natijaga erishishda turli zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'рни va ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyasi haqida turli xil fikrlar mavjud. Ko'pincha bu tushuncha o'z mohiyatiga ko'ra o'quv rejasi, o'quv jarayonini tashkil etish tushunchalari bilan belgilanadi.

Shuningdek, texnologiya deganda ko'pincha o'quv jarayonini axborot bilan tartibga solish, uni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, bunda kompyuterlar asosiy rol o'ynaydi deb tushunadilar. O'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish, albatta, o'quv jarayonining texnologik xususiyatlaridan biridir. Ammo bu ta'limning butun texnologiyasi emas. Buning yana boshqa bir ta'rifi bo'lib, unga ko'ra Texnologiya - bu o'qish davridagi bilim va kasbiy faoliyat ko'nikmalarini to'plash jarayonidir.¹

Ta'lim texnologiyasi ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish, yaxlit jarayonni qismlarga ajratish, ta'lim natijalarini standartlashtirish, ta'lim jarayonidagi

¹ Коротков, Э.М. Управление качеством образования: учебное пособие для вузов /Э.М. Коротков. — 2-е изд. — М. : Академический Проект, 2007. — 320 с. 100 бет

samarali teskari aloqa, avtomatlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish kabi muhim ta'limiy muammolarni ijobiy hal qilish imkonini beradi.²

Ta'lim texnologiyasi, ta'lim jarayonining maqsadli va sifatli tashkil etishni, vaqtni samarali taqsimlashni va mazmun xususiyatlari bo'yicha eng oqilona variantni tanlashni o'zida aks ettiradi.

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotning asosiy va ilg'or g'oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.³

O'quv jarayonini tashkil etishning juda ko'p variantlari mavjud bo'lib, ularning ichida eng muhimlari: bilim olish, ko'nikmalarga ega bo'lish, tajribani o'zlashtirish, qobiliyatlarni rivojlantirish, kasbiy faoliyat san'atini egallash va boshqalardir.

Ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonini amalga oshirishda kuchlar, e'tibor va shuningdek, resurslarning turlicha taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi, ta'lim boshqaruvining xilma-xil texnologik ko'rinishini va ularni samaradorlik va sifat mezonlari, maqsadlar va yangi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tanlash, loyihalash, o'zgartirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Ta'lim texnologiyasi, bilimlarni o'zlashtirish, chuqurlashtirish, uni xotirada uzoq muddat davomida saqlab qolish, o'quv jarayonining ritmi va intensivligini ta'minlash, pedagog kadrlar salohiyatini bilim turlari va sohalari bo'yicha taqsimlash usullarining ketma-ketligidir. Ta'lim texnologiyasi fanlarni differensiyallashtirish va integratsiyalash talablarini, ularning hajm nisbatlarini ham belgilaydi. Ta'lim usullarining ustuvor yo'nalishlari va o'qitish usullarining kombinatsiyasini tanlash ta'lim jarayonining texnologik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Bugungi kunda zamonaviy ta'limning texnologik diversifikatsiyasini kuzatish mumkin. U o'quv jarayonining turli xil kombinatsiyalangan texnologik sxemalarini qo'llash va paydo bo'lishida o'zini namoyon qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonlarida eng ko'p uchraydigan texnologik sxemalar: bilimlarni taqdim etish (ta'minlash) va egallash texnologiyalaridir. Bu masofaviy ta'limda yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin, bilim olishdan ko'ra

² У.К.Толипов, М.Усмонбоева Педагогик технологияларнинг тарбиявий асослари Тошкент Узбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2006 42-б

³ Н.Т. Омонов, Н.Х. Хо'jayев, С.А. Мадьярова, Е.У. Eshchonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: 5A340605 - «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik / Obzbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. - T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.

samaraliroq texnologiya bu o'zlashtirishdir. U asosan kunduzgi ta'limda yaqqol namoyon bo'ladi. Garchi, texnologik xususiyatlariga ko'ra, kunduzgi ta'lim ko'pincha kasbiy ongni shakllantirish tamoyillariga muvofiq emas, balki bilim berish va uni egallashni nazorat qilishning soddalashtirilgan tamoyillariga muvofiq tashkil etilgan.

Xorijda juda keng tarqalgan va so'nggi paytlarda mamlakatimizda tobora ommalashib borayotgan amaliy mashg'ulotlar texnologiyalari mavjud bo'lib, ularning asosiy xususiyati samarali amaliy faoliyat ko'nikmalarini egallash va mustahkamlashdir.

Yangi texnik vositalarning paydo bo'lishi va ularni o'quv jarayonida qo'llash tendensiyalari munosabati bilan ta'limning axborot va kompyuter texnologiyalari keng tarqaldi. Ta'lim sifatini oshirish uchun aynan ta'limning axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish samaraliroq bo'ladi, ammo bu imkoniyatlarni samarali amalga oshirish hali ham muammo bo'lib qolmoqda. Ta'lim sifatini ta'minlashda, samaradorligini oshirishda o'z-o'zini tarbiyalash texnologiyasini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz, bugungi kunda uzluksiz ta'lim ahamiyatidan kelib chiqqan holda ularga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. O'z-o'zini tarbiyalash nafaqat bilimlarni mustaqil egallash balki, ta'lim jarayonida bilimlarni ketma-ketlikda o'zlashtirish jarayonidir. Buni masofaviy ta'limning bir turi sifatida ham, odatiy o'quv jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirishning maxsus texnologiyasi sifatida ham ko'rib chiqish mumkin.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida fanlarni kasbiylashtirish texnologiyalari ham, maqsadli ta'lim texnologiyalari ham amalga oshirilishi mumkin. Ular bir-biridan fanlar majmuasi, usullari, o'quv jarayonini boshqarish tizimi kabi juda ko'p xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish nafaqat ta'lim tashkilotlarida o'z-o'zini tarbiyalash shaklidagi amaliy faoliyatda o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlashni, balki bilimlarni kasbiy va ijtimoiy ongning yangi sifatiga aylantirishni o'z ichiga oladi.

Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va ta'limning muayyan sifatiga bo'lgan ehtiyoj texnologiyaga prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni va shu asosda ta'limni tashkil etish va uslubiy ta'minlashni talab qiladi. Bu, ayniqsa, menejment, marketing va shu kabi nisbatan yangi mutaxassisliklar uchun to'g'ri keladi. Bu yondashuvlar ko'plab tamoyillar va usullarni o'z ichiga oladi. Lekin eng asosiysi, ta'limning predmet-axborot turining oldingi sxemasidan kasbiy va ishbilarmonlik ta'limiga, aniqlovchi

ta'limdan ilg'or va istiqbolli ta'limga, reproduktiv ta'limdan ijodiy ta'limga o'tishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Коротков, Э.М. Управление качеством образования: учебное пособие для вузов /Э.М. Коротков. — 2-е изд. — М. : Академический Проект, 2007. — 320 с. 100 bet

2. У.К.Толипов, М.Усмонбоева Педагогик технологияларнинг тарбиявий асослари Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2006 42-б

3. Н.Т. Омонов, Н.Х. Хо'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: 5A340605 - «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. - T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.

Yosh kadrlarni tayyorlashda yangicha yondashuv

Daler XALIMOV
*Termiz muhandislik-texnologiya
instituti talabasi*

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari yoshlar kamoloti haqida «agar biz ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa – butun jamiyatimiz o'zgaradi», deya fikr bildirganlar. Chindan ham, hozirgi globallashuv sharoitida yuqori bilim va malakaga ega, raqobatbardosh kadrlarga barcha sohalarda ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Sir emaski, so'nggi yillarda kelajagimiz vorislarining munosib bilim olishi, o'z orzu-havaslarini ro'yobga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, yoshlar bilan ishlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va muammolarini hal etishning samarali mexanizmlari hayotga tatbiq etilmoqda. Buning ezgu ishlar samarasi o'laroq, yoshlarimiz zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallab, jamiyat hayotidan mustahkam o'rin olishmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasida keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayoni zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan, raqobatbardosh va innovatsion texnologiyalarni qo'llay oladigan yosh avlodni tarbiyalashni talab etmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim -tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi. Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning

yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi yaratish, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqarish, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantirishda, ilmiy-pedagog kadrlar, talabalar va o'quvchilar almashish jarayoni kengayadi. Manfaatdor vazirliklar va idoralarning, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchixonalarining kadrlar tayyorlash sohasiga chet el investitsiyalarini bevosita va bilvosita keng jalb qilish borasidagi faoliyatini kuchaytirishi va yosh kadrlarni chet el oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishlari o'z navbatida yosh kadrlarning dunyo qarashi va fikrlashi o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda rivojlanib borayotgan internet davrida shiddat bilan rivojlanib borayotgan sohalaridan biri bu sun'iy intellektidir. Yangi rivojlanib borayotgan sohalarda yosh kadrlarni tayyorlash bu o'z navbatida har bir sohani rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yosh kadrlarni kreativlik qobiliyatini rivojlantirish bu asosiy masalalardan biridir. Kreativ fikrleydigan yoshlar hozir zamon talabidir, chunki har bir sohada o'zgacha yondashuv, yangi g'oyalar har qachongidan zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-soni.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. O'RQ-637-son.

3. <https://lex.uz/>

Yosh kadrlarni tayyorlashda samarali uslublar

Muslimaxon NEMATULLAYEVA
O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Shohsanam SHUKUROVA
*O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar
№3 kafedrasida o'qituvchisi
(Ilmiy rahbar)*

Annotatsiya. Hozirgi davrda yosh malakali kadrlarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Shu tufayli, ta'lim jarayonida o'qitish sifatini yaxshilash bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada kadrlarni tayyorlashning yodashuvlari, uslublari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi, kadrlar, malakaviy amaliyot, ta'lim tizimi.

Kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish, ularning kasbiy komponentligini doimiy rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda bir qator islohotlar hamda ta'lim tizimini to'g'risida qarorlar qabul qilinmoqda.

Professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda quyidagilar talab etiladi:

❖ Metodik ehtiyojlarni to'laqonli qondirish maqsadida qayta tayyorlash va malaka oshirishning ilg'or shakl va usullarning joriy etilishi;

❖ Kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot hamda o'quv-metodik ishlarni olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish;

❖ Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqish, kurslardagi o'quv mashg'ulotlarini ham offlayn ham onlayn shakllarida tashkil etishni yanada takomillashtirish;

❖ Mavjud yo'nalishlar bo'yicha fanlarning kasbiy hamda maxsus bloklari asosida malaka oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish, shu bilan birga, ular bo'yicha zamonaviy metodik va axborot-ma'lumotnoma bazasini yaratish;

❖ Ushbu jarayonni mashg'ulotlar orqali zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ta'lim muassasalarida tashkil etish.

Ta'lim tizimini rivojlantirishga doir qarorlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Oliy ma'lumotli mutaxassislar

tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-iyuldagi PQ 3151- sonli hamda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ 3775-sonli qarorlariga Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari sinov tajriba asosida malakaviy pedagogik amaliyotini o'tash tartibini belgilaydi. Malakaviy amaliyot O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 30-oktyabrdagi 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv rejasi asosida o'tkaziladi. Malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak mutaxassis o'z kasbga mos nazariy bilimlarni mustaqil ravishda hayotga tatbiq etish yo'llarini o'rganadi, kasbga doir malakalarni egallaydi, bolalar rivojlanishini kuzatadi, tahlil qiladi, bilim darajasini baholaydi hamda ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni o'rganadi.

Malakaviy amaliyot quyidagi turlarga bo'linadi:

➤ Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik-psixologik kuzatuv amaliyoti.

➤ Sinov va tajriba o'tkazish amaliyoti.

➤ Tajriba mashg'ulot o'tkazish amaliyoti.

➤ Diplom oldi pedagogik amaliyoti.

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi. Ushbu dastur "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq ravishda tayyorlangan bo'lib, milliy tajriba tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan, shu bilan birga, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish hamda hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan. Dasturning maqsad va vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- Ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy etish;

- Uzluksiz ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish;

- Kadrlarni tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kadrlarni tayyorlash tizimi va uni isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

- Respublikaning adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotganligi;

- Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;

- O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqeyi va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, yuqorida keltirib o'tilganidek professional kadrlarni tayyorlashga jahon standartlariga mos keluvchi uslublardan foydalanish hamda "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi"ni amalda joriy qilish orqali erishib kelinmoqda. Kadrlarni tayyorlash muhim masala sifatida hech kimning e'tiboridan chetda qolmaydi. Zeroki, jamiyat uchun malakali kadrlarni tayyorlash, yetkazib berish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://xs.uz/uz/post/olij-ta'lim-muassasalarida-ta'lim-sifatini-oshirish-va-ularning-mamlakatda-amalga-oshirilayotgan-keng-qamrovli-islohotlarda-faol-ishtirokini-ta'minlash-bo'yicha-qo'shimcha-chora-tadbirlar-to'g'risida>
2. <https://lex.uz/docs/-3357530?ONDATE=26.01.2021>
3. <https://www.cspi.uz/uz/qarorlar-sahifasi/kadrlar-tayyorlash-milliy-dasturi>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/bo'lajak-pedagoglarni-tayyorlash-tizimida-malakaviy-amaliyotning-rol>
5. <https://lex.uz/docs/-48401>
6. <https://jizzaxmohm.uz/nhh/pedagog-kadrlarni-tayyorlash-xalq-ta'limi-xodimlarini-qayta-tayyorlash-va-ularning-malakasini-oshirish-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-to'g'risida>
7. <http://new.tdpu.uz/news/4310/ru>
8. <http://fayllar.org/O'zbekiston-Respublikasi-Oliy-va-o'rta-maxsus-ta'lim-vazirligi-mu-v106.html>

Youth contribute to the development of world civilization with their high level of intelligence

Mokhinur SOTVOLDIEVA
Andijan state university
1th master's student

Abstract. In this scientific work, we will discuss the fact that the future of the state and the development of young personnel are directly dependent on quality education, the role of innovative technologies in it, international experience and achievements in education.

Keywords: education, innovation, students, scientists and entrepreneurs, geology, mathematics, physics, health, education, 3D modeling and other areas.

We all cannot ignore that today's young people receive education in several specialties, which is important for them to find a worthy place in society, start their own business, and implement new production ideas. So, today's education of young people, who are the creators of the future, is an important factor that determines our tomorrow. That is why all conditions are being created in Uzbekistan to ensure employment of young people, to get quality education and to fully demonstrate their talents. In addition, their social and legal protection is also a constant focus.

It can be seen that the issue of youth is one of the most priority areas of state policy. Uzbekistan is a country of happy young people, about 64% of the population of our country are young people. It is a clear fact that in the future every third leader will be young people. In this days, the problems of youth education are a global issue for almost all countries. Regarding these topics, the President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev said at the 72nd session of the UN General Assembly: "The youth of today's world is the largest generation in the history of mankind in terms of number, because they make up 2 billion people".

It is fair to say that the science of pedagogy is independent in the Republic of Uzbekistan theoretical foundations of the continuous education system, laws and principles, specific directions of education is a science that teaches the stages of historical development. Pedagogy, is based on the laws of nature and the development of society and it develops as a social science. Therefore, it is a philosophy, such subjects as history, economics, psychology, sociology, ethics and aesthetics inextricably linked with it. Among the global trends such as the internationalization of education, the international mobility of students, the rapid change of the educational program, the issue of ensuring

the quality of education is gaining special importance. Modern socio-economic conditions and the high demands placed on the spiritual, moral, intellectual and professional potential of future specialists put the task of training quality personnel who can meet international requirements before educational institutions. In order to fulfill these tasks, it is necessary to use innovative pedagogical technologies in education. However, modern trends in the educational system, especially the innovative pedagogical technologies used in the educational system of developed foreign countries, are being relatively slowly assimilated.

So, in the educational process, teaching using new innovative techniques and technologies, conducting training using laboratory rooms equipped with the latest techniques, providing information about the latest innovations in the specialty, for example, in the field of chemistry, giving examples from the world experience motivates to educate students in the spirit of innovation. The future and well-being of our planet depends on how our children grow up to be human beings. Therefore, today, the main task of us teachers-coaches is to create the necessary conditions for young people to show their potential, to carry out explanatory work to prevent the spread of the idea of violence - the «virus», to provide social support to the young generation, to protect their rights and interests. We believe that it is necessary to develop multilateral cooperation.¹ That's why young people have always been recognized as an active layer of society. Even during the Eastern Renaissance, the role of youth in the renewal of society was incomparable.

Poet O.Khaydarov said that in an interview with the mass media - «What our future will be like, renewal and changes will depend on the attention we pay to our patriotic youth today. It is one of our main tasks to educate them to be selfless, patriotic, intellectually and physically perfect. «By the way, this is the truth.² Measures to create suitable conditions for young people who do not work or study anywhere, provide them with comprehensive support, guide them to the profession and ensure their employment, and encourage their initiatives have reached a new level in recent years. Tomorrow, a peaceful life will directly depend on the perception, worldview, knowledge and skills of our growing youth. Therefore, our government always considers our desire to learn as a priority. In particular, the Law of the Republic of

¹ Sh.Mirziyoyev, the President of Uzbekistan. (The problems of youth education, 72nd session of the UN General Assembly)

² O'.Khaydarov, "Young people are the new builders of UZBEKISTAN"-2021.

Uzbekistan «On State Policy Regarding Youth» means that the legal guarantees of the rights and interests of young people are getting stronger in Uzbekistan.

New innovative technologies are being introduced for our education, which serves to further increase the number of talented people among young people. As, in today's world, the number of rapidly developing countries due to the introduction of innovative development models, the export of advanced ideas, «know-how» and «smart» technologies is increasing. We young people know very well that innovation means the future. We will start building our great future based on innovative ideas. We did not choose to move to the path of innovative development and digital economy for nothing. Because in today's fast-paced world, who wins? The country that relies on new thought, new idea, innovation will win. Young people are showing their talent and potential in big technological development marathons like «Start-up», «Techno Ways». He has become a winner of grants and is turning his developments into useful devices. In addition, the «Youth Academy» was established in my country.

“Based on the formation and strengthening of national pride in young people, their social it is necessary to pay special attention to increasing their activity. In the current globalization process, we can clearly say that only young people who are disciplined, responsible, patient, faith-believing, tolerant, socially active, enterprising and possessing such noble qualities can be the creators of the future» - These ideas presented on the official page of the university of World Economy and diplomacy in the social network are today's demand.³ Today, there are many talented people among the youth, who make up 60% of the population of my country. At the heart of their all-round support, the main criterion is the education of independent individuals who can take a worthy place in our country and the world arena with their own ideas.

In conclusion, such young people will not only build a peaceful future of their country, but also contribute to the development of world civilization with their high level of intelligence and their own potential. So, young people who are enjoying the country are the builders of our future.

³ W. E. (n.d.). Young people are the creators of tomorrow. 2020.

References

1. Sh.Mirziyoyev, the President of Uzbekistan. (The problems of youth education, 72nd session of the UN General Assembly)
2. O'Khaydarov. (2021, 26th july). «Young people are the new builders of Uzbekistan».
3. W. E. (n.d.). Young people are the creators of tomorrow. 2020.
4. Karimov I.A. A perfect generation is the foundation of Uzbekistan's development. - Tashkent: Sharq, 1997. - 181 p.
5. <https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1358>
6. <https://www.standart.uz/news/view?id=3344>
7. <https://lex.uz/>

Yosh avlodda nutq rivojlanishing psixologik mohiyati

Erkin ISMOILOV

Termiz muhandislik - texnologiya instituti o'qituvchisi

Ilyos BO'RIYEV

Termiz muhandislik texnologiya instituti talabasi

Madibraimov XOLMAMAT

Termiz muhandislik texnologiya instituti talabasi

Annotatsiya. Maqolada nutqning paydo bo'lishi, nutqning fiziologik asosi, nutq turlarining psixologik tavsiflanishi verbal va noverbal nutq shakllari haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutq, stereotip, Fizionomiya, imo-ishoralar, noverbal, verbal, mimika, pantomimika, monolog, dialog.

Nutq odamlarning asosiy aloqa vositasidir. U siz odam katta hajmdagi ma'lumotni qabul qila olmaydi va uzatolmaydi. Yozma nutqsiz, odam avvalgi avlodlarning odamlari qanday yashaganligi, ularning fikrlari va ishlarini bilish imkoniyatidan mahrum bo'lar edi. Uning fikrlari va his-tuyg'ularini boshqalarga etkazish imkoniyati bo'lmaydi. Aloqa vositasi sifatida nutq tufayli insonning shaxsiy ongi, shaxsiy tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan boyitiladi va kuzatuv va nutqdan tashqari boshqa jarayonlarga qaraganda, to'g'ridan-to'g'ri bilish amalga oshiriladi. sezgi orqali amalga oshiriladi: idrok, e'tibor, tasavvur, xotira va fikrlashga imkon beradi. Nutq orqali bir kishining psixologiyasi va tajribasi boshqa odamlar uchun mavjud bo'lib, ularni boyitadi, rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Insoniyatda nutqning paydo bo'lishigacha, imo-ishoralardan foydalanib kelgan. Qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo'lsa, o'sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma'lumotlar ko'lami tor bo'lgani tufayli insonlar noverbal nutqdan ko'p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar.

Insonda nutq qachon paydo bo'lganligi muammosini ko'rib chiqsak, insonda ushbu ruhiy hodisaning paydo bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bir qator fikrlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu erda boshlang'ich nuqta ish, to'g'rirog'i, faoliyatning qo'shma shakli hisoblanadi, buning natijasida aloqaga shoshilinch ehtiyoj paydo bo'ladi. Filogenezda nutq dastlab faqat odamlar o'rtasida bevosita aloqa vositasi, ular o'rtasida lahzalik ma'lumot almashish vositasi sifatida harakat qilgan. Bu taxmin ko'plab hayvonlarning aloqa

vositalarini ishlab chiqqanligi bilan tasdiqlanadi. Misol uchun, shimpanzelarda biz nisbatan yuqori darajada rivojlangan nutqni topamiz, u qaysidir ma'noda odamga o'xshaydi. Biroq, shimpanze nutqi faqat hayvonlarning organik ehtiyojlarini va ularning subyektiv holatlarini ifodalaydi. Bu emotsional-ekspressiv iboralar tizimi, lekin hech qachon hayvondan tashqarida biron bir narsaning ramzi yoki belgisi emas. Hayvonlar tilida inson nutqi boy bo'lgan ma'nolar va undan ham ko'proq ma'nolar mavjud emas. Shimpanzelarning imo-mimik va pantomimik muloqotining turli shakllarida hissiy va ekspressiv harakatlar juda yorqin, shakl va soyalarga boy bo'lsa-da, birinchi o'rinda turadi.

O'zbek millatida fikrni tasdiqlash uchun old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma'noni balgarlarda boshni sarak-sarak qilishi anglatib keladi. Bir xalqda sanash boshmoldoqdan boshlansa, boshqasida jimjiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida unday qilinmaydi.

Etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma'lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma'noli, mazmunli harakat turi imo-ishorali nutq deyiladi.

Yuz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o'zgalar fikriga javob qaytarish, tana a'zolari rangining o'zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo'luvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi.

Noverbal nutqni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) tovushsiz: a) imo-ishora, b) mimika d) pantomimika, e) daktiologik; 2) tovushli: a) exologik (aks-sado), b) signifikatsiya (shartli belgilar, signallar, modellar).

Og'zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo'lgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko'rinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, poliologik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig'iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahl).

Nutqning ikki xil: dialogik va monologik turlari mavjud bo'lib, ularning har qaysisi o'z xususiyatiga ega. Dialogik nutq shakli (ikki yoki bir necha kishining suhbat, savollar va uning javoblari) bu (qisqa) javobdir. Dialogik nutqning asosiy belgilari-to'liq bo'lmagan, undov so'zlardan iborat, aniq intonatsion manodorlik (ifodalash), imo-ishora va boshqalardir. Dialogik nutqda savol tuza olish va savol berish, eshitgan savoliga taalluqli javobni berish, kerakli e'tirozni bildirish, suhbatdoshining javobini tuzatish va toldirish, muhokama va munozara qilish, o'z fikrini asoslash va boshqalar juda muhimdir. Monologik nutq bir kishining nutqi bo'lib, so'zlovchidan keng, aniq,

to'liq, bog'langan fikrni talab etadi. Monolog hikoy tushuntirish, so'zlovchidan o'z fikrini asosiy narsaga qaratishni, jonli, obrazli, his-hayajon bilan gapirishni talab etadi.

V. Tixeyeva, A. Sh. Usova, A. M. Muxina, L. A. Penevskaya, M. M. Konina, O. I. Solovyova va boshqalarning bog'anishli nutq sohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida bolalarda boglanishli nutqni rivojlantirishda tarbiyachining rahbarlik roliga katta ahamiyat beradilar. Ular: «Agarda bog'lanishli nutqqa qaratilgan mashg'ulotlar uzluksiz (sistemali) tarzda olib borilsa, unga tarbiyachi ongli ravishda rahbarlik qilsa, bolalarda o'z fikrlarini bir-biriga bog'lab gapirish malakasi rivojlanadi», degan fikrni bayon etadilar.

O'zining hayotiy ma'nosiga ko'ra nutq ko'p funktsional xususiyatga ega. Bu nafaqat aloqa vositasi, balki fikrlash vositasi, ong, xotira, ma'lumot (yozma matnlar) tashuvchisi, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini boshqarish va shaxsning o'z xatti-harakatlarini tartibga solish vositasidir. Uning funktsiyalarining ko'pligiga ko'ra, nutq polimorfik faoliyatdir, ya'ni. turli funktsional maqsadlarida turli shakllarda taqdim etiladi: tashqi, ichki, monolog, dialog, yozma, og'zaki va boshqalar. Nutqning ushbu shakllari bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, ularning hayotiy maqsadi bir xil emas. Masalan, tashqi nutq, asosan aloqa vositasi, ichki - fikrlash vositasi rolini o'ynaydi. Yozma nutq ko'pincha ma'lumotni yodlash usuli sifatida ishlaydi. Monolog bir tomonlama, dialog esa ikki tomonlama ma'lumot almashish jarayoniga xizmat qiladi.

Tilni nutqdan farqlash muhimdir. Ularning asosiy farqlari quyidagicha: Til - bu odatiy belgilar tizimidir, uning yordamida odamlar uchun ma'lum ma'no va ma'noga ega bo'lgan tovushlar birikmasi uzatiladi. Boshqa tomondan, nutq - bu yozma belgilarning mos keladigan tizimi bilan bir xil ma'noga ega va bir xil ma'noga ega bo'lgan talaffuz qilingan yoki sezilgan tovushlar to'plamidir. Til uni ishlatadigan barcha odamlar uchun bir xil, nutq alohida o'ziga xosdir. Nutq nutqning ushbu xususiyatlari o'ziga xos bo'lgan shaxs yoki odamlar jamoasining psixologiyasini ifodalaydi, til o'zi uchun o'zi bo'lgan odamlar va nafaqat tirik odamlar, balki yashagan barcha odamlarning psixologiyasini aks ettiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki nutq bu aloqa vositasi hisoblanib inson nutq orqali o'zining emotsional holatini bildirishi muloqot qilishi mumkin. Inson paydo bo'lganidan to hozirgi davrgacha insonning nutqi shakllanib bordi. Insoniyat paydo bo'lishining dastlabki davrlarida imo - ishoralar orqali muloqot qilgan bo'lsalar keyinchalik ovoz aparatining shakllanishi hamda psixologik rivojlanishi natijasida og'zaki nutq shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma.-T.:»Barkamol fayz media», 2018. – 272b/
2. B.M. Umarov. Psixologiya. Darslik. -T., 2012.
3. Q.Shodiyeva. Nutq o'stirish uslubi: Pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejarining maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabalari uchun darslik Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU , 2008. - 304 b.
4. P.C.Немов. Психология. Учебник. -М.: Владос, 2

V. YOSHLARNING BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH VA SPORTNI OMMALASHTIRISH

Yoshlardagi bo'sh vaqt shaxsiy rivojlanish imkoniyati sifatida

Nigora SHOMURODOVA
Jamoat xavfsizligi universiteti
dotsenti, ps.f.n.

Har bir davrda yoshlar faoliyatiga, taraqqiyotiga va shaxsiy o'sishiga ahamiyat berib kelingan. Bugungi kunda ham "Yoshlar oyli" targ'ibotlari doirasida ham jamiyatning qaynoq qatlami bo'lgan yoshlar hayotiga mazmun va intilishlar kiritish, yangi g'oyalar va loyihalar sari faolliklarini oshirishga imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlar masalalariga davlat va hukumat doirasida e'tibor qaratilib, Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi "2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 310-son qarori qabul qilindi.

Biz yoshlar siyomosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz! Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir.

Vaqt madaniyatning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining eng muhim omilidir.

Bo'sh vaqt - bu shaxsning uy yumushlari va boshqa majburiy ishlari uchun vaqt bilan chegaralangan, faqat o'z xohishiga ko'ra foydalanadigan, uning o'zini o'zi rivojlantirish uchun yuqori ahamiyatga ega bo'lgan, ishlamaydigan vaqtining bir qismi. Bo'sh vaqt insonni ijtimoiy rivojlanish jarayoniga ta'sir qiladi va uning qobiliyatlarini rivojlantirib, o'zini o'zi anglash, shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi. Demak, bo'sh vaqt shaxs kamoloti bilan bevosita bog'liq bo'lib, u jamiyat boyligi bo'lib, undan sifatli, o'z maqsadiga muvofiq foydalanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu har qanday aholiga, ayniqsa aholining katta qismi yashaydigan yirik shaharlarga tegishli. Iqtisodiy, ilmiy, madaniy qadriyatlarning o'chog'i bo'lgan yirik shaharlar, birinchi navbatda, aholining eng katta va eng faol ijtimoiy qatlami bo'lgan yoshlar uchun o'ziga xos rivojlanish salohiyati va o'ziga jalb qilish kuchiga ega.

Yirik shaharlarda bo'sh vaqtdan foydalanish uchun keng imkoniyatlar mavjud, uni o'tkazishning turli shakllari mavjud. Aynan bunday vaziyatlarda birinchi navbatda bo'sh vaqtdan foydalanishning yangi tendensiyalari paydo

bo'ladi. Shahar hayotida vaqt yetishmasligidan aholi stressni boshdan kechiradi, o'z ehtiyojlarini qondirishdagi harakatlarga ulgurolmaslik vaqt etishmasligini his qilishni hosil qiladi va bu ularda bo'sh vaqtdan o'zlari uchun maksimal foyda bilan oqilona foydalanishni talab qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ko'pchiligi bo'sh vaqtlaridan unumsiz foydalanmoqda, bu esa huquqbuzarlik, o'z joniga qasd qilish, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi holatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Yoshlarni bo'sh vaqtdan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va bandlik muammolarini o'rganish jamiyat rivojiga salbiy ta'sir qilib turgan turli jinoyatlarni va ijtimoiy illatlarni kamaytirish imkonini berishi bilan dolzarb muammo sanaladi.

Bo'sh vaqt masalasi ilmiy adabiyotlarda keng o'z aksini topgan. Xorijiy tadqiqotlarda bo'sh vaqt muammosiga bag'ishlangan birinchi asarlar nisbatan yaqinda, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. P.A.Stebbinsning bo'sh vaqtni turlarga ajratishga yondashuvi va tadqiqotlarida yoshlarning bo'sh vaqt muammolarining ayrim jihatlari o'z ifodasini topgan. Sovet Rossiyasida vaqtning sotsiologik tadqiqotlari S.G. Strumilin tomonidan 1920-yillarda o'rganilgan. Inson vaqtining umumiy fondida u uchta asosiy qismni ajratib ko'rsatdi: ish vaqti, dam olish va uxlash vaqti. Bu qismlarga kiritilmagan vaqt davrini u «ajralmagan vaqt» deb atagan. Asosan S.G. Strumilin bo'sh vaqt bilan ajratilmagan vaqtni aniqlaydi. Bo'sh vaqt masalasi V.A.Artemov, O.V. Novokhatskaya, L.Ya Sorokina, N.M. Davydova kabi qator rus tadqiqotchilari ishlarida ham o'rganilgan. Yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazish madaniyati A.S.Batnasunova, A.B.Kudrevichlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bo'sh vaqtning ko'p qirrali muammosi hanuzgacha mahalliy va xorijiy olimlar, jumladan, sotsiologlarning tadqiqot obyekti bo'lib, ilmiy adabiyotlarda keng o'z aksini topmoqda.

Bo'sh vaqt masalasiga sharq mutafakkirlari asarlarida ham alohida e'tibor qaratilgan. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida insonga xos odatlarni yaxshi va yomonga ajratar ekan, bo'sh vaqtni samarali tashkillashtirish va bu orqali shaxsiy rivojlanish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. "Faxrlanish, - deydi Beruniy haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi", deb uqtiradi. Faxrlanish tuyg'usi yoshlarda avvalo o'zidan qoniqish, faoliyat samarasidan qoniqish, shaxsiy rivojlanish darajasiga erishayotganini idrok qilish orqali shakllanadi. Demak, bo'sh vaqtni

to'g'ri o'tkazishga e'tibor qaratish ruhiy taraqqiyotga ham kuchli ta'sir qilishini kuzatamiz.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida insonga xos go'zal fazilat va xislatlar, komil inson tarbiyasiga doir hayotbaxsh g'oyalar tashkil etadi. Bu sifatli shaxsni shakllanishida esa vaqtdan unumli foydalanish va tejashga e'tiborli bo'lish ta'sir qiladi.

O'rganishlarga ko'ra, yoshlar mustaqil, o'ziga ishongan, o'zlarining g'ayrioddiyligi va ijodkorligi bilan ajralib turadi, ular bo'sh vaqtning barcha yangi shakllaridan foydalanishga intiladilar, shu bilan birga ustuvorliklar va qaramliklarni osongina o'zgartiradilar. Bu ularning bo'sh vaqtlaridan foydalanish samarasizligini belgilaydi. Yoshlarning bo'sh vaqtlaridan noratsional foydalanishining sabablaridan biri bu shaxsiy tartibsizlik bo'lib, tadqiqotlar yoshlarning har beshdan biri bo'sh vaqtlarini oqilona taqsimlashda qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ko'rsatmoqda.

Yoshlarning bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishini oshirishga takliflar:

- bo'sh vaqt shakllaridan foydalanishning rang-barangligi va dinamikligini kuchaytirish;

- bo'sh vaqtdan asosan foydali shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishga sharoitlar yaratish;

- bo'sh vaqt tarkibida faol va passiv shakllar ulushlarini aniqlash;

- bo'sh vaqtlarida teledasturlarni ko'rishning sezilarli darajada pasaytirishi;

- texnologik vositalarga (kompyuter, Internet, ijtimoiy tarmoqlar) e'tibor qaratgan holda bo'sh vaqtdan foydalanish shakllarining ustunligiga erishish;

- ko'ngilochar faoliyat ulushini oshirish;

- o'z-o'zini tarbiyalashga e'tibor berish;

- sportning yoshlar uchun yuksak ahamiyatini o'zida namoyon qilish;

- ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishlar ustida ishlash.

Yoshlarga bo'sh vaqt ichida imkon qadar aqliy va jismoniy faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun turli madaniy hordiq maskanlarida tadbirlar va qulayliklar yaratish, mahallalarda turli to'garaklar, hunarmandchilik kurslarini faoliyatini jonlantirish zarur. Bo'sh vaqtdagi faoliyatlarini moddiy va ma'naviy foyda ko'rish imkoniyatiga uyg'unlashtirishga erishish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yoshlardagi rejasiz, qiziqishsiz va intilishsiz bo'sh vaqt ularni hayotini muammolarga to'ldiradigan vaziyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Qishloq sharoitidagi yoshlar uchun tomorqa uyushmalari vakillari yoshlarni bo'sh vaqtlaridagi mehnatiga haq to'lasa mehnat qilib o'zini rivojlantirish va shunga xos fikrlash shakllanadi.

Rus publitsisti D.I.Pisarev ta'kidlaganidek: "Inson mutlaqo jiddiyat bilan mehnat qilmasa, ya'ni o'zi yeydigan bir burda nonini o'z mehnati bilan ishlab topmasa, u baxtli bo'lolmaydi"

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son Farmoni. Lex.uz

2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.II. T.: Fan, 1965. -538 b. 28-29 b.

3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalbgah mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o'zbek tiliga tabdil. T.: Sano-standart. 2018. -192 b. 64 b.

4. Artemov V.A., Novokhatskaya O.V. Vaqtdan foydalanish va ijtimoiy farovonlik: eksperimental tahlil tajribasi // Sotsiologik tadqiqotlar. - 2011. - No 2. - S. 24-31.

5. Batnasunov AC Bo'sh vaqt zamonaviy rus yoshlari hayot sohasi sifatida: dis. qand. sotsiologik fanlar. - Stavropol, 2004 yil; Kudrevich AB Rus sotsiologiyasida yoshlarning bo'sh vaqtlari mavzusi // Volgograd davlat universitetining xabarnomasi. - Ser. 7. Falsafa. - 2011. - No 3 (15). - S. 154-158.

Stebbins PA Bo'sh vaqt: optimal dam olish uslubiga qarab // Sotsiologik tadqiqotlar. - 2000. - No 7. - S. 64-72.

O'zbekiston kelajagi-yoshlar qo'lida! "Besh tashabbus" yoshlarga qanoat!

Ziyoda NURILLAYEVA
O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Shohsanam SHUKUROVA
O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar
№3 kafedrası o'qituvchisi
(Ilmiy rahbar)

Annotatsiya. Har bir yurtning asosiy kuchi ma'naviy va aqliy jihatdan yuksalayotgan, kelajakka ulkan maqsadlar qo'yadigan, kelajakka ishonch bilan qaray oladigan, ulkan cho'qqilarni egallashga harakat qilayotgan, vatan ravnaqi uchun hissa qo'shishga urinayotgan yoshlar hisoblanadi. Ushbu maqola mamlakatimiz yoshlari uchun berilayotgan keng imkoniyatlar hamda Prezidentimiz tomonidan yosh avlod uchun chiqarilayotgan qonunlar va yurtimizda erishilayotgan natijalar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, besh tashabbus, qarorlar, konstitutsiya, strategiya, siyosat, natijalar.

Yosh avlodga berilayotgan bilim va ko'nikmalar kelajagimiz uchun poydevordir. Bugungi kunda yoshlarga berilayotgan keng imkoniyatlarning chegarasi yoqdir. Ma'lumki, O'zbekiston yoshlar mamlakati. Hozirgi vaqtga kelib yurtimiz aholisining 32 foizini yoshlar tashkil etadi. Yosh yigit-qizlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, jumladan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Yurtimiz kelajaklari bo'lmish yoshlarni har tomonlama yetuk, salohiyatli shaxs, bilimli va komil inson bo'lib tarbiyalanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib bu borada shaxsan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida yoshlar uchun keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun 2016- yilda qabul qilingan bo'lib ushbu sohani tubdan takomillashtirish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bugungi kun yoshlariga mos ravishda har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqloli uchun mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan,

shijoatli yoshlarni tarbiyalash ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga amalga uchun mustahkam va huquqiy poydevor yaratildi.

Prezidentimizning yoshlarga oid eng muhim ikkita yo'nalishi bor: birinchisi – ularga zamonaviy bilish berish, ikkinchisi- yoshlar bandligini ta'minlash. Xususan, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy Prezident maktablari, ixtisoslashgan va ijod maktablari ochildi. Umumiy qilib aytganda, barcha maktablarga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bordi hamda o'quvchilarni rag'bat va hurmati oshdi. Yosh avlodda bo'lgan bilim yanada kuchaydi. Yurtimizda qanchadan qancha yangi o'quv binolari qayd etildi. Har bir maktablarga o'z ishini yetuk mutaxassisleri ya'ni ustoz va murabbiylar biriktirildi. Shu bilan birgalikda, oliy o'quv yurtlariga qabul qilinishlari uchun alohida grantlar ajratilgani biz yoshlarga katta motivatsiya bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qarori bilan 2019-yilning 19-mart kuni 5ta muhim tashabbusini ilgari surgan edi. Ushbu tashabbus ma'naviy va ma'rifiy, ijtimoiy sohalardagi harakatlarni tizimli asosida O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus- yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus- yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus- aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internet tarmoqlaridan samarali va foydali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus- yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus- xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ushbu tashabbuslar zamirida ezgu maqsadlar qanchalik mujassam ekanligini tushunganlar uning mohiyatini teran his qilmog'i lozimdir.. Biz yoshlarning jismoniy va ma'naviy barkamol o'sib rivojlanishimiz jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. 5 tashabbus doirasida qilingan barcha ishlar O'zbekiston bo'yicha yaxshi natijalarga va yutuqlarga erishdi. Bunga ko'plab jarayonlarni misol qilib aytishimiz mumkin. Shuningdek, mazkur

tashabbusning 1 yilligi munosabati bilan Xalq ta'lim vazirligi tomonidan har bir yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan sa'y-harakatlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Respublikamizda hozirda 9942ta umumta'lim maktablari faoliyat olib kelishmoqda. Ular 7 milliondan ortiq o'quvchilar ta'lim olishmoqda. Shuni aytib o'tish lozimki, Prezidentimiz tashabbuslari bilan ilgari surilgan mazkur 5 tashabbus barcha ta'lim muassasalarigacha kirib bordi. Xususan, maktablarda turli xil to'garaklar tashkil qilindi va 2,8 million nafar o'quvchilar o'quv to'garaklariga jalb qilindi. Jumladan, yoshlarni rassomchilikka, adabiyotga, musiqa va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarni yanada oshirishga va undagi bo'lgan iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan birinchi tashabbus asosida 780 565 nafar o'quvchilar o'quv to'garaklariga qatnashib kelishmoqda. Bundan tashqari, yoshlarni teatr sohasida ham o'z qobiliyatlarini namoyish qilish maqsadida teatr studiyalari tashkil qilindi va 199 698 nafar yosh o'quvchilar jalb qilindi. Yoshlarni jismonan chiniqtirish maqsadida sport binolari yurtimizda qayd etildi. Shuningdek, mazkur ikkinchi tashabbus asosida qilingan barcha sport musobaqalarida o'quvchilar faol qatnashib kelishmoqda va ushbu tashabbus yurtimizdagi hamma muassasalarni qamrab oldi va davom etmoqda.

Yoshlarimizni internet va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga qaratilgan ushbu uchinchi tashabbus shu kunga qadar 445 610 nafar yoshlarimiz kompyuter to'garaklariga jalb qilingan. Shu bilan birgalikda, "Intech Robotics" va "Innovative Service" kompaniyalari bilan hamkorlikda "Barkamol avlod" respublika o'lkashunoslik hamda ekologiya markazida RoboCraft robotexnika kurslari tashkil qilinib o'quvchilarni o'ziga jalb qildi. Jamiyatimizda kitobxonlik bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish hamda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan to'rtinchi tashabbus asosida qilingan ishlar jamiyatimiz uchun foydali bo'lib kelmoqda. Yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida turli xil kitob festivallari, she'riyat kechalari, kitob klublari tashkil qilinmoqda. Shuningdek, "Book challenge" loyihasi doirasida barcha umumta'lim maktablariga 600 mingdan ortiq kitoblar sovg'a sifatida taqdim etildi va yosh kitobxonlar esa turli xil kitoblar bilan taqdirlandilar. So'ngi beshinchi tashabbusimiz xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu tashabbus doirasida o'quvchi-qizlarning jamiyatda faolligini oshirish, ma'naviyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim muassasalarida "Qizlarjon" klublari tashkil qilindi va ko'p nafar yosh qizlar ushbu klubga a'zo bo'lishdi.

Bundan tashqari, yurtimizda Xalq ta'lim vazirligi tomonidan 2019-yil oktyabr oylarida tashkil etilgan "5 tashabbus maktabda" nomli festivalda 2,5 milliondan ortiq maktab o'quvchilari jalb qilindi. Mazkur festivalda g'olib bo'lgan ta'lim muassasalariga esdalik sovg'alari topshirildi. Bizning bosh qomusimiz bo'lgan konstitutsiyamizda yoshlari uchun imkoniyatlar ham kafolatlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 41 moddasida har kim bepul ta'lim huquqi kafolatlangan, 42 moddada esa har kimga texnikaviy va ilmiy ijod erkinligi davlat jamiyatining madaniy ilmiy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilish belgilanganligi e'tiborga molikdir. Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, mamlakatimizda har bir qilinayotgan islohotlar, har bir muassasa va tashkilotlar yoshlarni rivojlanishi hamda ularni qo'llab-quvvatlagani zarur shart-sharoitlar va keng imkoniyatlar yaratilishga qaratilgan. Zero Prezidentimiz aytib o'tganlaridek "Sayyoramizning ertangi kun farovonligi yosh avlodni qanday qilib kamol topishiga bog'liqdir. Bizning asosiy maqsadimiz har bir yosh avlodni rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishdan iboratdir"

Yurtimizni yanada takomillashib yanada rivojlanayotganligi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"sida o'z aksini topgan. Mazkur strategiyaning bosh yo'nalishlaridan biri yoshlarga oid siyosatning takomillashtirishdan iboratdir. Unda yoshlarni tibbiy ko'rik bilan ta'minlash, sog'lig'ini saqlash, huquq va erkinliklar bilan ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur sharoitlar bilan ta'minlash, yosh uchun sifatli va ochiq ta'limni yo'lga qo'yish, yoshlarni vatanparvarlikka, insoniylikka, bag'rikenglikka, qonunlarga va umuminsoniy hurmat ruhida, zararli oqimlarga qarshi tura oladigan, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga, yoshlarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Xulosa qilib aytganda, biz yoshlar uchun qilinayotgan barcha imkoniyatlardan keng foydalanib vatanimiz, xalqimiz, prezidentimiz oldidagi burchlarimizni bajarishimiz kerak. Yurtimiz uchun manfaat olib keladigan yigit-qiz bo'lishimiz hamda vatanimiz bayrog'ini jahon maydonlarida ko'klarga ko'tarmog'imiz darkordir. Buyuk bobokalonimiz aytganlaridek "Amalsiz ilm misoli xuddi yomg'irsiz chaqmoq va momaqaldiroqqa o'xshaydi" ya'ni biz berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz lozimdir. Zero Yoshlar-Yangi O'zbekiston bunyodkorlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ergashev S. "Besh tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatini ta'minlashdagi o'rni" mavzusida referat. Toshkent-2022 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Prezident.uz

Piyoda yurish sayohatlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Mironshoh IDRISOV
O'zDJTSU, o'qituvchi,

Dolzarliligi. Piyoda yurish turizmi (sport turizmining boshqa turlari qatori) asosiy funksiyaga ega – ya'ni, bunda tabiiy to'siqlarni yengib o'tish orqali o'z sport natijalarini yaxshilashdir. Bunda shuni tushunish mumkinki, sportchi noqulay yerlarda xavfsiz harakatlanish uchun zarur bo'lgan barcha bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallashi, hamda qiyin tabiiy qiyinchiliklarni yengib o'tishi uchun jismoniy tayyorgarligini oshirib borishi kerak. Sport turizmining mohiyati shundaki, sport turistik sayohati marshrutida tabiatda uchraydigan tabiiy to'siqlarni yengib o'tish bilan belgilanadi. Shu boisdan ham to'siqlar xilma-xil bo'lishi mumkin ya'ni: ularga muzliklar, cho'qqilar, releflar, murakkab o'tish joylari, dovonlar (ayniqsa piyoda yurish uchun odatiy hisoblangan) va boshqalar bo'lishi mumkin. Buning uchun tabiiy to'siqlarga qarab, ularni yengish uchun turli xil texnik va taktik uslublar qo'llaniladi. U yoki bu to'siqni yengib o'tish uchun «piyoda sportchi»ning turli vaqt va ishlash intensivligining faoliyati bilan birga jismoniy, psixologik, texnik va taktik harakatlarning murakkablik darajasi talab qilinadi .

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, sayyohlarni tayyorlash jarayonining ma'lum bir tizimiga bo'lgan ehtiyoj va ularning tabiiy to'siqlarini yengib o'tish texnikasi va taktikasini o'rgatishni ilmiy asoslangan uslubining yo'qligi o'rtasida jiddiy ziddiyatlar mavjudligi aniqlangan. Zero, texnika va taktikani o'rgatish jarayoni bilim, ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirish, shuningdek, ma'lum bir murakkablik toifasidagi sport va piyoda sayohatlari sharoitida ta'kidlab o'tilganlarni qo'llash uchun asos bo'ladi.

Sport turizmining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, tabiiy muhitda doimo sport sayohatlari (musobaqalar) uchun eng samarali joy mashg'ulot maydoni hisoblanadi. Musobaqa va sayohatlar qanchalik samarali bo'lsa, tabiiy to'siqlarni yengib o'tish shartlari shunchalik qiyinlashadi. Chunki, tabiiy muhit, ayniqsa uning tarkibiy qismlari (iqlim omillari) doimo o'zgaruvchan bo'ladi. Shu boisdan ham, tabiiy xususiyatlardan tashqari, ishtirokchilar yetarlicha jismoniy, maxsus, texnik hamda psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Buning uchun optimal darajada uy-joy, oziq-ovqat, asbob-uskunalar va boshqalar bilan ta'minlangan bo'lish kerak. Shuningdek, yo'nalishda o'tish taktikasini ishlab chiqish uchun eng qiyin va hayot hamda sog'liq uchun xavfli bo'lgan hududlarga alohida e'tibor

berish kerak, chunki sport turizmidagi asosiy mezonlardan biri bu yo'nalishning majburiy avtonomligidadir. Shunday qilib, «avtonom» mezoniga 1 koeffitsiyenti berilgan, u yurish masofasini uzoqligiga va aholi punktlari mavjudligiga qarab kamayishi mumkin. Shunday qilib, agar yo'lda bitta aholi punkti bo'lsa, koeffitsiyent 0,5ga, ikki yoki undan ko'p bo'lsa - 0,2ga kamayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yo'nalishlarni tasniflashda tegishli to'siqlar (UT) va omillar (UO) hisobga olinadi:

1) Mahalliy to'siqlar (MT) - uzunligi kichik bo'lgan to'siqlar va uni yengib o'tish uchun sportchi-turistlardan ma'lum darajadagi texnik mahorat va qoida tariqasida maxsus jihozlardan foydalanish talab qilinishi bilan tavsiflanadi. Bularga suv oqimining tezligi va chuqurligi bilan birgalikda past va o'rta balandlikdagi daryo suvlari, tog' o'tish joylari, dovonlar, qorlar, muzliklar, sirpanchiq yo'llar va cho'qqilarning xavfsizlik tizimi kiradi.

2) Kengaytirilgan to'siqlar (KT) - sezilarli uzunlik bilan farq qiladigan va turistlardan ularni katta jismoniy kuch bilan yengib o'tishni talab qiladigan to'siqlardir. Bularga o'rmonlar, baland tog'lar, 20°dan 50°gacha bo'lgan qiyaliklar, shoxchalar, toshlar, qumtepalar, muzlar, tundra, to'siqlar yoki toshloq joylardagi shamol yo'llari, tosh yonbag'irdagi baland o'tlar kiradi. Bunday uzoq masofali to'siqlar bilan harakat juda qiyin bo'lishi mumkin, shu boisdan ham qo'llarning doimiy ishlashi talab qilinadi. Harakat tezligi 2,5-3 km/soatdan 0,5-1 km/gacha o'zgaradi.

Demak, sport jamoasi yurishning qiyinchilik toifasiga qarab (1dan 6 gacha) ma'lum bir kun ichida 130dan 300-600 kmgacha bo'lgan barcha texnik qiyinchiliklarni yengib o'tib, yo'nalishni yakunlashi kerak. Yo'nalishdagi har bir mezon uchun guruh ball oladi. O'tgan barcha to'siqlar bo'yicha ushbu ballar yig'indisi yurishning qiyinlik toifasini tashkil qiladi (1-jadval).

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir hudud ham piyoda sayohatlarini tashkil qila olmaydi. Chunki ba'zi hududlarda turizmning ayrim turlari yilning bir faslida olib borilsa, boshqa hududlarda esa mutlaqo mumkin emas. Tog'li hududlarda tog'-chang'i turizmi qishda, yozda esa piyoda sayohatlar ko'proq olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, har bir hudud uchun sayohat qilishning eng qulay usuli bu turizmning turi yoki bir nechta turlari bilan izohlanadi. Piyodalarning yo'nalishlari ham III toifadan yuqori ekanligi bilan belgilanadi (1-jadval).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, turist harakatlari asosi tabiiy to'siqlarni minimal kuch va maksimal xavfsizlik bilan yengib o'tishga qaratilgan bo'lmog'i zarur. Chunki avvalgi sayohatlardagi amaliy turistik tajriba darajasi keyingi sayohatlarning xavfsizligiga bevosita bog'liqdir.

1-jadval. Yurish yo'nalishlariga qo'yiladigan talablar va cheklovlar

| № | Mezonlar | Yo'nalishning qiyinchilik toifasi | | | | | |
|---|--|-----------------------------------|-------|-------|--------|---------|----------------|
| | | I | II | III | IV | V | VI |
| 1 | Yo'nalishning davomiyligi | 6 | 8 | 10 | 13 | 16 | 20 |
| 2 | Kun davomiyligi (eng kamida) | 130 | 160 | 190 | 220 | 250 | 300 |
| 3 | Yo'nalish masofasi, km (eng kamida) | 20 | 30 | 50 | 75 | 110 | 150 |
| 4 | Mahalliy to'siqlar uchun maksimal ruxsat etilgan ball soni (UT max) | 10 | 16 | 20 | 35 | 55 | 75 |
| 5 | Mahalliy to'siqlar (UO) uchun ballar (max) | 10 | 20 | 40 | 60 | 80 | 110 |
| 6 | Kengaytirilgan to'siqlar uchun ballar (UT) hisobga olinadi (ko'p emas) | Jadval bilan belgilanadi | | | | | |
| 7 | Geografik ko'rsatkichlar | Jadval bilan belgilanadi | | | | | |
| 8 | Avtonomiya | Jadval bilan belgilanadi | | | | | |
| 9 | Balandlikning farqi, koeffitsiyenti | 12-25 | 26-59 | 60-94 | 95-134 | 135-184 | 185 va ko'proq |

Murakkablikning ma'lum bir toifasidagi yo'nalishdan o'tish - bu uzoq masofa va davomiy sayohatga ega bo'lgan murakkab sport turidir. Shu boisdan ham sportchi-turistlarga xos chidamlilikga ega bo'lishi zarur. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklardan tashqari, sportchilarni o'z imkoniyatlarini yetarli darajada baholashlari uchun o'z-o'zini mashq qilishlari va boshqarish ko'nikmalariga o'rgatib borish tavsiya etiladi. Bu esa zarur vaqtlarda jismoniy zo'riqishlarni yengib o'tishga yordam beradi. Shu bilan birga taktik va yo'nalish bo'yicha tabiiy to'siqlarni bosib o'tish xavfsizligini oshiradi.

Darhaqiqat, turizm turiga qarab, masofaning turi va shakliga qarab u yoki bu taktika tanlanadi. Masalan qor-muz reliefi yoki tog' daryolarini yengish taktikasi yoki botqoqlikdan o'tish taktikasidan sezilarli darajada farq qiladi. Ma'lumki taktik tayyorgarlikning eng muhim vositasi turli texnik va taktik muammolarni tez va samarali tarzda hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Texnik usullarga xaritani relief bilan solishtirish, ma'lum yo'nalishda azimut harakati, turgan nuqtani topish, lekin yo'l tanlash, harakat tezligini oriyentatsiya aniqligi bilan taqqoslash allaqachon taktik vazifalar bo'lib, ular bilan parallel ravishda hal qilinishi kerak.

Xulosa. Sport sayohat turizmi jismoniy mashqlaridan samaraliroq foydalanishni nazarda tutadi. Chunki sport turizmining mohiyati va o'ziga xosligi piyoda yurish misolida sportchilarni ma'lum bir murakkablik toifasida yo'nalishni bosib o'tishga tayyorlashga alohida e'tibor beriladi hamda ularning jismoniy imkoniyatlarini adekvat baholay olish zarurati bilan

belgilanadi. Bu esa yo'nalishning to'g'ri tanlanishini hamda u yoki bu to'siqqa mos keladigan harakat texnikasi va taktikasini tanlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risidagi» qonuni. 2019-yil.
2. Idrisov M.I., Oripov O.O. Sport-sog'lomlashtirish turizmini oliy o'quv yurtlari talabalariga o'qitishning innovatsion texnologiyasi //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 224-231.
3. Idrisov M.I. Aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi test me'yorlarining qiyosiy tahlili // University Sports: Health and prosperity of the nation 2022. T 1. C.263 266 <https://scholar.google.ru/citations?>

Женщина и спорт: Социальный аспект

Нилуфар МИРДЖАМАЛОВА
*старший преподаватель
кафедры Спортивного права,
социальных и естественных наук
Узбекского государственного университета
физической культуры и спорта*

Несмотря на стремительное и бурное развитие женского спорта, дать однозначную положительную оценку данному феномену в современном обществе пока невозможно. Видимо, это связано с тем, что влияние занятий спортом на женский организм, психику спортсменки, ее дальнейшую судьбу также далеко не однозначно. Можно привести множество убедительных примеров, когда женщины-спортсменки успешно строили свою спортивную карьеру, и их дальнейшая жизнь сложилась удачно. Сразу приходят на память имена выдающихся спортсменок Ирода Тулягановой, Оксана Чусовитиной, Светлана Радзивил, Любовь Перепеловой и многих других, которые принесли славу узбекскому спорту и сейчас работают тренерами, преподавателями, являются социально активными членами нашего общества.

Целью данного исследования является анализ проблемы совершенствования процесса социальной адаптации и интеграции спортсменок в общественную жизнь.

После окончания спортивных выступлений почти у всех девушек возникает проблема: как жить дальше? Как строить свои отношения вне спорта?

Методика исследования. Чтобы ответить на эти вопросы и разработать систему интеграции девушек-спортсменок в социальную жизнь, нами было проведено социологическое исследование «Женщина и спорт». В опросе приняли участие 188 девушек-спортсменок из Ташкента. Респонденткам была предложена анкета из 22 вопросов, касающихся жизненных планов, самооценки личностных качеств и выяснения отношения женщин-спортсменок к занятиям спортом.

В анкетировании приняли участие спортсменки 45 видов спорта. Из них опрошено около 30% спортсменок I разряда и кандидатов в мастера спорта, 21,3% составили мастера спорта, 16,5% - спортсменки массовых разрядов. В возрастном аспекте все спортсменки разделились

на три категории: до 20 лет - 43% опрошенных; 21-25 лет - 35,5% и 26 лет и старше - 20% респондентов.

Результаты и их обсуждение. Как показало наше исследование, большинство респонденток (60% опрошенных) начали заниматься спортом еще в детстве, в возрасте до 10 лет. Третья часть спортсменок приступили к спортивным занятиям в 11-12 лет и только 3,5% опрошенных пришли в спорт в 15 лет и старше. Полученные нами данные подтверждают современную тенденцию омоложения женского спорта. И это понятно: стремительный рост рекордов вынуждает тренеров привлекать к занятиям спортом детей дошкольного и младшего школьного возраста. Данная тенденция характерна для развития современного спорта, в том числе и международного. Видимо, это одно из противоречий, характерных для развития спортивного движения, которое можно, как мне кажется, лишь частично разрешить путем создания новых технологий отбора и развития спортивного таланта, уделения всестороннего внимания развивающейся личности юного спортсмена. Первые шаги в спорте многое определяют в жизни девочки-спортсменки. В этом возрастном периоде формируются ее мотивация и спортивный интерес, строится система ценностных ориентаций, воспитывается спортивный характер, закладываются основы женского здоровья.

Таблица 1. *Возраст спортсменок, заканчивающих спортивную карьеру*

| Показатели | Возрастные периоды, лет | | | | | | | | | | | |
|--------------------------------------|-------------------------|-----|-------|------|-------|------|------------|------|-------------|-----|-------|-----|
| | до 15 лет | | 16-18 | | 19-20 | | 21 и позже | | не ответили | | всего | |
| | п | % | п | % | п | % | п | % | п | % | п | % |
| Возраст окончания спортивной карьеры | 21 | 7,4 | 58 | 20,6 | 52 | 18,4 | 67 | 25,8 | 7 | 2,5 | 282 | 100 |

Таблица 2. Самооценка спортсменками влияния спорта на их внешность

| Изменения во внешности | n | % |
|---------------------------------------|-----|------|
| Появились диспропорции в телосложении | 40 | 14,2 |
| Вес выше нормы | 24 | 8,5 |
| Стала стройнее, выгляжу замечательно | 180 | 63,8 |
| Другие изменения | 44 | 13,5 |
| Всего | 288 | 100 |

Как видно из табл. 2, большинство опрошенных женщин отмечают позитивное влияние занятий спортом на их внешний вид, 63,8% говорят, что они стали стройнее и выглядят замечательно. Тем не менее спорт может и отрицательно влиять на внешность спортсменки, об этом свидетельствуют 14,2% опрошенных, которые утверждают, что их вес стал выше нормы в связи со спортивной деятельностью. Особенно это касается баскетболисток, пловчих и конькобежек.

Заключение. Проведенный социологический анализ «Женщина и спорт» дает основание для формирования некоторых тенденций, характерных для развития современного женского спорта:

- высокое мнение женщин-спортсменок о положительном влиянии занятий спортом на их здоровье, внешность, привлекательность и женственность;

- ценностное отношение женщин-спортсменок к спортивной деятельности, выражающееся в осознании ее высокой значимости на формирование их характера: коммуникабельности, целеустремленности, собранности; в отдельных случаях спорт может формировать у спортсменок и негативные черты характера: агрессивность и жестокость;

- основные цели спортсменок, как правило, реализуются. Женщины, отдавшие много лет спорту, не жалеют о принятом когда-то решении заниматься спортом и считают его правильным.

Полученные результаты позволяют утверждать, что женщины в современном обществе получили новые возможности для реализации спортивных интересов. Есть основания полагать, что XXI век станет веком их новых спортивных достижений. Однако необходимо совершенствовать систему спортивных состязаний, смягчать условия

спортивной борьбы, разрабатывать особые правила соревнований, гуманизировать женский спорт, защищать женщину, учитывая особую биосоциальную роль, которую она играет в обществе.

Список использованной литературы

1. Умаров.Д.Х. “Теория спорта” Ташкент.2021
2. Виноградов П.А., Душанин А.П., Жолдак В.И. Основы физической культуры и здорового образа жизни. – М.: Советский спорт, 1996.
3. Куликов Ю.А, Худойбердиев Р. И. Жизнь в движении. –Ташкент, медицина, 1987,48с.

Bolalarning jismoniy tayyorgarligi vositalari va usullarini aniqlash uchun tasdiqlovchi tadqiqotni tashkillashtirish

Dilnoza SHOYMARDONOVA

*Milliy tadqiqot universiteti Federal byudjeti (MEI)
oliy ta'lim muassasasi filiali o'qituvchisi*

Kirish. Maktab o'quvchilari jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish maxsus tashkillashtirilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya umumta'lim maktablarining hamma sinflarida o'quv rejalarida ko'zda tutilgan o'quv fani hisoblanadi. Fanning mazmuni davlat dasturida belgilanadi, amaliyotga tatbiq etish esa jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan jismoniy tarbiya darslarida amalga oshiriladi.

Tadqiqot maqsadi. Ko'p sonli adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish muammosi chuqur eksperimental ishlanmalarga muhtoj. Har xil yoshdagi maktab o'quvchilari jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasini aniqlash, bu sifatarni tarbiyalashning samarali usul va vositalarini tadqiqotlar yordamida asoslash, mashg'ulotlarda berish mumkin bo'lgan jismoniy yuklamani belgilash juda muhim. Tasdiqlovchi tadqiqotning maqsadi harakatli o'yinlarni qo'llash masalasi holatini va ularning boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar jismoniy tayyorgarligiga ta'sirini o'rganishdan iborat edi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Hozirgi zamon bolalarining sevimli o'yinlarini aniqlash uchun so'rovnomasida savol-javob o'tkazdik. Biz 9-10 yoshdagi 3-sinf o'quvchilarining fikrlarini o'rgandik, ulardan 15tasi qiz bola va 11 nafari o'g'il bola.

Biz ularga quyidagi savollarga javob berishni taklif qildik:

1. Sen o'ynashni yaxshi ko'rasanmi?
2. Sening sevimli o'yinlaring.
3. Ota-onang, buving va buvang qaysi o'yinlarni o'ynaganlarini bilasan?


«Sen o'ynashni yaxshi ko'rasanmi?» savoliga hamma bolalar tasdiq bilan javob berishdi. Natijalarni tahlil qilib shuni aniqladikki, bolalardan yarmining sevimli o'yinlari - kompyuter o'yinlari. So'nggi vaqtlarda kompyuterning nafaqat foydasi, balki zarari haqida ham gapirilyapti. Axir bolalar undan o'qish va ish uchun emas, faqat o'yin uchun foydalanadilar. Ularning ko'rish qobiliyati yomonlashishi, umurtqasi qiyshayishi mumkin. Ko'p vaqtni harakatsiz o'tkazish bolalarga katta zarar olib keladi.

Tadqiqot davomida shu ma'lum bo'ldiki, bizning hozirgi zamon bolalari yetarlicha harakatli o'yinlarni bilmaydilar, ular hammasi bo'lib 11ta harakatli o'yin nomini aytdilar. Biz bolalarning ota-onalariga yordam so'rab murojaat qildik. Ko'plab ota-onalar bajonidil bizning iltimosimizga rozi bo'ldilar. So'rovnoma asosidagi savol-javoblarga yakun yasagan holda ota-onalar sport o'yinlari, shaxmat va shashka o'ynashni juda yaxshi ko'rganliklarini aniqladik.

Shunday qilib, tadqiqot davomida biz uch avlod o'yinlari bilan tanishishga muvaffaq bo'ldik (1-rasm). Aniqlashimizcha, hamma bolalar barcha davrlarda o'ynashni juda yaxshi ko'rganlar. Ko'plab o'yinlar uch avlod bolalarining sevimli o'yinlari bo'lib qolyapti: bular - ko'z boylog'ich, bekinmashoq, quvlashmashoq, urib qoch, oq terakmi ko'k terak, chillak va boshqalar. Ota-onalarimiz, buvi-buvalarimiz ushbu o'yinlarni sevib o'ynashgan, hozirgi zamon bolalari ham bu o'yinlarni sevib o'ynashda davom etmoqda.

Bizning, har xil avlod bolalari har xil o'yinlarni o'ynaydi, degan taxminimiz faqat qisman tasdiqlandi. Unutilgan o'yinlar ham aniqlandi. Bu «Chivin», «Shaharcha» («Chillak»), lapta, «Chexarda» («To'nka-to'nka») va boshqalar.

Tasdiqlovchi tajribamiz natijasi keyingi tadqiqotni o'tkazish hisoblanadi




1-rasm. Uch avlod harakatli o'yinlarining dinamikasi.

«Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni qo'llash» mavzusini tadqiq etish maqsadida Samarqand shahridagi 7ta umumta'lim maktabida 20 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'rtasida so'rovnoma asosida savol-javob o'tkazilgan edi.

So'rovnomaning tuzishda biz B.A.Ashmarin (1978), V.A.Yadov (1987), I.F.Devyatko (2002), F.A.Kerimov (2005), S.V.Nachinskayalarning (2005) ilmiy-uslubiy ishlarida bayon etilgan so'rovnoma tuzishdagi uslubiy tavsiyalarni qo'lladik. So'rovnomaning tuzilishi 3 qismdan iborat. Demografik qism (pasport ma'lumotlari) respondentlarning ma'lumoti darajasini, sport malakasini, ish stajini, yoshini, toifasini aniqlashga imkon berdi.

O'tkazilgan so'rovnomadan kelib chiqib aytish mumkinki, hamma o'qituvchilar harakatli o'yinlarni jismoniy tarbiya darslarida qo'llash zarur deb biladilar hamda javob berganlarning hammasi harakatli o'yinlar yordamida chaqqonlik, tezkorlik va boshqa jismoniy sifatlarni rivojlantirish mumkin deb hisoblaydilar, lekin ularning 10%igina harakatli o'yinlarni o'zlarining jismoniy tarbiya darslarida qo'llaydilar (2-rasm).



Tadqiqot natijalari va muhokamasi. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida jismoniy tarbiya o'qituvchilari orasida hozirgacha umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha yagona fikr yo'qligi aniqlandi, shu bilan bog'liq holda bu masalani o'rganish dolzarb hisoblanadi va har tomonlama o'rganib chiqishni talab qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga asosan shunday xulosaga kelish mumkin. Ma'lumki, bu soha bizning mamlakatimizda

davlat mustaqilligi sharoitida misli ko'rilmagan rivojlanishga ega bo'ldi. Xalqaro talablarga javob beruvchi ko'p sonli sport majmualari qurildi va ular yetarlicha samarali faoliyat yurityapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son qarori

2. M.I.Idrisov Aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi test me'yorlarining qiyosiy tahlili // University Sports: Health and prosperity of the nation 2022. T 1. C. 263 266 <https://scholar.google.ru/citations?>

Yengil atletika sport turida tayyorgarlik usullari

Zafar XUDAYKULOV
*Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti
"Jismoniy tarbiya va sport"
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada sport bilan shug'ullanuvchi har bir shaxsning jismoniy, ma'naviy, ruhiy jihatdan tarbiyalashda qaysi jihatlarga e'tibor berilish yo'l-yo'riqlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yengil atletika, sport, jismoniy rivojlanish, sog'lik, tarbiya, sportchi, sakrash, tayyorgarlik

Kirish. Har bir shaxs har tomonlama jismoniy rivojlanish, sog'liqni mustahkamlash va sportda muvaffaqiyat qozonib, o'z o'rnini topish uchun jismoniy va ma'naviy irodaviy jihatlarning asosiylarini rivojlantirish va tarbiyalash kerak bo'ladi. Ana shu sifatlarning asosiylarini rivojlantirish va tarbiyalash yengil atletikachilar tayyorgarligining muhim qismidir. Yengil atletikachilarning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish (jismoniy tayyorgarlik) – eng avvalo, sportchining har tomonlama va maxsus jismoniy rivojlanish jarayonidir. Shunga binoan jismoniy tayyorgarlik umumiy jismoniy tayyorgarlikka va maxsus jismoniy tayyorgarlikka bo'linadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Umumiy jismoniy tayyorgarlik deganda yengil atletikachining har tomonlama rivojlanishi, ya'ni harakatlanish apparatini rivojlantirish, organizm va tizimlarni mustahkamlash, ularning funksional imkoniyatlarini oshirish, boshqara olish qobiliyatini yaxshilash, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni oshirish, qomat va tana tuzilishidagi kamchiliklarni tuzatish nazarda tutiladi. Bunga erishish uchun turli xil harakat faoliyatida qatnashuvchi organizm organlari va tizimlari hamda tana qismlariga jismoniy mashqlar yordamida muntazam ta'sir etib turish zarur. Buning uchun esa yuqorida aytib o'tilgan 3 guruh mashqlardan, ayniqsa, turli xil umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik yengil atletikaning mazkur turini bajarish uchun nima talab etilishiga qarab, sportchi organizmining hamma funksional imkoniyatlarini, barcha organlar va tizimlarini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun, tabiiyki, tanlab olingan yengil

atletika sport turining mashqlari va maxsus mashqlardan foydalaniladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun ko'pgina umumiy ta'sir ko'rsatadigan mashqlardan, maxsus tayyorgarlik uchun esa aniq maqsadga yo'naltirilgan mashqlardan foydalaniladi. Lekin umumiy jismoniy tayyorgarlikda ham jismoniy rivojlanish, tana tuzilishi, qomatdagi ayrim kamchiliklarni yo'qotish uchun aniq yo'naltirilgan mashqlar qo'llaniladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi mashqlar asosiy rol o'ynaydi. Aynan shu jismoniy sifatlarda yengil atletikachining butun organizmidagi organlar va tizimlar ish qobiliyatiga asoslanib, uning harakat qilish imkoniyati aks etadi.

Yengil atletika sakrashlari ikki turga bo'linadi:

1) vertikal to'siqlarni yengib o'tish bilan sakrashlar (balandlikka sakrash va langarcho'pga tayanib sakrash);

2) gorizontal to'siqlarni yengib o'tish bilan sakrashlar (uzunlikka sakrash va uch hatlab sakrash).

Sakrash samaradorligi depsinish fazasida, sakrash natijaliligining asosiy omillari hosil bo'ladigan paytda aniqlanadi. Bunday omillarga quyidagilar kiradi:

1) sakrovchi tanasining boshlang'ich uchib chiqish tezligi;

2) sakrovchi tanasi UOMning uchib chiqish burchagi. UOMning uchish fazasidagi harakat yo'nalishi depsinish xususiyatiga va sakrash turiga bog'liq bo'ladi. Uch hatlab sakrash uchta uchish fazasiga, langarcho'pga tayanib sakrash esa uchish fazasining tayanch va tayanchsiz qismlariga ega. Yengil atletika sakrashlari o'z tuzilishiga ko'ra aralash turga taalluqlidir, Ya'ni bu yerda ham siklik, ham assiklik harakat elementlari mavjud. Sakrashni yaxlit harakat sifatida tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

– yugurib kelish va depsinishga tayyorlanish;

– harakat boshlanishidan tortib to depsinadigan oyoqni depsinish joyiga qo'yish paytigacha;

– depsinish (itarilish) – depsinadigan oyoqni qo'ygan paytdan boshlab, to uning depsinish joyidan uzilish paytigacha;

– uchish – depsinadigan oyoq depsinish joyidan uzilgan paytdan boshlab to yerga qo'nish joyiga tegish paytigacha;

– yerga tushish – yerga tushish joyiga tegish paytidan boshlab to tana harakati to'liq to'xtagunga qadar.

Yugurib kelish va depsinishga tayyorlanish. To'rt xil sakrash turlari (uzunlikka, uch hatlab, balandlikka, langarcho'pga tayanib sakrash) yugurib

kelishda o'ziga xos xususiyatlarga ega, lekin ma'lum bir umumiy tomonlari ham bor. Yugurib kelishning asosiy vazifasi – sakrovchi tanasiga sakrashga mos bo'lgan optimal yugurib kelish tezligini berish hamda depsinish fazasi uchun optimal sharoitlarni yaratish. Yugurib kelish depsinishga tayyorlanish boshlanishidan oldin siklik harakat tuzilishiga ega. Unda yugurish harakatlari yugurib kelishdagi harakatlardan bir oz farq qiladi.

Yugurib kelish maromi doimiy bo'lishi kerak, ya'ni uni urinishdan urinishga o'zgartirib turish kerak emas. Odatda yugurib kelish sportchida ayni paytda kuzatiladigan uning jismoniy imkoniyatlariga mos keladi. Tabiiyki, jismoniy funksiyalar yaxshilanishi bilan yugurib kelish o'zgaradi, tezlik, qadamlar soni oshadi (ma'lum chegaragacha), lekin yugurish maromi o'zgarmaydi. Bu o'zgarishlar sakrovchining ikkita asosiy jismoniy sifatlariga bog'liq, ularni parallel tarzda rivojlantirish zarur. Bu tezkorlik va kuchdir. Yugurib kelishning boshlanishi odatiy, har doim bir xil bo'lishi kerak. Sakrovchi yugurib kelishni, go'yoki start olgandek, turgan joyidan yoki yugurib kelish boshlanishining nazorat belgisigacha kelish bilan boshlashi mumkin.

Yugurib kelishda sakrovchining vazifasi nafaqat optimal tezlikka erishish, balki depsinadigan oyoqni itarilish joyiga aniq qo'ya bilish lozim, shuning uchun yugurib kelish, uning maromi va hamma harakatlar doimiy bo'lishi kerak. Yugurib kelishning ikkita variantini ajratish mumkin:

- 1) bir xil tezlanish bilan yugurib kelish;
- 2) tezlikni saqlab turishi bilan yugurib kelish.

Bir xil tezlanish bilan yugurib kelishda sakrovchi asta-sekin tezlik ola boshlaydi, uni yugurib kelishning oxirgi qadamlarida optimal darajagacha yetkazadi. Tezlikni saqlab turish bilan yugurib kelishda sakrovchi deyarli darrov, birinchi qadamlardan oq optimal tezlikni oladi, uni butun yugurib kelish davomida saqlab turadi, oxirida so'nggi qadamlarda uni biroz oshiradi. U yoki bu yugurib kelish variantining qo'llanilishi sakrovchining individual xususiyatlariga bog'liq.

Xulosa. Yugurib kelishning oxirgi qismining (depsinishga tayyorlanish) ajralib turuvchi xususiyati sakrash turiga bog'liq. Umumiy ajralib turuvchi xususiyati – yugurib kelish va yugurib kelish bo'lagida tana a'zolari harakatlari tezligining oshishidir. Yugurib kelib uzunlikka sakrashda depsinishga tayyorlanishda oxirgi qadamlarning uzunligi biroz kamayadi va ularning sur'ati oshadi. To'g'ri chizikli yugurib kelishga esa hamma usuldagi sakrashlarda (“hatlab o'tish”, “to'lqin”, “yumalab o'tish” (perekat), “to'ntarilib o'tish” (perekidnoy) depsinishga tayyorlanish oxirgi ikkita qadamda, qadam

tashlaydigan oyoq ancha uzunroq qadam tashlagan paytda (shu orqali UOMni kamaytirgan holda), deysinuvchi oyoq esa ancha qisqa tez qadam tashlaydi, bunda sakrovchi yelkasi UOM proyeksiyasi ortiga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi.- 2015. - 4-sentabr.
2. Andris E.R., Kudratov R.K. Yengil atletika: O'quv qo'llanma.-T.: O'zDJTI, 1998.
3. M.S.Olimov, N.T.To'xtaboev, I.R.Soliev, X.T.Ortiqov O'rta va uzoq masofalarga yugurish uslubiyoti.O'quv qo'llanma. Toshkent - 2015-yil 17-bet

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малакали кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш

Н.Р. САИДОВА
Ўқитувчи, ЎзДЖТСУ
Р.Т. КАЗОҚОВ
Ўқитувчи, ЎзДЖТСУ
А.А. АМАНЖОЛОВА
MR 01-20 гуруҳ талабаси, ЎзДЖТСУ
М.У. ҒАЙБУЛЛАЕВА
ShX-51-20 гуруҳ талабаси, ЎзДЖТСУ

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги Фармонининг 232-бандида жисмоний тарбия ва спорт соҳасида юқори малакали тренерлар ва бошқа мутахассисларни тайёрлашни йўлга қўйиш билан боғлиқ вазифалар белгиланган эди.

Бу бўйича қабул қилиниши назарда тутилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатда Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетининг Фарғона филиалини ва илмий-тадқиқот институтини ташкил этиш ҳамда Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳузуридаги Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни илмий-методик таъминлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш марказини университет тасарруфига бериш масаласи кўзда тутилганди.

Шунингдек, 2020/2021 ўқув йилидан бошлаб Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент фармацевтика институти ва бошқа олий таълим муассасаларида спорт тиббиёти, фармакологияси, реабилитологияси, психологияси ва диетологияси, Тошкент тиббиёт академияси ҳамда Андижон, Бухоро ва Самарқанд тиббиёт институтлари магистратурасида “Диетология” ва “Нутрициология (овқатланиш илми)” мутахассисликлари бўйича кадрлар тайёрлаш йўлга қўйиш, хорижий олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда соҳада малакали мутахассислар тайёрлаш, профессор-ўқитувчилар малакасини ошириш бўйича алоқаларни йўлга қўйиш чора-тадбирларини амалга ошириш белгиланганди.

Давлат раҳбарининг 2020 йил 3 ноябрда қабул қилинган “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори билан Давлат дастурида белгиланган ушбу вазифаларнинг ижроси таъминланиши баробарида, жисмоний тарбия ва спорт соҳаси мутахассисларини тайёрлаш ҳамда спортни оммалаштиришга қаратилган қатор масалалар ўз ечимини топадиган бўлди. Қарорга биноан, Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетининг Фарғона филиали, Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетининг Спортчиларнинг техник-тактик, психофизиологик ҳолатини ўрганиш ва таҳлил қилиш бўйича махсус илмий лабораторияси негизида Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети ҳузуридаги Жисмоний тарбия ва спорт илмий тадқиқотлар институти ташкил этилади.

Қуйидагилар филиалнинг асосий вазифалари этиб белгиланди:

– олий таълим сифатига қўйиладиган халқаро талабларга мувофиқ, жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш соҳасидаги вазифаларни юқори даражада бажаришга қодир малакали кадрлар тайёрлаш;

– хизматлар ва соғломлаштириш тармоқларини ривожлантиришнинг илмий-технологик вазифаларини ҳал этиш, илғор хорижий тажрибадан фойдаланган ҳолда спорт соҳасига йўналтирилган илмий-амалий тадқиқотлар олиб бориш ва илмий ишланмаларни амалиётга татбиқ қилиш;

– ўқув ва илмий лойиҳаларни амалга ошириш, таълим ва илмий изланишлар жараёнига мутахассисларни кенг жалб этиш мақсадида ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш соҳаларидаги республика ва хорижий етакчи олий таълим муассасалари ҳамда илмий марказлар билан ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш;

– олий таълим тизимига замонавий таълим технологияларига асосланган ўқув жараёнларини жорий қилиш бўйича илғор хорижий тажрибаларни татбиқ этиш, жисмоний тарбия ва спорт соҳаси учун кадрлар тайёрлаш тизими ҳамда очик, ахборот-таълим муҳитини ривожлантиришга кўмаклашиш.

Шу билан бирга, Университет ҳузурида жамоатчилик асосида доимий фаолият юритадиган Республика илмий-услубий кенгаши ташкил этилиб, унинг асосий вазифалари сифатида қуйидагилар белгиланди:

– жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат ташкилотлари ҳамда спорт федерациялари (уюшмалари) фаолиятининг самарадорлигини ошириш ишларини мувофиқлаштириш;

– жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги спорт-таълим муассасаларида машғулотлар ўтказишнинг услубий асосларини ташкил этиш;

– жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқишда иштирок этиш ва илмий жиҳатдан асослаш бўйича хулосалар бериш;

– спорт соҳасида фаолият юритаётган етакчи мутахассисларни ва илмий ходимларни жалб этган ҳолда ишчи комиссиялар ва эксперт гуруҳларини ташкил этиш.

Қарорга мувофиқ, Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетида олий маълумотли кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича “Йўл харитаси” тасдиқланди. Ўзбекистон Республикаси таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича давлат комиссияси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳамда Соғлиқни сақлаш вазирлигининг таклифлари асосида 2021/2022 ўқув йилидан бошлаб Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент фармацевтика институти ва бошқа олий таълим муассасаларида спорт тиббиёти, фармакологияси, реабилитологияси, психологияси ва диетологияси, Тошкент тиббиёт академияси ҳамда Андижон, Бухоро ва Самарқанд тиббиёт институтлари магистратурасида “Диетология” ва “Нутрициология (овқатланиш илми)” мутахассисликлари бўйича кадрлар тайёрлаш юзасидан ташкилий чораларни амалга ошириш назарда тутилган.

Мухтасар айтганда, мазкур Қарор Давлат дастури ижросини таъминлаш, жисмоний тарбия ва спорт соҳасида халқаро стандартларга мувофиқ комплекс билимларга эга малакали кадрлар тайёрлаш сифатини яхшилаш, спортда илм-фанни жадал ривожлантириш, юқори малакали рақобатбардош тренер-ўқитувчилар, мутахассислар ҳамда илмий ходимларни тайёрлаш жараёнларини янада такомиллаштиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Kazoqov R, Jo'raqo'zиеv O, Eshpo'latov S. Қисқа масофага югурувчи спортчиларнинг машғулот даврларини тузилиши //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-11.

2. Р.Т Казоқов, Ш.Қ Бекназаров, Ибодов, А.И. Футболчиларнинг антропометрик ўлчамлари ва тезлик сифатлари орасидаги корреляциясини ўрганишда акт дан фойдаланиш. Тиббиёт ва спорт 1 (10), 27-30.

3. Казоқов Р.Т, Бўриев Б.Ў, Абдиев Б.Ш, Джўрабаев А.М, Туропов А.Р. Кураш миллий спорт турини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари // Миллий кураш турлари ва уларнинг назарий-амалий муаммолари. - 2023. - Т. 1. - №. 2. - С. 161-163.

4. Джўрабаев А. М, Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"ga bag 'ishlangan. - 2021. - Т. 4. - №. 4. - С. 198-208.

5. Казоқов Р. Т, Расулов А. Ғ, Бўронов А. Б. Спорт мактаблари ўқув машғулоти гуруҳларида ёш футболчиларни танлов услубиятларини асослаш //Академические исследования в современной науке. - 2023. - Т. 2. - №. 15. - С.38-46.

Kazoqov R. T, Bo'ronov A. B. Sportdagi dolzarb yangiliklar //Академические исследования в современной науке. - 2023. - Т. 2. - №. 15. - С. 47-56.

Yoshlar va futbol

Akmaljon TURAQULOV
Namangan davlat universiteti
Arxivshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Yoshlarning futbol bilan mashg'ul bo'lishlari ularning salomatliklari, vaqtlarini mazmunli o'tkazishdan tashqari kreativ fikrlash, qoidalarini hurmat qilish, jamoaviylik kabi sifatlarini shakllantirishi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sport, jismoniy tarbiya, futbol, kreativ fikrlash, egoizm, deviantlik, ommaviy axborot vositalari, sh. mirziyoyev, d. simpson, chaplin.

“Sportda insonning ijtimoiylashuvida asosiy rol ni ota-onalar, aka-ukalar, tengdoshlar, o'qituvchilar, murabbiylar va ommaviy axborot vositalarida paydo bo'lgan elita sportchilar o'ynaydilar”¹.

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib, mazkur jarayonda ota-onalar va aka-ukalar ta'siri pasayib, murabbiylar hamda mashhur sportchilarning ahamiyati oshib bordi. Bunda albatta, ommaviy axborot vositalarining roli yuqori hisoblanadi. Odatda, sport orqali shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlarining ahamiyati yuqoridir. Bunga misol sifatida, maktablardagi “Jismoniy tarbiya” darslari va davlat tomonidan tashkil etiladigan hamda qo'llab-quvvatlanadigan bolalar ishtirokidagi sport musobaqalarini keltirish mumkin. Sport yosh qiziquvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash, jamoada ishlash, xulq-atvorga o'rgatish va yetakchilik sifatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Raqobatli sport turlari bilan shug'ullanish yoshlarda kuchli hayot saboqlarini shakllantiradi, ularning ijtimoiy va ruhiy barqarorligiga xizmat qilish bilan bir paytda uning iste'dodini yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Sport musobaqalarida muntazam ishtirok etish yoshlarda odob-axloq sifatlarini shakllantirish bilan bir qatorda o'yin qoidalariga rioya etish orqali jamiyatdagi qonunlarni hurmat qilish va ulardan chiqmaslik kabi sifatlarini shakllantiradi. Sport zamonaviy bugungi jamiyatda barcha hududlarda mavjud. Bu bilan u jamiyatda mavjud bo'lgan bir qator me'yor va qadriyatlarini aks ettiruvchi va shu bilan birga o'ziga xos ko'nikmalar, bilimlar, me'yorlar va qadriyatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy rolga ega bo'lishi kerak.

Jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvida futbol sport turining o'ziga xos roli bo'lib, boshqa sport turlariga solishtirganimizda salmoqli o'rinni egallaydi. Futbolning boshqa sport turlaridan quvnoqligi, qoidalarining o'ziga xosligi va

¹ Бригетти В., Ева Т. Паул становится звездой футбола. – Минск: Вилли Винки, 2018. – С. 22.

tushunarligi bo'yicha soddaligi ko'pchilikni mazkur sport turi atrofida jamlanishiga xizmat qiladi². Yana qo'shimcha sifatida shuni qayd etish mumkinki, dunyoning ko'plab bolalar kiyimlari ishlab chiqaruvchi kompaniya va firmalari ishlab chiqaradigan yoshlarga mo'ljallangan mahsulotlari aynan futbol o'ynashga qulayligi va undagi suratlarda futbol mavzusiga ko'p murojaat qilinganligi ham ushbu sport turining yoshlar o'rtasida roli oshib borishiga xizmat qiladi. Futbol shug'ullanish uchun ham ko'cha yoki mahalla sharoitida o'ynash eng qulay sport turi hisoblanadi.

Shuningdek, jamoa tarkibida harakatlanayotgan yoshlar turli ijtimoiy qatlarga mansub oila vakillari yoki boshqa millat, turli din vakillari bo'lishi mumkin, lekin jamoa bo'lib birlashishda mazkur jihatlar o'z ahamiyatini yo'qotadi va ijtimoiy tenglik faktori asosiy planga chiqadi. O'yin jarayonida yoshlar futbol harorati, kayfiyati va tilida muloqotga kirishadi. "Ushbu sport tushunarli, universal muloqot tili bo'lib, jinsi, yoshi, dini, madaniyati va etnik kelib chiqishi bo'yicha cheklovlarga ega emas. Futbol dunyodagi eng mashhur sport turi sifatida 200 milliondan ortiq odamni birlashtirgan bo'lib o'rtacha jahonda yiliga 20 milliondan ortiq o'yin o'tkazilmoqda"³.

Ba'zilar futbol aldovga asoslangan sport turi, degan qarash mavjud. Aslida, futbol o'ynagan bola eng avvalo, kreativ fikrlash, vaziyatdan chiqib ketish yo'llari, jamoadoshlarini qo'llab-quvvatlash va ularga vaziyatlar yaratib berishni o'rganadi. D. Simpson ta'rifi bilan ifodalaganda, kreativlik shaxsning o'ziga xos yangi g'oyalar yaratishi, an'anaviy va odatiy bo'lgan tafakkur qoliplaridan chetga chiqib, original qarorlar qabul qilishidir. Futbol jismoniy rivojlanish bilan bir qatorda, o'ynovchilarda fikrlash qobiliyatini shakllanishida muhim o'rin tutadi. Charli Chaplin aytganidek, fikrlash qobiliyati skripka yoki royal chalishga o'xshaydi. U bilan muntazam mashg'ul bo'lish talab etiladi. Futbol o'yining jismoniy kuch bilan birgalikda aqlga asoslanganligi ham boshqa sport turlaridan ajratib turishini nazarda tutgan edi.

Shaxsda futbol orqali rivojlanadigan yana bir jihat jamoa himoyalayotgan bir paytda hujum chizig'i vakillarining ham mudofaa vakillariga yordamga kelishlari o'z darvozalari daxlsizligini saqlashda bevosita ishtirok etishlaridir. Futbolchi o'ziga belgilangan vazifani bajarish bilan bir qatorda jamoadoshlarini qo'llab-quvvatlashlari futbolda eng qadrlanadigan sifat hisoblanadi. "Olim Ashirov gavda tuzilishi atletikachilarday kelishgan

² Черданцев Г. В. Албука футбола. Увлеки своего ребёнка самой популярной игрой!. Времена. – Москва, 2021. – С. 3.

³ Gerry Finn Richard Giulianotti. Football culture local conflicts, global visions....- P. 3.

futbolchi edi, sheriklarini ishonchli ravishda qo'llab-quvvatlardi, o'yinni yaxshi olib borardi, tez-tez hujumga o'tib, gollar urardi"⁴. Jamoadoshlarini qo'llab-quvvatlash boshqa sport turlariga nisbatan futbolda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoaviylikning qarama-qarshi tomoni bu albatta, egoizmdir. "Egoizm – o'z manfaatini boshqa kishilar manfaatidan yuqori qo'yish"⁵dir.

"Yoshlar hayotiga xavf solayotgan deviantlik xulq-atvor ta'sirini kamaytirishdagi eng samarali yo'l – ularni futbolga jalb etishdir. Futbol ulardagi o'ziga bo'lgan ishonchni maydonda namoyish etish, qoidalardan chiqmaslik va jamoani hurmat qilishga yo'naltiradi"⁶. Yoshlar o'rtasida deviantlik (ijtimoiy me'yorlardan og'ib ketuvchi xatti-harakat"⁷) g'oyalarining ortishida futbol o'ziga xos immunitet vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyat uchun turli salbiy g'oyalarni tarqatuvchilar va unga ergashuvchilar ko'paygan bir paytda, futbol yoshlarni ruhan va jismonan sog'lom rivojlanishlarida muhim soha hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlagan edik: "Farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat manbai bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yot bo'lgan g'oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman"⁸.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, yoshlarni sport bilan, xususan, futbol bilan muntazam mashg'ul bo'lishlari salomatlik bilan bir qatorda kelajakda jamiyatda o'z o'rinlarini topishlarida, qaysi sohada faoliyat olib borishlaridan tashqari ularni sog'lom fikrlashlariga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 469.

2. Бригетти В., Ева Т. Паул становится звездой футбола. – Минск: Вилли Винки, 2018. – С. 22.

3. Черданцев Г. В. Азбука футбола. Увлеки своего ребёнка самой популярной игрой!. Времена. – Москва, 2021. – С. 3

4. Gerry Finn Richard Giulianotti. Football culture local conflicts, global visions.... – P. 3.

⁴ Олег Базилевич. Мысли о системе или футболе. – Киев: Украинский писменник, 2013. – С. 17.

⁵ Штринер М., Ницше Ф. Этика эгоизма – нет ничего выше меня. – Москва: Литературный, 2020. – С. 5.

⁶ Eric M. Boys Gone Wild: Fame, Fortune, And Deviance Among Professional Football Players. – Lanhan, Maryland: UPA. 2009. – P. 110.

⁷ Хуцишвили К. Девиант. – Москва: Рипол-Классик, 2012. – С. 10.

⁸ Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 469.

5. Олег Базилович. Мысли о системе или футболе. – Киев: Украинский писменник, 2013. – С. 17.

6. Штринер М., Ницше Ф. Этика эгоизма – нет нечего выше меня. – Москва: Литературный, 2020. – С. 5.

7. Eric M. Boys Gone Wild: Fame, Fortune, And Deviance Among Professional Football Players. – Lanhan, Maryland: UPA. 2009. – P. 110.

8. Хуцишвили К. Девиант. – Москва: Рипол-Классик, 2012. – С. 10

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sportni ommalashtirish

Mexrinoz SAYFUTDINOVA
*Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili
va adabiyoti fakulteti talabasi*

Muqimjon AXUNOV
*Andijon davlat chet tillari instituti
(Ilmiy rahbar)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda sportni ommalashtirish va uni targ'ib qilish haqida so'z boradi. Shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda aynan sport musobaqalarning o'rniga, imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasida kibersportni xavfsiz rivojlantirishga urg'u berilgan. Bugungi kunda yoshlarni ilm va sportga yo'naltirish muhim ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zakovat, quvnoqlar va zukkolar, yosh kitobxon, yosh kitobxon oila, sport, kibersport, tennis, voleybol, futbol, shaxmat.

So'ngi yillar mobaynida yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha hukumat tomonidan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shular jumlasidan, endilikda sportni ommalashtirish uni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish, kibersport, «Zakovat» hamda shu kabi turli tadbir va sog'liq uchun foydali mashg'ulotlarni keng ommalashtirish asosiy vazifa qilib olindi. Hech birimizga sir emaski, bugungi kunda voyaga yetmagan yoshlar orasida turli xil og'ir va yengil jinoyatlarni bilib yoki bilmasdan qilish avj pallasiga yetgan. Shuning uchun ham yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ularni ilmga va sportga yo'naltirish kerak. Bu bir tarafdin yoshlarning kelajagi uchun foydali bo'lsa, ikkinchi tarafdin esa turli xil huquqbuzarliklarni ham oldini oladi. Shuningdek hozirda, ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish borasida -- «Zakovat» musobaqasi , «Quvnoqlar va Zukkolar», «Zukko kitobxon» , «Yosh kitobxon» , «Yosh kitobxon oila» , «Xorijiy tillar bilimdoni» va «Yosh poliglot» tanlovlari hamda «Munozara» intellektual va milliy xalq o'yinlari tashkil etilishi ko'plab yoshlarni bo'sh vaqtlarini ilm-fanga bag'ishlashiga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi «Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-201-son qarorida O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o'tkaziladigan «Yoshlar forumi» doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, yengil atletika,

shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etilishi belgilab berildi. Unga ko'ra, birinchi bosqichda — ko'chalararo mahalla musobaqalari; ikkinchi bosqichda — mahallalararo sektor musobaqalari; uchinchi bosqichda — sektor musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida tuman (shahar) musobaqalari;

to'rtinchi bosqichda — tuman (shahar) musobaqalari g'olib mahalla jamoalari o'rtasida viloyat musobaqalari;

beshinchi bosqichda — viloyat musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida respublika (final) musobaqalari o'tkaziladi.

Bunday musobaqalarning asosiy maqsadi shuki, yoshlarni bo'sh vaqtlarida ularni sportga jalb qilish, natijada esa ularni sog'lom hayotga qaytarishdir. Turli-tuman yomon illatlardan holi bo'lgan holda hayot tarzini olib borishlikdir. Qolaversa mazkur qaror doirasida o'tkazilgan musobaqalarning g'oliblariga mukofotlar, faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alar berilishi yoshlarni yanada ko'proq o'z ustida ishlab bundanda yuqori marralarni egallashga undaydi.

Bundan tashqari, bugungi kunda imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasida ham sportni ommalashtirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Ular o'rtasida paraolimpiadalarni tashkillashtirish, parasport turlarini kengaytirish, yaratib berilayotgan imkoniyatlarni yaxshilashga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. «Kibersport turlarini yanada rivojlantirish va keng ommalashtirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi qarori ham nogironligi bo'lgan yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga sabab bo'la oladi. Negaki, kibersport deyarli hech qanday jismoniy harakat talab qilmaydi va bu esa imkoniyati cheklangan yoshlar uchun qulay sport turidir. Ularni shu kabi sport turlariga jalb etish va kibersportni xavfsiz rivojlantirish, musobaqalar tashkil etish albatta yaxshi natija beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sportni yoshlar orasida targ'ib qilish orqali nafaqat ularni bandlik bilan ta'minlashga balki ularni birlashtirishga turli-xil jinoyatlarsiz sog'lom hayot tarzi bilan yashashiga erishish mumkin. Vatanimizning ravnaqi yo'lida esa barcha yoshlarni birlashishi va bir manzil tomon yo'l olishi bu -- muhim qadam bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmatov M. Ommaviy sport musobaqalarida boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish. //Iqtisod va ta'lim, 2003, №1. B.60-69.
2. Баринов С.Ю. Инновационная система спортивного воспитания студентов: методическое пособие для преподавателей. М.: Университетская книга, 2009. 182 с.
3. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi O'RQ-394-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3031-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi «Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-201-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. Toshkent sh., 2020-yil 30-oktabr, PF-6099-son.

“YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI
AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI: MAVJUD VAZIYAT VA
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”

mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
(23-iyun 2023-yil)
MAQOLALAR
TO'PLAMI



O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash instituti

TOSHKENT – 2023